ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ

ШОИСЛОМ ШОМУҲАМЕДОВ НОМИДАГИ ЁШ ШАРҚШУНОСЛАРНИНГ VI ФОРУМИ МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

16 АПРЕЛЬ 2022 ЙИЛ

ТОШКЕНТ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“INSON QADRINI ULUG‘LASH VA FAOL MAHALLA YILI”GA BAG‘ISHLAB O‘TKAZILGAN

SHOISLOM SHOMUHAMEDOV NOMIDAGI YOSH SHARQSHUNOSLARNING VI FORUMI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2022-YIL 16-APREL

Toshkent – 2022

Ushbu to‘plamda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan Shoislom Shomuhamedov nomidagi Yosh Sharqshunoslarning VI Forumi materiallari jamlangan.

Mas’ul muharrir:
tarix fanlar doktori, dotsent **Durbek Sayfullayev**

Tahrir hay’ati:
fil.f.d., prof. Sh.Shomusarov
fil.f.d., prof. Sh.Usmonova
fil.f.d., dots. D.Muhiddinova
t.f.n. R.Alimova
i.f.n. N.Xolmatov
PhD. S.Mustafayeva

Nashrga tayyorlovchilar:
PhD, Laziz To‘rayev
Islomxo‘ja Karimov

Mazkur to‘plam 2022-yil 7-apreldagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 8-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar
va mualliflar mas’uldir.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022

USTOZ SHOISLOM SHOMUHAMEDOV MENING TAQDIRIMDA

1966-yil Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zMU) sharq fakulteti afg‘on bo‘limini imtiyozli tugatdim. Dekanimiz Sh.M.Shomuhamedovning tavsiyalari bilan taqsimot hay’ati meni fakultetda ishda qoldirdi va men laborant lavozimida ish boshladim.

Shu yili aprel oyida Toshkentda juda kuchli zilzila sodir bo‘ldi. Shaharning deyarli barcha imoratlari, xususan, uning markazida joylashgan aksariyat uy-joylar, davlat tashkilotlari binolari jiddiy talofot ko‘rdi. Uning silkinib turishi to oktyabr oylarigacha davom etib turdi. Vujudga kelgan vaziyat sababli o‘sha yili ilm yo‘lini tanlagan ko‘plab o‘zbekistonlik yoshlarni sobiq ittifoqning Moskva, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg), Novosibirsk va boshqa ilmiy markazlarning aspiranturasiga yuborishga qaror qilindi. O‘sha kezlarda sharqshunoslik sohalari bo‘yicha eng yirik ilmiy markazlar Moskva va Leningradda joylashgan edi.

Sharq fakulteti yosh o‘qituvchilarining bir guruhi Moskvaga o‘qishga yuborilishi lozim deb topildi. Moskvaga o‘qishga yo‘llanma olganlar qatoriga ustoz Sh. Shomuhamedovning tavsiyalari bilan men ham kirib qolgan edim.

Ko‘rsatma bo‘yicha biz Moskvaga 25 sentyabrgacha yetib borishimiz va kirish imtihonlarini topshirishimiz lozim edi. Lekin, men dekabrning 10-sanasigacha Moskvaga borolmas edim, chunki men Afg‘onistonda Kobul universitetida olti oylik o‘qishda bo‘lib, oxirgi kursda o‘tiladigan majburiy harbiy amaliyotdan qolib ketgan edim. Xullas, keyingi kurs talabalari bilan dekabrning boshlarigacha Toshkent viloyatida harbiy amaliyotda bo‘lib, imtihonlarni topshirdim va 3 dekabrda fakultetga qaytdim. Domla Sh.M.Shomuhamedov meni bir necha bor so‘raganlarini aytishdi. Oldilariga chiqdim. U kishi tezda Moskvaga borishimni, aks holda aspiranturadan qolib ketishimni tayinladilar.

1966-yil 10-dekabr Moskvaga uchib borib, SSSR FA Sharqshunoslik institutining aspirantura bo‘limiga kirdim. Bo‘lim boshlig‘i yoshi 70larga borgan M.R.Baranov meni yaxshi qabul qildi.

Lekin u menga tasodifan kirish imtihonlari tugab qolganligini aytib qoldi. Bu men uchun kutilmagan noxush xabar edi. Bu xabardan tilim kalimaga kelmay qoldi. Nima deyarimni bilmay tushkun holatda bo‘lim boshlig‘iga qarab turaverdim. U, endi 24ga kiribsan, hali hammasi oldinda, deb meni yupatgan bo‘ldi. Ammo meni holatimni ko‘rib, sen 2 soatlardan keyin meni yonimga kir, biror narsa o‘ylab toparmiz, deb ko‘nglimga umid soldi.

Aytilgan vaqtda M.R.Baranovning yoniga kirdim. Kirishim bilan «men Akademiyaning ilmiy kotibi bilan sening masalangni gaplashdim, u seni bizning institutda Toshkent davlat universiteti kvotasi hisobidan (komandirovanniy) o‘qishingga rozi, tezda Akademiya Prezidiumiga borib, u kishiga uchrash» deb, menga manzil va xonalarini yozib berdi.

Men uchun Moskva, uning ko‘chalari mutlaqo notanish edi. Tashqarida sovuq izillatar, yarim metrdan ko‘proq qor qoplagan. Menga o‘sha yili mendan oldinroq aspiranturaga qabul qilingan Arab kafedrasining yosh o‘qituvchisi Karimov Akbar yordam berib, SSSR Fanlar Akademiyasining binosiga olib bordi. Aytilgan ilmiy kotib (akademik Kudryavtsev) meni ochiq chehra bilan qabul qildi va Toshkent hisobidan Moskvada o‘qishimga roziligim bor - yo‘qligini so‘radi. Men ikkilanib turgan edim u «Toshkentdagi dekaningizning telefoni bormi», - deb so‘radi. Shoshib yon daftarimdan ustoz Sh.Shomuhamedovning shahar telefonlarini berdim. Akademik domlaga telefon qildi. Baxtimga domla joylarida ekanlar. U kishi meni Moskvada, albatta, o‘qishim kerakligini bildirib, rozilik berdilar. Akademik meni tabrikladi va zudlik bilan M.R.Baranovning oldiga borib kirish imtihonlarini rasmiylashtirishni aytdi. M.Baranovning yoniga Akbar Karimov bilan qushdek uchib bordik. Mixail Romanovich menga imtihon varaqalarini berib, kimga qachon nimalarni topshirishim kerakligini aytib, imtihon komissiyasiga a’zo bo‘lgan olimlarning oldiga birga olib borib, ularga vaziyatni tushuntirdi.

Birinchi imtihonim mutaxassislik fanidan edi. Uni yirik sharqshunos, eronshunos, afg‘onshunos olimlar M.N.Osmanov, G.F.Girs, (bu kishi keyinchalik mening ilmiy rahbarim bo‘lgan) va

A.S.Gerasimovga adabiyotshunoslik nazariyasi va afg‘on adabiyoti masalalariga doir uchta 4 savol asosida topshirib, a’lo baho oldim. Qolgan ikki kun ichida ingliz tili va partiya tarixi fanlarini ham muvaffaqiyatli topshirdim. Aspirantura bo‘limi boshlig‘i menga Toshkentga tezda uchib borib, imtihon natijalari asosida seni aspranturaga qabul qilinganliging va Moskvaga jo‘natilayotganliging haqidagi buyruq nusxasini telegramma orqali jo‘natishimni buyurdi.

Men 17-dekabrda Toshkenga uchib kelib to‘g‘ri universitimizning Inqilob xiyobonida (hozirgi Amir Temur hiyoboni) joylashgan ma’muriy binosiga borib, aspirantura bo‘limiga kirdim va bo‘lim boshlig‘iga bo‘lgan voqealarni aytib, qo‘limdagi imtihon natijalarini topshirdim.

Ammo meni taqdirimni uzil-kesil hal qiladigan masala tamoman boshqacha tomonga qarab ketdi. Ya’ni bo‘lim boshlig‘i (ismi sharifi yodimda yo‘q) mening gaplarimni va qo‘liga tutqazgan qog‘ozimni istar-istamas qo‘liga oldida, tanishib chiqib, menga qarab rus tilida «Sen kech qolding, aspiranturaga qabul vaqti tugagan, endi kelasi yil kelasan», deb qoldi. Yana kutilmagan holat, tushuntirishga, iltimos qilishga harakat qildim. U beparvolarcha «bo‘ldi, ketaver», degandek ishora qildi. Butun vujudim bo‘shashib, sudralib, uning xonasidan chiqdim. Miyamda bitta savol aylanar edi: endi nima bo‘ladi, hammasi tamommi?

Shu ahvolda rektorat oldidan o‘tib tashqariga olib chiqadigan uzun yo‘lakdan chuqur tushkunlik va xayolchanlik bilan borayotgan edim, tasodifan yo‘lakning u boshidan kelayotgan ustoz Sh.M.Shomuhamedovga ko‘zim tushdi. Ko‘nglim, butun borlig‘im yorishib, quvonchga to‘lgandek bo‘ldi.

Ustozning menga ko‘zlari tushishi bilanoq «qachon keldingiz, ishlaringiz nima bo‘ldi?» - deb jiddiy so‘radilar. Oldilariga borib, aybdordek, boshim egik holda, asta u kishiga bo‘lgan voqeani so‘zlab berdim. Meni eshitib doimo nur yog‘ilib turadigan chehralarida qandaydir isyonkorlik alomati paydo bo‘ldi, menga qarab, qani yuring, deb rektor xonasi tomon boshladilar. Kotibaga kelganlarini rektorga yetkazishini so‘radilar, kotiba «Sizni kutayotkan edilar, kiravering», dedi. Nazarimda rektorga birinchi mening masalamni tushuntirdilarmi,

har holda ko‘p o‘tmay qaytib chiqib menga «qani yuring», deb rektorga, S.X.Sirojiddinov yonlariga olib kirdilar. Sa’di Hasanovich Sirojiddinov universitetga 1966-yil aprel oyida rektor qilib tayinlangan edilar. U kishi mashhur matematik olim, akademik, shu bilan birga adabiyotni chuqur biladigan, ilmiy ma’naviy meroslarimizni yuksak qadrlaydigan inson edilar. U kishi meni ochiq chehra bilan qarshi oldilar. Aynan shu holatda menga qarab «men hammasini eshitdim, siz davlat stipendiyasiga ega bo‘lgan umidli talabalarimizdansiz, siz albatta o‘qishingiz, domlangizga o‘xshab taniqli sharqshunos bo‘lishingiz kerak, sizga muvaffaqqiyat tilayman», dedilar va kotibani chaqirib aspirantura bo‘limi boshlig‘i va prorektor V.Belyaevni tezda topishni buyurdilar. Men xijolat chekib bir chekkada chiqishimni ham, qolishimni ham bilmay noqulay ahvolda edim. Buni sezgan domla shu yerda turib turing, degan imoni qildilar va o‘zlari rektor bilan kulishib, qaysidir voqea haqida gaplashib o‘tirdilar.

Ko‘p o‘tmay prorektor V.A.Belyaev va aspirantura bo‘limi boshlig‘i kirib kelishdi. Sa’di Hasanovich Sirojiddinov avval V.A.Belyaevga, so‘ng aspirantura bo‘lim boshlig‘iga yuzlanib: «bu yosh yigitning hamma muammosini tezda hal qiling. U Moskvaga borib o‘qishi kerak, kech qolmasin, dedilar» va «22-dekabr soat 15:00 ga menga bu haqidagi buyruqni olib keling, dedilar. Aspirantura bo‘limi boshlig‘ining qovog‘i uyuldi, Belyaevga «bu yog‘i nima bo‘ldi», degandek qaradi. Belyaev ham jim edi. Rektor Belyaevga «Siz qoling», dedilar.

Bo‘lim boshlig‘i meni boshlab xonasiga olib bordi va lom-mim demay uchta fan nomi yozilgan kirish imtihonlari varaqasini qo‘limga tutqazdi va ruschalab « Я ничего не знаю, если успееш, сдавай все эти экзамены, а список экзаменационных комиссий имеюця на соотвецтвующих кафедрах», dedi. Men bu fanlardan imtihonlarni Moskvada topshirib keldim-ku, desam « это для нас не документ, всё сдашь заново» dedi, qo‘pollik bilan. Xullas, men uch kun ichida uchchala imtihonni qaytadan ikkita «a’lo», bitta «yaxshi» baholarga topshirib, natijalarini aspirantura bo‘limiga olib borib berdim. Bu 21-dekabr edi, 22-dekabr rektor buyrug‘i bilan men aspiranturaga qabul qilindim va Moskvaga yo‘llanma oldim.

Moskvada mening ilmiy rahbarim etib fan nomzodi, lekin o‘z tadqiqotlari va monografiyalari bilan nafaqat sobiq ittifoqda, balki Afg‘onistonda, Pokistonda va boshqa sharqshunoslik 5 markazlariga yaxshigina tanilgan iste’dodli olim va nihoyatda yuqori madaniyatli, odamshavanda inson Georgiy Fedorovich Girs tayinlandi. Men G.F.Girsning birinchi shogirdi edim, shu paytgacha u kishida boshqa aspirant bo‘lmagan ekan.

Men u kishiga mashhur afg‘on klassik shoiri Xushholxon Xatak ijodi haqida diplom ishini yoqlaganligimni aytib, aynan shu shoir bo‘yicha tadqiqot olib bormoqchi ekanligimni aytdim. Bo‘lg‘usi ilmiy rahbarim qarshi emasligini, ammo bu mavzu bo‘yicha prof. N.A.Dvoryankovning bir afg‘onistonlik shogirdi ilmiy ish qilayotganini aytdi.

Xullas, ilmiy mavzu masalasi ham mening «foydamga» hal bo‘lmadi. Men haqiqatdan ham Xushholxon Xatak ijodiga ancha kirib borgan edim. Afsuski, boshqa mavzu ustida ishlashga to‘g‘ri keldi.

Ilmiy rahbarim afg‘on mumtoz adabiyotining ilk davri bilan bog‘liq rovshaniy sufiy adabiyoti masalalari bilan shug‘ulanishimni taklif qildi va bu ish nihoyasiga yetsa afg‘onshunoslikdagi birinchi ish bo‘lishi mumkinligini tushuntirdi. Men rozi bo‘ldim va shu davr bilan bog‘liq manbalar va asarlar ichiga sho‘ng‘ib ketdim. Mavzu: «XVI-XVII asr afg‘on adabiyotida tasavvufiy panteistik jarayon» deb nomlandi.

Ish o‘z vaqtida, 22-dekabr 1969-yil, rosa uch yilda nihoyasiga yetdi. Muhokamaga ko‘ydim. Ish himoyaga tavsiya qilindi. Ammo, shu o‘rtada yana bir muammo paydo bo‘ldi – himoya uchun yangi talab bo‘yicha yana bitta maqola bo‘lishi kerakligi ma’lum bo‘ldi. O‘sha paytda mening ikkita maqolam nashr etilgan, uchinchisi esa bir to‘plamga topshirilgan edi lekin, nashr etilishi cho‘zilib ketdi. Muddat tugaganligi uchun Toshkentga qaytib keldim. Toshkentga keliboq domlaga uchrashdim. U kishi «chatoq bo‘libdi, oldinroq aytmaysizmi, maqola masalasining chorasini ko‘rar edik», dedilar va mendan so‘radilar: «biron bir tayyor maqolangiz bormi?». Men tez tayyorlab beraman, dedim. Ammo maqola jurnalda yoki to‘plamda chiqishi kerak ekan. Gazeta maqolasi o‘tmas ekan, – dedim. «Siz maqolani tayyorlab

kelavering, men o‘ylab ko‘raman», dedilar. Men maqolani tayyorlash bilan birga avtoreferatimni tugatish ustida ham tinimsiz ishladim. Shu o‘rtada domla menga yarim stavka o‘qituvchilik lavozimini ham «undirib» berdilar. Filologiya fakultetining kechki bo‘limiga hamda o‘zimizning sharq fakultetining arab bo‘limi talabalariga fors tilidan ikkinchi til sifatida dars bera boshladim.

Maqola ham tayyor bo‘ldi, ammo uni jurnalda chop ettirish katta muammo tug‘dirdi. Chunki, maqola mavzusi diniy-tasavvufiy masalalar bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun sovet, kommunistik mafkura hukmron bo‘lgan paytda, ayniqsa, O‘zbekistonimizda bunday mavzuda biron narsa nashr etish o‘ta qiyin ish edi. Vaqt o‘tib borar, Moskvadan esa ustozim Girs tez-tez telefonga chaqirib, natijani so‘rar edi. Aprel oyi oxirlariga borib domla meni shu masalada chaqirdilar. U kishi menga «O‘zbekiston madaniyati» ijodiy gazeta bo‘lgani uchun unda bosilgan maqola nomzodlik dissertatsiyasiga o‘tishi mumkin ekan, dedilar. Va oldimda ushbu gazetaning bosh muharriri, taniqli filolog olim, professor Lazizxon Po‘latovich Qayumovga telefon qildilar va masalani tushintirdilar. Telefon suhbati tugaganidan so‘ng, «Siz tezda «O‘zbekiston madaniyati» gazetasi redaktsiyasiga borib bosh muharrir o‘rinbosariga uchrang», - dedilar. Maqolani olib borib aytilgan odamni yoniga kirdim. U kishi meni bir haftadan keyin keling, men va mas’ullar maqolangizni ko‘rib chiqamiz, - dedi. Bir haftadan so‘ng u kishi menga: “Maqolani qisqartirib, asosiy urg‘uni manbashunoslikka berasiz, ortiqcha g‘oyaviy masalalarni chetga surib turasiz, qayta ishlab keling”, - dedilar. Uch-turt kun ichida maqolani qayta ishlab gazetaga topshirdim, gazeta haftada bir marta chiqar edi. Shu sababli bo‘lsa kerak o‘n kun deganda maqola «Muhim manba» sarlavhasi ostida bosilib chiqdi. Mening quvonchimning cheki yo‘q edi. Gazetadan o‘n nusxa sotib olib domlaning qabullariga yugurdim va u kishining huzurlariga kirdim. Maqolamga tezda ko‘z yugurtirib chiqdilar va chehralari ochilib, menga otalarcha mehr bilan «tabriklayman», bu yog‘i endi himoya, hamma ishni yig‘ishtirib Moskvaga uching, bo‘lmasa kuzga qolib ketasiz», - dedilar.

May oyi boshlarida Moskvaga uchib bordim. Maqolamni ko‘rib ustozim G.F.Girs ham xursand bo‘ldi va birgalashib himoya kunini

gaplashish uchun ilmiy kotib oldiga kirdik. Bir hafta ichida avtoreferatni chiqarishga ruxsat berishdi. Men ustozim bilan avtoreferatni yana qayta ko‘rib chiqdim. Tuzatishlar bo‘ldi. Rosa bir hafta deganda avtoreferat chiqdi. So‘ng barcha tashkiliy ishlarni ilmiy rahbarim ko‘magida oxiriga yetkazdim. Birinchi opponentim taniqli afg‘onshunos olim institutning Osiyo va Afrika xalqlari bo‘limi boshlig‘i, professor N.A.Dvoryankov edi, ikkinchisi, taniqli arabshunos, manbashunos olima Shidfar Betsi Yakovlevna edi. U paytlar opponentlar o‘z taqrizlarini himoya qiluvchiga bermas edilar, hamma gap, yaxshisi ham, tanqidlar ham, kamchiliklar ham himoya jarayonida bo‘lar edi.

31 iyun ilmiy Kengash majlisini Kengash raisi taniqli sharqshunos-hindshunos f.f.n. Yevgeniy Petrovich Chelishev olib bordi. Himoya vaqtida sharqshunoslar I.S.Braginskiy, M.N.Osmanov, D.S.Komissarov, G.Aliyev, A.S.Bertels, A.S.Gerasimova, I.M.Filshtinskiy, sovet afg‘onshunosligining otasi, ustoz M.G.Aslanov, yirik sharqshunos, adabiyotshunoslar, aspirant hamkasblarim hozir edilar. Himoyada bir qator olimlar ham so‘zga chiqdilar.

Himoya ikki yarim soat davom etdi. Rasmiy opponentlar hamda taniqli sharqshunoslar M.N.Osmanov, D.S.Komissarov, A.S.Gerasimovlar so‘zga chiqib, dissertatsiya mavzusini afg‘onshunoslikda ilk bor o‘rganilayotganligini ta’kidlab fikr-mulohazalarini bildirdilar. Himoyaga yakun yasar ekan Kengash raisi Ye.P.Chelishev meni tabrikladi va pastda o‘tirgan aspirantlarga qarata: «Mana bugun kengashimizda eng yosh fan nomzodiga (men 27 yoshda edim) ega bo‘lmoqdamiz. Sizlar ham o‘z vaqtida himoya qilishga harakat qiling», dedi. Himoya 100% ovoz bilan yakunlandi. Shu kuni men ustoz Shomuhamedovga qo‘ng‘iroq qilib cheksiz minnatdorchiligimni izhor etdim. U kishi meni tabriklab, «endi tezda kaytib keling, kafedrada o‘qituvchi bo‘lib ishlaysiz», deb qoldilar. Shu vaqtdan e’tiboran mening pedogogik faoliyatim boshlandi.

Hozir sarhisob qilsam ustozning meni fakultetda laborant sifatida olib qolib, so‘ng pedagog sifatida faoliyatimni boshlashimga yo‘llanma bergan vaqtlaridan beri 54 yil o‘tibdi. Shu orada dotsent, fan doktori, professor unvoni va darajalariga erishdim. «Lekin, agar taqdir meni shu

ulug‘ ustoz, bag‘rikeng inson, alloma, olimga ro‘baro‘ qilmaganida kim bo‘lishim mumkin edi», degan savol doimo menga hamroh…

Ustozning nafaqat menga, balki yuzlab yoshlarga, shogirdlarga ko‘rsatgan beminnat ustozlik sahovatlari, qo‘llab-quvatlashlari hammamizga beqiyos o‘rnakdir. Darhaqiqat, ustoz Sh.M.Shomuhamedov XX asrning 60-yillaridan keyingi davr sharqshunosligining eng zabardast, ulug‘ namoyandasi hisoblanadilar. U kishidan 70 ga yaqin ilmiy monografiya va risolalar, she’riy va nasriy asarlar, esselar, mumtoz fors, o‘zbek, ozarbayjon, turkman she’rlarining majmualari, millionlab nusxalarda chop qilib kelinayotgan Umar Xayyom, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Nizomiddin Ganjaviy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi buyuk shoirlarning ustoz tarjimalaridagi namunalari hamda 400 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy, ommabop maqolalari meros bo‘lib qoldi. Shuningdek, ustoz Sh.M.Shomuhamedovning minglab malakali sharqshunos mutaxassislarni yetishtirishdagi xizmatlari juda ulkandir. U kishining sa’yi-harakatlari, qo‘llab-quvvatlashlari va tavsiyalari bilan soha bo‘yicha yuzlab fan doktorlari va nomzodlari O‘zbekiston sharqshunosligi nufuzini jahonga tanitdilar.

2022-yil aprel oyida ustozimizning tavvllud topgan kunlariga 101 yil to‘ladi. U kishining nurli xotiralari oldida men hamisha ta’zimdaman.

Mannonov Abdurahim Mutalovich,
filologiya fanlari doktori, professor,
“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”,
“Mehnat shuhrati” ordeni sohibi

FILOLOGIYA, TILSHUNOSLIK, TARJIMASHUNOSLIK VA METODIKA

HINDIY TILIDA FRAZEOLOGIK OMONIMIYA HODISASI

Saidnazarova Nodira Otaxon qizi
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi M.Q. Sodiqova

Har bir tilning o‘z lug‘at tarkibi bo‘lgani kabi, o‘sha tilga xos bo‘lgan frazeologik birliklari ham mavjud bo‘ladi. Frazeologik birliklar o‘sha tilning boyligi va sermazmunligiligini ko‘rsatib beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Frazeologizmlar – ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalardir. Ular shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llaniladi, ya’ni frazeologizmlar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas, masalan: arpasini xom o‘rmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig‘may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq va boshqalar.[1]

Frazeologik birliklarda ham sinonimiya, antonimiya, omonimiya va paronimiya singari hodisalar uchraydi. Frazeologik sinonimiya – ikkita iboraning aynan bir xil ma’noda qo‘llanilishi (yer bilan yakson qilmoq, kulini ko‘kka sovurmoq) , frazeologik antonimiya – mutlaqo qarama-qarshi ma’nodagi iboralardir (yerga urmoq – ko‘kka ko‘tarmoq). Frazeologik omonimiya – shaklan bir-xil bo‘lgan iboraning ikki yoki undan ortiq, boshqa-boshqa ma’nolarni ifodalashi bo‘lsa, frazeologik paronimiya – iboralarning shakliy yaqinligidir ya’ni bunda iboralar tarkibidagi bir so‘z komponenti bilangina farq qiladi va shu farqlanuvchi so‘z komponentlari ham bir-biriga o‘xshash bo‘ladi (yuragi tars yorilib keta yozmoq, yuragi qoq yorila yozmoq).

[1] Sh.Rahmatullaev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, Toshkent, 1978.

Frazeologizmlar turli tillarda o‘rganilgan bo‘lib, xususan, hindiy tilida ham frazeologizmlar bo‘yicha bir qancha lug‘atlar tuzilgan. Ushbu maqolada shu lug‘atlardan foydalangan holda, frazeologik omonimlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida lug‘atning bir qismi qamrab olindi.

Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi bo‘lgan omonimiya – frazeologik birliklarda ham mavjud. Frazeologik omonimlar – iboralar, ya’ni ko‘chma ma’noli, ta’sirchanlikka ega bo‘lgan birikmalar o‘rtasidagi omonimlik bo‘lib, frazeologik omonimiya ko‘pincha 2 ta ibora orasida voqe bo‘ladi, masalan:

qo‘l ko‘tarmoq I – urmoq ma’nosida

qo‘l ko‘tarmoq II – qo‘lini ko‘tarmoq

Izlanishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, hindiy tilida ham frazeologik iboralar orasida omonimiya hodisasi mavjuddir. Masalan:

1. अच्छे रहना I [1] – sog‘ bo‘lmoq, sog‘lig‘i yaxshi bo‘lmoq;

अच्छे रहना II – muvaffaqiyatga erishmoq, foyda ko‘rmoq;

2. इधर उधर को हाँकना I – Yolg‘ondan maqtanmoq;

इधर उधर को हाँकना II – U yoq bu yoqdan gaplashmoq (bitta mavzuda gaplashmaslik)

3. अख्तियार करना I – qabul qilmoq;

अख्तियार करना II – yoqtirmoq; tabiga o‘tirmoq

अख्तियार करना III – ishga olmoq

Hindiy tilida frazeologik omonimlarni ma’no xususiyatiga ko‘ra tahlil qilish jarayonida ularni asosan, quyidagi 3 ta guruhga ajratishimiz mumkin:

1) 2 ta omonimik ma’noga ega bo‘lgan frazeologik iboralar;

2) 3 ta omonimik ma’noga ega bo‘lgan frazeologik iboralar;

3) 4 ta omonimik ma’noga ega bo‘lgan frazeologik iboralar.

Ushbu tahlil yuzasidan quyida 2 ta omonimik ma’noga ega bo‘lgan frazeologik iboralarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

अँगड़ाई लेना I [2] - erinchoqlik qilmoq, dangasalik qilmoq;

अँगड़ाई लेना II - yo‘nalishi o‘zgarmoq, (yangicha) tus olmoq.

---

[1] डॉ ॰ भोलानाथ तिवारी. हिंदी मुहावरां कोश [Dictionary of hindi idioms] नई दिल्ली 1991. प॰ 20-40.

[2] अशोक कौशिक , गणेश शर्मा शास्त्री . बृहत् हिन्दी मुहावरा कोश . हिन्दी - पुस्तक - भवन , दिल्ली , 1990.

Masalan:

आलसी व्यक्ति अँगड़ाई ले – ले कर अपना दिन गवाँ देता है । – Dangasa inson erinchoqlik qila – qila o‘z kunini behuda o‘tkazadi.

आजादहिंद फौज के बनते ही देश की आज़ादी की लड़ाई ने एक नई दिशा में अँगड़ाई ली । – Ozod hind armiyasi tashkil topishi bilanoq mamlakatda ozodlik kurashi yangicha tus oldi.

अदा करना I - ado qilmoq, bajarmoq;

अदा करना II - qarzini uzmoq, to‘lamoq.

Masalan:

अपना फर्ज तो आपको अदा करना ही चाहिए । – Siz o‘z majburiyatlaringizni ado qilishingiz lozim.

धीरे – धीरे उसने अपना सारा कर्ज अदा कर ही दिया । – Asta – sekin u o‘zining barcha qarzlarini uzdi.

Endi esa 3 ta omonimik ma’noga ega bo‘lgan frazeologik iboralarni tahlil qilsak:

आँखें खुल जाना (खुलना) I - ko‘zi ochilmoq (bilimga ega bo‘lmoq);

आँखें खुल जाना (खुलना) II - hushyor tortmoq;

आँखें खुल जाना (खुलना) III - uyqudan uyg‘onmoq.

Masalan:

स्वामी जी के उपदेश से श्रोताओं की आँखें खुल गईं । – Svamijining ma’ruzasidan tinglovchilarning ko‘zlari ochildi.

सारा कुछ लुटने के बाद उसकी आँखें खुलीं । – Hamma narsalarni talon-taroj qilishgandan keyin, u hushyor tortdi (ko‘zlari ochildi).

अलार्म बजते ही मेरी आँख खुल गई । – Qo‘ng‘iroq chalinishi bilanoq uyg‘ondim.

आगे बढ़ना I - ildamlab ketmoq (taraqqiy etmoq);

आगे बढ़ना II – oldinga chiqmoq (rahnamolik qilmoq); oldinga siljimoq ;

आगे बढ़ना III - birinchi bo‘lib yordam bermoq, yordam qo‘lini cho‘zmoq.

Masalan:

स्वतन्त्रता प्राप्ति के उपरान्त भारत सभी क्षेत्रों में आगे बढ़ता जा रहा है । – Mustaqillikka erishgach, Hindiston barcha sohalarda ildamlab ketmoqda.

गुट – निरपेक्षता आन्दोलन में भारत ही पहले आगे बढ़ा था । – Qo‘shilmaslik harakatida Hindiston birinchi bo‘lib oldinga chiqqan.

संकट की स्थिति में जो आगे बढ़ कर सहायता करे , वही सच्चा मित्र है । – Inqiroz holatida birinchi bo‘lib yordam qo‘lini cho‘zadigan inson chin do‘stdir.

4 ta omonimik ma’noga ega bo‘lgan frazeologik iboralarga esa quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

आग लगाना I - nafrat olovini yoymoq;

आग लगाना II - vujudini yondirmoq (g‘azabini keltirmoq, g‘azablantirmoq);

आग लगाना III - adovat urug‘ini sochmoq, bezovtalik keltirib chiqarmoq ;

आग लगाना IV - o‘t qo‘ymoq, vayron qilmoq (yo‘q qilmoq).

Masalan:

सन्तो भाभी ने पति – पत्नी में जो आग लगाई , वह क्या आसानी से बुझने वाली है ? – Santo kelinoyi er-xotin orasiga yoygan nafrat olovini o‘chirish osonmi?

उसकी कड़वी बातों ने तो मेरे तन – बदन में आग लगा दी । – Uning achchiq gaplari mening vujudimni yondirdi.

सिख आतंकवादियों ने सारे पंजाब में वैमनस्य की ऐसी आग लगाई कि सरकार को उसे सम्हालना कठिन हो गया । – Sikh terrorchilari butun Panjob bo‘ylab shunday adovat urug‘ini sochishgandiki, hukumat uni bostirishi qiyinlashdi.

उसने तो मेरे घर में आकर मेरे संसार को ही आग लगा दी । – U mening uyimga kelib, dunyoyimga o‘t qo‘yib yubordi.

आगे आना I - tashabbus ko‘rsatmoq;

आगे आना II - sodir bo‘lmoq, yuz bermoq;

आगे आना III - oldinga chiqmoq (oldingi safga chiqmoq) ;

आगे आना IV - o‘ziga qaytmoq (qasos), qilmishlari o‘ziga qaytib kelmoq.

Masalan:

जोखिम के कामों में हर कोई आगे नहीं आ सकता । – Tavakkalchilik ishlarida hamma ham tashabbus ko‘rsata olmaydi.

जो कुछ मैंने कहा था , वही सब आगे आया । – Men aytgan hamma narsa sodir bo‘ldi.

यदि तोपधारी आगे न आते तो घुड़सवार सेना के लिए कठिनाई नहीं होती । – Agar artilleriyachilar oldinga chiqishmaganida otliqlar armiyasi uchun qiyinchilik bo‘lmasdi.

जो जैसा करता है , वैसा ही उसके आगे आता है । – U nimaiki qilsa, o‘ziga qaytadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hindiy tili frazeologizmlarida omonimiya hodisasini tadqiq qilish jarayonida, hindiy tilidagi iboralar lug‘atining bir qismi qamrab olindi va o‘rganilgan iboralar ichidan 100 ta omonim frazeologik iboralar tanlab olinib, tahlil qilinganda, 80 ta (80 %) frazeologik iboralar 2 ta omonimik ma’noga egaligi, 15 tasi (15 %) esa 3 ta omonimik ma’noga, 5 tasi (5 %) 4 ta omonimik ma’noga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Hindiy tilida ham omonim frazeologik iboralar ichida asosan, 2 ta omonimik ma’noga ega bo‘lgan turlari ko‘pchilikni tashkil qilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Rahmatullaev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, Toshkent, 1978.

2. Sh.Rahmatullaev. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, Toshkent, 1966.

3. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati, Toshkent, 2002.

4. अशोक कौशिक , गणेश शर्मा शास्त्री . बृहत् हिन्दी मुहावरा कोश . हिन्दी – पुस्तक – भवन , दिल्ली , 1990.

5. डॉ ॰ भोलानाथ तिवारी. हिंदी मुहावरां कोश [Dictionary of hindi idioms] नई दिल्ली 1991. प॰ 20-40.

6. В.М. Бескровній «Хинди – Русский словарь». Москва, 1959.

ARAB, O‘ZBEK VA RUS TILSHUNOSLIGIDA FE’LLARNING TUTGAN O‘RNI, ULARNING TADQIQI VA O‘RGANILISH TARIXI

Otaxonova Dilafruz Adilbek qizi
TDSHU 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent Bultakov Ikrom

Har bir til borki, o‘z tarixi, kelib chiqishi va albatta grammatik tuzilishiga egadir. Dunyodagi barcha til o‘z o‘rni va mavqeyiga egadir, garchi u til dunyoda yetakchi tillar sirasiga kirmasa ham unda gaplashayotgan xalq uchun o‘sha til yagona aloqa vositasi hisoblanadi.

Kurrayi zaminimizda hammasi bo‘lib taxminan 5621 ta til va sheva bor bo‘lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o‘rganilgan xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi bo‘lmay, faqat og‘zaki nutq shakliga egadir.

Jahondagi 1400 ta tilning yo‘qolib ketish xavfi bor. Dunyo tillaridan faqat 40 tasigina og‘zaki va yozma jihatdan mukammal shakllanib bo‘lgan deb hisoblanadi. O‘sha 40 tilning orasida o‘zbek tili ham bor .

Dunyoda eng ko‘p ishlatilinadigan, aloqa vositasi bo‘lgan oltita til jahon miqyosida xalqaro til sifatida tan olingan va BMTning rasmiy ish yuritiladigan tillari hisoblanadi. Bular ingliz, arab, ispan, xitoy, rus, fransuz tillaridir.

Ushbu maqolamizda biz asosiy tillardan hisoblangan arab, rus va o‘zbek tillarida fe’llarga xos xususiyatlar va ularning tadqiqi, hamda arab, rus va o‘zbek tillarida fe’llarni tadqiq qilgan olimlar tilshunoslar va ularning fe’llar borasidagi mulohazalari bilan tanishamiz.

Har bir tilda fe’l so‘z turkumi juda ham katta ahamiyatga ega. Negaki fe’llar orqali biz bajarilayotgan ish harakat yoki sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni batafsil yoritamiz va ifodalaymiz. Demak har bir tilning negizi bu fe’ldir.

Fe’l (arabcha “qilmoq, bajarmoq”) – ish-harakat bildiruvchi so‘z turkumi hisoblanib, nima qildi?, nima qiladi? nima qilyapti? kabi savollarga javob beradi.

O‘zbek tilida fe’l mustaqil so‘z turkumlari ichida eng katta so‘z turkumlaridan biri hisoblanadi. Fe’l so‘z turkumi, boshqa so‘z turkumlari kabi, o‘ziga xos so‘z yasalishi va shakl yasalishi tizimiga

egadir. Yasama fe'llar -la, -lan, -lash, -lantir, affikslari hamda qil, et (ayla) yordamchi fe'llari bilan hosil qilinadi: olqishlamoq, ruhlanmoq, birlashmoq, jabr qilmoq, ruxsat etmoq.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, o'zbek tilida fe'llar asosan ot yoki sifatlardan yasaladi. Fe'llar o'ziga xos murakkab grammatik kategoriyalar tizimiga ega. Xususiy ma'nolari bilan o'zaro farqlanuvchi, bir umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi shakllar tizimi fe'lning grammatik kategoriyalarini hosil qiladi. O'zbek tilida fe'lning quyidagi grammatik kategoriyalari bor: nisbat kategoriyasi, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi, mayl kategoriyasi, zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi. Fe'l qaysi grammatik kategoriyada turishiga qarab uning ma'nosi o'zgaradi: masalan, agar fe'l o'tgan zamonda turgan bo'lsa allaqachon qilingan ish-harakatni anglatadi, orttirma nisbatda turgan fe'l esa ish-harakatning boshqa shaxsga yuklatilganligini, ko'chganligini anglatadi.

O'zbek tilining yaratilishi, tuzilishi haqida gap ketganida, albatta buyuk bobomiz Alisher Navoiyni yod etmasligimiz mumkin emas. Chindan ham Alisher Navoiy o'zbek tiliga, ona tilimizga diqqat bilan qaradi. O'zbek tilining o'sha davrdagi ikki til – arab va fors tillari bilan bir qatorda , hatto undan ham ortiq darajada rivojlanishini iste'molda bo'lishini istagan.

"O'zbek adabiy tilining rivojida 15-asrning ikkinchi yarmi juda muhim davr hisoblanadi. Bu davrda Alisher Navoiy o'zining muborak ijodi bilan o'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish bilan birga, o'zbek tilining taraqqiyotiga ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Navoiy o'z asarlarida, albatta «grammatika» yoki «fonetika» so'zini qo'llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonuniyatlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o'ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o'zbekcha atamalar bilan nomlangan: amr, harf, harakat, hamza, voze (voz-yasovchi yoki so'z yasovchi); tajnis va ihom – ko'p ma'noli so'z; alam-ism, ot; atmutakallim-so'zlovchi; lafz, kalom, alfoz kabilar haqida o'z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan".

Alisher Navoiy ham fe'llar haqida bir qator izlanishlar olib borgan. Navoiy o'zbek tilida 100 ta fe'lni yuzaga kelishi sabablarini ko'rsatadi va ularning tahlilini beradi. Bunday fe'llarning ko'plari fors tilida uchramasligini qayd etadi, u qator fe'llardagi sinonimlarni misol keltiradi. Navoiy asarlari tilini singormonizmsiz shevalarga asoslangan

deb qaraydi. E.D.Polivanov esa uning asarlari O‘rta Osiyo tilida yozilganligini qayd etadi .

Shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi adabiy o‘zbek tilimizning grammatikasi bundan qarib VI asr oldin ishlab chiqilgan va bunda ilk bor fe’llar ham keng tahlilga tortilgan.

Arab tiliga to‘xtaladigan bo‘lsak, arab tili grammatikasini ishlab chiqqan olim Sibaveyhi o‘zining “Al-Kitob” asarida fe’l va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Undan uch asr keyin yashagan movarounnahrlik, “ustod al-arab” laqabini olga Az-Zamaxshariy ham Sibaveyhining yozgan kitobini yanada mukammallashtirib, haligacha arablarga dasturul-amal bo‘lib kelayotgan mashhur arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan “Al-Mufassal” asarini yozib qoldirdi.

“Al-Mufassal” Sharqda va G‘arbda arab tili va grammatikasini batafsil o‘rgatuvchi yirik asar sifatida ma’lum. Arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan “Al-Mufassal” kitobi ahamiyatiga ko‘ra, arab olimi Sibaveyxining “Al-Kitob” asaridan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallaydi, deb hisoblanadi. Bu Az-Zamaxshariy asari o‘z vaqtida qanchalik qadrlanganligini ko‘rsatadi.

Al-Mufassal asari dastlabki bobi “tamhid”(تمهيد) dan, ya’ni kirish qismidan boshlanadi. Kitobning bu bobida Az - Zamaxshariyning hayoti, yozgan asarlari, “Al-Mufassal”asari haqida umumiy ma’lumotlar, kitobning ko‘chirma nusxalari so‘z va kalom ilmi ma’nolari kabi boblar keltiriladi.

Asarning asosiy qismi to‘rt bobdan tashkil topgan. Birinchi qism arab tilidagi “Ism” (اسم) so‘z turkumiga bag‘ishlanadi. Bu bobda ismga xos barcha qoidalar aks etgan

Asarning ikkinchi qismi arab tilidagi eng katta so‘z turkumi bo‘lgan “fe’l” (فغل) ya’ni fe’llar va ularning tasnifiga bag‘ishlangan. Bu bobda fe’llarga oid barcha qoidalar ularning uchta zamonda kelishi, ularning ifodalanishi, o‘timli va o‘timsiz fe’llar, uch o‘zakli va to‘rt o‘zakli fe’llar, ularning hosila boblari batafsil keltirib o‘tilgan.

“Al-Mufassal” asarining uchinchi bobi “Harf” so‘z turkumiga (حرف) bag‘ishlanadi. Arab tilida “harf” so‘z turkumi nafaqat hurufu jarlardan(ko‘makchilardan), balki bog‘lama va yuklamalardan ham iboratdir. Bu xususiyati bilan “harf” so‘z turkimi o‘zbek tilidagi “yordamchi so‘z turkumi”ga o‘xshab ketadi. Az-Zamaxshariyning

asarida “Harf” so‘z turkumi ham keng bayon qilingan va ko‘plab misollar keltirilgan.

“Al-Mufassal” asarining o‘ziga xos va boshga arab grammatikasiga bag‘ishlangan asarlardan asosiy farqlaridan biri bu asarning to‘rtinchi bobi sifatida fonetik qoidalarning keltirilishidir. Bu bobda Az-Zamaxshariy fonetika (talaffuz)ning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan idg‘omning turlari, vaqf(to‘xtash)ning bir qator qoidalari keng yoritiladi.

Sibaveyhining “Al-Kitob” asari asosiy beshta bobdan iborat.

Birinchi bob(kitob) kirish qismidan iborat bo‘lib, dastlab yaratganga hamd aytish bilan boshlanadi, so‘ngra esa Sibaveyhining tug‘ilgan joyi, nasl-nasabi, kunyasi, ustozlari hamda kitobga sharh yozib uni nashrga tayyorlagan Abdussalom Muhammad Hazun haqida ham so‘z boradi.

Ikkinchi bobda asosan “ism” so‘z turkumiga tegishli mavzular yoritilgan. Kitobning bu qismi sifat va uning turlari, doim aniq holatda keluvchi ismlar bobi bilan boshlanadi. Bu bobda shuningdek masdarlar, ismu foil, ismu maf’ullar o‘timli va o‘timsiz fe’llar ulardan keyin keladigan vositali va vositasiz to‘ldiruvchilar misollar bilan keng yoritilgan.

“Al-Kitob” asarining uchinchi kitobi(bobi) fe’l va ularning e’robiga, hozirgi-kelasi zamon va o‘tgan zamon fe’llarining tuslanishiga, fe’llarning boblariga bag‘ishlangan. Bu bobning birinchi bo‘limi ham aynan shu fe’llarning hozirgi kelasi zamon e’robiga bag‘ishlanadi.

Kitobning to‘rtinchi bobida ham fe’llar haqidagi mavzular davom ettiriladi. Shundan so‘ng “harf” so‘z turkumi haqida so‘z yuritiladi.

“Al-Kitob” asarining beshinchi bobi shu asarda keltirilgan Qur’oni Karimdan va hadisi sharifdan keltirilgan misollar tahlili va boblarning umumiy xulosalaridan iborat.

Yuqorida ko‘rib turibmizki ikkita mashhur arabshunos olimlar o‘zlarining Al-Mufassal va Al-Kitob asarlarida barcha so‘zlarni asosiy uchta so‘z turkumiga ajratishgan, shubhasiz shulardan eng katta so‘z turkumi bu fe’llardir. Ikkala muallif ham o‘z asarlarida fe’llarni alohida bob qilib ajratib tadqiq qilishgan. Sibaveyhi o‘zining birinchi kitobida fe’llar va ularga tegishli nahv qoidalari haqida ma’lumotlar keltirgan bo‘lsa, Az-Zamaxshariy asarining ikkinchi bo‘limini fe’l so‘z turkumiga bag‘ishlagan. Az-Zamaxshariy va Sibaveyhi ham fe’llarning

asosiy uch qismga ajratishadi: o‘tgan zamon fe’li (ماضي), hozirgi-kelasi zamon fe’li (مضارع) va buyruq shakli (امر)

O‘zbek va arab tilidagi fe’llar, ularning xususiyatlari, o‘rganilish tarixi haqida so‘z yuritib ularni bir-biriga qiyoslar ekanmiz arab tili grammatikasi o‘zbek tili grammatikasiga qaraganda ilgariroq rivojlangani va bir qolipga solinganligini ko‘ramiz. Chunki Sibaveyhi VIII-IX asrlarda yashab ijod etgan bo‘lsa, o‘zining al-Kitob asarini IX asrning boshida yozadi va bu arab tili grammatikasidagi birinchi asar edi. Undan uch asr o‘tib esa XII asrning boshlarida Zamaxshariy arab tili grammatikasini to‘liq tartibga soluvchi va bayon etuvchi Al-Mufassal asarini yozib qoldiradi. A. Navoiy esa XV asrda yashab ijod qilgan va turkiy tildagi fe’llarni tadqiq qilgan va o‘zbek tili grammatikasiga asos solgan. Bundan ko‘rinadiki A.Navoiy Zamaxshariydan uch asr keyin yashab ijod etgan. O‘zbek tili va arab tilidagi fe’llarni bir-biriga qiyoslar ekanmiz, shuni aytish joizki o‘zbek tili aglyunativ til bo‘lganligi bois, fe’llarga barcha qo‘shimchalar fe’l o‘zagidan keyin qo‘shilsa, arab tilida qo‘shimchalar fe’lning oldiga ham, fe’l o‘zagiga ham, fe’l o‘zagidan keyin ham qo‘shilishi mumkin. Bu arab tilining flektiv tillarga mansubligini anglatadi. Masalan:

كَتَبْتُ – كَتَبَ ، تَفَعَّلَ – فَعَّل

Rus tilshunosligining asoschisi M.V. Lomonosovdir (1711-1765). Lomonosov rus tilidagi dastlabki ilmiy grammatikaning asoschisi bo‘lib 1755-yili «Российская грамматика» asarini yozgan. Bu asarda rus tili grammatikasining barcha grammatik asoslari va rus tili stilistikasiga bag‘ishlangan. Bu asarda Lomonosov fe’llarni o‘tgan zamon, hozirgi va kelasi zamonlarga ajratadi, fe’llarning mayllari, tuslanishi va ayrim fe’llarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar beradi.

Rus tilidagi fe’llar ham qisman arab tilidagi fe’llarga o‘xshaydi, ya’ni rus tilidagi fe’llarga ham o‘zak oldidan qo‘shimcha qo‘shish mumkin. Masalan:

делать-сделать = تَفَعَّلَ – فَعَّل

Boshqa jihatdan esa rus va o‘zbek tilidagi fe’llar ham bir biriga juda o‘xshash, negaki zamon va shaxs sonni anglatuvchi qo‘shimchalar odatda o‘zakdan keyin qo‘shiladi. Bu qoida esa arab tilidagi o‘tgan zamon fe’li bilan mos tushadi, ya’ni fe’l oxiriga shaxs sonni bildiruvchi تَ kabi qo‘shimchalarni oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maqolamizda o‘zaro qiyoslangan uchta tildan grammatikasining kelib chiqishi va rivojlanishi eng qadimiy bo‘lgan til bu arab tilidir (IX-XII asrlar), undan keyingi o‘rinda o‘zbek tili(XV asr) va kelib chiqish tarixi eng yangi bo‘lgan til bu rus tilidir. Shuningdek ushbu ishimizda har bir tildagi fe’llarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘xshash va farqli jihatlari o‘rganildi va tadqiq qilindi. Bunda arab tili va rus tilidagi fe’llar qisman bir biriga o‘xshashligi, o‘zbek va rus tilidagi fe’llar o‘zaro bir biriga o‘xshashligi, arab tili va o‘zbek tilidagi fe’llarining yasalishidagi asosiy farqlar va uchta tilning o‘zaro o‘xshash jihatlari ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков. Віп. 1. Происхождение и наименование узбеков. – Ташкент, 1925
2. Звегинцев В. А. История арабского язікознания. М., 1958
3. " الزمخشري " العربية علوم في المفصل
4. Doniyorov X., Sanaqulov U. O‘zbek tilshunosligining asoschisi //«O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1991, №1

Foydalanilgan internet manbalari:

1. https://hozir.org/umumiy-tilshunoslik
2. http://geografiya.uz

B.M. GRANDENING “КУРС АРАБСКОЙ ГРАММАТИКИ В СРАВНИТЕЛЬНО- ИСТОРИЧЕСКОМ ОСВЕШЕНИИ” ASARIDA حرف العطف GURUHIGA KIRUVCHI وVA ف LARGA BERILGAN TASNIFI

Olimjonova Iroda Ahmadjon qizi
TDSHU 4- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Sh.G Shomusarov

Arab tilshunoslari fikriga ko‘ra, so‘zlar yo mustaqil ma’noga dalolat qiladi, yo mustaqil bo‘lmagan ma’noga dalolat qiladi. Mustaqil ma’noga dalolat qiluvchi so‘zlar uch zamondan biriga tegishli bo‘lsa, fe’l agar tegishli bo‘lmasa, ism so‘z turkumi hisoblanadi. Mustaqil ma’noga dalolat qilmaydigan so‘z turkumi esa bu harfdir. Aynan harf so‘z turkumi o‘zbek tilidagi yordamchi so‘z turkumiga to‘g‘ri keladi.

Quyidagi maqolada Grande B.M.ning “Курс арабской грамматика в сравнительно - историческом освешении” asarida و va ف yordamchi so‘zlariga berilgan tasnifi, ularning qo‘llanilish o‘rinlari va ular jumla tarkibida anglatadigan ma’nolarni tahlil qilinadi.

”ف“الحرف

حرف العطف –Ushbu yordamchi so‘z bog‘lovchi hisoblanib, quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Ikki fe’lning ketma- ket bajarilgani yoki qo‘shma gap qismlarini ketma- ket kelishini ifodalaydi. Masalan:

- **دخل فسلم عليه**- U kirdi va u bilan salomlashdi –(U avval kirdi, keyin u bilan salomlashdi).
- **تزوج فولد له ابن** – U uylandi va o‘g‘il farzandlik bo‘ldi – (U avval uylandi, keyin o‘g‘il farzandlik bo‘ldi).
- **تعلم فعلم** – U o‘rgandi va o‘rgatdi – (U avval o‘rgandi, keyin boshqalarga o‘rgatdi).

2. Ba’zi birikmalarda ism so‘z turkumiga mansub ikki so‘zni bog‘lashda ishlatiladi. Masalan:

1. **يوما فيوما**– kundan kun, kun sayin

3. Ikkita fe’l bog‘lanib kelayotganda ishlatiladi. Bunda ikkinchi fe’l birinchi fe’lning natijasi sifatida yuzaga keladi. Masalan:

2. **سقط فمات** – U yiqilib tushdi va o‘ldi –(U yiqilib tushganligi natijasida o‘ldi)

3. امن المامون الناس غيرى فتواريت – Al – Ma’mun mendan boshqa hammaga amnistiya berdi va men yashirindim – (Al –Ma’mun mendan boshqa hammaga amnistiya berganligi sababli men yashirindim)

4. Shart ergash gapli qo‘shma gapning ergash gap qismida:

a. Ergash gap buyruq, taqiq yoki istakni ifodalaganda:

- ان كنت لقيته فقل له – Agar uni uchratsang, unga aytgin
- ان كنت عادلا فلا تخف – Agar sen odil bo‘lsang, qo‘rqma

b. Agar fe’l oldidan قد , سوف, لن, ما, سyuklamalari mavjud bo‘lsa;

- ان يسرق سرق اخ له من قبل – Agar u o‘g‘irlayotgan bo‘lsa, u holda bundan oldin uning aka- ukalaridan biri o‘g‘irlagan
- ان فعلت ذلك فسوف تندم – Agar sen buni qilsang,afsuslanasan
- من توانى فى عمله فلن يفلح – Kim ishiga beparvo bo‘lsa, o‘sha muvaffaqiyatga ega bo‘lmaydi
- و ان توليتم فما سالتكم من اجر – Agar yuz o‘girsangiz, men sizdan hech qanday haq talab qilmaganman

c. Ba’zi hollarda shunday vaziyat bo‘ladiki, qo‘shma gapda bosh va ergash gapning ikkalasi ham o‘tgan zamonda bo‘lishi mumkin. Masalan:

- مهما طلب فناله –U nimani istasa, o‘shanga erishardi

d. Ergash gap ismiy jumla bilan ifodalangan bo‘lsa;

- ان اراد ان يهلكنى قلا مفر من الموت – Agar u meni nobud qilishni istasa, u holda o‘lim muqarrar

5. Bu yuklama birinchi gapda jonli narsani ifoda etib kelgan, ikkinchisida esa o‘zgargan egaga ega bo‘lgan ikkita gapni bog‘lashda ham ishlatiladi. Masalan:

- جاء الي فاجلسته عندى –U menikiga keldi va men uni o‘z joyimga o‘tkazdim
- ركب خالد فتعرض له رجل في الطريق – Xolid ketayotgan edi, uni yo‘lini bir erkak to‘sdi

6. Agar gapning boshida oldidan اما**“…ga kelsak”** yuklamasi kelgan o‘sha gapning qandaydir bo‘lagi ajratilgan bo‘lsa, u holda فbog‘lovchisi gapdagi ajratilgan bo‘lakdan so‘ng qo‘yiladi.Masalan:

- اما الديك فانه كان يعرض دائما –Xo‘rozga keladigan bo‘lsak,u doimo qichqirgan
- اما اصناف الفواكه فالانداس اسعد البلاد بكثرتها–Mevaning har xil turiga keladigan bo‘lsak, Andalus- ularning serobligidan baxtiyor bo‘lgan davlat

7. Yuqorida keltirilgan misollarda **ف**bog‘lovchisi aniqlik maylida bo‘lgan fe’llarning tuslanishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Ammo agar undan oldingi gap buyruq, taqiq, iltimos, istak, nasihat yoki savolni ifodalasa, undan keyin kelayotgan gap esa undan oldingi kelayotgan gapning predmetiga bo‘ysungan maqsad yoki natijasi bo‘lgan harakatni ifodalaydi.Masalan:

- **زرنى فازورك** -Seni ziyorat qilishim uchun, sen meni ziyorat qil- (Agar seni ziyorat qilishimni xohlasang, u holda meni birinchi ziyorat qil).
- **اين بيتك فاجىء اليك** – Men sening oldinga kelishim uchun sening uying qayerda? – (Uying qayerdaligini aytsang, sening oldinga borar edim.)

”و“الحرف

Ushbu yordamchi so‘z quyidagi o‘rinlarda keladi:

1. حرف العطف–Teng biriktiruv bog‘lovchi sifatida kelib, gap tarkibida uyushiq bo‘laklarni va qo‘shma gap tarkibidagi gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z hisoblanadi.

Masalan:

- **حبل كبشا و عنزا و ثورا** – U qo‘y, echki va buqani olib ketayotgan edi
- **ضربنى و بكى** – U meni urdi va yig‘lab yubordi
- **زرنى و ازورك**– Meni ziyorat qil, men ham seni ziyorat qilaman
- **فر واختفى** –U qochib ketdi va yashirindi
- **جاءنى زيد و عمرو** – Menikiga Zayd va Amir kelishdi

II.Istak maylidagi fe’l mavjud gapdagi ikkinchi fe’lni maqsad fe’li qilib ko‘rsatadi(Yuqorida **ف**bog‘lovchisiga o‘xshash). Bunda birinchi fe’l buyruq, taqiq, istak, inkor yoki savolni ifodalab kelishi mumkin.

Masalan:

- **لا تنه عن الحق و تاتى مثله** – Buni o‘zingiz qilishingiz uchun boshqalarga ma’lum bir tarzda harakat qilishni taqiqlama
- **زرنى و ازورك** – Meni ziyorat qil, men ham seni ziyorat qilaman- (Agar men seni ziyorat qilishimni xohlasang, meni ziyorat qil)

III.Istak maylidagi ikkita ish- harakatning bir vaqtda sodir bo‘lishini ifodalab keladi. Masalan:

- **هل تاكل السمك و تشرب اللبن** – Sen (bir vaqtning o‘zida) baliq yeb sut ichasanmi?

I. واو المعية-Ish- harakatni birgalikda amalga oshirish ma’nosini beruvchi tushum kelishigida keladigan ism so‘z turkumiga kiruvchi so‘z oldidan ishlatiladi.Masalan:

- سافرت و اخاه – Uning akasi bilan birga ketdim.
- ذلك لا يتفق و الحركة الوطنية – Bu milliy harakat bilan mos kelmaydi

II. واو الحال- Amalga oshirilayotgan ish- harakatning egasi yoki to‘ldiruvchisining holatini ifodalab keladi. Masalan:

- جاء الولد و هو باك –Bola yig‘lagan holda keldi
- دخل الصبي و بيده كتاب – Bola qo‘lida kitob ko‘targan holda kirdi
- و قدم الى الاعرابي طعاما و كان اذ ذاك جائعا – U och qolgan badaviyga taom uzatdi

III. Qasamni ifodalab kelayotgan qaratqich kelishigidagi ism so‘z turkumiga mansub so‘zni ifodalashda:

- و الله- Allohga qasamki…
- و حق راسك– Sening kallang bilan qasam ichaman…

IV. رب **“ko‘pincha”, “ba’zida”, “ba’zan”** so‘zining o‘rniga ishlatilishi mumkin. Masalan:

- و قائل هل تريد الحج قلت له نعم اذا نفدت لدات بغداد – “Xajga borishni istaysanmi ?”deb tez- tez so‘raydigan odamga men “Ha, agar Bag‘dodning zavqi yakun topsa”, deb javob berar edim.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni aytish kerakki, حرف العطف guruhiga mansub وva فyordamchi so‘zlari jumla tarkibida qo‘llanilganda nafaqat teng bog‘lovchi beradigan ketma ketlik ma’nosini: – تعلم فعلمU **o‘rgandi va o‘rgatdi,** balki yana bir qator boshqa ma’nolarni berishi mumkinligining guvohi bo‘ldik. Masalan: amalga oshirilayotgan ish- harakatning egasi yoki to‘ldiruvchisining holatini ifodalab kelishi- – جاء الولد و هو باك**Bola yig‘lagan holatda keldi.**

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Б.М.Гранде.Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении – Москва:<< Восточная литература>> РАН 2001

2.Юшманов.Н.В. Грамматика литературного арабского язіка. СПб:«Юридический центр Пресс»,1999

3.Баранов Х.К. Арабско – русский словарь. – Москва:Русский язік.1989
4.Abdullah HACİBEKİROĞLU, ARAP DİLİNDE EDATLARIN METİNDE KURDUĞU ANLAMSAL İLİŞKİLER, Ankara 2015
5.2013..مصطفى غلاييني.جامع الدروس العربية.القاهرة
6.2006.حفني ناصف.الدروس النحوية.الكويت

“QOTRUN NADO VA BALLUS-SADO” ASARINING MUALLIFI JAMOLIDDIN INB HISHOM AL-ANSORIY ROHMATULLOHI ALAYH VA UNING ASARLARINING O’RGANILISHI

Turg‘unboyev Nuriddinjon Muhammadjon o‘g‘li
TDSHU 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: Dr. Sayyid Kurayyim

Arab tili grammatikasi imomlaridan Imom Abu Muhammad Abdulloh Jamoliddin ibn Yusuf ibn Ahmad ibn Abdulloh ibn Hishom al-Ansoriy Misriy hijriy 708-yili zul-qa’da oyida, (milodiy 1309-yil) Qohira shahrida tavallud topgan. Yoshligidanoq u yerda ilm va olimlarga muhabbat qo‘yib katta bo‘lgan. Ularning juda ko‘plaridan ilm o‘rgangan. Ba’zi adib va fozillardan ham dars olgan.

“Durarul kamina”[1] asari muallifi ibn Hishomni o‘z asrining eng yaxshi kishilari, o‘sha davrning eng mashhur olimlaridan ilm o‘rganganini va ularga shogird bo‘lganini ta’kidlaydi. Ibn Siroj[2], Abu Hayyon[3], Toj Tabriziy[4], Toj Fokihoniy[5], Shihob ibn Murahhal[6], ibn Jamoa[7]lar shular jumlasidandir.

Ibn Hishom taqvodor olim va mazhabda shofeiy bo‘lganlar. Umrlarining oxirida hanbaliy mazhabini tutganlari manbalarda zikr qilingan. Ibn Hishom dini, iffati, chiroyli siyrati, ilm talabidagi sabri bilan birga, kamtarligi, yaxshilik sevar ekani, shafqatli, chiroyli xulqli va yumshoq qalbli ekani bilan ajralib turadi[8].

Ibn Hishom arab tili, ayniqsa, nahvda mutaxassis edi. Bu borada unda iste’dod, qobiliyat mavjud bo‘lgan. Shu sabab, o‘z asrining

---

[1] Ibn Hajar. “Durarul kamina”. Haydarobod, 1348 h. B. 2:308-310

[2] Ibn Siroj: Muhammad ibn Ahmad Abu Abdulloh as-Siroj Damashqiy. Nahviy olim. 668-hijriy sanada tavallud topgan va 743-hijriyda vafot etgan.

[3] Abu Hayyon: Muhammad ibn Yusuf, Asiruddun G‘ornatiy. O‘z asrining nahv, lug‘at, hadis va adabiyot fanlari olimi. Tafsirga oid “Bahrul muhit” asari mashhur. Hijriy 745-sanada vafot efgan.

[4] Toj Tabriziy: Ali ibn Abdulloh Ardbiyliy Tabriziy. Bir necha ilmlarni puxta egallagan taqvodor olim. Hijriy 746-sanada vafot etgan.

[5] Toj Fokihoniy: Umar ibn Ali ibn Solim ibn Sidqa Laxmiy Iskandariy. Nahvga oid “Sharhul umda”, al-Isharo” va boshqa bir qancha kitoblari bor. 731-hijriy sanada vafot etganlar.

[6] Shihob ibn Murahhal: Abdullatif ibn Abdulaziz.

[7] Ibn Jamoa: Badriddin Muhammad. Hijriy 733-sanada vafot etgan.

[8] «Bug‘yatul vuot”. B. 2/69.

olimlari va ustozlaridan ham o‘zib ketgan. Uning, ayniqsa, ikki kitobi ko‘pchilikda katta qiziqish uyg‘otdi: “Mug‘niy al-labib an kutubil a’ariyb”, hamda “Avdohul masalik ila Alfiyati ibn Malik”.

Ibn Hishomning shon-shuhrati faqat Misrning o‘zida emas, balki butun dunyoda mashhur bo‘ldi. Olim va yozuvchilar u haqida: “U hayotlik vaqtidayoq mashhur bo‘ldi va xalq uni chiroyli qabul qildi”[1], deb ta’kidlaganlar. “Durarul kamina” sohibi ibn Xoldundan naql qilib aytadiki: “Biz Mag‘ribda turib eshitdikki, Misrda bir arab olim paydo bo‘libdi, uni Ibn Hishom der ekanlar. Nahvda Sibavayhdan ham bilimliroq ekan”. U kishi bir emas, bir nechta ilmlarni puxta egallagan. Uning fatonat va zakovati, ziyrakligi, ayniqsa, yodlab olish qobiliyati juda kuchli bo‘lgan. Hattoki, vafotlaridan besh yil avval, “Muxtasarul Xarqiy” kitobini to‘rt oydan kam muddatda yodlab olganlari zikr qilingan.

U kishiga mansub quyidagi kitoblar o‘rganib chiqilgan:

1. “Al-e’rob a’n qovaidil e’rob”. Astana va Misrda nashr etilgan. Shayx Xolid al-Azhariy ushbu kitobga sharh yozgan. Hamda, Alouddin Atiyya tomonidan tahqiq qilingan nashri ham Damashqda chop etilgan.

2. “Alg‘oz”. U nahviy masalalarga bag‘ishlangan kitob bo‘lib, uni Sulton Komil Muhammad ibn Odil uchun tasnif qilgan. Ushbu kitob Mirsda nashr etilgan.

3. “Avdohul masalik ila Alfiyati ibn Malik”. Kitobning nomidan ham ko‘rinib turibdiki, u Imom ibn Molikning “Alfiyatun nahv” asariga yozilgan sharhdir.

4. “Shuzuruz zahab fi ma’rifati kalamil arob”. Ushbu kitob nahv ilmi borasidagi muxtasar (matn) kitobdir. Ibn Hishom bu kitobini muqaddima va turli fasllarni o‘z ichiga oladigan o‘n to‘rtta bob qilib tasnif etgan. Ushbu kitobga ko‘plab sharhlar yozilgan bo‘lib, bizgacha ulardan o‘ntasi yetib kelgan. Unga yozilgan hoshiyalardan esa to‘qqiztasi ma’lum.

5. “Sharhi shuzuriz zahab fi ma’rifati kalamil arob”. Ushbu kitob muallifning o‘zi yozgan “Shuruzuz zahab” kitobiga qilgan o‘zining sharhi. Kitob nahviy masala va hukmlarni, nahv olimlarining so‘zlarini, misollar va dalillarni o‘z ichiga oladi. Unda muallif nahviy masalalarni “Qotrun nada va ballus soda” kitobiga o‘xshash suratda keltirgan. Ushbu kitob ham bir necha bor chop etilgan bo‘lib, ulardan eng

[1] «Bug‘yatul vuot”. B. 2/69.

mashhur nusxasi Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid tahqiqi bilan chop etilganidir.

6. “at-Tazkira”. Imom Suyutiy ushbu kitobni o‘n besh juzdan iborat ekanini aytgan. Shayx Yosin Aliymiy o‘zining ko‘plab nahv kitoblariga yozgan hoshiyalarida ushbu kitobdan iqtiboslar keltirgan. Shihob Xofajiy ham o‘zining “Nasiymur riyod” kitobida ibn Hishomning “at-Tazkira”sidan iqtibos keltirgan.

7. “at-Tahsil vat tafsil likitabit tazyil vat takmiyl”. Ushbu kitob ham bir necha juzdan iboratdir.

8. “Al-jomeus sog‘iyr”. U haqida Imom Suyutiy o‘z fikrlarini bildirganlar. Ushbu kitobni Parij kutubxonasidan topish mumkin.

9. “Al-jomeul kabir”. Buni ham Suyutiy zikr qilganlar.

10. “Sharhul burda”. Ushbu kitob Ka’b ibn Zuhayrning “Al-burda” asariga ibn Hishom al-Ansoriy tomonidan yozilgan sharhdir. “Al-burda” kitibining asl nomi “Bant suad” dir. U ellik to‘qqiz bayttan iborat bo‘lgan. Kitobda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam madh etilgan va u kishidan kechirim so‘raglan.

11. “Sharhu qotrin nada va ballis soda”. Bu muallif o‘zining “Qotrun nada va ballus soda” asaridagi murakkab lafzlarni sharh etib yozgan asaridir. Ushbu asar ham bir necha marotaba nash etilgan bo‘lib, uning ham eng mashhur tahqiqi Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid tomonidan qilingan va nashr etilgan. Ushbu kitob nahviy boblarning bayon etilishiga ko‘ra “Shuzuruz zahab” kitobiga o‘xshash bo‘lsa-da, unga qaraganda qisqaroq, hamda o‘rta bosqich talaba va o‘qituvchilari uchun mosroq uslubda bitilgandir. U kalima haqidagi mavzu bilan boshlanib, vasliy hamza mavzusi bilan yakunlanadi.

“Qotrun nada va ballus soda” asariga yana bir nechta sharhlar yozilgan. Masalan, Fokihiy[1] ning “Mujiybun nida ila sharhi qotrin nada” asari, hamda, Xotib Shirbiniy[2]ning “Mug‘iysun nida” asaridir.

“Sharhu qotrin nada ba ballis soda” asariga bir nechta hoshiyalar ham bitilgan.

12. “Sharhul lamha li abi Hayyanil Andalusiy[3]”.

13. “Mug‘niy al-labib an kutubil a’ariyb”. Ushbu kitob nahv borasidagi o‘ziga xos, misli ko‘rilmagan malumotlarga boy,

---

[1] Fokihiy. Vafoti 972-hijriy sana.

[2] Xotib Shirbiniy. Vafoti 977-hijriy sana.

[3] Abu Hayyon: Alloma Muhammad ibn Yusuf ibn Aliy ibn Yusuf ibn Hayyon Asiruddin Abu Hayyon G‘ornatiy Andalusiy Jiyoniy Nafziy. Hijriy 654-745-yillar.

muallifning eng mashhur kitoblaridandir. Ushbu kitobda, ibn Hishom nahviy masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib, ularga Qur’oniy va she’riy dalillarni ham keltirgan.

Kitobni bir qancha olimlar tahqiq qilganlar. Jumladan, Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid, Dr. Mazon Muborak va Ali Hamdulloh[1], Dr. Abdullatif Muhammad Xotib[2], Fahriddin Qubova kabi olimlar tahqiq qilgan. Hamda, Dr. Solih Abdulazim Shoir[3] ham ushbu kitobni tadqiq qilgan.

Ushbu “Mug‘niy al-labib an kutubil a’ariyb” asari Qohira va Tehron shaharlarida ko‘p bor nashr etilgan.

14. “Risalatun fi intisobi “lug‘otan” va “fadlan” va e’robi “xilafan” va “aydon” va “halumma jaron”. Ushbu kitob “Darul kutubul misriyya” matbaasida hamda Berlin va Leydan[4] kutubxonasida mavjud.

15. “Risalatun fi isti’malil munada fi tis’i aayatim minal Qur’an”. Ushbu kitob ham London kutubxonasida mavjud.

16. “Rof’ul xososo an qiroatil xulaso”. Suyutiy ushbu kitobni to‘rt jilddan iborat ekanini ta’kidlagan.

17. “ar-Rovdotul adabiyya fi shavahidil ulumil arobiyya”. Berlin kutubxonasida mavjud ushbu kitob Ibn Janiyning “Shavahidu kitabil luma” asariga yozilgan sharhdir.

18. “Sharhu shavahidis sug‘ro”. Uni ham Suyutiy zikr qilganlar. Bu kitob yuqoridagi “ar-Rovdotul adabiyya fi shavahidil ulumil arobiyya” kitobimi yoki boshqa alohida kitobmi ekani aniqlanmagan.

19. “Sharhu shavahidil kubro”. Suyutiy zikr qilgan. Ammo aniqlanmagan.

20. “Sharhul qosidatil lug‘ziyya fil masailin nahviyya”. Leydan kutubxonasida mavjud.

21. “Umdatut tolib fi tahqiqi sorf ibnil Hajib”. Uni Suyutiy ikki jildli kitob deb ta’lidlagan.

22. “Qovhush shuza fi mas’alati kaza”. Abu Hayyonning “ash-Shuza fi mas’alati kaza” kitobiga yozilgan sharh.

23. “Qotrun nada va ballus-Soda”. Juda ko‘p marta nashr qilingan matn kitob.

24. “al-Qovaidus sug‘ro”. Suyutiy zikr qilgan.

---

[1] Damashqdagi “Darul fikr” matbaasida chop etilgan.
[2] Quvaytdagi arab merosi, adabiyoti, fani va madaniyati milliy majlisi.
[3] Qohiradagi adabiyot maktabasida nashr etilgan.
[4] Niderlandiyaning g‘arbiy qismidagi shahar.

25. “al-Qovaidul kubro”. Ushbu asarni ham Suyutiy tilga olgan.

26. “Muxtasarul intisof minal kashshaf”. Bu asar Zamaxshariy “al-Kashshof” tafsirlarida zikr qilgan mu’tazilalarning fikrlariga raddiyalar borasidagi Ibn Munayyirning “al-intisof minal kashshaf” kitobining muxtasaridir. Ushbu asar ham Berlin kutubxonasida mavjud.

27. “al-Masailis safiyro fin nahv”. Bu asarni ham Suyutiy zikr qilganlar.

Ibn Hishom al-Ansoriy 761-hijriy sanada, milodiy 1360-yili 5-zul qa’da juma kechasi vafot etgan.

Ibn Hishom haqida Shayxul islom Alloma ibn Hajar al-Asqaloniy shunday degan: “Ibn Hishom nodir qoidalari, taqiq bahslari, ajib xulosalari, to‘liq tahqiqlari, yuqori darajali bilimi, hamda, kamtarligi, yaxshilik sevar ekani, rahm-shafqatli, xush xulqli va yumshoq qalbli ekani bilan ajralib turar edi”.

Xulosa qilib aytiladigan bo‘lsa, ushbu maqolada ibn Hishom al-Ansoriyning arab tilshunosligiga qo‘shgan hissasi misli ko‘rilmagan darajada ulkan ekanini his qilish mumkin.u yozgan asarlari, unda bayon etgan fikr va qarashlari boshqa ko‘plab nahv ulamolarini ham hayratga solgan. Ibn Xoldun aytganidek ibn Hishom nahvda Sibavayh bilan bir maqomdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Sabiylul huda bitahqiqi “Sharhi Qotrin nada”*. Alloma Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid. Dorud daqqoq, 2020.

2. *Звегинцев В. А.* История арабского язікознания. М., 1958

3. "شرح قطر الندى وبل الصدى" للامام جمال الدين بن هشام الأنصاري

Internet manbalari:

1. https://hozir.org/umumiy-tilshunoslik

2. https://wikipedia..

СОМАТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИ ЯСАЛИШИДА ФАОЛ ВА НОФАОЛ СОМАТИК СЎЗЛАР

Исомиддинова Турсуной Исомиддин қизи
***ТДШУ* Стажёр-тадқиқотчи**
Илмий раҳбар: ф.ф.д. проф. У.У. Мухибова

Мақоланинг асосий мақсади В.М. Бескровнийнинг ИИ томли «Хинди-Русский словарь»[1] луғатининг биринчи томи юзасидан йиғилган ҳиндий тилидаги соматик лексемалар: **अंग-*(с.)*** *(мс)*1) бадан; 2) бадан қисми, аъзо, орган; 3) қисм, бўлак; 4) соҳа; 5) восита; 6) томон, биқин; **अँगूठा-***(мр)* катта бош бармоқ (оёқ ёки қўлнинг); **अँगुली-***(мс)* бармоқ; **आँख-***(мс)* 1) кўз; 2) кўриш қобилияти; 3) қараш, нигоҳ; 4) ажрата олиш қобилияти (кимнидир, ниманидир); 5)кўз (картошканинг); 6) игнанинг тешиги; **उँगली-***(мс)* бармоқ; **कंठ-*(с.)***(мс)* 1) бўйин; 2) томоқ; 3) овоз; **कंधा-***(мр)* елка; **कक्ष –*(с.)***(мр)* қўлтиқ; биқин; томон; **क़दम-*(с.)***(мр)* 1) оёқ; оёқнинг пастки қисми; 2) қадам; **कमर-*(n)***(мс)* 1) бел; 2) белбоғ; **कलेजा**-*(мр)* 1) жигар; 2) юрак; 3)кўкрак; **काँख**-*(мс)* қўлтиқ; **कान**-*(мр)* 1) қулоқ; 2) эшитиш; эшитиш қобилияти; 3) даста (идиш, чойнак); **कुहनी**-*(мс)* тирсак; **गरदन-*(n)***(мс)* бўйин; **गला**-*(мс)* 1) томоқ; 2) бўйин; 3)овоз; **गाल**-*(мр)* 1) юз; 2) оғиз; **गुरदा -*(n)*** *(мр) анат.*1) бўйрак; 2) жасорат; ботирлик; мардонаворлик; ботирлик; **घुटना**-*(мр)* тизза; **चेहरा**-*(мс)*юз; **छाती**-*(мс)* 1) кўкрак; 2) аёл кўкраги; 3) юрак; **जीभ**-*(мс)* 1) тил; **जिगर-*(n)*** *(мр)* 1) жигар; 2) юрак, жон; 3) ботирлик, жасурлик; **ज़बान-*(n)***(мс)* 1) тил; 2) тил (нутқда); **टाँग** – *(мс)* оёқ (сондан товонгача); **तन**-*(мр)* бадан; **दाँत**-*(мр)* 1) тиш; 2) арра тиши; **दिल-*(n)*** *(мр)* 1) юрак; 2) жон; **नस**-*(мс)* 1) қон томири; 2) мускул; **नाक**-*(мс)* 1) бурун; 2) ғурур; иштирокида ясалган соматик фразеологизмларни тадқиқ этишга қаратилган.

[1] В.М.Бескровный, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Хинди русский словарь. в 2-х томах. окола 75 000 слов. Т I. – М.: Советская Энциклопедия., 1972. 905 с.

Тадқиқот ишида шу нарса маълум бўлдики, соматик фразеологизмлар ясашда сўзлар фаол ва нофаол қисмларга ажратилди.

Фразеологизм ясашда энг фаол сўзлардан бири: **आँख-***(мс)* 1) кўз; 2) кўриш қобилияти; 3) қараш, нигоҳ;

Фразеологизм ясашда фаол иштирок этадиган кейинги соматик сўзлар қаторини қуйидагилар ташкил этади: **कान-***(мр)* 1) қулоқ; 2) эшитиш; эшитиш қобилияти; 3) даста (идиш, чойнак); *тадбҳава сўз.*

कलेजा-*(мр)* 1) жигар; 2) юрак; 3)кўкрак; *тадбҳава* сўз.

गरदन-*(n)*(мс)* бўйин; *форсий сўз.*

छाती-*(мс)* 1) кўкрак; 2) аёл кўкраги; 3) юрак; *тадбҳава сўз.*

दाँत-*(мр)* 1) тиш; 2) арра тиши; *тадбҳава сўз.*

दिल-*(n)* *(мр)* 1) юрак; 2) жон;

नाक-*(мс)* 1) бурун; 2) ғурур; *тадбҳава сўз.*

Эндиликда ФБлар ясашда ўша китоб юзасидан йиғилган нофаол соматик сўзлар кўриб чиқилади.

अंग-*(с.)* *(мс)*1) бадан; 2) бадан қисми, аъзо, орган; 3) қисм, бўлак; 4) соҳа; 5) восита; 6) томон, биқин; *тадбҳава сўз.*

अँगूठा-*(мр)* катта бош бармоқ (оёқ ёки қўлнинг); *тадбҳава сўз.*

उँगली-*(мс)* бармоқ; тадбҳава сўз.

कंठ-*(с.)*(мс)* 1) бўйин; 2) томоқ; 3) овоз; *санскрит сўз.*

कंधा-*(мр)* елка; *тадбҳава сўз.*

कक्ष –*(с.)*(мр)* қўлтиқ; биқин; томон; *санскрит сўз.*

क़दम-*(а.)*(мр)* 1) оёқ; оёқнинг пастки қисми; 2) қадам; *арабча сўз.*

कमर-*(n)*(мс)* 1) бел; 2) белбоғ; *форсий сўз.*

काँख-*(мс)* қўлтиқ; *тадбҳава сўз.*

कुहनी-*(мс)* тирсак; *тадбҳава сўз.*

गला-*(мс)* 1) томоқ; 2) бўйин; 3)овоз; *тадбҳава сўз.*

गाल-*(мр)* 1) юз; 2) оғиз; *тадбҳава сўз.*

गुरदा -*(n)* *(мр) анат.*1) бўйрак; 2) жасорат; ботирлик; мардонаворлик; ботирлик; *форсий сўз.*

घुटना-*(мр)* тизза; *тадбҳава сўз.*

चेहरा-*(мс)*юз; *тадбҳава сўз.*

जीभ-*(мс)* 1) тил; *тадбҳава сўз.*

जिगर-***(n)*** *(мр)* 1) жигар; 2) юрак, жон; 3) ботирлик, жасурлик; *форсий сўз*

ज़बान-***(n)****(мс)* 1) тил; 2) тил (нуткда); *форсий сўз.*

टाँग – *(мс)* оёқ (сондан товонгача); *тадбҳава сўз.*

नस-*(мс)* 1) қон томири; 2) мускул; *тадбҳава сўз.*

Тадқиқ натижасида шу ҳодиса маълум бўлдики, соматик фразеологизмларни ташкил қилган соматик сўзлар этимологик (келиб чиқиш) жиҳатдан ҳар хил гуруҳларга мансубдир.

Умуман олганда, ҳиндий тили сўзлар йиғиндисида келиб чиқиши яъни этимологияси жиҳатидан алоҳида таснифга эга. Бу таснифга кўра сўзлар қуйидагиларга бўлинади:

- Татсама तत्सम
- Тадбҳава (तद्भव)
- Арддҳа-татсам (अर्द्ध-तत्सम)
- Видеши (विदेशी)
- Деши (देशी)
- Бўлиён ки шабд (बोलियों की शब्द)

Татсама-ҳиндий тилида илдиз шаклида ишлатилган санскрит сўзларини англатувчи термин.

Санскрит тилидан бевосита адабий йўл орқали ўзлаштирилган ва қадимги имловий шаклини сақлаб қолган сўзлар. Бундай сўзлардан фойдаланиш сўз ясалиши эҳтиёжлари ўсган сари турли миқдорда кузатилиб, баъзиларда жуда ҳам кенг кўламда ривож топган. Шу жараёнида татсама (яъни “худди ўша” бошқача айтганда “санскритдек”) сўзлари ҳозирги ҳинд – орий тилларидан фарқли ўлароқ санскрит тили фонетик ва баъзан грамматик қоидаларига бўйсунадилар.

Тадбҳава – бу типдаги сўзлар узоқ давом этган товуш ўзгаришлари мобайнида пракрит ва апабҳаранша босқичларидан ўтиб келган ва ушбу тиллар таркибидаги асосий қисмини ташкил этган. Мумтоз ҳинд тилшунослигида барча ҳинд орий тиллари санскритдан келиб чиққан деб тан олинишига кўра, бу гуруҳ сўзлари “тадбҳава” яъни “шундан пайдо бўлган” деган маънони билдиради.

Арддҳа-татсам – яъни “ярим татсама” Бу сўз гуруҳи мазкур икки гуруҳга нисбатан оралиқ ҳолатга эга бўлиб, бу гуруҳга санскритдан чиқиб, янги ҳинд-орий тиллар таъсири остида фонетик ва имловий жиҳатдан ўзгариб келган эски адабий тил ўзлашмалар киради. Кўп сўзлар татсама, тадбҳава ва арддҳа-татсаманинг уч шаклида учрайди, баъзиларида учала шакл ҳам мавжуд эмас.

Ҳинд тилидаги деярли барча феъллар “тадбҳава” сўзлари ҳисобланади. отларнинг кўп қисми эса “татсама” ва “тадбҳава” сўзларига тегишли, баъзи отлар арддҳа-татсам гуруҳига ҳам мансуб.

Видеши – четдан ўзлашган сўзлар. Ҳиндистонга қилинган кўплаб мустамлакачилик юришлари натижасида бу сўзлар миқдори кескин бойиб борган.

Деши – (маҳаллий, ерли) булар асосан санскрит билан таққосланганда тил тизимига ёт бўлиб, баъзилари дравид ва мунда сарчашмаларидан, қолганлари эса келиб чиқиши номаълум бўлган сўзлардир. Миқдоран дешилар луғатда бениҳоя камчиликни ташкил этадилар.

Бўлиён ки шабд шева сўзлари. [1]

Асосий гуруҳни бу ерда тадбҳава сўзлари ташкил қилади. Тадбҳава ҳиндий тилининг ўз лексикаси бўлиб, ишда ушбу сўзлар мазкур гуруҳни ташкил этди: **अँगूठा, अँगुली, आँख, उँगली, कंधा, कलेजा, काँख, कान, कुहनी, गला, गाल, गुरदा, घुटना, छाती, जीभ, टाँग, दाँत, नस, नाक**.

Иккинчи ўринни эса кўплик жиҳатдан форс, араб ёки видеши гуруҳига мансуб сўзлар ташкил этади:

a) араб сўзлари: क़दम

b) форсий сўзлар: कमर, गुरदा, चेहरा, जिगर, ज़बान, दिल

Учинчи гуруҳни татсама (худди санскритдек) अंग, कँठ, कक्ष сўзлари ташкил этади. Лекин тадқиқот жараёнида **कक्ष** сўзига В.М.

[1] Шоматов О.Н. Жанубий Осиё тилларига кириш. И қисм. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2003. –Б. 39.

Бескровнийнинг ИИ томли «Хинди-русский словарь»[1] луғатининг биринчи томи юзасидан изланганда ФБ учратилмади.

Юқорида фаол ва нофаол соматик компонентли сўзларнинг этимологик(тадбҳава, форсий, араб, санскрит) таҳлили кўриб чиқилди.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, соматик сўзлар фаол ва нофаол қисмларга ажратилишида таҳлилга тортилган сўзлар ўрганиб чиқилди. Шу билан биргаликда мақолада ушбу сўзларнинг келиб чиқиши ҳам ўрганилди. Ҳинд тилидаги барча шеваларга тақсимлаб чиқилган юқоридаги сўзлар орасида кўпчилигини тадбҳава гуруҳига мансублари ташкил этди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шоматов О.Н. Жанубий Осиё тилларига кириш. И қисм. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2003. –Б. 39.

2. English-russian dictionary. M. Русский язык 1981. – 343 p.

3. Бескровный В. М., Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Хинди русский словарь. в 2-х томах. около 75 000 слов. Т I. – М.: Советская Энциклопедия, 1972. – 905 б.

4. Виноградов. В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. – М.: Наука, 1977. – 209 с.

5. Кунин А.В. О фразеологической номинации. Фразеологическая семантика: – М.: Сб. науч. тр. 1983. – 231 с.

6. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. – М.: Academia., 2004. – 113 с.

[1] В.М.Бескровный, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Хинди русский словарь. в 2-х томах. окола 75 000 слов. Т I. – М.: Советская Энциклопедия., 1972. 905 с.

ИСТОРИЯ ВОПРОСА О ТРАНСПОЗИЦИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Иномжонова Мадина Илхомжоновна
Магистрант 1-го курса ТГУВ
Науч. рук.: DSc. доц. С.А. Хашимова

Изучение языка в Китае имеет довольно длительную историю. В наиболее общем виде в развитии китайского языкознания можно выделить два периода: традиционное языкознание и современное.

Первый этап. Изучение языка основывается на тех принципах и методах, которые сложились вне влияния европейской науки, т.е. это «период развития традиционной китайской филологии», во время которого на китайское языкознание не оказывало влияние европейское языкознание. Его иногда называют этапом «дограмматических» исследований. Характеристика:

1. толковании канонических произведений (комментаторские труды, канонические тексты);
2. появление словарей служебных слов (чтобы научить писать на вэньяне, обучить чтению на вэньяне, и тем самым помочь в постижении смысла канонических произведений);
3. не преследовалась цель изучить грамматический строй китайского языка;
4. совершенствование научной речи;
5. сохранение классических письменных памятников.

Второй этап. Это этап грамматических исследований современного китайского языкознания [1]. Указанные периоды разграничиваются 1898 г., с появлением работы Ма Цзяньчжуна «Грамматика письменного языка, [написанная] Ма» [2]. Так, современный этап характеризуется целостным системным представлением о языке[3]. Формирование грамматики китайского

---

[1] Конрад Н.И. О национальной традиции в китайском языкознании / Н.И. Конрад // Вопросы языкознания. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1959. – № 6. – С. 18–27.

[2] 馬建忠著 馬氏文通 北京，商务印书馆，1998. Ma Jianzhong. Ma Shi wen tong. – Beijing: The Commercial press, 1998. – 448 p.

[3] Кирюхина Л.В. Становление грамматической традиции в китайском языкознании: опыт системного анализа грамматики Ма Цзяньчжуна: дис ... канд. фил. наук: 10.02.19 / Л.В. Кирюхина. – ФГБОУ ВО «Бурятский гос. университет», 2018. – 209 с.

языка приходит примерно в XIX в. и соответственно, выделение частей речи в грамматике, становится актуальной темой для китайских ученых.

Первая попытка описания частей речи в китайском языке принадлежит Г. Габеленцу [1], однако серьёзного влияния на китайскую науку эта работа не имела.

Идея существования функциональных классов слов была развита в «Новой грамматике китайского национального языка» (新著国语文法) Ли Цзиньси (黎锦熙)[2], утверждавшего необходимость опоры на синтаксические признаки в классификации слов (依句辨品,离句无品 «Классы определяются на базе предложения, вне предложения классов нет»), тем самым поставив на первое место синтаксический критерий выделения, опирающийся на заложенную европейской традицией корреляцию между центральными грамматическими понятиями – частями речи и членами предложения.

В XX в. была выдвинута идея создания грамматики китайского языка по индоевропейскому образцу через отрицание классов[3]. Лингвистическая наука в Китае во второй половине XX в. пришла к постулированию необходимости учёта всех дистрибутивных возможностей и связей слов, реализующихся при сочетании их между собой в синтагмах и предложениях. Опустив изложение многочисленных проблем и вопросов, ставших предметом длительной лингвистической дискуссии в советском и китайском языкознании, описание которых представлено в «Проблема частей речи в китаеведении»[4].

По мнению Ван Ли, части речи китайского языка не могут быть выделены, если исходить из самого слова; необходимо учитывать его позицию в предложении, его функции, и только тогда можно

---

[1] Gabelentz Georg. Chinesische Grammatik. – Leipzig: T.O. Weigel, 1881. 552 p.

[2] 黎锦熙著 新著国语文法 长沙, 湖南教育出版社，2007. 347 页. Li Jinxi. A new grammar of the Chinese national language. – Changsha, Hunan Education Press, 2007. – 347 p.

[3] Гао Минкай. Проблемы частей речи в китайском языке / Минкай Гао // Вопросы языкознания, 1955. – № 3. – С. 42–53.

[4] Шутова Е.И. Проблема частей речи в китаеведении / Е.И. Шутова // Вопросы языкознания, 2003. – № 6. – С. 47–64.; Яхонтов С.Е. Понятие частей речи в общем и китайском языкознании / С.Е. Яхонтов // Проблемы китайского и общего языкознания. К 90-летию С.Е. Яхонтова. – Санкт-Петербург: НП-Принт, 2016. – С.160–170.;

будет установить, к какой части речи принадлежит данное слово[1]. Ван Ли полагает, что деление на части речи должно производиться по передаваемому словами значению и по функциям слов в предложении. Лексическое значение и грамматические функции следует рассматривать в единстве, нельзя полагаться только на один из этих критериев.

М.Б. Бергельсона отмечает, что для китайского языка свойственно отсутствие словоизменительных характеристик, скупость формальных средств выражения грамматических значений, что приводит к тому, что о частях речи в изолирующих языках приходится говорить как о скрытой категории[2].

В современном китайском языке транспозиция является широко распространенным явлением среди частей речи. Существует мнение, что самым сложным и в силу этого наиболее спорным вопросом, связанным с проблемой частей речи в китайском языке, является вопрос об использовании одного и того же слова в функции нескольких частей речи.

Китайские лингвисты по-разному именуют данное явление: 词类活用 свободное употребление частей речи; 一词多类 одно слово – несколько частей речи; 词的分隶 раздельная отнесенность слова; 用分隶 раздельная отнесенность слова при свободном употреблении[3].

Свободное перемещение слова из одной синтаксической позиции в другую и как следствие этого межкатегориальные замены, означающие своеобразный обмен функциями между частями речи, – в этом и заключается сущность транспозиции.

Употребление слова в разных функциях, в зависимости от его вхождения в то или иное синтаксическое образование, в европейской лингвистической традиции обычно называют *“функциональной транспозицией”* [4]. В китайском языке функциональная транспозиция – широко распространенное

---

[1] Ван Ли. Части речи / Ли Ван // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1989. – Вып. 22. – С. 37–53.

[2] Курдюмов В.А. Курс китайского языка: Теоретическая грамматика / В.А. Курдюмов. – М.: Цитадель-трейд, 2005. – 576 с.

[3] Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989. — С. 25-26.

[4] Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. — М.: 1955. – 130 с.

явление. Часто можно наблюдать переход глагола в существительное. Вместе с тем нередко существительное в силу перемены позиции становится представителем категории глагола. Кроме того, иной раз имеет место и переход глагола в прилагательное, прилагательного в наречие, а также прилагательного в существительное и существительного в прилагательное. Транспозиция иногда сопровождается появлением ранее не свойственной лексической единице парадигмы словоизменения.

Если транспозиция не сопровождается изменением морфологического окружения и, следовательно, образованием новой парадигмы словоизменения, а результатом данного процесса является лишь изменение синтаксических функций исходной лексической единицы, то эту разновидность транспозиции обычно называют *синтаксической транспозицией*[1].

Можно констатировать, что в современном китайском языке определенные группы слов употребляются в разных синтаксических функциях, постоянно допускают различные транспозиции и при этом не изменяют свою внешнюю словообразовательную форму.

Для китайского языка, особенно для его старой литературной нормы вэньянь, наиболее характерным процессом является именно синтаксическая транспозиция, то есть употребление одного и того же слова в функции разных частей речи. В китайском языке „слово, не распадаясь на омонимы, может совмещать признаки нескольких частей речи”[2]. Под синтаксическим способом словообразования подразумевается образование новой лексики путем сложения слов или корней[3].

Если же транспозиция связана с изменением лексико-морфологического окружения и как следствие этого возникает ранее не присущая лексической единице парадигма словоизменения, а также проявляются иные синтаксические свойства, то

[1] Горелов В.И. Лексикология китайского языка. − М.: Просвещение, 1984. − 321 с.
[2] Короткое Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка. — М.: 1968, с. 397.
[3] Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация. аффиксация ва конверсия. Монография. – Ташкент, 2020. – 375 с.

такую разновидность транспозиции принято называть *морфологической транспозицией или конверсией*[1].

Морфологическая транспозиция, часто именуемая конверсией (конверсионной транспозицией), – это способ словообразования с помощью парадигмы словоизменения без привлечения в качестве словообразовательного средства специального структурного компонента (специальной деривационной морфемы). Образование нового слова происходит путем перемещения какой-либо основы в другую парадигму словоизменения. Таким образом, конверсию определяют „*как процесс морфологической транспозиции основы*"[2].

Для китайского языка с его слаборазвитым формообразованием конверсия как процесс морфологической транспозиции не является широко распространенным явлением, и созданные по конверсии слова не образуют сколько-нибудь последовательной парадигмы словоизменения. Им присущи лишь единичные словоформы, своего рода "фрагменты" парадигмы[3].

Морфологическую транспозицию, имеющую словообразовательный характер, применительно к особенностям этого процесса в китайском языке можно было бы, по аналогии с полуаффиксацией, назвать полуконверсией.

Существует также иная интерпретация данного явления. Некоторые исследователи китайского языка полагают, что в этом случае возникают так называемые *конверсионные омонимы*[4].

Поскольку в китайском языке значение части речи у большинства слов не закреплено морфологически, одно и то же слово способно совмещать функциональные признаки нескольких частей речи. Как следствие этого возникли классы слов, которые частично пересекаются между собой.

Гао Минкай и некоторые другие ученые полагают, что слова в китайском языке могут иметь синтаксические признаки разных

---

[1] Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989. — С. 26-27.

[2] Кубрякова Е. С. Деривация, транспозиция, конверсия. — Вопр. языкознания, 1974, № 5, С.75.

[3] Горелов В. И. Лексикология китайского языка. — М., 1984.— С.92-98

[4] Хаматова А. А. Лексическая омонимия в современном китайском языке: Автореф. дис. ... к.ф.н. — М., 1977.— С. 11.

частей речи, но не представляется возможным распределить их по определенным лексико-грамматическим классам[1].

Другие ученые, которые стараются найти приемлемое решение проблемы, не считают данное обстоятельство непреодолимым.

Китайский лингвист Шы Цуньчжи полагает, что свободное употребление частей речи, хотя и представляет собой явление, часто наблюдаемое в китайском языке, однако с точки зрения общих закономерностей языка оно является особым явлением и нельзя отрицать возможность классификации слов по частям речи[2].

Ван Ли пишет: Хотя мы признаем, что в китайском языке имеет место такое явление, как отнесенность одного слова к нескольким классам, мы, однако, не признаем, что существует такое явление, как перемещение слова из одного класса в другой". И далее: „Мы должны подчеркнуть, что те или иные слова относятся к определенной части речи и что в состав тех или иных частей речи входят определенные слова. Тем более, что отнесенность слова к нескольким частям речи не столь уж широко распространенное явление"[3].

Н. Н. Короткое отмечает, что за противоречием, которым чревато одновременное утверждение о лексико-грамматической природе классов слов китайского языка и о возможности совмещения значений нескольких частей речи, скрывается противоречие, присущее реальной действительности китайского языка. Причину данного противоречия он видит в том, что не только в древнем, но и в современном китайском языке у большинства слов значение части речи не закреплено морфологически. В силу этого не произошло распределения словарного состава по категориям частей речи.

Исходя вышесказанного, мы придерживаемся понятия «функциональная транспозиция», так как в китайском языке наблюдается и морфологическая и синтаксическая транспозиция. Однако стоит отметить, что функциональная транспозиция особенно характерна для языков изолирующего типа, так как в них

---

[1] Гао Минкай. Теория китайской грамматики. – Шанхай 1948, Пекин, 1957.

[2]史存直。语法三论。上海，1978 年，97 页。

[3]王力。词类。上海，1957 年，20 页。

конкретизация лексической единицы происходит главным образом в зависимости от занимаемой ею синтаксической позиции.

Таким образом, в китайском языке главным представляется следующее: в изолированной форме определить часть речи невозможно, однако существует градация по частотности употребления слова в той или иной форме. Сомнительной, однако, представляется возможность выделения частей речи на основе частотности употребления в той или иной функциональной парадигме с потенциалом изменений.

Использованная литература

1. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: 1955. – 130 с.
2. Ван Ли. Части речи / Ли Ван // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1989. – Вып. 22. – С. 37–53.
3. Гао Минкай. Проблемы частей речи в китайском языке / Минкай Гао // Вопросы языкознания, 1955. – № 3. – С. 42–53.
4. Гао Минкай. Теория китайской грамматики. – Шанхай: 1948. – 154с.
5. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. − М.: Просвещение, 1984. − 321с.
6. Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989. – 267с.
7. Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар: лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил. − Т.: ТошДШИ, 2003. − 119 б.;
8. Кирюхина Л.В. Становление грамматической традиции в китайском языкознании: опыт системного анализа грамматики Ма Цзяньчжуна: дис ... канд. фил. наук: 10.02.19 / Л.В. Кирюхина. – ФГБОУ ВО «Бурятский гос. университет», 2018. – 209 с.
9. Конрад Н.И. О национальной традиции в китайском языкознании / Н.И. Конрад // Вопросы языкознания. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1959. – № 6. – С. 18–27.
10. Короткое Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка. – М.: 1968, 397 с.
11. Кубрякова Е. С. Деривация, транспозиция, конверсия. – Вопр. языкознания, 1974, № 5, С.75.

12. Курдюмов В.А. Курс китайского языка: Теоретическая грамматика / В.А. Курдюмов. – М.: Цитадель-трейд, 2005. – 576 с.

13. Мустафаева С.Т. Хитой тили тилшунослик терминлари тизимининг шаклланиши ва тараққиѐти. – Тошкент: ТошДШИ, 2016. – 196 б.

14. Хаматова А. А. Лексическая омонимия в современном китайском языке: Автореф. дис. ... к.ф.н. – М., 1977.– С. 11.

15. Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация. аффиксация ва конверсия. Монография. – Ташкент, 2020. – 375 с.

16. Шутова Е.И. Проблема частей речи в китаеведении / Е.И. Шутова // Вопросы языкознания, 2003. – № 6. – С. 47–64.; Яхонтов С.Е. Понятие частей речи в общем и китайском языкознании / С.Е. Яхонтов // Проблемы китайского и общего языкознания. К 90-летию С.Е. Яхонтова. – Санкт-Петербург: НП-Принт, 2016. – С.160–170.;

17. Gabelentz Georg. Chinesische Grammatik. – Leipzig: T.O. Weigel, 1881. 552 p.

18. 史存直。语法三论。上海，1978 年，97 页。

19. 王力。词类。上海，1957 年，20 页。

20. 馬建忠著 馬氏文通 北京，商务印书馆，1998. Ma Jianzhong. Ma Shi wen tong. – Beijing: The Commercial press, 1998. – 448 p.

21. 黎锦熙著 新著国语文法 长沙, 湖南教育出版社，2007. 347 页. Li Jinxi. A new grammar of the Chinese national language. – Changsha, Hunan Education Press, 2007. – 347 p.

НАҲВ ИЛМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА БАСРА МАКТАБИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Аҳмаджонов Абдулазиз Абдуқаюм ўғли
ТДШУ 1-курс магистранти
Илмий раҳбар: Dr. Sayyid Kurayyim

Араб тили грамматикаси – наҳвнинг ривожланишига, Ирокнинг икки- Басра ва Куфа шахарларидаги илмий мунозаралар ва уларнинг жушқин фаолиятлари катта таъсир курсатди.

Бу борада “Зияус-солик ила авзоҳ ал-масалик”китобида шундай дейилади: “Ироқ Дажла ва Фурот дарёларининг орасида жойлашган, иқлими мусаффо, ерлари ҳосилдор ўлкадир. У ерда Эрон, Калдон, Бобил каби илм-фан ва маданият ривожланган давлатлардан кириб келган турли хил миллатга мансуб аҳоли истиқомат қилар эди. Кейинчалик эса, Робиъ ва Музор каби араб қабилалари аста секин кўчиб кела бошлади. Бу қабилалар ичида оддий аҳоли қаторида олий насаб, зиёли табақа вакиллари ҳамда турли хил тарафлардан келган олимлар ва адиблар ҳам кўпчиликни ташкил қилар эди. Шу сабабли тарихчилар эътироф қилишича, жуда қисқа давр мобайнида Ирок илм-фан ва маданият ўчоғи, қолаверса, наҳв ва сарф илмлари ривожланган дастлабки шаҳардир. Ироқ иқлими мусаффо, ерлари унумдор ва яшаш учун қулай минтақа бўлганлигидан ҳар хил миллатга мансуб аҳоли кўпайиши натижасида, энди у ерда янги шаҳарлар бунёд этила бошланди. Дастлаб, ҳижрий 14/635-йил Умар ибн Хаттоб розияллоҳу анҳу халифалик вақтларида, Ироқнинг Нажд саҳросига яқин жанубий ғарбида Басра шаҳри бунёд этилган бўлса, ҳижрий 17/638-йилда эса Ироқнинг саҳродан узоқроқ шимолий қисмида жойлашган Куфа шаҳрига асос солинди. Шаҳарлар бунёд этилгандан кейин уларда истиқомат қилувчи турли хил миллатга мансуб аҳолилар орасида қабилавий зиддиятлар келиб чиқа бошлади. Кейинчалик бу келишмов-чиликлар сиёсий, ҳаттоки, илмий тортишувларга ва шаҳарлар аро хилма хил фикрларни юзага келтирди.[1]

---

[1] Имом Муҳаммад Абдулазиз ан-Нажжар. Зияус солик ила авзоҳил масалик. Муассасату рисала. 1- нашр 1422ҳ 2001м

Дарҳақиқат, араб тилшунослигининг яратилиши, ривожланиши ва тез фурсатда мукаммал даражага етишлигида Басра тилшунослик мактаби муҳим аҳамият касб этган. Тан олиш керакки, наҳв илми Басрада вужудга келди ва энг кўзга кўринган олимлар ҳам айнан шу юртда ўз иқтидорларини намоён қилишди.

Бу ҳақида Муҳаммад Абдулазиз ан-Нажжор ўзларининг "Зияус-солик ила авзоҳил-масаалик" асарида қуйидаги маълумотларни келтириб ўтади: "Басра Нажд саҳросига яқин бўлгани сабаб, у ерга савдо ишлари билан турли шаҳарлардан савдогарлар кела бошлади. Улар орасида олимлар, шоирлар ҳам бор эди. Кейинчалик, шаҳарда шеърият ва адабиёт уламолари ўртасида турли хил мунозаралар бошланиб кетди. Наҳв олимлари араблар оғзидан соф араб лаҳжасини эшитиш учун анжуманлар ўтказар эди. Бу ишлар уларга наҳв қоидаларини тартиблаб, режага солишга ёрдам берди".[1]

Қолаверса, Басра шаҳрига қўшни мамлакатлардан одамлар наҳвшунослардан таълим олиш учун келишар ва тўплаган билимларини ўз шаҳарларига олиб кетардилар. Шу сабаб Басра мазҳаби Куфа мазҳабидан кўра кенгроқ тарқалган. Қолаверса, бу ишларга Умавий халифалари ҳам ёрдам берди. Басра наҳв, луғатшунослик ва уларни китоб қилиб ёзишлик билан машғул бўлган дастлабки шаҳар деб эътироф этилади. Сибавайҳ Басра наҳв мактабининг етук намоёндаси ва унинг ёзган китоблари асосий қўлланма ҳисобланади. Бундан ташқари Ахфаш, Юнус ибн Ҳабиб, Язидий, Жаримий, Мозиний, Мубаррад, Зажжож ибн Сирож, Ибн Дарствайҳ Форисий, Сирожий ва бошқалар Басранинг машҳур уламоларидир. Басра наҳв уламолари ўнта табақага бўлинишган.

Шайҳ Муҳаммад Тантовий ўзларининг "Нашъатун-наҳв ва тариху ашҳурун-нуҳат"("Наҳв илмининг пайдо бўлишига машҳур наҳвшунослар тарихи") асарларида Басра уламоларининг етти ва Куфа уламоларининг беш табақасини бир жадвалга тартиблаб батафсил баён қилганлар.

---

[1] Имом Муҳаммад Абдулазиз ан-Нажжар. Зияус солик ила авзоҳил масалик. Муассасату рисала. 1- нашр 1422ҳ-2001м

2 Шайҳ Муҳаммад ат-Тантовий. Нашъатун-наҳв ва тариху ашҳурун-нуҳат. "Дорул маъориф" 3-нашр.Қоҳира. 2005.326-б

Куфа мактабининг шаклланиши ва ривожланиши

Басрадан бир оз кейин Куфа шаҳрида хам грамматикани ўрганувчи мактаб пайдо бўлди. Куфа шаҳри араблар яшайдиган Нажд саҳросидан узоқда жойлашганлиги учун у ерга соф араб тилида сўзлашадиган араблар камроқ кўчиб келган.Шундай бўлишига қарамай Куфаликлар ҳам ўзлари учун басраликлар мазҳабига тенглаша оладиган ва рақобатлашадиган хос бир мазҳаб туздилар. Икки мактаб ўртасида кўп масалаларда турли хил қарашлар бўлди. Куфаликлар басраликлардан кўра кўпроқ шеър ривоят қилишган.

Куфа мазҳабининг кўзга кўринган намоёндаларидан Абу Жаъфар Руосий ва унинг икки шогирди Кисоий ва Фарролардир. Бундан ташқари Ҳишом ибн Муовия, Ибн Сиккит, Ибн ал-Аробий, Тувал ибн Саъдон, Ибн Кайсон, Анборий, Нафтавайҳлар ҳам Куфанинг машҳур олимлари сирасига киради.[1]

Ўрта асрда яшаган наҳвшунослар ҳар икки мактаб ўртасидаги ихтилофли масалаларни ўрганиб чиқиб, бу масалалар борасида бир қанча асарлар битишган. Мазкур асарларнинг энг мўътабарлари билан қуйида қисқача танишиб чиқсак:

1. Бағдод наҳв мактаби вакили Абул Ҳасан Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Иброҳим ибн Кайсоннинг “ал-Масааил аъла мазҳаб ан-наҳвиййин миммахталафа фиҳий ал-басриййин вал-куфийин” (Басра ва Куфа грамматика мактаби наҳвчилари ихтилоф қилган масалалар) асари.

2. Бағдод тилшуносларининг яна бир вакили Камолиддин Абул-Баракот Абдурраҳмон ибн Муҳаммад ибн Аби Саййид ал-Анборийнинг (513/1119-577/1181йил) “ал-Инсоф фий масоил ал-хилоф байнан-наҳвиййин ал-басриййин вал-куфиййин” (Басра ва Куфа наҳвшунослари ўртасидаги ихтилофли масалаларга холислик, инсоф билан ёндошиш) асари. Ўз даврининг кўзга кўринган тилшунос, фақиҳ, Бағдоддаги Низомиййа мадрасасининг устозларидан бири бўлган.

Анбарий ўзининг “Ал-инсоф” деб номланмиш бу асарида икки мактаб ўртасидаги ихтилофли масалаларга ўз фикрини баён қилиб, изоҳлайди. Мазкур асар икки мактаб ўртасидаги 121 та

[1] Имом Муҳаммад Абдулазиз ан-Нажжар. Зияус солик ила авзоҳил масалик. Муассасату рисала. 1- нашр 1422ҳ 2001м

мубоҳасали масалани ўзида жамлаган бўлиб, бу масалаларнинг еттитасида (10, 18, 26, 70, 97, 101, 106-чи масалалар) Куфа грамматика мактабининг келтирган далиллари асосли деб топилади. Қолган 114 та масалада Ал-Анборий басраликларга ён босади.

3. Убул-Бақо ал-Абкарийнинг (1143/537-1219/816) “ат-Тибён фий масоил ал-хилоф байна ал-басриййин вал-куфиййин”(Басра ва Куфа тилшунослари ўртасидаги ихтилофли масалалар баёни) асари.

4. Миср наҳв мактаби намояндаси Жалолуддин ас-Суютийнинг ”ал-Ашбаҳ ван-назоир” ва бошқа бир қанча асарлари. Ас-Суютий мазкур асарида Басра ва Куфа мактаблари ўртасидаги фикр ихтилофларини бир-бири билан солиштириб, уларни 102 та ихтилофли масалага ажратиб, қисқа шаклда шарҳ қилган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Маҳмуд аз-Замахшарий. ал-Унмузаж/Муқаддима. – Тошкент: Тошкент ислом университети. 2001.
2. Шайх Камолуддин Абул-Барокат Абдурроҳман ибн Муҳаммад ибн Абу Саид ал-Анборий ан-Наҳвий. Ал-Инсоф фий масоил ал-хилаф байнан-наҳвиййин ал-басриййин вал-куфиййин.– Қоҳира: Дарут-талааъи.2005.
3. Шайҳ Муҳаммад ат-Тантовий. Нашъатун-наҳв ва тариху ашҳурун-нуҳат.–Қоҳира: Дорул маъориф. 3-нашр. 2005.
4. Шайх Жалолуддин ас-Суютий. ал-Ашбаҳ ван-назоир фин-наҳв.–Байрут: Дарул-кутуб ал-илмия.
5. Муҳаммад Муҳйиддин Абдулҳамид. Ал-Интисоф минал-инсоф.–Қоҳира: Дарут-тлааъи. 2005.
6. Шайҳ Абул-Бақо ал-Абкарий. Масоилал-хилафия фин-наҳв.–Байрут: Даруш-шарқ ал-аробий. 1992.

FARMATSEVTIK TERMINLAR TUSHUNCHASINING TAVSIFI VA NAZARIY ASOSLARI

Usmanova Nodira Lutfullayevna
TDSHU magistratura talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Q. Omonov

Turk tilida farmatsevtik terminlar mavzusi hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun o‘ziga xos qiziqarli va sermahsul mavzudir. Hozirga qadar bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamiga nazar solinsa, Turk tilidagi farmatsevtik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari mavzusi yangi ekanligi hamda farmatsevtik terminlarni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari unchalik ko‘p emasligi ko‘zga tashlanadi. Tilshunoslikda Farmatsevtik terminologiya bo‘yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan, biroq Turk tilidagi farmatsevtik terminlarning leksik-semanrik xususiyatlari izchil o‘rganilmagan.

O‘zbekiston Respublikamiz va Turkiya Respublikasi o‘rtasida farmatsevtik hamkorlik aloqalarining zamonaviy talablari tilshunoslik fani oldiga Turk tilidagi farmatsevtik terminlarni ilmiy tadqiq qilish zaruratini qo‘yadi.

Ushbu maqolada tilshunoslik uchun dolzarb mavzu, ya’ni Turk tilidagi dori vositalari nomlari, boshqacha aytganda farmatsevtik terminlar va ulardagi leksik-semantik o‘ziga xosliklar tadqiq qilinadi.

Turk tilidagi farmatsevtik terminlar xalqaro tibbiy atamalar bilan chambarchas bog‘liq. Farmatsevtik kimyo fani, uning shakllanishi va rivoji qadimiy tarixga ega hamda jahon kimyo, tibbiyot va boshqa fanlari rivojiga hissa qo‘shgan sohadir.

Insonlar o‘rtasida lisoniy aloqalarning asosi so‘z hisoblanadi. Insonlar o‘z ona tillarida fikrlaydilar va o‘z fikrlarini ifoda etishadi. Bu munosabatda so‘zlar xabar tashuvchi va tinglovchiga etkazuvchi muhim vosita rolini bajaradi. Oddiy muloqotda so‘zlar o‘ylangan fikrlarni suhbatdoshga tushuntira olish uchun leksik qurol vazifasini bajaradi. So‘z bizning ongimizga til mexanizmida markaziy tushuncha sifatida o‘rnashadigan birlikdir[1].

[1] 42. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1997.

M. D. Stepanova[1], A. A. Ufimseva[2], E. S. Aznaurova[3], L. A. Kiseleva[4], M. V. Nikitin[5] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy leksikologik asarlarida so‘zning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat deb keltiriladi:

a) atash funksiyasi;

b) mazmun berish funksiyasi;

c) pragmatik funksiya;

d) kommunikativ funksiya;

e) identifikatsiyalash funksiyasi.

Ijtimoiy turmush insonlarning turli sohalar bo‘yicha fikr almashinuvini taqozo etadi.Fan-texnika sohasida olib boriladigan ishlar shu sohadagi maxsus so‘zlar ishtirokida amalga oshiriladi. Ushbu maxsus so‘zlar soha terminologiyasining shakllanishida asosiy qurol vazifasini bajaradi.

“Fan-texnikaning zamonaviy rivojlanishi bilan bog‘liq yaratilayotgan terminlarning 90 foizi maxsus terminlardan iborat bo‘lmoqda” deb yozadi Davletukayeva A. Sh. “Termin tushunchasi va mohiyati”[6] nomli maqolasida.

Akademik V.V.Vinogradov terminologiyani tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi bilimlar qomusiga tenglashtiradi[7].

Terminlar soni va hajmining bunday o‘sib borishi u yoki bu sohaga tegishli terminlarni o‘rganishning ahamiyati ortib borayotganligini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Ilmiy tushuncha va faktlarni tushuntirishda fanning biror sohasiga tegishli terminologiya qo‘llaniladi.Til va fanni ikki alohida obyekt deb qaralsa, ularni bir-biriiga bog‘lovchi vosita terminologiya bo‘ladi. Terminologiya til va fan obyektlari o‘rtasidagi rishta vazifasini bajaradi va ularni bo‘g‘laydi.Terminologiya ilmiy tilning shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.Sababi terminologik birliklar biror tilni tashkil etuvchi asosiy mahsulot hisoblanuvchi so‘zlardan quriladi.

---

[1] Степанова М.Д. Методы синхронного анализа лексики (на материале немецкого языка). – М.: Высшая школа, 1998.

[2] Уфимцева А.А. Принципы семиологического описания лексики. – М.: Наука, 1996.

[3] Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1998.

[4] Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Л.: Издательство ЛГУ, 1998.

[5] Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высшая школа, 1998.

[6]Давлетукаева А.Ш. Источник: https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=4594

[7] В.В.Виноградова, «история терминологии — это повесть о закономерностях развития знаний о природе и обществе» (1961).

A.A.Reformatskiy o‘zining “Мiсли о терминологии” nomli kitobida terminlar borasida o‘z fikrlarini bayon etgan: “Terminologiya ilm-fan, texnika, rasmiy-ish tili tarmoqlari va ularga tegishli bo‘lgan tushunchalarni aks ettirish uchun ishlatiladigan adabiy til leksik tizimining shakllangan bir bo‘lagidir. Terminlar qaysi sohaga oid ekanligiga ko‘ra o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘ladi va ular orasidagi bu bog‘liqlik terminlar tizimini tashkil etadi.”[1] Olim terminga ta’rif berar ekan, “... terminlar – bu maxsus so‘zlardir” degan xulosaga keladi.

A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasb korlikda ishlatiladigan so‘zlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi;

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.

2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U o‘z fikrini davom ettirib, “Termin bilan professionalizmlar o‘rtasidagi farq shuki, *termin* bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, *professionalizm* esa biror kasbga, mutaxassislikka oid, ko‘pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat’iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zlardir”,-deydi[2].

XIX asr o‘rtalarida Yevropa olimlaridan F. Grinaf, E. Katrij, E. Jilber, G. Eggeberx kabilar tildagi termin va terminologik tizim to‘g‘risida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Terminlar, terminologik tizimlar va terminologiya butun leksik qatlam sifatida ko‘pgina tilshunoslarning tahlil obyekti bo‘lgan. D.S. Lotte, D.M. Volfberg, T.S. Kirillova, V.F. Novodranova, N.L. Serdyukova, L.V. Gil, K.Y. Peshkova, N.A. Pushkin, V.N. Komissarov kabi olimlarning terminologiya borasidagi ishlarini ko‘rib chiqish jarayonida ilmiy-texnik uslubning *maxsus umumiy texnik* terminlar qatlami o‘ziga xos til qatlami ekanligi o‘z tasdig‘ini topadi.

Maxsus lug‘atlar atamalarni, terminologik jihatdan belgilangan tushunchalar va obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlarni, ularning xususiyatlari va qat’iy belgilangan birikmalarda ishlatiladigan ixtisoslashgan umumiy so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

S.V. Tyulenevning ta’kidlashicha, ilmiy adabiyotlarning umumiy til

---

[1] Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современны XIX е проблемы русской терминологии. – М.: Наука, 2006.

[2] Javlieva J.J., Kuldashev A.M. Terminologiya masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili. 452-bet.

lug‘ati ushbu leksik qatlamning sinonimlarining rivojlangan tizimini tashkil qiladi. Odamlar bilish faoliyati jarayonida obyektiv olamning narsa va hodisalari haqida umumlashtirilgan g‘oyalar yaratadi; bu g‘oyalar tushunchalarda o‘z aksini topadi. Tushunchalar ma’lum so‘zlar bilan ifodalanganligi sababli, atama mos ravishda, "maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va maxsus obyektlarni belgilash uchun yaratilgan (qabul qilingan, o‘zlashgan) maxsus (ilmiy, texnik va boshqa) ibora sifatida qaraladi. Har qanday maxsus sohasining o‘ziga xos terminologiyasi mavjud.

Z.I. Komarovaning fikriga ko‘ra, professionallik (so‘zlashuv terminlari) va jargon (professional jargon) atamalar rasmiy, mutaxassislar doirasida umumiy qabul qilingan, stilistik jihatdan neytral, umumiy qabul qilingan so‘zlardir. Biroq, hozirgi kunga qadar atamalarning mohiyatini to‘liq aks ettiradigan va atamalarning barcha tipologik turlarini qamrab oladigan umumiy qabul qilingan ta’rif mavjud emas, chunki bu tushunchaga xos bo‘lgan universallikni toliq aks ettirish qiyin.

Florenskiyning ta’kidlashicha, atama “oddiy so‘zning varianti yoki uning asosiy prinsipi xususiyatlariga va yangi, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan maxsus yaratilgan birlikdir”. Turli lug‘at va ma’lumotnomalarda “termin” atamasining ta’rifiga yondashuvlar ham turlicha.

Katta Sovet Entsiklopediyasida termin tushunchasining quyidagi ta’rifi berilgan: “Termin – bu qat’iy belgilangan ilmiy tushuncha, belgilangan so‘z yoki so‘zlar birikmasidir”[1].

Zamonaviy rus tili lug‘atining 1991-yil nashrida atama “qat’iy belgilangan falsafiy, ilmiy, texnik va hokazo tushunchalarni bildiruvchi so‘z (yoki so‘zlar birikmasi)”[2] deb aytilgan.

Rus tilining Izohli lug‘atida atama xususida:

- formal mantiqda so‘z bilan ifodalangan tushuncha;

- qat’iy belgilangan tushunchaning nomi bo‘lgan so‘z »[3] deb ta’riflangan.

Bosfor Universiteti Professori Bulent Sanqur turk tilidagi terminlar

---

[1].Большая Советская энциклопедия.

[18.] Словарь современого русского языка.

[19] Тольковый словарь русского языка

[20.] Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. -с.163.

mavzusida o‘z fikrlarini shunday bayon qiladi:

“Terminlar biz uchun muhim, chunki barcha ilmiy diskurslar terminlar asosida olib boriladi.So‘z birikmalarining boyligi sababli ilmiy fikr almashinuv, mulohazalar va muloqotlar tobora samarali bo‘lib bormoqda.Ona tilimizdagi boy terminlar vositasida bilimlarni o‘rganamiz va boshqalarga etkazamiz va shuning bilan birga aqllarga nur yog‘iladi hamda sodda va murakkab tushunchalarni anglab etishimizni osonlashtiradi. Terminlar sohasida millatning tili juda tez yangilanib boradi. Olimlar oldidagi vazifa turk tilidagi terminlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va turk adabiy tilida ularni samarali ishlatishdir.Terminlar fan, texnika yoki madaniyatga taalluqli so‘zlar bo‘lib, tildagi maxsus tushunchalarni, aytaylik matematik, ximik, meditsina, qishloq xo‘jaligi, muhandislik, iqtisod, logistika, musiqa va hokazolarni ifoda etish uchun qo‘llanadi. Ularning oddiy so‘zlardan farqi shundaki, ular anglatadigan ma’no aniq hamda bir odamdan ikkinchi odamga o‘tib borish jarayonida o‘zgarib ketmaydi, bundan tashqari terminlarning ishlatilish miqyosi ham chegaralangan bo‘ladi. Terminlar muloqot jarayonida ortiqcha sharhlarsiz, fikrni to‘g‘ri etkazish imkoniga ega va sohadagi eng kichik detallarni-da to‘g‘ri tushuntira olishga qodir.” Muallif fikrida davom etadi va terminlar borasida shunday ma’lumot keltiradi: “Bugungi kunda *IATE* (Interactive Terminology for Europe) Evropa Interaktiv Terminologiyalari bazasida 1 million terminlar mavjud va jahonning turli 26 ta tillarida 9 millionta yozilgan axborotlar bor, bundan tashqari Terminum Plus portalida 3 milliondan ziyod terminlar ishlatilmoqda.” [1].

Turkiyadagi Turk tili instituti 1930-1980 yillar mobaynida 100 dan ziyod terminologik lug‘atlar yaratdi. XXI asr fan-texnikaning jadal rivojlanishi jahondagi ishlab chiqaruvchilar va sanoatchilarni o‘z mahsulotlarini dunyo bozorlariga olib chiqish istagida xalqaro terminologiyani zudlik bilan o‘zlashtirishga majbur qilib qo‘ydi.O‘z-o‘zidan ko‘p tilli terminologik lug‘atlarga ehtiyoj kuchaydi va talab ortdi.

Bugungi kunda jahon Savdo tashkilotlari, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro banklar va shunga o‘xshash idoralar biznes jarayonlarining samaradorligini oshirish, ortiqcha tarjima xarajatlariga chek qo‘yish kabi maqsadlarda terminlar borasida xalqaro tadqiqotlarni jadallashtir-moqda.Terminlarning muqobillarini topish ishlari ayni vaqtda birvarakayiga ko‘p tillarda teng olib borilmoqda.

[1] Термины, Термины, Термины… Булент Санкур 25 июнь 2019

Professor Bulent Sanqur turk tilidagi terminlar xususida fikr bildirib shunday yozadi:

“-terminlar so‘zlardan yasaladi, tilda so‘zning o‘rni muhimdir. Fikrlar so‘zlar orqaligina yashay oladi. Fandagi ilmiy fikrlar rivoji ayni shu tildagi terminlarning nechog‘lik to‘la qonliligiga bevosita bog‘liqdir.

-insonlar oz ilmiy fikrlarini ona tillarida bayon eta olishlari uchun o‘z ona tillaridagi terminlar fanning barcha sohalarini qamray olgan bo‘lishi lozim.

-terminlarning turk tilida bo‘lishi shuning uchun zarurki, bu tilda gapiruvchi kishilar ilmiy fikrlarni tez va to‘g‘ri tushunib hamda o‘z fikrlarini osonlik bilan tushuntira olmoqlari kerak. Buning natijasida ilmiy yangiliklar omma orasiga chet tilidagi terminlarga qaraganda o‘z ona tilidagi atamalar orqali tezroq etib bora oladi va natijada fan-texnika progressi tezlashadi.”[1]

“Farmatsevtik terminlar mavzusida olib borilgan ilmiy ishlarda lotin tilida yaratilgan atamalar tadqiq qilinib, ularning yasalishidagi qonuniyat jihatlari tizimlashtirilgan:

1. Lotin tilidagi deyarli barcha dorivorlar nomlari sredniy roldagi II turlanishdagi ot so‘z turkumlari sanaladi. Ularning oxiri – um qo‘shimchasi bilan tugaydi: Ampicillinum.Qaratqich kelishigida bu otlarning oxiri –i qo‘shimchasiga o‘zgaradi: Ampicillini. Turk tilida bu so‘zning oxiridagi –um,– i qo‘shimchalari o‘qilmaydi: ампициллин.

2. Sredniy rod II turlanishdagi ayrim otlarning oxiri –ium qo‘shimchasi bilan tugaydi va qaqaratqich kelishigida bu qo‘shimcha – ii shaklini oladi: Chloroformium – Chloroformii

3. Import preparatlarining kam sonli bir guruhiga tegishli otlaring oxiri – a bilan tugaydi: Levodopa, Methyldopa hamda I-turlanish qoidalari asosida turlanadi.

Sifat so‘z turkumi ishtirokida yasalgan so‘z birikmali atamalarda sifat so‘z birikmasining oxirida turadi:Tabulettae Ampicillini Suppositorium, Solutio Lidocaini spirituosa.

1. Bir necha so‘zlar ishtirokida yasalgan atamalarda birinchi so‘z dori shaklini ifoda etadi: solutĭo, unguentum, tinctūra va b.q. So‘z birikmasidagi ikkinchi so‘z esa dori vositasining qaratqich kelishigidagi shaklini bildiradi: Solutĭo Lidocaīni – Lidokain suyuqligi, Unguentum Tetracyclīni – tetratsiklin mazi kabi.

[1] Термины, Термины, Термины… Булент Санкур 25 июнь 2019 (o’sha joyda).

2.Solutĭo Hexoestrōli *oleōsa* – kabi atamalardagi oxirgi so‘z sifat hisoblanadi: *Yog‘li* Geksestrol eritmasi.

Farmatsevtik terminlar tarkibida qat’iy birikmalar mavjud va ular nomning ayrim jihatlaridan dalolat bera oladi. Farmatsevtik atamalar tarkibidagi bunday bo‘laklarni rus tilida “Частотній отрезок” deb ataladi.

-ceph- Cephaloridinum
-cillin- Penicillinum
-cyclin Tetracyclinum
-mycin-, -myco Monomycinum Erythromycinum Mycoseptinum
-sulfa- Norsulfazolum Общего значения
-cycl- Cyclobarbitalum
-hept(a)- Heptavitum (гептавит)
-hex- шесть Hexoestrolum (гексэстрол)
-pyr- “Pyrameinum” Anapyrinum
-aesthes- Anaesthesinum
-cain – Procainum,Tetracainum
-morph Morphinum
-zep– Diazepamum
-zepam- Bromazepamum

Farmatsevtik terminlar bir o‘zakli so‘zlardan yoki murakkab terminlardan tashkil topgan. Shuni qayd etish kerakki, bu terminlarning asosiy qismi lotin tili grammatikasi qoidalariga binoan shakllangan.

Masalan: yurak xastaliklarini davolash bilan bog‘liq preparatlar nomlari:

Kardiostatin, Kardiomagnil, Cardioxin, Carddig atamalarida eski grek tilidagi “καρδία” – yurak so‘zi asosiy ma’no tashuvchi bo‘lak hisoblanadi. Xuddi shuningdek Kordafleks, Cordarone atamalarida lotin tilidagi (cor) – yurak o‘zagi asosiy ma’noni anglatadi.

Tana haroratini tushirish uchun qo‘llaniladigan Reopirin, Pirinase dori atamalari eski grek tilidagi πῦρ – «olov » leksemasi ishtirokida yasalgan.

Safroni haydovchi Xoletar va Xolestagel (Cholestagel) dori vositalari nomlarida eski grekcha χολ (xoln – χολή «safro») so‘zi mavjud.

Grek tilidagi (glyu – γλυ (γλυκύς «shirin») o‘zagi diabet xastaligi bilan bog‘liq dorilar nomlari: Glibomet, Glibenclamide da asosiy o‘zak hisoblanadi.

Monoleksemali farmakonimlar uch turga ajraladi:

1) Sodda
2) Affiksli
3) Murakkab birikmali

- Sodda turga taalluqli atamalarning asosi so‘z o‘zagi bilan mos keladi.
- Affiksli atamalar asos o‘zak hamda affiks qo‘shimchadan iborat bo‘ladi
- Murakkab tarkibli terminlar ikki yoki undan ortiq so‘zlar birikmasidan iborat, masalan: (*photoabsorption* – Qon o‘rnini bosuvchi).

Tibbiy atavalarni yasashda Sufikslar ham ishtirok etadi va ular so‘zga bir necha ma’nolar bera oladi. Ulardan bi nechasini misol keltirish mumkin:

-tion. *Ciliary ganglion preparation; Discontinuation syndromes*;

-ity: *Polydispersity;*

Terminlarning o‘zak qismiga qo‘shilib onomasiologik daraja hosil qiluvchi prefix (so‘z oldi qo‘shimchalsri) dan quyidagilari ko‘proq uchrashi aniqlangan:

- anti- *Antidiuretic hormone, Antiandrogens*
- ad- *Adhesives*
- de- *Decongestants, Dehydropeptidase inhibitors*
- di- *Diacetylmorphine, Dibenzazepines*
- dis- *Disintegrin, Dissociative anesthesia*
- micro- *Microfilaricide*
- in- *Infusion*

Ikki komponentli atamalar tarkibi sifat + ot birligidan hosil qilinadi:

Mutual prodrug – in’ektsion steroidlar;

Neuroactive steroids – in’ektsion kontraseptlar. Сульфаниламидніе препараті):

Uch komponentli atamalar tarkibi ot +ot +ot; sifat+ ot + ot; sifat + sifat = ot; ot+ sifat = ot kabi modrllarda bo‘lishi aniqlangan: *Drug disposition tolerance, Endothelin receptor antagonists, Acĭdum hydrochlorĭcum dilūtum,*

Har bir soha terminologiyasining shakllanish jarayoni adabiy tilga xos bo‘lgan omonimiya, sinonimiya va boshqa xildagi leksik-semantik ko‘rinishlar bilan bog‘liq holda kechadi.

Xulosa:

Turkiya mamlakatida tarixiy farmatsevtik an’analarning davom ettirilishi bu davlatdagi Farmatsevtik sanoatning rivojiga katta hissa

bo‘lib qo‘shilganligini ishda keltirilgan tarixiy ma’lumotlardan bilib olish mumkin.Olimlarning farmatsevtika sohasida amalga oshirgan ishlari tahlili orqali Turk tilidagi farmatsevtik terminlar qadimgi lotin va yunon tillarida qoldirilgan farmatsevtik terminlarga tayanilishi aytib o‘tiladi.Turkiyalik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlariga ular turk tilidagi terminologiya rivojiga hissa qo‘shgan ilmiy ishlar sifatida o‘rinli baho beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Международная классификация болезней (МКБ-10) на турецком языке.
2. http://medulamedula.com/icd-kodlari.
3. Реформатский А.А. Місли о терминологии // Современные проблеми русской терминологии. – М.: Наука, 2006.
4. Никитин М.В. Основі лингвистической теории значения. – М.: Вісшая школа, 1998.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Энциклопедия, 2016. – 607 с. 62
6. Головин В.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основи учения о терминах. – М.: Вісшая школа, 1997.
7. Суперанская А.В., Подольская И.З., Васильев В.В. Общая терминология: вопроси теории. – М.: Наука, 1999. – 246 с.
8. Соссюр Ф. де. Труди по язікознанию. – М.: Прогресс, 1997. – 695 с.
9. Большая медицинская энциклопедия. 3-е издание. В 30 томах Под ред. акад. Б. В. Петровского М.: Советская энциклопедия, 1974–1989. – Т. 1–30. // Т. 48.
10. Anreiter P. Pharmakonyme: Benennungsmotive und Strukturtypologie von Arzneimittelnamen. – Wien: Ed. Praesens, 2002. – P. 461
11. Англо-русский химико-фармацевтический словарь [Электронній ресурс] URL: http://www. apteka-ifk.ru/farm_slovar/, свободный. Дата обращения: 10.05.2018.
12. Международная классификация болезней (МКБ-10) на турецком язіке.
13. http://medulamedula.com/icd-kodlari
14. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Leksik-semantik%20munosabatning%20turlari%20(R.Safarova).pdf

15. http://sakhgu.ru/wp-content/uploads/page/record_85102/2019_04/%D0%97%D0%B4%DT
16. ермині, Термині, Термині…
17. Булент Санкур 25 июнь 2019
18. Altınayar, G., Bitki Bilimi Terimleri Sözlüğü, T.C. Bayındırlık ve İskan
19. Bakanlığı, Devlet Su Genel Müdürlüğü, DSİ Basım ve Foto-Film İşletme Müdürlüğü
20. Matbaası, Ankara (1987).
21. Baytop, A., Bitkilerin Bilimsel Adlarındaki Niteleyiciler ve Anlamları, İstanbul

ОБЗОР ПОДХОДОВ К ИЗУЧЕНИЮ ВЕЖЛИВЫХ СЛОВ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Цай Т.В.
Студентка 1-го курса ТГУВ
Науч. рук.: PhD, доц. Назарова С. А

Современный этап развития языкознания характеризуется повышенным интересом к проблеме языка и культуры. Наука о языке становится наукой о человеке, о структуре его ментальности, о способах его взаимодействия с окружающим миром и с другими людьми. Вопросы, связанные с соотношением культуры и языка, стали особенно актуальными в последнее время, когда невозможность успешной коммуникации без знания культуры стала очевидным фактом. В данной статье будет представлен обзор литературы, с целью рассмотреть историю изучения вежливых слов в китайском языке.

На сегодняшний день человечество стремительными шагами развивается в направлении глобализации и создания мирового сообщества. По мере все большего информационного обмена и создания международных организаций увеличивается, в свою очередь и взаимодействие представителей различных культур. В зависимости от принадлежности участника коммуникации к тому или иному лингвокультурному сообществу, изменяются также и языковые средства, которые коммуниканты используют для достижения успешного и бесконфликтного общения в рамках коммуникации.

Многочисленные исследования, посвященные проблеме вежливости, демонстрируют насколько важно изучение данного вопроса.

Изучение вежливых слов в китайском языке связано с изучением языка в совокупности с человеком в целом, с его мышлением, сознанием и духовностью (рис. 2), так как это является характерной чертой в современной лингвистике.



Рис.1 Связь изучения вежливых слов в совокупности с человеком в целом

Для современной лингвистики характерен антропоцентрический подход к исследованию языковых явлений, соединяющий лингвистический анализ и изучение сознания человека, его духовной и практической деятельности. В этой связи возрастает научный интерес к национально-культурному аспекту исследования языка, к исследованию единиц языка и речи, отражающих явления, типичные для лингвокультурной общности носителей языка.

В Китае понятие вежливости существовало еще в 5–3 вв. до нашей эры. Понимание вежливости тогда сильно отличалось от его современного понимания. В китайском словаре «汉语大字典» данное понятие раскрывается следующим образом: «礼, 履也。所以事神致福也». Что в переводе на русский язык означает: воплощение вежливости – действие жертвоприношения. При жертвоприношении всегда соблюдалось много правил.

В Китае с 90-х годов XX века китайские лингвисты начали исследовать сферу вежливости, приняв за основу теоретические исследования Дж. Лича и П. Брауна. Это работы Гу Юего «Вежливость, прагматика и культура», Сюй Шэнхэн «Новые принципы вежливости». В своих работах они говорили о принципах вежливости и о том, на что нужно обратить внимание при использовании вежливых слов (рис. 2).

Браун и Ленвинсон дали общее положение теории категории вежливости. Это теория является непротиворечивой и наиболее полной. П. Браун и С. Левинсон создали модель вежливости, которая противопоставляется ликоущемляющему акту и является компенсирующей.

С точки зрения лингвиста Гу Юего, правила вежливости имеют следующие принципы: 1. Принцип уважения по отношению к другим, умаление себя. 2. Принцип обращения. Говорящему надо использовать обращение к адресату, соответствующее его возрасту, должности, социальному статусу и др. 3. Принцип благовоспитанности. В разговоре необходимо чаще использовать изящные слова и запрещается употреблять грубые, бранные слова и выражения. 4. Принцип гармонии. Собеседникам всегда нужно стремиться добиваться компромисса или консенсуса в каких-то спорных вопросах. 5. Принцип единства нравственности в мыслях, в речи и в поступках человека[1].

Браун и Ленвинсон дали общее положение теории категории вежливости. При сопоставлении работы этих зарубежных ученых с теорией восточных исследователей как Мао и Гу, пришли к выводу, что восточная и западная культуры отличаются в поведении людей в обществе.



Рис.2

Работы Гу Юего и Сэй Шэнхэна на базе работ Дж. Лича и П. Брауна

Глушкова Светлана Юрьевна в своей диссертационной работе «Лингвопрагматические аспекты категории вежливости в английском и китайском языках», которая была выполнена в русле лингвокультурологии и прагматики рассматривает вежливость как категорию языка и культуры и, тем самым, отражает проблему взаимосвязи языка и культуры. В данном диссертационном исследовании акцент сделан на том, как вежливость реализуется в данных аспектах в китайском и английском языках. Существуют

[1] Гу Юего. Вежливость, прагматика и культура// Преподавание иностранных языков, 1992 – 11 С.

ли сходства, и какие различия присутствуют при реализации категории вежливости в английском и китайском языках.

В статье Глушковой С. Ю. «Лингвокультурологические особенности выражения категории вежливости в китайском и английском языках» рассматриваются лингвокультурологические особенности выражения категории вежливости в китайском и английском языках. Раскрываются особенности культуры Китая в небольшом сопоставлении с культурой Англии и рассматриваются лексические способы выражения вежливости в данных языках. Предлагается классификация лексических средств выражения вежливости. Также в своей статье «Обращение» как средство выражения вежливости в английском и китайском языках» Глушкова С. Ю. рассматривает обращения в английском и китайском языках. Выделяются особенности и различия их употребления. Подчеркивается взаимосвязь культуры с обращениями в обоих языках.

В диссертационной работе Юй Цзяминя «Обучение русскому речевому этикету китайских учащихся», говорится о том, что особое значение для успешной коммуникации имеют этикетные нормы общения. В данном исследовании говорится об исторических и функциональных особенностях этикета в русском и китайском коммуникативном поведении. Также говорится о сходствах и различиях в речевых формулах для русской и китайской культур в ситуациях этикета. В данной работе представлены готовые вежливые выражения, которые используются в различных ситуациях. В данном диссертационном исследовании тема этикета рассматривается в сравнительном аспекте.

В статье Ли В.С., Ху Явэй , Чжан Мохань «Формы вежливости в русской и китайской лингвокультурах: лингвопрагматический аспект» исследуются особенности речевых форм извинения в русской и китайской лингвокультурах, проводится сравнительный анализ двух языков для выявления в них сходств и различий в выражении извинения. Авторы считают, что извинение выступает одним из самых важных видов вежливости.

Статья Чан Ваньцзюня «Межкультурно-прагматические неудачи при использовании речевых этикетных формул в русско-китайском общении». В статье рассматриваются национально-

культурные особенности традиций вежливого общения в русском и китайском языках, подчеркиваются черты различия в речевом поведении говорящих на данных языках. Выявляются лингво-прагматические особенности русского и китайского речевого этикета, различия в реализации коммуникативных установок говорящих.

В работах Гу Юего и Сэй Шэнхэна для рассмотрения категории вежливости был выбран описательный метод. Взяв за основу исследования Дж. Лича и П. Брауна, китайские ученые разработали принципы вежливости, которые отражают мировоззрение китайского народа.

В рассмотренных работах Глушковой С. Ю., Юй Цзяминя, Ли В. С., Хэй Явэй, Чжан Моханя и Чан Ваньцзюня тема вежливости была рассмотрена в сопоставительном аспекте, что позволяет наиболее полно выявить особенности восприятия категории вежливости представителями разных лингвокультур. Были предприняты попытки выявить сходства, а также найти различия в изучаемых лингвокультурах.

Сопоставительное исследование вежливости в разных языках способствует решению не только собственно-научных проблем, но и проблем более значимых, глобальных, вызванных общей тенденцией к сближению разных цивилизаций и культур, активизации межнациональных и межличностных контактов.

Проанализировав работы, в которых затрагивается тема вежливости и вежливых слов, можно сделать вывод, что тема вежливости в условиях современной коммуникации является одной из самых актуальных направлений в лингвистике. В работах описаны понятия «вежливость», «этикет», «речевой этикет»; подробно исследованы функции категории вежливости, рассмотрены речевые ситуации и формулы речевого этикета с точки зрения лингвистики и социолингвистики; проанализирован круг проблем, связанных с вежливым общением.

Использованная литература

1. Большой китайский словарь. – Сы Чуан и Ху Бэй, 1985

2. Глушкова С.Ю. Лингвокультурологические аспекты категории вежливости на примере английского и китайского

языков// Вестник Вятского государственного университета. – Киров.: ВятГУ, 2010-С.142-146.

3. Глушкова С. Ю. Лингвопрагматические аспекты категории вежливости в английском и китайском языках. – Казань.: Лаборатория оперативной полиграфии Татарского государственного гуманитарно-педагогического университета, 2011. – 162

4. Глушкова С. Ю. «Обращение» как средство выражения вежливости в английском и китайских языках// Вестник Вятского государственного университета. – Киров.: ВятГУ, 2011.- С. 361.

5. Гу Юего. Вежливость, прагматика и культура // Иностранные языки, 1992

6. Сюй Шэнхэн. Новые принципы вежливости // Журнал иностранных языков, 1992. Qayerda nashr qilingani yozilmagan.?

7. Ху Явэй, Ли В.С., Чжан Маохань. Формы вежливости в русской и китайской лингвокультурах: лингвопрагматический аспект. // Вестник КазНу – Алматы, 2018. – №4. – С. 75-80

8. Чан Ваньцзюнь. Межкультурно-прагматические неудачи при использовании речевых этикетных формул в русско-китайском общении// Филология и культура. – Казань.: Федеральное государственное автономное образовательное учреждение высшего образования «Казанский (Приволжский) федеральный университет», Казань, 2020. – С. 101-104

9. Юй Цзяминь. Обучение русскому речевому этикету китайских учащихся.- Санкт-Петербург.: Адмирал, 2016

ИНГЛИЗ – ЎЗБЕК БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРИДА МУҚОБИЛ ВАРИАНТИ ШАКЛЛАНИШ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Абдуллаева Марҳабо Рахмонкуловна
ТДШУ ўқитувчиси

Кириш қисми: Жаҳон адабиёти билан ҳам ўзбек адабиётнинг алоқалари ранг- барангдир. Уларнинг ажралмас таркибий қисми сифатида ўзбек адабиёти ҳам мазмунан, ҳам мундарижа эътибори билан ўсиб, юксалиб бормоқда. Адабиётимизга янги мавзулар, янги жанрлар, янги усул ва формалар кириб келди. Ўз-ўзидан равшанки. Жаҳон адабиётининг жуда кўп асарларини биз бундан қирқ – эллик йил муқаддам таржима қилолмаган, башарти таржима қилсак ҳам, бу санъат асарларини, эҳтимол, ўша давр авлоди қабул қилолмас, ҳазм этолмаслиги мумкин эди. Масалан, буюк инглиз детектив ёзувчиси Агата Кристининг маълум ва машҳур “Пуаро тергов қилади” (1924 йилда ёзилган), (1925 йилда ёзилган) трагедияси илк бор 80 – йиллардагина билвосита Хасанбой Тешабоев томонида ўзбек тилига ўгирилди. Бу таржима, турган гап, 90 – йиллардаги ўзбекларга мўлжалланган ва буни ўша давр жамоатчилиги маданий ҳаётдаги қандайдир ҳайратомуз бир воқеа сифатида гоҳ ажабланиб, гоҳ мамнуният билан ва ҳатто баъзан шубҳаланиб қабул қилган эди.

Асосий қисми: Агата Кристи номини алоҳида таништиришга ҳожат йўқ. Адабиёт аҳли томонидан ҳақли равишда детектив жанрининг етакчиларидан бири сифатида тан олинган. Адиба қаламига мансуб асарлар: “Пуаро тергов қилади”(The A.B.C. Murders, 1926), – “10 та негр боласи” (And After There Were None, 1939), “Шохида (Гувох)” (The Witness for the Prosecution, 1925), хисобланиб, уларда асосан буржуа тузумида аёллар тақдири қаламга олинган.

Агата Кристига унинг “10 та негр боласи” Муаллифнинг ўзи айнан шу асарини энг яхшиси дея эътироф этгани ҳам бежиз эмас. Агата Кристи ўз детектив қиссалари билан инглиз адабиётида классиклар қаторидан ўрин олди.

Ушбу асарда бир-бирига ҳеч қандай алоқадор бўлмаган ўнта одам хилват оролдаги уйга келади. Сирли таклифнома билан уларни бу ерга ким чақирди? Яхши детектив ихлосмандларининг юраги

дарров шув этиб кетадиган манзара. Дунёдан ажраб қолган бўм-бўш орол, кўп хонали, зимистон йўлакли катта сирли уй ва Занжилар оролининг соҳиби таклифига кўра уйга келган ўнта мутлақо нотаниш, бир-бирига ўхшамаган ўнта одам. Бу ерда уларни қулай шарт-шароитлар, мазали таом ва шинам ётоқхоналар кутиб турибди. Лекин ҳавас қилгудек меҳмондўстлик тез орада саробга айланиб, меҳмонлар савдойи қотил қурган тузоққа тушиб қолгани маълум бўлади. Улар оролнинг тошлоқ заминига қадам қўйган заҳоти тузоқ ёпилган. Оролдан қочишнинг иложи йўқ. Барчани шубҳа-гумон чулғаб олган. Чеҳраларда ажал сояси. Қўрқув ва даҳшат. Фақатгина болалар саноқ шеъри ва митти негр болалари тугаши билан бу даҳшатли ўйинга ҳам хотима ясалади. Бироқ нега?

Уларни бирин-кетин энг ғайриоддий йўллар билан ўлдириш кимга керак? Нима учун содир бўлаётган воқеаларнинг бари қувноқ болалар шеъри билан чамбарчас боғлиқ? Наҳотки бу жумбоқнинг ечими топилмаса, наҳотки ҳаммаси ўлимга маҳкум бўлса? Лекин нима учун? Улар ростдан ҳам айбдорми?

Фақат ўзбеклардагина эмас, балки, жаҳон таржимачилиги тарихида юксак санъат асарларини, таржималари воқеа ҳодисаларни билвосита таржималарни миллийлик ўгиришда муоммолар тез – тез учраб туради. Ҳатто, ҳозирги даврда ҳам айрим мамлакатларда (масалан: Англия, Акмерика, Германия, Францияда) бу батамом нормал ҳол ҳисобланади. Ноқардош халқлар асарларидан муайян бир сўзни ўзбек тилида, Фараз қилайлик ўзимизнинг 10 та сўзимиз билан маънога ҳалол етмайдиган қилиб ифода этиш мумкин бўлган жойда чинакам таржимон улар орасидан энг мақсадга мувофиғини, энг муқобилини топади.

Ҳа, ўқувчи детектив асарни ўқиганда қурбон бериш муқаррар, деган фикрга ишора қилинаётганини пайқаб турибди. Худди шу сабабли баъзи истеъдодли мутаржимлар ҳам асл нусха (оригинал)ни “қурбон беришга” журъат қилолмай, унинг бадиий мазмунини феълий иборалар билан ифода этишни афзал деб билганлар.

Ҳар бир даврнинг ўз хусусияти, ҳар бир авлоднинг ўз талаби, ҳар бир ижодкорнинг ўз эътиқоди бор. Лекин, қандай бўлганда ҳам, қурбон беришдан қочиб, назм билан бунёд қилинган бадиий асарни насрга кўчиришнинг ўзиёқ биринчи катта йуқотишдир. Аввало, насрда баён қилинган ҳар қандай фикрни ҳам назмга кўчириш амримахолдир, худди шунингдек, ҳар қандай шеърий асарни ҳам

насрга ўтказиб бўлмайди. Башарти, шеърият намуналарини бўлак тилларга сидирғасига, ялпи насрга ўгириш расм бўлганида, бу, даставвал, китобхонни таажубга солмайдими? Чунончи, у муайян детиктив ғояни ғояни ҳаммага баб – баравар тушунарли бўлган насрий мақомда ажабтовур бериб бўларкану, асарнинг асл нусхада ўзини-ўзи қийновга солган эканда, деб ўйлаши турган гап.

Муддаога қайтайлик “Ўнта негр боласи” трагедиясининг саксонинчи йиллардаги ўзбекча насрий таржимаси такрорланмас ва асл инглизча оригиналига нисбатан, шубҳасиз, катта “йуқотиш” бўлса, Иззат Ахмедов қаламига мансуб сўнгги детектив адекват таржимасига нисбатан ҳам хийла сифатсиздир. Лекин ҳамма гап шундаки, буюк инглиз драматургининг қудратли овозини илк бор бизга етказган биринчи восита – трагедиянинг ўша таржимаси бўлди. Бу – Агата Кристи дахоси оламига журъат билан қўйилган биринчи дадил қадам эди. Ажаб эмаски, ўзбек тилидаги ўша “ибтидоси” бўлмаганда, ҳозир тилимизда тўда мазмун ва юксак шеърий нафосат билан жаранглаётган қудратли таржимаси ҳам яратилиши қийин бўларди.

Ирқчи сўзлардан фойдаланганлиги сабабли, болалар учун замонавий версияларда қофия объэкти сифатида кўпинча "самолётлар", "аскар болалар" ёки "айиқчалар" ишлатилади. Исландиялик ношир Скрудданинг 2007 йилда ўзгартирилмаган “ Ўн кичкина негр”нинг 1922-йилдаги исландча версиясини нашр этиши ўша мамлакатда катта мунозараларга сабаб бўлди, китобни ирқчилик деб билганлар ва уни “кулгили кулгили воқеаларнинг бир қисми ва ўтмишда яратилган аҳмоқона ҳикоялар” деб ҳисоблаганлар ўртасида кучли бўлиниш пайдо бўлди.

Кристин Лофтсдоттирнинг баҳсга берган баҳосида, “Ўн кичкина негр” асарини қайта нашр этишга қаратилган баъзи мунозараларни мустамлака носталжиси сифатида кўриш мумкин, чунки улар бундай тасвирларга эътироз билдирилмаган “оддий” даврларнинг тасвирларини келтирадилар. Шундай қилиб, “And After There Were None” филми бу оммавий нутқларда Исландия ўзига хослигини ўтмишдаги ирқчилик ва нотўғри қарашлардан ажратишга интилади. 1922 йилда Эвропа ва Шимолий Америка контекстларида болалар боғчасининг нашр этилишини контекстга солиш шуни кўрсатадики, китоб Эвропанинг ирқ ҳақидаги нутқлари билан жуда мос келади ва тасвирлар Қўшма Штатлардаги қора танлиларнинг

карикатураларига ўхшашлигини кўрсатади. Йиллар давомида “10 та негр боласи” асари номи бир неча маротаба ўзгартирилган бўлсада, лекин бизда етиб келган таржима ҳали ҳануз ўша “10 та боласи номи билан” номи билан китобхонларга етиб бормоқда.

“Ten little neggers” – “10 та кичкина негрчалар” деб эмас балки “10 та негр боласи” тарзида билвосита таржима қилинди.

2020-йилда Агата Кристининг “Ўнта негр боласи” романининг номи “Улар ўн нафар эди” деб ўзгартирилди, сабабки, ҳақорат сифатида қабул қилиниши мумкин бўлган сўзлардан фойдаланиш мумкин эмас ва келажакда асар номи бутун дунё бўйлаб ўзгартирилади. Энг машҳур романлардан бирининг қайта нашри энди “Ўнта негр боласи” номи билан Францияда чиқарилмайди. РТЛ радиосининг хабар беришича, бу қарорни таниқли ёзувчининг эвараси Жеймс Причард қабул қилган, у Агата Кристи Лимитед ташкилотига раҳбарлик қилади. “Китоб ёзилаётган пайтда тил бошқача эди. Романнинг дастлабки номи АҚШда ҳеч қачон ишлатилмаган, Буюк Британияда 1980-йилларда уни қабул қилишмаган. Энди биз асар номини бутун дунёда ўзгартирмоқдамиз. Ҳатто битта одам ўзини камситилган ҳисобласа ҳам бу ортиқчалик қилади”, дея изоҳ берди Причард.

Унинг таъкидлашича агар бувиси ҳаёт бўлганида асар номи ўзгаришини қўллаб-қувватлаган бўларди, чунки у кимдир азоб чекишини хоҳламасди. 2020-йилнинг октябр ойида роман Францияда янги – “Улар ўн нафар эди” номи билан чиқарилди.

Хулоса қисми: Америка адабиётидан ўзбек тилига таржима қилинадиган, ўзига хос бутун бир адабиётни ташкил қилувчи сертармоқ таржималарда муаллифларнииг турфа хил услуб жилоларини қайта ифодалаш бобида жафокаш таржимонлар олдида ҳар гал махсус тахлил ва тахсилни, хар сафар ўзгача бир чора-ю тадбирни талаб этадиган муоммолар кўндаланг бўлиши аниқ. F.Саломов таъкидлагандек, таржима қилинаёттан муаллифнинг дунёқарашию синфий мавқейидан тортиб, мавзу, ғоя, материал, давр тақозоси билан унинг қандай, не йўсинда қалам тебратганини инобатга олган ҳолда, таржимон турли – туман услуб жилваларини акс эттиришга мажбур.Таржима назарияси ва амалиётида ўзбек, рус бошқа хориж тадқиқотчиларининг билим ва тажрибалари умумлаштирилиб, олиб борилаётган илмий ишларда янги қарашлар баён қилинмокда. Аммо таржимачиликлада ҳали етарли даражада

ўрганилмаган, ютуқ ва камчиликлари обьектив тарзда очиб берилмаган, давр тақозоси билан турли мунозараларга сабаб бўлган билвосита таржимадан бевосита таржимага далил ўтиш масаласи борасида илмий жиҳатдан тўлдирилиши лозим бўлган жойлар талайгина эканлиги кўриниб турибди.

Фойдаланилган адабийтлар

1. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. Ҳамидов Ҳ. қайта нашри, ТДШИ, 2015.-165 б.

2. Кристин Лофтсдоттир. 2011. "19 ва 20-асрларда Исландиядаги ирқчилик карикатуралари". Исландияда ва Шимолий тасвирлар , СР Íслеифссон томонидан таҳрирланган. Қуебес: Прологуе Инс, 187-204 (198-200-бетлар, 199-бетдан иқтибос)

3. Markhabo Raxmonkulovna Abdullayeva. "GROUPING OF OPPOSITE OPTIONS OF VERBAL PHRASEMAS IN UZBEK LANGUAGE (EXAMPLE OF TRANSLATIONS OF AGATHA CHRISTIE'S WORKS)" Scientific progress, vol. 3, no. 2, 2022, pp. 190-193.

4. АБДУЛЛАЕВА, МАРХАБО РАХМОНКУЛОВНА. "НАЦИОНАЛЬНЫЙ КОЛОРИТ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ (УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ)." Проблемы и перспективы развития России: Молодежный взгляд в будущее. 2018.

5. M.R.Abdullayeva. "INGLIZ VA O'ZBEK TILLATIRIDA SEMANTIK TARJIMA MA'NOSINI BERISH." XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –2/2022. 314-316 .

6. Агата Кристи: Кейин ҳеч ким йўқ эди (1945)Ўн кичик ҳиндистонлик (1965)Гумнаам (1965)Наду Иравил (1970)Ва кейин ҳеч ким йўқ эди (1974)Десят Негритят (1987)Ўн кичик ҳиндистонлик (1989)

7. Р. Рилей, П. МсАллистер, Ж. Сймонсм Б. Сассидай., Агата Кристига тўшак, ванна ва кресло ҳамроҳи (Сонтинуум, 2001), 144-45-бетлар

8. Абдуллаева Марҳабо Рахмонкуловна, (2020). 'ИНСОНИЯТНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИДАГИ МИЛЛИЙ КОЛОРИТНИ ИФОДАЛОВЧИ ФЕЪЛЛИ ФРАЗЕМАЛАР (Агата кристи асарлари талкинида)' "МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЛЕКСИКОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКОГРАФИЯ: АНЪАНАЛАР ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН ИЛМИЙ МАКТАБЛАРИ" республика илмий-амалий конференцияси илмий тўплами, 153-158.

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TAQLID SO‘ZLAR BORASIDAGI LEKSIK-SEMANTIK QARASHLAR TAHLILI

Tashmuxamedova Dildora Aziz qizi
TDSHU 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. Ochilov Ozod Mardiyevich

Tilning lingvistik tabiatiga ko‘ra alohida guruhni tashkil etadigan va so‘z turkumlari tizimida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan taqlid so‘zlar dunyo tilshunoslari tomonidan turli bahs-munozalarga sabab bo‘lib kelayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Taqlid so‘zlarning etimologiyasi qadimgi yunon tilshunosligiga borib taqaladi.[1] O‘rta asrlardan boshlab taraqqiy qila boshlagan yunon tilshunosligi 1570-yilda ilk bor *onomatopoiia* (“*onomatos” – so‘z, nom va “poiein”* – hosil qilmoq so‘zlaridan) atamasi qo‘llaniladi[2] va shundan boshlab, tabiatdagi mavjud tovushlarning tildagi va yozuvdagi aks nomi bo‘lgan. O‘zbek tilida taqlid so‘zlar deb yuritiladigan so‘zlarni ifodalash uchun foydalaniladi. Turli til vakillari taqlidlarni turlicha nomlaydi va ularga o‘ziga xos ta’rif beradi. Taqlid so‘zlar uchun umumiy ta’rifni anglab olish dunyo tilshunoslik lug‘atlarida qanday ta’riflanishini ko‘rib chiqishni afzal bildik. Asli lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan Yevropa tillaridagi onomatopoeia so‘zi nom berish ma’nosini ifodalaydi va olamdagi mavjud tovushlardan paydo bo‘lgan so‘zlar sifatida talqin qilinadi.[3] “Hozirgi zamon xitoy tili lug‘ati”da “taqlid so‘zlar turli tovushlarning so‘zlaridir”[4] deya ta’riflangan. “So‘zlar dengizi” nomli xitoy tili izohli lug‘atida esa taqlidlar ikki xil, 象声□ va □声□ nomlari bilan atalishi mumkinligi aytilib, ular tabiiy (yoki tabiat) tovushlardan hosil bo‘lgan so‘zlardir,[5] deb aytiladi. Koreys tili izohli lug‘atlarida taqlid so‘zlar tabiatdagi mavjud tovushlarga taqlidni ifodalaydi va hodisa yoki narsa bilan uning ovozi o‘rtasida bog‘liqlik

---

[1] Henry George Liddell. Robert Scott. A Greek-English Lexicon. Oxford. Clarendon Press. 1940.

[2] Osaka, Naoyuki (1990). "Multidimensional Analysis of Onomatopoeia – A note to make sensory scale from word". *Studia phonologica*. 24: 25–33 b. hdl:2433/52479. NAID 120000892973.

[3] American Heritage Dictionary of the English Language, Fifth Edition, 2015.

[4]现代汉语词典：商务印书馆创立 115 年纪念版/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。—6 版。—北京：商务印书馆，2012，1874 页。

[5] 现代汉语辞海（套装共 3 册）（最新修订版）—北京：中国书籍出版社， 2011。

mavjud, deb yoziladi. Faqatgina fransuz tili izohli lug‘atida taqlid so‘zlar inson, hayvon, tabiat va biror mexanizmning ovoziga taqlidan hosil bo‘lgan so‘zlardir, deb alohida sanalgan.

O‘zbek tilshunoslik terminlariga berilgan izohda taqlid so‘zlar inson, hayvon va boshqa narsalarning tovushini va obrazini taqlidan ifodalovchi so‘z sifatida yoritilgan.[1] O‘zbek tilshunosligida yuqorida berilgan ta’riflardan farqli o‘laroq, taqlid so‘zlar obrazni ham ifoda etishi mumkinligi ta’kidlanadi. Boshqa bir adabiyotlarda esa taqlid so‘zlar tovushga va holatga nisbatan taqlidni ifodalashi ta’kidlangan. O‘zbek tilshunosligida faqatgina tovush va ovozning emas, balki obraz va holatni umumiy tarzda ifodalovchi so‘zlar taqlid so‘zlar deb yuritiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan dunyo atamashunosligida taqlid so‘zlarning nomlanishida aynan tovushga taqlid ishorasi mavjud.

Insoniyat taqlid so‘zlarni o‘rta asrlarda alohida guruh sifatida anglagan bo‘lsa ham, tilshunoslikka so‘z turkumi sifatida kirib kelishi va tadqiq qilinishi biroz kechroq boshlangan. Tadqiqotlar turli tillarda turlicha davrda olib borilgan.

Taqlid so‘zlar XIX asr oxirigacha xitoy tilshunoslari tomonidan unchalik e’tiborga olinmagan. 1898 yilda xitoy tilshunosi Ma Dzyanjong “Mashi Ventong” asarida birinchi marta taqlid so‘zlarni eslatib o‘tgan. Ma taqlid so‘zlarni “piktogrammalar va tovushlar uchun ishlatiladigan belgilar” deb atagan.[2] Lekin Ma Dzyanjong ularni ravish deb hisoblagan.

Hozirgacha taqlid so‘zlar xitoy grammatikasida 100 yillik tadqiqiy bosqichni, olimlarning ko‘zi ilg‘amagan davrlardan to hozirgi, ya’ni taqlidlarning tasnifi, ularning sintaktik xususiyatlari yoritiladigan davrgacha yo‘lni bosib o‘tdi. Taqlid so‘zlar xitoy tilshunosligida XIX asr oxiridan 1940-yillargacha bo‘lgan grammatik yozuvlarda kamdan-kam tilga olinadi va muammosi e’tibordan chetda qolgandek ko‘rinadi. Shu sababli ham hozirgacha aniq xulosalar berilmagan va xitoy tilshunoslari so‘z turkumlari va ularning tavsifi borasida qaysi nazariyaga amal qilishlari yuzasidan turli guruhlarga bo‘linib qolgan. Lingvistikaga yunoncha va lotincha onomatopoeia atamasi sifatida kirib kelgan tovushga taqlidni ifodalovchi so‘zlarning eng birinchi

---

[1] A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002, 103b.

[2]建忠。马氏文通。– 北京：商务印书馆，1987, 231。

muammosi – bu xitoy tilida uning xususiyatlarini ochib beruvchi atama topish edi. Turli tilshunos olimlar taqlidlarni ifodalovchi so‘zlarga turlicha nom berganlar. Xususan, Ma Djen (马真) o‘zining grammatikaga oid asarida turli ovozlarga taqlid qilgan so‘zlarni “□声□” yoki “象声□”deb atalishini ta’kidlasa-da[1], o‘zi “象声□”nomini ma’qul bilib, keyingi o‘rinlarda taqlidlarni shunday ataydi. Yana bir xitoy olimi Ding Shengshu (丁声□) taqlid so‘zlarga alohida to‘xtalib, ularning ta’rifini bermagan. Biroq, taqlid so‘zlarni xitoy tili morfologiyasidagi eng so‘nggi, 10-so‘z turkumi sifatida “象声□”nomi bilan e’tirof etgan.[2] Xitoy tili nazariy grammatikasini umumiy tarzda yoritgan zabardast olimlardan biri Dju Desi (朱德熙) ham zamondoshi singari taqlidlarga alohida ta’rif bermagan bo‘lsa ham, ularni “□声□” sifatida alohida so‘z turkumlari doirasida sanab o‘tadi.[3]

Vang Li “Taqlid so‘zlar atrofdagi turli tovushlarga taqlidan paydo bo‘ladi, ular yozuvda va tilda aynan tovushni chiqarib berishi shart emas. Tabiiy tovushga ishora qilsa va uni tinglovchi tushunsa bo‘lgani. Ana shunday tovushlarni grammatika emas, balki uslubshunoslik o‘rganadi, biroq uning ifodalanishi maxsus til shaklini talab qilganligi uchun grammatik jihatdan o‘rganish kerak”[4] degan fikrlarni ilgari surib, taqlidlarni “□声□”deb ataydi. Bu borada Vang Lining fikrlariga qo‘shilmaymiz. Uning ta’kidlashicha, taqlid so‘zlar, avvalo, biror tabiiy hodisaning inson ongida gavdalanishiga yordamlashadi. Ularning tildagi vazifasi tovush yoki aynan chiqarib takrorlab berish emas, balki turli tovushlar orasidan farqlash va aynan nimaning taqlidi ekanligini tinglovchiga yetkazib berishdan iborat. Asosiy vazifasi ma’no kasb etish emas, balki tovushlarni anglatish bo‘lgan so‘zlar grammatikada o‘rganilmaydi, degan fikr, bizningcha, so‘zlarni morfologiya doirasidan chiqarib yuborish uchun yetarli emas. Har bir so‘z qanday ma’no anglatmasin, qanday grammatik funksiyani bajarmasin, tilda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi kerak. Semantik tahlil etish mumkin bo‘lsa, mustaqil so‘z turkumi doirasida, ma’no anglatmay, faqatgina grammatik vazifa bajarsa, yordamchi so‘z turkumi doirasida,

---

[1] 马真。简明实用汉语语法教程 – 2 版。– 北京：北京大学出版社，2015，28。
[2] 丁声树。现代汉语语法讲话。- 北京：商务印书馆，1999，6。
[3] 朱德熙。朱德熙文集。- 北京：商务印书馆，1999，50。
[4] 王力。中国现代语法。– 北京：商务印书馆，2011，296。

ikki xil holatda ham ma’no anglatsa, oraliq so‘zlar doirasida talqin etilib, aynan tilshunoslikda o‘rganilishi kerak. Bizningcha, stilistika tovushlarni inson ongiga ta’siri va uning tilda qanday aks etishini o‘rgansa-da, butun grammatik xususiyatlarini ochib bermaydi. Taqlidlar ma’no bera olar ekan, ular har bir til grammatikasi tarkibiga kiritilishi kerak.

Taqlidlarning xitoycha nomlanishiga kelsak, xitoy grammatikasi rivojining yangi bosqichida ham turli tilshunoslar turli nomlar bilan atab keldilar, jumladan, “象声□”(tovushga o‘xshagan so‘zlar), “模声□” (taqlidiy so‘zlar), “状声□” (holat tovushi so‘zlari), “表音□”(ovozni ifodalovchi so‘zlar) “□声□” (tovushni aks ettiruvchi so‘zlar). Butun xitoy atamalarni standartlashtirish qo‘mitasi grammatikadagi 12 ta so‘z turkumidan biri “□ 声□” nomi bilan atalishini belgilab bergan. Atama so‘zlovchining turli narsalarning tovushiga taqlid qilishini bildiradi, bundan tashqari, aynan shu atama xalqaro tan olingan onomatopoeia so‘zining xitoycha nomlanishidir. Shu bois biz ham xitoy tilida taqlidlarni ifodalash uchun eng maqbul atama bu □ 声□ deb hisoblaymiz.

Taqlid so‘zlarning atama sifatida tilshunoslikda ta’riflanishi har bir tilning tabiatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz. O‘zbek tilidagi singari holat va obrazni ham ifodalagan so‘zlar boshqa tillarda taqlidiy so‘zlar doirasiga kiritilmasligi va boshqa grammatik funksiyani bajarishi mumkin. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, tabiatdagi mavjud hodisa va tovushlarga taqlidni ifodalovchi so‘zlar taqlid so‘zlar deb ataladi. Ular so‘z sifatida terminologiya va morfologiya doirasida o‘rganilishi va tahlil qilinishi kerak.

Xitoy tilida taqlidni ifodalovchi so‘zlar esa aynan tarjimasi sifatida “□ 声□” termini bilan ifodalanishi kerak deb hisoblaymiz. Uning “象声□”, “模声□”, “状声□” nomlari taqlidlarning barcha xususiyatlarini ochib bera olmaydi va ularni grammatik jihatdan chegaralab qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Henry George Liddell. Robert Scott. A Greek-English Lexicon. Oxford. Clarendon Press. 1940.

2. 现代汉语词典：商务印书馆创立 115 年纪念版/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。–6 版。–北京：商务印书馆，2012。

3. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.

4. 建忠。马氏文通。– 北京：商务印书馆，1987, 231。

5. 马真。简明实用汉语语法教程 – 2 版。– 北京：北京大学出版社，2015。

6. 丁声树。现代汉语语法讲话。- 北京：商务印书馆，1999

7. 朱德熙。朱德熙文集。- 北京：商务印书馆，1999。

8. 王力。中国现代语法。– 北京：商务印书馆，2011。

XITOY TILIDA EMOTSIONALLIK VA EKSPRESSIVLIKNING METAFORA VOSITASIDA IFODALANISHI

Safarova Nigora Akram qizi
TDSHU 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. J. Ziyamuxamedov

His-tuyg‘u -bu insonlarga xos bo‘lgan o‘ziga xos tushunchadir. Tuyg‘ular o‘sha xalqning tuyg‘u va obyektiv narsalarga qiziqishlariga mos keladi. Bu emotsiyalar mavhum, mavhum bo‘lsa-da, u rang-barangdir. Masalan, quvonch, g‘azab, qayg‘u va baxt kabi hissiyotlar. Ushbu insoniy hissiy tajribalar turli xil tizimlarga ega bo‘lgan har xil tillarning lug‘atlarida mavjud, ya’ni bu turli xil hissiy tushunchalarni ifodalash uchun boshqa tillarda ma’lum bir so‘zlar qo‘llaniladi. Masalan, Xitoy tilidagi “ "高口" va ingliz tilidagi "pleasure" bir xil hissiyotlarni ifodalaydi. Bu til bevosita ifoda etadigan hissiy jihatlardan biridir. Bilamizki, til ifodalari o‘ziga xos, inson hissiyotlarini ifodalashda ham xuddi shunday. Tuyg‘ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashdan tashqari (masalan: men juda xursandman, g‘azablanaman), shuningdek, yana bir nechta obrazli iboralar, ya’ni yashirin iboralar mavjud. Metafora insonning fikrlash uslublari va fikrlashning rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim kognitiv hodisadir. Shu bilan birga, u turli semantik sohalarga asoslangan lingvistik hodisa hamdir. Metafora tadqiqotlarida konseptual domen bu sevgi va sayohatlar kabi har qanday izchil tajriba segmentining namoyishidir. Boshqa nuqtai nazaridan tushuniladigan konseptual domen konseptual metafora deb ham ataladi. G. Radden va R. Dirvenlar a konseptual domen “ma’lum bir toifaga yoki ramkaga tegishli bo‘lgan umumiy maydon. Masalan, pichoq nonushta stolida nonni kesish uchun ishlatilganda “yeyish” sohasiga tegishli, ammo qurol sifatida ishlatilganda “kurashish” sohasiga tegishlidir.[1] Masalan: 听了口个消息后,她的心里像吃了蜜一口"-- u bu yangilikni eshitgach go‘yo, og‘zi asalga yetgandek bo‘ldi. Ushbu jumlada hissiyotlarni bevosita ifoda etadigan “高口 yoki 愉悦” “baxtli” yoki “mamnun” kabi so‘zlar yo‘q, ammo xitoy tilini biladigan

[1] Ingliz tili gramatikasi (2007), G Radden va R Dirven

(o'quvchi/kitobxon) uning baxtli va mamnun kayfiyatni ifodalashiga shubha qilmaydi. Bu metafora ko'pincha sistematik ekanligini ko'rsatadi. Ushbu maqola Xitoy tilida hissiy metafora ifodasini tizimlashtirishga qaratilgan. Xitoy tilida hissiyotlarning metaforik ifodasi: u to'g'ridan-to'g'ri his-tuyg'ulardan boshlab va his-tuyg'ularni jonsiz yoki jonsiz obyektlarda emotsional metafora orqali ifodalanadi.[1]

1. Hissiyot-bu tabiiy hodisa.Sevgi insoniyatning abadiy mavzusi bo'lib, barcha etnik guruhlarning tillarida sevgini ifoda etadigan so'zlar yetarli. Albatta, bunday hissiy ifoda turli mamlakatlarning madaniy an'analariga ta'sir qiladi. Xan xalqi uzoq vaqtdan beri falsafa va fikrdagi "Yin va Yang nazariyasi" ta'sirida bo'lib, sevgi ayollik go'zalligiga ega va uning ildizini Laozhuangning "Yin" obrazi bilan bog'liq hisoblaydi**.** Shuning uchun xitoyliklar Xan millatining ichki milliy xususiyatlarini ifoda etadigan sevgi uchun nozik, evfemistik va o'ziga xos metaforalardan foydalanishni afzal ko'rishadi. Shu sababli, Xitoy tilida 口情是月"sevgi-bu oy" metafora tushunchasi mavjud. Masalan: 月口代表我的心 [2] Bunday hollar munosabatlarda bir tomonning boshqasiga chuqur mehrini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yerda bu mehr metafora bilan "oy"deb nomlanadi.

2**.** Hissiyot-daryo. Insoniyatning eng qadimgi sivilizatsiyalari daryolar bo'lgan joylarda paydo bo'lgan. Daryolar odamlar hayotida juda muhim o'ringa ega. Odamlar mavhum narsalarni anglay olishganda, ko'pincha ularni atrofdagi o'ziga xos va ma'lum narsalar bilan taqqoslashadi. Tuyg'ular mavhum va chiroyli bo'lib, ular hissiyotlar haqidagi iboralarda daryolar soyasini ham qoldiradilar. Masalan 他口兄弟口的感情一直很深; 他口很快口入了口河之中; 此口此刻,她只想沉浸;在口里，忘掉周口的一切; 度假回来，她的心情平静了口多。"Chuqur" aslida daryo yoki suvning chuqurligini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu yerda esa hissiyotlarni tasvirlash uchun ishlatilgan. U daryolar va suvning xususiyatlarini mavhum hissiyot-larga aylantiradi. Bular konseptual metafora hisoblanadi.

3. Hissiyot ob-havo. Ob-havo va uning o'zgarib turishi bu odamlar kundalik hayotida tanish bo'lgan tabiiy hodisa. Insonlarning hayot tarzi, mehnat qilishi bu ko'pincha ob-havodan ajralmas holda amalga oshadi,

---

[1] 周红.英汉情感隐喻共性分析[J].四川外语学院学报,2001

[2]周红.英汉情感隐喻共性分析[J].四川外语学院学报,2001

shuning uchun ob-havo odamlarning his-tuyg‘ulariga ham katta darajada ta’sir qiladi. Masalan, quyoshli kunlarda odamlarning kayfiyati yaxshi bo‘ladi, bulutli va shamolli kunlarda odamlarning kayfiyati ko‘proq bezovta bo‘ladi. Bahor odamlarni umidni ko‘rishga undaganday bo‘lsa, qish esa odamlarni shafqatsiz his qilishga boshlagandek go‘yo. Masalan: 她的□上布□了阴云: 听到□个消息后，他大□雷霆;她的表情冷若冰霜;她□生活充□□□的感情。 Yuqoridagi misol jumlalari, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri ob-havoga qiyosan metafora qilindi ham hissiyotlarni tasvirlash uchun ob-havoni tavsiflovchi so‘zlardan foydalanilib uning emotsiyasi ifodalandi. Odamlarning his-tuyg‘ulari o‘zgaradi, ba’zan ulkan va ba’zan kichik bo‘ladi. Albatta, bu o‘zgarishning namoyon bo‘lishi ba’zi murakkab jumlalarda ifodalanishi mumkin. Biroq, ob-havo o‘zgarishini aks ettiruvchi ba’zi bir tegishli atamalar mavjud bo‘lganligi sababli, bu atamalar dinamik namoyon bo‘lgan hissiyotlar uchun metafora sifatida ham qo‘llaniladi. Xitoy tilida hissiyot tushunchasini metaforik ifoda orqali berilganda, dinamikaning eng ixcham va keng tarqalgan ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan: 1 .六月天，孩儿面 2 .听了□句□后她□上晴□多云

4. Tuyg‘ular raqib va dushmanlardir. Biz ko‘pincha yengishimiz qiyin bo‘lgan narsani o‘zimizda deb bilamiz. Bu yengish qiyin bo‘lgan ba’zi salbiy va ichki his-tuyg‘ularni anglatadi. Bu hissiyotlarni dushman, raqib va boshqalar sifatida metaforik ifoda qilamiz. Masalan: 她鼓起勇气，□于□□了恐惧 Bundan tashqari, ba’zi salbiy his-tuyg‘ular metafora sifatida xitoy tilida yuk va og‘ir narsalar sifatida ishlatiladi. Bu ikkalasi o‘rtasida ma’lum bir o‘xshashliklar bo‘lganligi sabab. Masalan: □些年来, 生活的□辛和周□人的冷言冷□□她承受了太多的痛苦。(Yillar davomida, hayot qiyinchiliklari va atrofdagi odamlarning sovuq so‘zlar uni juda ko‘p azoblantirdi). 她心里充□了恐惧。(uning yuragi qo‘rquvga to‘la).她心里□是□□和幸福 (uning yuragi quvonch va baxtga to‘la).

5. Tuyg‘u-bu ma’lum bir idishga solinishi mumkin bo‘lgan haqiqiy obyekt. Konteyner metaforasi[1] odamlarning bilish jarayonida keng tarqalgan metaforadir. O‘ylab topilishi mumkin bo‘lgan chegaralari

[1] Lakoff,G&Johnson.Metaphors We Live By[M].Chicago:University of Chicago press,1980..

yoki chegaralari bo‘lgan har qanday jismoniy makon konteynerdir va hatto ba’zi ko‘rinmas mavhum narsalar, xatti-harakatlar va holatlar ham konteyner sifatida qaralishi mumkin. Shubhasiz, inson tanasi idishdir va his-tuyg‘ular inson qalbidagi ba’zi tajribalardir. Shu asosda his-tuyg‘ular inson tanasining katta idishida bo‘lishi mumkin bo‘lgan ba’zi real narsalarga metafora bo‘ladi.

6. Tuyg‘ularni metafora qilish uchun pozitsion so‘zlardan foydalaniladi. "Biz yashayotgan metaforalar" kitobida Lakoff tomonidan eslatib o‘tilgan konseptual metafora "pozitsion metafora"dir. Pozitsiyaviy metafora bir xil tushunchaning yuqori va pastki, ichki va tashqi, old va orqa, va chuqurlik, markaziy chekka va boshqa fazoviy yo‘nalishlarini o‘z-o‘zidan tashkil etadi. "Shuning uchun odamlar hissiyot kabi mavhum vaziyatni tushunish uchun bunday asosiy tajribadan olingan asosiy empirik tushunchalardan foydalanadilar."[1] Umuman olganda, odamlar "yuqoriga," "pastga" qaraganda ijobiyroq bo‘ladi deb o‘ylashadi. Masalan, hayotda bir kishi yaxshi ish qilsa, odamlar yaxshilik deyish uchun bosh barmog‘ini ko‘rsatadi. Agar kimdir yomon ish qilsa, odamlar baho berish uchun imo-ishoralardan foydalanganda bosh barmoqlarini pastga qaratadi. Shunga mos ravishda xitoy tilida “yuqori” mavqeyi bilan bog‘liq so‘zlar ko‘pincha ijobiy his-tuyg‘ularni metafora qilish uchun ishlatiladi.Masalan: 口士口情口高 (askarlar yuqori ruhlarda. Ba’zan salbiy his tuyg‘ularni ifodalash uchun "past" va "pastga" yo‘nalishiga oid so‘zlar ham ishlatiladi.Masalan: 口几天，我的心情有些低落 (o‘tgan bir necha kun ichida kayfiyatim biroz tushkun bo‘ldi). 她陷入了深深的口望之中(u chuqur umidsizlikka tushdi).

7. Tuyg‘u-insoning o‘ziga xos kechinmasidir. Ba’zan hissiyotlarni tasavvur qilishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlanmaydi, balki ma’lum bir vaziyatda ma’lum hissiyotlarga ega bo‘lgan odamlarni metafora bilan tasvirlaydi.1.Ijobiy hissiyot uchun bu hissiyotga ega bo‘lgan odamni metafora sifatida odamlar yaxshi ko‘radigan, yaxshi tasvirga ega bo‘lgan hayvon yoki o‘simlik deb ta’riflash mumkin**,** xitoyliklar ko‘pincha 春蚕(ipak qurti),比翼口(afsonaviy qush), 口理枝 shox va ildizlari qo‘shilgan o‘simlik:sevgi ramzi), 口口(er va xotin: juftliklar) va boshqa majoziy timsollarga murojaat qilishadi. Masalan: 春蚕到死

[1] 牛丽红,林艳.从概念理论看俄汉情感隐喻

□方尽，蜡炬成灰泪始干。(bahorgi ipak qurtlari nobud bo‘lganda mum mash’alasi kul rangga kiradi va ko‘z yoshlari quriy boshlaydi). 在天愿作比翼□，在地愿□□理枝(osmonda qanot qoqib qush bo‘lishni, yerda esa bog‘lovchi novcha bo‘lishni tilayman). 他□是一□□□。(ular bir juft mandarin o‘rdaklaridir). 春蚕,比翼□, □理枝, □□-bular Xan madaniyatidagi hayvonlar va o‘simliklarning ijobiy tasvirlari. Bahor ipak qurti fidoyilikka ega. "比翼□, □理枝"juftlik, juftlashish"ni aks ettiradi. Ushbu xususiyatlar sevgiga o‘xshaydi va xaritalashni manba domenidan maqsad domeniga qadar amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun u sevgi, oshiq uchun metafora sifatida ishlatiladi.[1]

8. His-tuyg‘ularning yuzaga kelishi ko‘pincha inson fiziologik xulq-atvoridagi ma’lum o‘zgarishlar bilan birga kechadi va hatto ayrim xususiyatlar ham ma’lum his-tuyg‘ularning tipik belgilariga aylangan. Shuning uchun, ma’lum bir kontekstda odamlar ushbu xususiyatlarning ma’nosini ko‘rganda tushunishlari mumkin. 1. Odamlarning yuz xususiyatlari: “Baxt rangga o‘xshaydi” deganlaridek, odamlarning his-tuyg‘ulari ko‘pincha odamlarning yuz ifodalarida namoyon bo‘ladi. Ifodaning boyligi hissiyotning boyligidan kelib chiqadi. Oddiy sharoitlarda “kulish” harakati insonning quvonchini ifodalaydi. Masalan: 他高□地笑了 u quvnoq bilan tabassum qildi).他笑容□面 (u butun yuziga tabassum). Kulish" va "yig‘lash" inson yuz ifodalarining xususiyatlarini umumlashtirishdir. "Kulganda" og‘iz ochiladi, og‘iz burchaklari qiziq bo‘ladi va qoshlar biroz ko‘tariladi. Albatta, turli "kulgilar" orasida ayrim farqlar bo‘ladi. "Yig‘laganda" ko‘zda yosh bo‘ladi va og‘iz burchaklari pastga tushadi. 2.Xitoy tilidagi inson tanasi harakatlari ko‘pincha quvonchni metafora bilan ifoda etish uchun "sakrash" va "qo‘l silkitish" kabi harakatlardan foydalanadi. Bunday harakatlar tabiiy ravishda odamlar baxtli bo‘lganlarida namoyon bo‘ladi va qo‘llarning bu "baxtli" harakati quvonchning namoyonidir. 小□高□得跳了起来。(Syao Hong quvonchdan sakradi). 他□□□得手舞足蹈 (ular hayajon bilan raqsga tushishdi). 孩子□高□得活□乱跳(bolalar quvonchdan sakrashdi). Tuyg‘ularni metafora qilish uchun insonning ichki organlaridan foydalanish: 我的

[1] 周秀娟.英汉"爱情"隐喻的比较思考[J] 延边大学学报,2001,(2).

心□透了/我的心碎了。(yuragim sindi/yuragim sindi). □段感情的失□□他肝□寸断。(bu munosabatlarning muvaffaqiyatsizligi uning yuragini sindirdi). 他吓得魂都没了 [1] (u shunchalik qo‘rqib ketdiki, joni uzilayozdi).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tuyg‘ular mavhum yoki ta’riflab bo‘lmaydigan bo‘lsa-da, metafora odamlarning bilim jarayonida juda muhim xususiyatdir. Odamlarning o‘z tajribasi va atrofdagi aniq narsalarni tushunishlariga asoslanib, xitoyliklar hissiyotlarni tasvirlash uchun metaforalardan foydalanadilar. Ushbu tavsif tasodifiy emas, balki odamlarning atrofdagi narsalarni tushunishiga, o‘zlarining his-tuyg‘ulariga va fiziologik o‘zgarishlarga asoslangan. Shu tufayli bu emotsional so‘zlar til boyligini oshiradi. Tuyg‘uning ilk ma’nosidan boshlab u tuyg‘ularni daryo yoki suvning bir turi sifatida ifodalovchi metafora bo‘lib, daryo va suvning xususiyatlari xaritada tasvirlangan. His-tuyg‘ularga, shuning uchun "chuqur" "tuyg‘ular uchun metafora sifatida ishlatilishi mumkin ya’ni, tushunchalararo metaforalarni hosil qilish nafaqat bu ikki tushunchani, balki shu ikki tushunchaning xaritasini ham o‘z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, konseptual metaforalarni yaratish nafaqat ushbu ikki tushunchani o‘z ichiga oladi, balki ushbu ikki tushunchani xaritalash jarayonida ularga tegishli so‘zlarning ma’nosidagi o‘zgarishlarga ham ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 周红.英汉情感隐喻共性分析.四川外语学院学报,2001,
2. 张敏,认知语言学与汉语名词短语[M].北京: 中国社会科学出社,1998.
3. Lakoff, G&Johnson. Metaphors We Live By [M]. Chicago: University of Chicago press,1980.
4. 陈文萃、从英汉表情感的成语看英汉情感隐喻的共性会科学,2004
5. 牛丽红,林艳.从概念理□看俄□情感□□ .外语研究,2005

[1] 陈文萃、从英汉表情感的成语看英汉情感隐喻的共性[J].广西社会科学,2004,(4).

6. 周秀娟.英汉"爱情"隐喻的比较思考. 延边大学学报,2001

7. 束金星,徐玉娟.从隐喻式认知看情感隐喻.河南科技大学学报,2003

8. 赵艳芳.认知语言学概论.上海:上海外语教育出版社,2001

Internet manbalar

1. www.yiwen.com.cn
2. www.ewen.com.cn

JURNALIST ERKINLIGI MASLASI VA UNING NAZARIYALARI

Majitov Shoxjahon hamraxon o‘g‘li
TDSHU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: M.K.Solieva

Лингвопоэтика, безусловно, учитывает данные стилистического анализа, однако в рамках лингвопоэтического исследования происходит последующая интерпретация этих данных в связи с содержательными особенностями текста».[1] Цель лингвопоэтического анализа заключается в том, чтобы определить, как та или иная единица языка вовлекается автором в процесс словеснохудожественного творчества, каким образом то или иное сочетание слов приводит к созданию данного эстетического эффекта[2].

Таким образом, подводя итог вышесказанному, следует отметить, что в изучении художественного текста в настоящее время существует множество подходов и направлений, которые дополняют друг друга и позволяют более полно выявить сущность текста в лингвистическом аспекте.

К традиционным подходам можно отнести:

лингвоцентрический;

текстоцентрический;

антропоцентрический;

когнитивный.

К относительно новым:

лингвокультурологический;

интертекстуальный;

лингвопоэтический.

В данной работе мы остановимся на лингвопоэтическом подходе исследования.

Использованная литература

1. Бабенко Л. Г., Васильев И. Е., Казарин Ю. В. Лингвистический анализ художественного текста: Учеб. для студентов вузов, обучающихся по спец. «Филология». Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2000. – С. 16–25.

[1] Красникова Л. В., О Специфике лингвопоэтического исследования художественного текста issn 1991-5497. мир науки, культуры, образования. № 3 (46) 2014.

[2] Задорнова В. Я., Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. -М.: МАКС Пресс, 2005. Вып. 29. 160 с. ISBN 5-317-01330-5

2. Бахтин М.М. Язык в художественной литературе // Собр. соч.: В 7 т. – М., 1997. – Т. 5. – С.306.

3. Грязнова, А. Т. Лингвопоэтический анализ художественного текста: подходы и направления: монография / А. Т. Грязнова. – Москва: МПГУ,2018. – 324 с.

4. Задорнова В. Я., Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. -М.: МАКС Пресс, 2005. Вып. 29. 160 с. ISBN 5-317-01330-5

5. Красникова Л.В., О специфике лингвопоэтического исследования художественного текста ISSN 1991-5497. мир науки, культуры, образования. № 3 (46) 2014.

6. Липграт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и прагматика (на материале английской литературы 16_20 веков). Дисс. докт. филол. наук. М., 1996. С. 23.

7. Нелюбин Л.Л., Толковый словарь. -3 издание. -М: Флинта: Наука.2003.

8. Темкина В.Л., Современные подходы к анализу языка художественной литературы Вестник Огу №11 (160)/ноябрь’2013.

YAPON TILIDA RAD ETISH BILAN BOG‘LIQ BIRLIKLARNING XUSHMUOMALALIK BILAN BOG‘LIQLIGI

Abdujabborov Ibrohimjon Bahtiyor o‘g‘li
TDSHU 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent Sugano Reiko

Inson jamiyatning bir a’zosi sifatida kundalik ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradi. Jamiyatda yashar ekanmiz, “iltimos”, “taklif”, “maslahat” kabi til jarayonlariga duch kelamiz. Shuningdek, biz boshqa tomonning “iltimos”ni rad etishimiz kerak bo‘lgan holatlarga duch kelamiz. Iltimos va rad etish har bir tilda kundalik hayotda ko‘p uchraydigan til jarayoni hisoblanadi. Insoniy munosabatlarga putur yetkazish xavfi borligi uchun iltimos qilingan paytda rad etmoqchi bo‘lsangiz yapon tilida ham o‘zbek tilida ham suhbatdoshni ranjitib qo‘ymaslik, uning ijtimoiy mavqeyi kabi bir necha omillarni inobatga olish va shunga ko‘ra ish tutish talab etiladi. Bunday og‘zaki xatti-harakatni boshqaradigan asosiy vosita so‘zdir.

Chet tilini o‘rganayotgan paytda siz uchun tanish bo‘lmagan yangi muhitda muloqot qilishga to‘g‘ri keladi. Shu jarayonida tilni yaxshi o‘rgangan inson so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llagan taqdirda ham, u mamlakatning madaniyati, tildagi muomala strategiyalari va til funksiyalarini bilmasa muloqot jarayonida tushunmovchiliklar va noqulay vaziyatlar kelib chiqadi. Misol uchun: o‘zbeklar orasida qanchalik yapon tilni yaxshi bilsa ham, shu tilda so‘zlashuvchilar bilan do‘st bo‘lishga qiynalgan holatlar kam emas. Bu til bilish qobiliyati yoki so‘z boyligi kamligidan emas, vaziyatda bilib ishlata olmaslik, suhbat jarayonida tildagi to‘g‘ri strategiyalardan foydalana olmaslik degan kognitiv muammo tufaylidir.

Shu masalada tadqiqot olib brogan Hashimoto (1993) o‘z tadqiqotida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi. Madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishda yuzaga keladigan o‘zaro muloqotdagi noqulayliklarning sabablari turlicha deb talqin etilsada, ammo ikkita asosiy sabab mavjud. Ulardan biri tilning semantik jihatlarini tushunmaslik bilan bog‘liq bo‘lib, bu nomuvofiqlikning aniq sababi bor va chet tilini yaxshi o‘zlashtirish orqali yengib o‘tish mumkin. Ikkinchisi madaniyatlararo muloqot bilan bog‘liq bo‘lib, unda

aytilishicha, aloqa qoidalaridagi farq tufayli tushunmovchilik, pragmatik lingvistik ijro qoidalaridagi farqdir.[1]

Yapon olimi Usami Mayumi "Bir tildagi xushmuomalalikni ifodalovchi jumlalarni boshqa bir tilga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinib bo'lmasligi mumkin. Lekin jamiyatdagi hurmat va qo'pollik tushunchalarini til o'rganuvchilar yaxshi ajratib olmasalar, bu bir xalq ikkinchi xalqni o'zi bilmagan holda haqoratlashiga, tushunmovchilikka, va hatto konfliktga olib kelishini ko'p misollar bilan dalillash mumkin." deb aytadi.

Iltimos va rad etish bevosita "xushmuomalalik" yoki yapon tilida aytganda "丁寧" (TEINEI) bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. "Xushmuomalalik masalalari" jahon tilshunosligi, ayniqsa, Yapon tilshunosligida 1920 yillardan boshlab, jahon tilshunosligida 1960 yillardan beri "hech eskirmaydigan" dolzarb mavzu va qizg'in bahs sifatida o'rganilib kelinmoqda. Jahon olimlari tomonidan shu kungacha amalga oshirilgan tadqiqot mualliflaridan kanadalik Erving Goffman (1967) birinchi marta face (feys) tushunchasini ilgari suradi. Kaliforniyalik Robin Lakoff (1973) Yevropada xushmuomalalik nazariyasini yaratib, xushmuomalalik – Politeness 3 ta tamoyildan iborat deb ta'kidlaydi: "Don't impose or Distance" (Bosim o'tkazmang va uzoq masofa saqlamang), "Give option or Deference" (Tanlash huquqini bering va ehtirom ko'rsating), va "Make audience feel good or Camaraderie" (Suhbatdoshingizga do'stona muhitni his qilishiga imkon bering). Amerikalik Brown va Britaniyalik Levinson (1987) Xushmuomalalikda ijobiy "pozitiv" (ma'qullanishga bo'lgan ehtiyoj) va salbiy "negative" xushmuomalalik (bosim o'tkazilmaslikka bo'lgan ehtiyoj) masalalari nazariyasini yaratdilar.

J.Tomas "Cross-cultural Pragmatic Failure" (O'zaro madaniy pragmatik xatolar) nomli maqolasida turli madaniyatlarga ega, ammo bir tilda so'zlashayotgan kishilar muloqotidagi pragmatik anglashilmovchiliklar haqida so'z yuritadi. Darhaqiqat, insonlarning fikrlash tarzlari, so'zlashish qoidalari, ijtimoiy va milliy qadriyatlari, leksik konnotatsiyalar va boshqa qator omillardagi pragmatik farqlar muloqotda xatolarni keltirib chiqarishi mumkin. Madaniy xato lingvistik xatodan yomonroq va xavfliroq bo'lib, ikki til vakillarida

[1]橋本良明 1992「婉曲的コミュニケーション方略の異文化間比較－9 言語比較調査－」.『東京大学社会情報研究所調査研究紀要』No. 1, 107－159

yoqimsiz hissiyot uyg‘otadi. Olim ilgari surgan fikrlar bizning kuzatishlarimizda ham o‘z tasdig‘ini topdi. Misol tariqasida ulardan ba’zilarini keltiramiz. “Qayerga ketyapsiz?” deb tanishidan so‘rash o‘zbeklarda salomlashishning qisqa davomi uchun aytiladigan nutqiy etiket frazasi o‘rnida qabul qilinsa, yapon xalqida shaxsiy dahlsizlikga putur yetkazish sifatida qaraladi.

Yapon tilshunoslaridan Tokieda (1941) (Kokugo gaku genron – Yapon tilshunosligida nutq), Tsujimura (1991) (Keigono Youhou – Ehtiromning ifodalanishi); Yamaguchi (2004) (Nihongo no Ronri: Kotobani arawareru shisou -Yapon logikasi: tilda aks etgan g‘oyalar) kabi olimlar tadqiqotlari ham mazkur sohada salmoqli natijalarni ko‘rsatadi.

Xushmuomalalik nazariyasi – bu odamlar ijtimoiy munosabatlarda ravon muloqot va munosabatlarni saqlash uchun qanday lingvistik strategiyalardan foydalanishlari haqidagi nazariyadir.[1] Xushmuomalalik yapon tilidagi hurmat tushunchasi bo‘lgan 敬語(keigo)[2] kengroq tushuncha hisoblanadi. Lingvistik xulq-atvor nuqtai nazaridan, xushmuomalalik – bu suhbat sharoitida ifodalangan, uzatiladigan ma’lumot natijasida o’zi yoki suhbatdoshga yetkazilgan ruhiy bosimni yengillashtiruvchi va kompensatsion lingvistik mulohazadir[3].

Yevropa olimlari Brown va Levinson feys tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradilar. “Politeness (xushmuomalalik) ikki ehtiyojni o’z ichiga oladi. Negativ o’z-o’zini hurmat qilish ehtiyoji (negative self-respect needs) deganda bosim o’tkazilmaslikka bo’lgan ehtiyoj tushuniladi. Pozitiv o’z-o’zini hurmat qilish ehtiyoji (positive self-respect needs) deganda ma’qullanishga bo‘lgan ehtiyoj tushuniladi.[4]

---

[1] 権英秀（2008）「『断り』表現の分析方法：フェイス複合現象紹介」『現代社会文化研究』43 号 pp225-242

[2] Keigo (so’zma-so’z tarjima qilinsa, “hurmat tili”) suhbatdoshga nisbatan hurmat va xushmuomalalikni ifodalaydi. Keigoni o’z o’rnida to’g’ri qo’llash juda muhim. Bunda o’zbek tili kabi suhbatdoshning unvoni, yoshi va darajasi muhim
ahamiyatga egadir. Keigo uch bo’limga bo’linadi: Sonkeigo (baland hurmat darajasi), Teineigo (hurmat darajasi), Kenjougo (o’zini pastga urish darajasi).

[3]滝浦真人（2008）「ポライトネス入門 Politeness」 研究社

[4] Brown,P. and Levinson,S.C.（1987）Politeness：Some Universals in Language Usage（Studies in Interactional Sociolinguistics）Cambridge University Press

Pozitiv feys (Positive Face) – suhbatdoshda yaxshi tasavvur qoldirishga intilish, ma'qullanish ishtiyoqi va suhbatdoshning ham ma'qullanayotganini ko'rsatish xohishidir.

- Suhbatdoshga xushomad qilish "服は素敵ですね" – "ko'ylagingiz buncha chiroyli";
- Suhbatdoshning ahvoli haqida qiziqish "お元気ですか" – "qalaysiz?";
- Suhbatdosh bilan o'tayotgan vaqtdan zavqlanayotganingizni ko'rsatish "本当に楽しかったですね" – "maza qildim siz bilan gaplashib";
- Do'stona imo-ishoralar qilish;
- Suhbatdoshga qiziqish bildirish (qiziqish, hamdardlik, hamfikrlik);
- Umumiy mavzulardan kelishuvni qidirish (har ikkala tomonga ma'qul bo'ladigan, xavfsiz suhbat mavzusi tanlash);
- Kelishmovchiliklardan qochish (rozi bo'lgandek o'zini ko'rsatish, kelishuv uchun yolg'ondan foydalanish);
- Hazil-mutoyiba qilish;
- Har ikki tomon tenglikni his qilishi uchun oddiy og'zaki suhbat usulida gaplashish.

Negativ Feys (Negative face) – bosim ostida qolmaslikka bo'lgan xohish va boshqalarni ham bosim ostida qoldirmaslik, o'zgalarning hayotiga aralashmaslik va ularning ham aralashishiga yo'l qo'ymaslik, munosabatlarda erkinlikni his qilish ishtiyoqi. Bunda til bilvosita, uzr so'rash atamalari qo'llangan holda va ehtirom bilan ifoda etiladi.

- Biror narsa so'rashdan oldin uzr so'rash;
- Pessimistik ruhiyatni ko'rsatish "失礼なことですが。。。" – "bilaman bu ahmoqona fikr,…"
- Ulug'lash? "はい、了解しました" – "Xo'p bo'ladi janob"
- Uzr so'rab gap boshlash "すみませんですが。。。" – "bezovta qilayotganim uchun uzr, lekin.."
- Bilvosita gapirish, fikrni to'g'ridan-to'gri ifodalamaslik. "ちょっと、すみませんですがペンは。。。" – "Menda ruchka yo'qga o'xshaydi"
- Tanlov taklif qilish "よろしいでしょうか。。。" – "-b yubora olasizmi, iltimos".

Suhbat chog'ida qaysi feysni qo'llab gapirish millat mentaliteti, an'analari,

qadriyatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, oila munosabatlarida o'zbeklarda oila a'zolar yosh va darajaga qarab o'zaro sizlab gapirish holatida negativ feys yetakchilik qilsa, yaponiyaliklarda yaqin qarindoshlar bir-birini sensirab muloqot qilish holatida pozitiv feys namoyon bo'ladi.

Brown va Levinsonning xushmuomalalik bo'yicha gipotezalaridan foydalanib yapon tilidagi ijobiy xushmuomalalikni tahlil qilib chiqsak. Skollon (1956) tadqiqotiga ko'ra, yevropaliklar asosan ijobiy (pozitiv) xushmuomalalik strategiyasidan foydalanishsa, Koreya, Xitoy, Yaponiya kabi Osiyo davlatlari esa salbiy (negativ) xushmuomalalikdan strategiya sifatida foydalanishga moyilliklari bor.[1] Bu va boshqa tadqiqotlarda ham yaponlar nutq jarayonida salbiy (negativ) xushmuomalalikdan foydalanishi haqida xulosalar berilgan. Otsuka (2002-2003) o'zining tadqiqotida, JSL yapon tilida so'zlashuvchi til sifatida o'rganadigan va JFL yapon tilini chet tili sifatida o'rganadigan o'rganuvchilar uchun yaratilgan darslikda salbiy (negativ) xushmuomalalik strategiyasi asosiy o'rinni egallaganligini e'tirof etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iltimos va rad etish bilan kabi til jarayonlari xushmuomalalik bilan bevosita aloqador hisoblanadi. Tildan foydalanish holatlarni tahlil qilib ko'rsak, iltimos va rad etish insonlar orasidagi munosabatni buzish ehtimolligi juda ham yuqori. So'zlovchi ham, tinglovchi ham munosabatlarni yomonlashtirishi mumkinligi tufayli, bunday bo'lmasligi uchun turli xil strategiyalardan foydalanadilar. Kelishmovchilik kelib chiqmaydigan, xushmuomala suhbat qurish uchun qaysi strategiyadan foydalansa samaraliroq bo'lishini o'ylab ko'rilsa, yosh yoki qari, mansab jihatdan yuqori yoki pastligi, munosabatlarning yaqin yoki uzoqligi bilan aloqadorligiga bo'liqligi ko'rinadi. Bu nafaqat Yaponiya, Amerikada ham rad etish bilan bog'liq til jarayonlarida ko'zga tashlanadi. Ammo Osiyo, asosan qadimdan 上下関係 (iyerarxik munosabatlar) jamiyatda asosiy o'rinni egallagan Yaponiyada til jarayonlariga katta ta'sir o'tkazgan. Yaponlarda o'ta kamtarlik, bosim o'tkazmaslik va bosimda qolmaslik, hammaning hayoti o'ziga tegishli bo'lgani uchun tashqi aralashuvlarni

[1]権英秀（2008）「『断り』表現の分析方法：フェイス複合現象紹介」『現代社会文化研究』43 号 pp224-226

qabul qilmaslik tushunchalari yetakchilik qilib, ko‘proq negativ xushmuomalalikni ifoda etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 高木美嘉（2003）「依頼に対する「受諾」と「断り」の方法」『早稲田大学日本語教育研究』第 2 号

2. 滝浦真人（2008）「ポライトネスから見た敬語，敬語から見たポライトネス—その語用論的相対性」『社会言語科学』pp24-25

3. 森山卓郎（1990）「断りの方略：対人関係調整とコミュニケーション」「言語」第 19 巻第 8 号，59—66.

4. Brown,P. and Levinson,S.C. （ 1987 ） Politeness : Some Universals in Language Usage （ Studies in Interactional Sociolinguistics）Cambridge University Press

5. Levinson S. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.37

6. Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p’s and q’s // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.

7. Goffman E. On face-work: an. analysis of ritual elements in socialinteraction in Laver and Hutcheson. – New York: Pantheon Books, 1967. – P. 319.

YAPON TILIDA KAKAERU「掛ける」FE’LINING KO‘P MA’NODA QO‘LLANILISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Ortiqboyeva Visola Baxrom qizi
TDSHU 1-kurs magistrant
Ilmiy rahbar: PhD. Xalmurzayeva Nodira

キーワード　言語学内、言語外、ポリセントリズム、セマンチック分析、メタファー、メタなミー

V. 背景説明

日本語では多義語がよく使われている。多義語（たぎご）とは、一つで複数の意味を持つ語のことである。また、そのような性質を「多義的」あるいは「多義性」という。元来別の語であったもの（狭義の同音異義語）と、同一語であったが歴史的に意味が分化し別語と認識されるようになったものとに分けることができるが、必ずしも区別できない場合もある。[1]ほとんどの言葉は曖昧である。 多義語はコンテキストと密接に関連しているため、言葉の意味を区別できる。現在、言葉は多くの意味で使用されている。 日本語にも多義語が多い。この研究論文で研究されている「掛ける」 も多義動詞である。「掛ける」は日本語の多義語動詞の中でも、意味の多義性に富む動詞の一つである。

(1) 壁に絵をかける　(2) ハンガーに洋服をかける
(3) 川に橋をかける　(4) 小鳥が街路樹に巣をかける
(5) 荷物の上に覆いをかける (6) 肉にコショウをかける
(7) ミシンをかける (8) ラジオをかけっぱなしにする
(9) ひとり息子に期待をかける (10) 新入生に誘いをかける
(11) 関係代名詞を名詞句にかける (12) ２に３をかけると６

これらの例では、「掛ける」の意味が異なり、「ぶらさげる」「おおいかぶす」「ふりかける」 「つながる」とか意味がある。でも「掛ける」動詞の支配的な意味がない。これは「掛

[1] 森山 新(2014)「基本多義動詞の意味構造, 及び習得との関係についての実証的研究」『お茶の水女子大学

ける」動詞の意味拡張の原因を見つけるのが難しいかもしれないと思う。第二言語習得において、多義語が習得の困難な語量項目の一津とされるのは、このような意味の多義性と、使い分けの複雑さにある。学習者は通常、未知語の意味を辞書による対訳を通して学んでいくが、多義語の場合、辞書には上記のように数多くの訳語が並ぶ。 これらの訳語をこれまでのようにそれぞれに当てはめて理解するという学習法は、母語話者にとってはひとつのまとまりのある語の意味を分断してしまうという指摘があるという指摘がある。(松田 2004 p95)とのべている。

VI. 問題提起

「掛ける」動詞に関するさまざまな観点からの研究が多少されているが、その動詞のもともとの意味とその意味拡張には影響する要素にかかわる研究は不足している。

どうして一つの動詞「掛ける」はさまざまな意味で、さまざまな場合に使われるのでしょうか。

8. 「掛ける」動詞に関するさまざまな観点からの研究が多少されているが、その動詞の意味拡張には影響する要素にかかわる研究は不足している。

多くの意味でこの動詞を使用する理由は、第一に、動詞「掛ける」と関連する名詞との関係、第二に、動詞と目的語の間の関係の類似性、そして第三に、言語内の要因ではないでしょうか。

言葉が様々な意味で使われる理由

Z.A. Xaritonchik は、言語外の要因は、人々の生活におけるさまざまな歴史的、社会的、経済的、技術的およびその他の変化によって引き起こされ、新しい名前を作成し、その結果、言語の新しい意味で既存の指名手段が使用されることになると説明している Z.A. Xaritonchik によると、言葉の意味が拡張するは、言語内の要因に依存している: 意味の差別化、意味の類似性 (類似性)、意味の伝達方法 (メタファー、メタなーみ) などである。言語内の中では、多義語の意味拡張に影響を与える原因がメタファー、メトナミー、提喩などである。

壁に絵を掛ける

壁に→名詞+助詞「に」+「掛ける」
には「どこに」 方向性や場所
絵を→名詞＋助詞「を」「掛ける」
場合の助詞「を」は、「掛ける」の目的語
この意味モデルに基づいて、動詞カケルは7つのグループに分けられた。

意味１

場所 と物（目的語） の接触する部分が点あるいは線となっている。

「壁に絵を掛ける」「窓にカーテンを掛ける」「ハンガーに服をかける」

この「掛ける」は「ぶらさげる」に近い意味（場所）と（物）が部分的に接触する。



O=目的語　J=場所

意味２

「テーブルにクロスを掛ける」　「子供に布団を掛ける」「ベッドにカバーをかける」

「かける」は「覆う」に近い意味場所か対象の上に目的語を置く。



O=目的語 J=場所

VII. 場所「に」名詞＋助詞「を」＋かける 助詞「を」は、「掛ける」の目的語

意味３

- 意味Ｉと＜場所をまたぐような状態で＞＜接触させ＞＜接点を支えとして＞＜場所が物を支える＞

「川に橋をかける」「二階にはしごをかける」「友達に電話を掛ける」

「橋をかける」も「はしごをかける」も離れた２つの場所をつなぐために物を跨らせることを表している。





橋を掛ける　はしごを掛ける

- 物／場所／人「に」名詞＋助詞「を」＋掛ける 助詞「を」は、「掛ける」の目的語

意味 4

肉に塩を掛ける 魚にソースを掛ける 花に水を掛ける

「掛ける」は「撒く」や「ふりかける」に近い意味物 が対象を覆うイメージで対象の上に広がるという点において意味II に類似している。



O_1=対象 O_2=目的語

物「に」名詞＋助詞「を」＋掛ける 助詞「を」は、「掛ける」の目的語

意味５肩に手を掛ける 椅子に腰を掛ける レンジに鍋を掛ける

かける」は「身体部位をある場所に置く」に近い意味



O_1=場所 O_2=物

4. 名詞＋助詞「を」＋掛ける 助詞「を」は、「掛ける」の目的語

意味６「鍵を掛ける 」「ブレーキをを掛ける」「 ラジオを掛ける アイロンを掛ける」

7 意味（肩に）「たすきをかける」 「プレゼントにリボンをかける」

意味１、意味 2、意味 3 の関連性について論じる。意味 I の場合、「壁に絵をかける」や「ハンガーに洋服をかける」などの例に示されるように、場所 と物（目的語） の接触する部分が点あるいは線となっている。一方、意味IIの場合は、「子どもに布団をかける」や「テブルニクロスを掛ける」のような例に示されるように、場所 と物 の接触する部分が面となっている。さらに、意味３になると、「花に水をかける」や「肉にコショウをかける」のような例に示されるように、場所 が複数の個体からなる集合体とみなすことができ、その複数の個体が物 に散在している。意味 5 は、「椅子に腰をかける」や「手をドアノブにかける」のような例に示されるように、場所 を人間の身体部位に限定する用法で、再帰的な表現に属しており、物と場所の接触する部分が基本的に面となっている。

意味４「橋を掛ける」と「はしごを掛ける」とは 「かける」の意味 I とさらに離れているが、壁と地面を統一体と見なし、空間的回転のイメージ操作により、その統一体を下にすると、「はしご」をそれに＜またぐような状態で＞＜接触させ＞＜接点を支えとして＞＜場所が目的語を支える＞という共通の部分を見出せる。これは類似点を持っているため、メタファーに基づいた意味拡張であると考えられる

2. 意味６「鍵をかける」ことと「ドアをロックする」ことは因果関係を持って時間的に隣接しているため、メトニミーに基づき、「鍵をかける」の意味には「ドアをロックする」の意味が組み入れられて、定着している。

3. 「アイロンを掛ける」「ブレーキを掛ける」「掃除機を掛ける」という例でもメトニミーに基づき、掛けるのいみが拡張したと考えられる。

意味７ 意味Iと比べると、場所/物 と目的語 が部分的に接触するのではなく、目的語全体が場所/物 につけている状態である。また意味Iに含まれている「接点を支えとして、場所/物 が目的語 を支える」要素が背景化し、「一周してつける」ことに焦点

を当てている。典型的な目的語としては、たすきやリボンのような細長いものが挙げられる。

「掛ける」動詞を表して来る名詞

1 グループ 名詞+助詞「を」+掛ける　助詞「を」は、「かける」の目的語。目的語は紐状や布のような物；タオル、カーテン、服、布団など

２-グループ 名詞+助詞「を」+掛ける　助詞「を」は、「かける」の目的語。目的語は水のような液体、塩胡椒のような粉末、またソースや割った卵のような混合物

3 グループ 目的語は身体部位の物腰や手など

4 グループ 道具・機械 アイロンをかける 掃除機をかける

5 グループ たすきやリボンのような細長い帯状の物

6 グループ 人間の活動と精神を表す

ある主題の影響と別の主題の影響の関係を見ることができる。

魔法に掛ける 麻酔を掛ける 迷惑を掛ける　多義動詞「掛ける」の意味拡張において、それが言語内の要因によって引き起こされることが分かった。

グループ7では、メタファーとメタノミーが意味の拡張に影響を与えると考えられます。日本語では、多義詞「掛ける」を表して来る名詞が影響の結果の意味拡張の要因となっていると考えられます。

結論

人類はその辞書にある言葉を使って、周囲に名前を付けたり、コミュニケーションしたりしてきます。環境について学ぶ過程で、私たちはいくつかのオブジェクトと他のオブジェクトとの想像上の関係に基づいていくつかのオブジェクトに名前を付け、他のオブジェクトをそのオブジェクトの名前で呼ぶ。 その結果、単語には複数の意味がある。 したがって、多義の現象が発生する。多義性は、単語の意味構造の発達の結果である。あいまいさの現象は言語発達の結果として発生するが、これは特定の言語の発達のレベルを示す。

本研究では、「掛ける」動詞の意味が７意味に分けられて分析した。意味１、２、３、４、５、６ の動詞は、メタファーとメトナミーに基づいて「掛ける」動詞の意味が拡張した。多義動詞「掛ける」の意味拡張において、それが言語内の要因によって引き起こされることが分かった。

日本語では、多義詞「掛ける」を表して来る名詞が影響の結果の意味拡張の要因となっていると考えられます。

参考文献リストを入れてください。

YAPON VA O‘ZBEK TILLARIDA “MUSHUK” LEKSEMASI QATNASHGAN MAQOL VA IBORALARDAN ANGLASHILGAN KONSEPTSIYA

Eshonxo‘jayeva Mukarramxon Zayniddin qizi
TDSHU 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: PhD Turapova Nargiza

[ことわざ／慣用表現における猫に関する概念]（日本語とウズベク語の意味分析）について卒業論文

問題提起。

研究の問題提起として、猫に関することわざ／慣用表現は日本語とウズベク語で相違点もあれば、共通点もあるのではないだろうか。どうして、このようなことわざ／慣用表現には猫が概念として使用されているのかを調べたい。それから、ことわざにおける猫に関する概念に日本語とウズベク語の比較して、両国語でどういう意味があるのか、両国語で意味が同じくなるか、違う点があるのではないでしょうかに研究したい。卒業論文の問題提起として、『猫』に関する諺/慣用表現を意味論的分析すると、両言語で猫のことわざは『人間』の概念が表現されているではないだろうかと言う疑問が湧いてきた。

方向付け—研究の目的と方法。

本研究の主な目的は、日本語とウズベク語における猫に関することわざ／慣用表現の意味を考察する共通点と相違点を考察することである。、猫に関することわざ表現に両国語でどういう意味が含まれるか, 諺や、慣用表現を調べて、考察したい。

それから、日本語とウズベク語のことわざ／慣用表現における猫の言語表現を言語学的観点から研究し、日本とウズベクの精神世界における「猫」の概念の範囲、それらの種に関連する認識、相違点と類似点を研究することである。ウズベク語で猫に関する４６ことわざ／６慣用表現を取り上げ、具体的な意味と派生的な意味が辞典でどのように記述されていることを見ていく、意味特徴に考察する。日本語で猫に関する５０ことわざ／３慣用表現を取り上げの意味特徴に考察する。　両言語で

考察した　猫に関することわざ／慣用表現に両言語で　例を使用しながら、ことわざ／慣用表現これらの意味論的を分析して、考察する。両言語のことわざでは、証明における猫に関することわざ／慣用表現で、猫のイメージの表現に関連する異なる類似の特徴点、相違点と共通点を特定する。[1]　ここで引用は必要ですか。自分の言葉でしょう

表。 ウズベク語と日本語で意味と用法が似ている諺/慣用表現。

No	日本語		ウズベク語	
	諺	意味	諺	意味
1.	猫に九生あり	猫は命が九つもあり、何度でも生まれ変わってくる。猫は執念深く、なかなか死なないということ。	**Mushukning joni 9ta**	猫が毛皮を愛していることが示されている
2.	猫を殺せば七代たたる	猫は魔性のものであるという考えからいう	**Mushukni o‘ldirish 7 avlodga baxtsizlik**	イスラム教では、猫は貴重な動物であり、それを殺すことは重大な罪です
3.	猫の鼻先に鼠を置くように	猫の鼻先に好物の鼠を置くようなもの、つまり非常に危険だということの例え。	**Sichqonni o‘lgisi kelsa mushuk bilan o‘ynashadi**	危険な仕事に専念する人々についてのことわざ
4.	猫の子供はなぶると痩せ	猫の子は、いじり回すと痩せ、犬は逆に	**It bolasi –itga yaxshi, pishak**	猫は自分自身を子猫とも呼びます

[1] ｛日本語故事ことわざ辞典｝940-941-942-943-944 ページ

	る、犬の子はなぶると肥ゆる	肥える。猫は人に触られるのを嫌い、犬はなでられるのを喜ぶということ。	**bolasi-mushukka**	
5.	猫を一匹殺せば七堂伽藍を建立したるより功徳あり	猫は魔性のものであるという考えからいう。	**Mushuk o‘ldirishning jazosi 7ta jome qurishdek og‘ir gunoh**	猫は魔性のものであるという考えからいう。
6.	猫の鼠を窺うよう	獲物を逃がすまいと身構えている様子	**Mushukning quvgani-sichqonning o‘lgani**	とにかく逃亡者がいつか捕まえられることについてのことわざ
7.	猫は虎の心を知らず	獲物を逃がすまいと身構えている様子	**Mushukning yuragi-sherniki emas**	誰もが子孫であるということわざ
8.	猫が肥えれば鰹節が痩せる	猫がよくなれば他方が悪くなり、一方に利があれば他方に損があるというたとえ	**It mushuk do‘st bo‘lsa, sichqonni hudo urar**	人々が善のために善と悪のために会うことについてのことわざ
9.	猫に会った＝追われた鼠	猫の前のネズミのように、人間に逃げることも戦うこともできず、絶体絶命といった様子。	**Sichqonni o‘lgisi kelsa mushuk bilan**	危険な仕事に専念する人々についてのことわざ

結論

本稿では、ことわざ／慣用表現における『猫』にに関する概念について考察した。日本語で『成語林　故事ことわざ／慣用句辞典』『国語辞典』、と言う辞典から５０個諺。３個慣用表現、ウズベク語で　Sh. Rahmatullayev “iboralar lug‘ati”　A. Musaqulov “5 tomli izohli lug‘at” “B.Sarimsoqov “maqollarning izohli lug‘ati” に基づいて４６個諺、６個慣用表現を取り上げた。まず、辞典から『猫』の意味を調べ，意味を分析した。分析する際３つグループに分け、意味を明らかにした。１）グループ「人」の特徴を表す「猫」を含むウズベク語と日本語のことわざと慣用表現２）グループ比喩的な意味を表す「猫」を含むウズベク語と日本語のことわざと慣用表現 ３）グループ“　ウズベク語と日本語で意味と用法が似ている諺/慣用表現。第１．分析の結果、日本語で、猫に関する諺 50 個の慣用表現の 3 つのうちで 26 個のことわざと慣用表現の 2 つ、ウズベックで 46 個の「猫」のことわざと 6 個つの慣用表現のうち、28 個のことわざと 5 個慣用表現の意味が「人間の概念」を意味を明らかにした。第２．分析の結果から、日本語では、『猫』を含む、５０個のことわざのうち７つは、ウズベク語では、46 個のことわざのうち６個は『猫』の概念を表すのかを明らかになった。文章が長い分かりにくい。第３．それから、両言語で　９個『猫』に関する諺/慣用表現意味と意味の使い方が同じくなるのかを明らかにした。第４．または、諺/慣用表現はウズベク語でつまり、Negative 気持ちを表すことがよく出てきた。たとえば、[Mushuk xo‘ra bo‘lsa – o‘g‘riga eshik ochiq]悲しみ、[Ehtiyoj mushukni tulkiga aylantirar、　Mushuk tushida changalzorni ko‘rar、Bir qarg‘a bilan – qish kelmas, bir mushuk qo‘lidan ish kelmas.] 困ること、[　Ajali yetgan sichqon mushukka g‘amza bo‘lar, Mushukni o‘ldirish 7 avlodga baxtsizlik, Mushukning o‘limi-sichqonga to‘y , Yuvosh mushukning tishi o‘tkir bo‘lar,] 殺すこと、[Har kim eliga-mushuk dumiga sodiq, Ko‘r mushukka har narsa yuvosh ko‘rinar] 恐れる、[Mushukning quvgani- sichqonning o‘lgani, Sichqonga o‘lim-

mushukka o‘yin, Mushuk yo‘g‘ida sichqon tepaga chiqa, İtni qopmas , mushukni tirnamas deb bo‘lmas.]危険などである。

日本語でNegative気持ちよりPositive気持ちも表すことが明らかになった。たとえば、[猫の手も借りたい] 手伝いこと、[猫にまたたび, 猫に鰹節の番, 猫の寒恋い]愛する、[猫は禿げても猫, 猫は三月を一年とする, 有っても無くても猫の尻尾] 喜ぶなどである。

それから、日本語で長所的な意味と短所的な意味もある野花を明らかにした。日本語で、長所的な意味を表す“猫“に関する諺：猫に九生あり、猫にまたたび、だんまり猫がネズミを捕る、猫に鰹節の番、猫の鼠を窺うよう、上手の猫が爪を隠す、猫にもなれば虎にもなる、女の心は猫の眼、猫の目のよう、有っても無くても猫の尻尾, 猫は三月を一年とする, 猫も茶を飲む, 猫を殺せば七代たたる。短所的な意味を表す”猫に関する諺：猫に小判, 猫の手も借りたい, 猫の歯に蚤, 猫の寒恋い, 猫の首に鈴を付ける, 猫は虎の心を知らず, 鳴く猫鼠捕らず、猫の子一匹いない、猫は長者の生まれ変わり。慣用表現：猫をかぶる、猫にひたいほど。ウズベク語で、長所的な意味を表す“猫“に関する諺：mushuk boqqanning uyidan baliq arimas, mushukka ermakdan pashmak yaxshi, mushukning ozig‘i burnida, har kim eliga mushuk dumiga sodiq, It boqqandan mushuk boq qo‘y oldirmas qo‘radan. 慣用表現：uning mushugini hech kim pisht demaydi, bekorga mushuk ham oftobga chiqmaydi. 短所的な意味を表す”猫“に関する諺：uy mushugi jim tursa och qolar, erinchoqning qo‘lini mushuk yalar, mushuk sog‘lig‘idan o‘lmas, suqligidan o‘lar, shoshgan mushuk sichqon tutolmas, mushuk yugursa ham yo‘lbars bo‘lmas, yuvosh mushukning tishi o‘tkir bo‘lar, sichqonga o‘lim, mushukka o‘yin, itdan suyak ortmas mushukdan bez, mushuk sher bo‘lmas eshak toy, it mushuk do‘st bo‘lsa sichqonni xudo urar. 慣用表現：mushuk – sichqon o‘ynamasin, suvga tushgan mushukdek, oralaridan qora ola mushuk o‘tdi.

参加文献。

ウズベク語で：

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida:Xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari” T-sharq,1997,142-bet

2. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida:Havfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari” T-sharq,1997,142-bet

3.Karimov I.A. “Bunyodkorlik yo‘lidan”. O‘zbekiston, Toshkent-1996, 4-88-betlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Musaqulov, B.Sarimsoqov “O‘zbek xalq maqollari II tomli lug‘ati” Toshkent-2001

2. Sh.Rahmatullayev “ O‘zbek tilining izohli lug‘at” Toshkent 1978

3.A,Mamatovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik-iboralar norma muammolari”1991

4. B.Yo‘ldoshevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida maqol va iboralarning funksional uslubiy xususiyatlari” 1994

5.M.A.Hamroyev “O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi” 2005

6. B.Yo‘ldoshev Frazeologiya tarixidan lavhalar- Samarqand So‘g‘diyona,1998-110-b

7. To‘ra Mirzayev “O‘zbek xalq maqollari”, “Sharq” nashriyoti, 2005

8. Shotursun Shomaqsudov. Shuhrat Shorahmedov “Ma’nolar maxzani” ,

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2001

9. Shotursun Shomaqsudov. Shuhrat Shorahmedov “Hikmatnoma. O‘zbek

maqollarining izohli lug‘ati” “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent- 1990

日本語で：

1. 中川雄三『ひと目でわかる野鳥』、成美堂出版、2010 年 1 月。ISBN 978-4415305325 223 ページ

2. ジャン・シュヴァリエ アラン・ゲールブラン「世界シンボル大事典 Dictionnaire des

Symboles」株式会社大修館書店、1996 年 12 月 15 日 216 ページ
4. 望月久貴「実用故事ことわざ辞典」千曲秀版社、昭和 53 年 10 月 1 日
5. だれ『明鏡 ことわざ成句使い方辞典』　２００７年０７月１０日 940-941-942-943-944 ページ
6. 「日本語故事ことわざ辞典」1985 年
7. 「日本語慣用句事典　」2005 年０７月１２日

YAPON VA O‘ZBEK TILLARIDA “VAQT” KONSEPTINING KOGNITIV TAHLILI

Raxmataliyeva Zarifaxon
TDSHU 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N.T. Xalmurzayeva

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik tilni tushuncha nuqtai nazaridan o’rganadigan sohasi hisoblanadi. Bu tushunchalar aniq bir tilda ba’zan universal, ba’zan maxsus holda bo’ladi. Shu xususiyati bilan semantikaga o’xshab ketadi, lekin psixolingvistikadan farq qiladi. Kognitiv tilshunoslik uchta asosiy holatni kuzatish bilan xarakterlanadi. Olimlarning aniqlashlaricha, kognitiv tilshunoslik ma’lumotlarni transformatsiyalash va kodlashda asosiy rol o’ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o’rganiladi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning va lingvomadaniyatning asosiy atamalaridan biri bu – konseptdir. U insonning tafakkur xususiyatlari va qurilishiga bog‘liq bo’lgan muammolar bilan qiziquvchilarning diqqatini o’ziga tortib kelmoqda. Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o’rganuvchi fandir. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo’lib, madaniyat va inson o’rtasidagi aloqa o’rnatuvchi elementdir. Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig‘i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o’zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi.

Birinchi bor konsept atamasini rus fanida 1928-yilda S.A.Askoldov qo’llagan. Olim konseptni ko’pgina noaniq predmetlar, harakatlar, voqeliklar (rivojlanish konsepti, haqiqatgo’ylik, matematik konseptlar)ni fikrlash jarayonida o’rnini to’ldiruvchi tafakkur shakli deb izohlaydi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o’zida aks ettiradigan birlikdir”[1]deb izoh bergan.

Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning har biri bu termin yoki tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishadi.Uni biron tushuncha haqida ideal,

[1] Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст] / С.А.Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.:Academia, 1997. – С. 267–280

kulturologik shartli inson tasavvuridagi obraz (A.Vejbitskaya), mantiqiy kategoriya (Y.I.Stepanov), amaliy falsafadagi bir tushuncha (N.D.Aryutunova), ko'p qatlamli tushuncha (V.I.Krasik) deb va boshqa olimlar tomonidan ham turlicha talqin qilingan. Yuqorida qayd etilgan S.A.Askoldov fikri Y.S.Stepanovaning bildirgan fikriga juda yaqin, "konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi."[1]

Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o'z ichiga olishini ko'rsatadi va konsept tuzilishida o'zgacha nuqtai nazar borligini ta'kidlaydi. Konsept markazida qadrlilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrlilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'noviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalanayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi, [2] deb ta'kidlaydi.

Konsept haqidagi turli qarashlarni tahlil qilar ekanlar, olimlar aniq bir xulosaga keldilar: konsept – bu abstrakt nomlar turi emas, xalq tomonidan asrlar mobaynida to'planib kelingan bilim va malakalarni, ularni o'rganib chiqishning asosiy rakursi. "Konsept"- atamasi tilshunoslikda ham yangi ham eski atama hisoblanadi. Hozirda tilshunoslikda konsept tushunchasiga juda katta e'tibor berilib kelinmoqda. XX asrning 70-yillarida an'anaviy tilshunoslikda konsept atamasi o'zgacha chuqur izohlar talab qiladigan muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasidan to'la huquqli foydalanish 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof, G.Lakof, R.Langaskerlarning asarlarini tarjima qilinishi bilan bog'liq. Aynan o'sha matnlarda odatda konseptualizatsiya, konseptual mohiyat atamalari uchrab turadi.

Konsept tushunchasining lug'aviy ma'nosi ustida ham ko'pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor. Kognitiv atamalar lug'atida "konsept" atamasiga

---

[1] Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст] / С.А.Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.:Academia, 1997. – С. 267–280

[2] Маслова В.А. Лингвокультурология.. –М.: «Академия», 2001. – С. 208 .

quyidagicha ta'rif beradi: Konsept – bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarining inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir."Konsept" atamasi zamonaviy tilshunoslikda u yoki bu leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda tez-tez konsept atamasi tushuncha bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. "Konsept"- lotincha "conceptus" so'zidan olingan bo'lib, "tushuncha" ma'nosini bildiradi. Konsept tushunchalar yig'indisidir. Biror predmet haqida aytilgan yoki bildirilgan har qanday fikrlar yig'indisi ham konseptni tashkil etadi. Konsept tushunchasi so'nggi o'n yil ichida tilshunoslikda keng shakllangan.

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Binobarin, N.Y. Shvedova konseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta'kidlagan.[1]

Lingvistikaning yangi yo'nalishi – lingvomadaniyat til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Bu yo'nalishning o'zining shunday kategorial apparati mavjudki, uning markaziy obyekti konsept tushunchasi bo'lib hisoblanadi.

Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada (lingvomadaniyat) konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan".[2]

«Kognitiv» atamasining asosida «bilish», «idrok etish» degan ma'nolar yotadi (ingliz tilida «congnitive», rus tilida «poznavatelniy»).

---

[1] Шведова Н.Ю. Избранные работы. –М.: Языки славянской культуры, 2005. С. — 640

[2] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Т,: 2012. -№ 5. 3-16 бетлар.

Sh.Safarov fikricha, «Bilim olish va saqlash, uni amalda qo‘llash va uzatish manbai va, nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo‘lgan til tizimi kognitiv tahlil obyekti ekanligiga hech qanday shubha yo‘q. Bilimning mavjudligi tilning mavjudligidan. Tilning o‘zi esa kognitiv tizimning faoliyati mahsulidir, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi». Kognitologiya tafakkur haqidagi fan bo‘lib, uning tayanch nuqtasi tilshunoslikdir. So‘zsiz, lingvistik tahlil kognitiv tahlilning bir turi, uning ma’lum bir ko‘rinishda namoyon bo‘lishidir. Kognitiv tilshunoslik fani XX asrning ikkinchi yarmida axborot texnologiyalari taraqqiyoti oqibatida yuzaga kelgan «sun’iy intellekt» tizimi vositalariga oid mushohada, savollarga javob izlovchi fan sifatida paydo bo‘ldi. Bu fan insonning bilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Konsepsiyani tahlil qilishda (J. Lakoff, M. Jonson, Langaker, Djekendorf R. va boshqalar) hamda (Yu.S. Stepanov, A. P. Babushkin, Yu.D. Apresyan, S. X. Lyapin, V. I. Karasik, D. O. Dobrovolskiy, N. N. Boldyrev, I. A. Sternin, E. S. Kubryakova, Yu. N. Karaulov va boshqalar) kabi olimlarning ilmiy ishlari tayanch vazifasini o‘taydi. Iqtibos keltirilmagan

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o‘ringa chiqadi. Konsept lingvokulturologiyada eng faol qo‘llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, «Vaqt» konsepti ni qiyosiy jihatdan o‘rganish bilan bog‘liq Professor Shahriyor Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” (2006) kitobida “Vaqt” konsepti haqida juda yaxshi misollar berilgan va Vaqtning bir nechta xususiyatlari sanab o‘tilgan. Ushbu maqolamizda “vaqt” konseptining lug‘aviy ma’nolarini tahlil qilish orqali ikki xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida vaqtga quyidagicha ta’rif berilgan:

1. Yuz berib turuvchi voqea-hodisa, narsalarning asrlar, yillar, soatlar, minutlar va shu kabilar bilan o‘lchanadigan davomiyligi, shunday o‘lchov belgisiga ega bo‘lgan obyektiv hodisa. Vaqt[1] g‘oyat imillab o’tardi. Hamma xavotirlanib bezovta bo’la boshladi. K. Yashin,

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 — 2008. 448 – 449 бетлар

Hamza. Lekin vaqt o’z ishini qildi – oyni g‘arb ufqidan tortib kirib ketdi. Demak, tong otdi. M. Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha

2. Shu obyektiv hodisaning minut, soat, kun, yil va shu kabi bilan almashinuvidagi oralig‘i, qismi, bo‘lagi. Bayramlardagina kiyadigan, boshqa vaqtlarda chamadonida avaylab saqlaydigan oq surp ko’ylagini kiydi.S. Karomatov. Oltin qum.

3. Soat, kun, oy, yil va shu kabilarning uzluksiz izchil almashuvida biror maqsad uchun belgilangan yoki biror maqsad uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan muddat oralig‘i; fursat. Vaqtni qo’ldan bermoq. Vaqtdan yutmoq. Vaqtdan to’g‘ri foydalanmoq. Vaqting ketdi – baxting ketdi. Maqol.

4. Vaqtning biror narsa, ish-mashg‘ulot uchun belgilangan, ajratilgan bo‘lagi; muddat. Masalani to’g‘ri yechdi-yu, oqqa ko’chirayotganida, vaqti tugab qoldi. O’. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Tanaffus vaqtida hamma mukofotlanganlarni, mukofotlanganlar esa bir-birlarini tabriklab, zal va foyelar g‘ovur bo’lib ketdi. A. Qahhor, Qo’shchinor chiroqlari

5. Obyektiv o‘tuvchi vaqtning ma’lum ijtimoiy hodisa, holatlar bilan bog‘liq, ular bilan kechgan bo‘lagi; zamon, davr. Quldorlik vaqtida. Mo’g‘ullar hukmronligi vaqtida. Vaqt kech bo’lib qoldi. Bolalik vaqti. Yoshlik vaqti. Yoz vaqti. Namoz vaqti. // Ertalab Qo’qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg‘ilonga kiradir. A. Qodiriy, O’tgan kunlar.

6. fls. Borliqning, makon kabi, obyektiv real shakli, materiyaning yashash shakllari-dan biri. Nisbiylik nazariyasi-materiya mavjud bo’ladigan fazo va vaqt nazariyasidir. “Fan va turmush”.

7. Obyektiv tarzda kechuvchi zamon, davrning, kishi hayotining ma’lum, aniq bir bo‘lagi, nuqtasi, oralig‘i. Vaqt kech bo’lib qoldi. Bolalik vaqti. Yoshlik vaqti. Yoz vaqti. Namoz vaqti. // Ertalab Qo’qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg‘ilonga kiradir. A. Qodiriy, O’tgan kunlar.

O‘zbek tilida vaqt tushunchasining umumiy 7 ta lug‘aviy ma’nolari mavjud.

Yapon tilining izohli lug‘atida «vaqt» tushunchasining ifoda etilishi.

時間[jikan] ;

１ある時刻と他の時刻との間の長さ。ある長さをもつ時;

Bir vaqt va boshqasi orasidagi uzunlik

2. 時の流れの中の、ある一点。時刻。とき

Vaqt o‘tishi oralig‘idagi bitta nuqtasi. Kun vaqtlari. Payt

3. 時の長さを数える単位。時

Vaqtni hisoblash uchun hisob so‘z. Soat

4. 授業や勤務など、ある一定の区切られた長さの時

Dars yoki ish kabilarda chegaralangan vaqt oralig‘i

5. 哲学で、空間とともにあらゆる事象の最も基底的、普遍的な存在形式。また出来事が継起する形式。過去・現在・未来の三様態をもち、常に一方向に経過し、非可逆的である。

Falsafada kosmos bilan birga har qanday hodisaning mavjud bo‘lishining eng asosiy va universal shakli. Bundan tashqari, voqealar sodir bo‘ladigan format. U o‘tmish, hozirgi va kelajakdagi uchta rejimga ega va har doim bir yo‘nalishda o‘tadi va qaytarilmasdir.

6. 現象が経過していく前後関係を明示するための変数。古典力学では空間に対する独立した変数と見なされたが、相対性理論では空間とともに四次元の世界をつくるとされる。

Hodisa rivojlanayotgan kontekstni aniqlashtirish uchun o‘zgaruvchidir. Klassik mexanikada u fazo uchun mustaqil o‘zgaruvchi sifatida qaralgan, ammo nisbiylik nazariyasida u kosmos bilan birga to‘rt o‘lchovli dunyoni yaratadi.

Yapon va o’zbek tilidagi vaqt konseptining lug’aviy ma’nolarining mavjudligi hamda ularning o’zaro mos kelishi:

No:	Yapon tilidagi ma’nolari	O‘zbek tilidagi ma’nolari
1	+	+
2	+	+
3	+	+
4	+	+
5	+	+
6	+	+
7	-	+

Yapon va o‘zbek tillarida vaqtning asosiy ma’nolarini tahlil qilganimizda, har ikki tilda ham oltita ma’no o‘zaro mos kelishi mumkin, lekin o‘zbek tilida vaqt, obyektivdir. O‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nolarining “7. Obyektiv tarzda kechuvchi zamon, davr kishi hayotining ma’lum aniq bir bo‘lagi, nuqtasi, oralig‘i “ deb ko‘rsatilgan ma’nosi yapon tilidagi vaqt konseptining ma’nolaridan tashqari bir alohida ma’nosidir. Xulosa qilib aytganda, konsept xar bir millat tarixining rivojlanishi mobaynida ham o‘z strukturasi hamda shu strukturani tashkil qiluvchi belgilarni yo‘qotmaydi. Shuni ta’kidlash joizki, ya’ni “vaqt” tushunchasi asrlar oldin boshqa so‘z orqali yuritilgan bo‘lishi mumkin, lekin tushuncha sifatida asrlar osha davom etib kelmoqda. Demak so‘zning lug‘aviy ma’nosi va konsept tafakkur hamda kognitiv xususiyat bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, ongda borliqning aks etishi natijasi hisoblanadi. Shunday ekan , konsept kognitiv ong mahsuli bo‘lsa, so‘zning leksik ma’nosi lisoniy ong mahsulidir.

Konseptning mohiyati kengroq tushuncha bo‘lib, u o‘zida faqatgina ma’no komponentlarigina emas, belki inson o‘z hayotiy tajribasi davomida orttirgan bilimlari hamda ongidagi axborot yig‘indisi, u yoki bu predmet yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlari majmuidan iboratdir deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbek tilidagi adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmatillayev SH. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” Toshkent: 1978
2. Madaliyev A. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent: 2006
3. Hamidov X. Maqol, matal va idiomalar tarjimasi muammolari (monografiya). Toshkent: ToshDSHI, 2017.
4. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. Mas’ul muharrir G.Rixsiyeva. Toshkent: ToshDSHI, 2017.
5. Abdulazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –T.: “Sharq”, 2010.

Rus tillaridagi adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. –М.: Языки русской культуры, 1999.
2. Аскольдов С.А. Концепт и слово . –М.: Academia, 1997.

3. Афанасьева О.В. Семантическая структура концепта «время» и ее отражение во фразеологических системах английского, испанского и русскогоязыков. Автореферат дисс. канд. филол. наук. Казань, 2007.

4. Баруздина С. А. Время как лингвокультурный концепт. Москва

5. Большой энциклопедический словарь. 2002.

6. Воркачев С.Г. Концепт счастья в английском языке.// Проблемы концептологии. –М.: 2002.

7. Горелова Н.Е. Отношение ко времени в японской и русской лингвокультурах. Москва, 2015

8. ЕлизоваТ.К. Специфика научного консепта «время» в английском и русском языках. Филологические науки. Вопросы теории и практики, No 7 (18) 2012, часть 1

9. Залевская А.А. Текст и е

Yapon tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. 「日本語国語大辞典第二版」（2001）小学館

2. 「国語大辞典」（1995）小学館、

3. 「慣用句・ことわざ辞典」（1995）　三省堂

4. 「慣用句の意味と用法」（1882）明治書院

TILSHUNOSLIKDA RANGNI IFODALOVCHI VOSITA VA USULLAR TADQIQIGA BAG'ISHLANGAN ILMIY ISHLARGA SHARH

Husanova Nilufar,
TDSHU 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Sh.B. Sadikova

Tilshunoslikda ranglarni ifodalash xususidagi ilmiy ishlarda turli xil ilmiy qarashlar, stereotiplar mavjud. Rangni ifodalovchi vositalar, rang mavzusini turli xil yo'nalishlarda tadqiq qilib kelishmoqda.

Adabiyotlar tahlili rang mavzusini o'rganishda turli xil yo'nalish va yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiq qilingan ishlardan lingvomadaniy yo'nalishlarda rangni ifodalovchi vositalar, tilda mavjud bo'lgan rangni ifodalovchi usullar mavzusiga oid ishlar olib borilgan ko'plab ilmiy manbalarni topishimiz mumkin. Ularni o'rganish natijasida tadqiqot ishlari har xil yo'nalishdaligini, xususan lingvikultrologik yo'nalishda ham tadqiq qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Ranglar borasida bir rangni har xil ma'nolarda qo'llanilishi, uning ham salbiy ham ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'la olishi, lingvokultrologik jihatdan madaniy qatlamning ajralmas bir bo'lagi va ularsiz ba'zi fikrlarimizni ifodalay olmasligimizga guvoh bo'lamiz.

Rang mavzusini o'zbek tilshunoslik va adabiyotida ham keng o'rganilib kelinmoqda. Rang mavzusi lingvokultrologik jihatidan ham kultrologik jihatidan ham tadqiq qilingan.

S. O'tanovaning "Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasining o'rni" nomli ilmiy ishida ranglar ifodalagan simvollar, ularning tarixi va badiiy adabiyotdagi ifodasi, ranglar va A.Navoiy g'azaliyotining obrazlar olami, rang simvolikasi va obrazlilik, rang bilan bog'liq tasvir va badiiy san'atlar xususida fikrlar bayon etilgan. Tadqiqot ishida rang simvolikasi haqida so'z borganda Anatomy ijodida qora va qizil ranglar yetakchi mavqe egallashi, keyingi o'rinlarda yashil va ko'k, oq, sariq ranglardan samarali foydalanganligi haqida fikrlar bildirilgan. A.Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasini tutgan o'rni borasida to'xtalib, " Xazoyin ul-maoniy" asarida 2600 g'azaldan 31 tasi boshdan- oxir rang simvolikasi asosiga qurilganligini, 1400 dan ortiq g'azalda rang bilan bog'liq obrazlilik darajasi namoyon

bo‘lganini ta’kidlaydi. Shuningdek, u A.Navoiy qo‘llagan rang ramzlari obrazlilikni vujudga keltirishda ayniqsa, oshiq va ma’shuqaning kechinmalari, hol va kayfiyati haqida tasavvur beruvchi yorqin manzaralar yaratishda muhim o‘rin tutgan,- deydi. [1]

M. Mamadaliyevaning “O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti” nomli tadqiqot ishida sifat leksemlarning, xususan, rang ifodalovchi so‘zlarning konnotativ semalari borasida fikr bildirilgan.

“Sodiqning qizil, ukki ko‘zlari o‘ynab javob berdi” (A. Qodiriy) gapida qizil rangi tahlil qilar ekan – sifat leksema, gapda qizil leksemasida sof sifat belgi semasidan tashqari, salbiy baho semasi ham mavjud. Bu sema sof nutqiy sema bo‘lib, konnotativ ma’no hisoblanadi. Qizil leksemasi ko‘z leksemasiga bog‘lanib, salbiy baho anglatmoqda. Agar qizil leksemasi yuz, lola, gul kabi leksemalar bilan bog‘lanib kelsa, ijobiylik semasini anglatishi mumkin. Shuning uchun bu leksemaning qaysi so‘z bilan bog‘lanishi ham uning semalari o‘zgarishi uchun asos bo‘lishi mumkin.”

Shuningdek, tadqiqotda qizil leksemasida salbiy baho mavjudmi yoki yo‘qligini bilish uchun shu leksemaning ma’no tarkibini tahlil etish zarurligi haqida gapirib.

“Qizil – rang, tus, qora, ko‘k, yashil, oq kabi ranglarga qarama-qarshi, jigar rang, pushti kabi ranglarga o‘xshash; yoshlik, qiziqqonlik ramzi; ko‘zni quvontiruvchi, sho‘x rang; sog‘lomlik ramzi (yuzi qizil), go‘zallik ramzi (oqi oq, qizili qizil).Ko‘rinadiki, bu ma’no tuzilishida ijobiylik semasi ochiq ko‘rinib turibdi. Qizil – qon rangi, jahl chiqqanlik belgisi (ko‘zi qonga to‘ldi, ko‘zi qizardi), kasallik ramzi (ko‘zi qizil rangga bo‘yaldi), uyalish belgisi (yuzi qizardi), ayriliq ramzi (qizil qonim qoldi sahroda).” Demak, bu so‘zning ma’no tuzilishida salbiylik semasiga ishora ham bor. Bu semalar turli nutqiy vaziyatlarda yuzaga chiqishi mumkin. Shu sababdan bu so‘zni qaysi so‘zga bog‘lanishiga qarab, uning konnnotativ ma’nosi belgilanadi. Shuni unutmaslik lozimki, qizil leksemasining ma’no tarkibi shu so‘zning bog‘lanish imkoniyatidan kelib chiqib aniqlanadi. Shu sababli semalar

[1] O’tanova.S. “Alisher Navoiy g’azaliyotida rang simvolikasining o’rni”. Kand. Filolog. Nauk: 10.01.03: utv 08.04.2008, 10.01.08 Toshkent: 2007. -138 b.

tarkibi qancha murakkab bo‘lsa, nutqiy vaziyatdagi ishtiroki shuncha kengayadi. [1]

N.Jumatovaning “Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar” nomli tadqiqot ishida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar tarixi, hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar, hozirgi o‘zbek she’riyatida ranglar ifodalagan xarakter ko‘rinishlari haqida so‘z boradi.

Muallif uch rang, oq, qora va qizillarni keltirar ekan, ko‘pincha shu uchala rang olimlarning fikricha eng qadimiy va asosiy hisoblanadi deydi va o‘z tadqiqotida V.Ternerning “Символ и ритуал” [2]nomli tadqiqotiga tayanib, mazkur ranglar borliqni ramziylashtirishda asos bo‘lib, qolgan ranglarning xususiyatlari oq, qizil va qora ranglar xususiyatidan kelib chiqadi va ularni to‘ldiradi, degan fikrni ilgari suradi.[3]

M.Yo. Ro‘ziyevaning “O‘zbek xalq qo‘shiqlarida rang simvolikasi” folklorshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqot ishida ranglar bilan mifologik qarashlar mohiyati, ramz tushunchasi va folklorda rang simvolikasi, marosim folklorida rang simvolikasi, shomon marosimlari folklorida rang, marosim qo‘shiqlarida ranglarga munosabat ifodasi, to‘y marosimlari folklorida rang ramzlarining qo‘llanilishi, motam marosimlarida rang va uning ramziy ifodasi, lirik qo‘shiqlarda ranglar badiiy-tasviriy vosita sifatida, lirik qo‘shiqlarda rang ramzlarning semantik ko‘lami, xalq qo‘shiqlarida rang ramzlarning turli tasviriy vositalar bilan aloqadorligi borasida tadqiqot olib bordi[4]

A.A. Abdurahmonov “O‘zbek she’riyatida nur, rang va ruhiyat tasviri poetikasi (an’ana va novatorlik aspektida) mavzusidagi ilmiy ishida rang ifodasining, badiiy-estetik xususiyatlari (an’anaviylik va o‘ziga xoslik), hozirgi o‘zbek she’riyatida rang qo‘llanishining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, rangning badiiy-uslubiy vazifalari,

---

[1] Mamadaliyeva.M “O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti”. filolog. fan. nomzodi. 10.02.02 Namangan: 1997. – 122 b.

[2] В. Тернер. Символ и ритуал. М. : Наука. -1983.

[3] Jumatova N. “Hozirgi o’zbek she’riyatida rang bilan bog’liq ramziy obrazlar”. filologiya fan. nomzodi. 10.01.08. Toshkent: 2000. -126 b.

[4] Ro’ziyevaning. M. Yo. “O‘zbek xalq qo‘shiqlarida rang simvolikasi” filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd). 10.00.08. Toshkent: 2017. -147 b.

ruhiyat tasvirida nur va rang uyg‘unligining badiiy talqini kabi masalalar xususida fikr bildirgan.[1]

Izlanishlarimiz davomida ingliz tilshunosligida rang mavzusiga doir o‘rganilgan tadqiqotlar bilan ham tanishdik.

Jumladan, **R.L. Hamiltonning** “Clour in English: from metonymy to metaphor” (Ingliz tilida rang: metonmiyadan metaforagacha) tadqiq ishida rangli so‘zlar majoziy ma’nolarga ega bo‘lib, vizual signallardan ko‘ra ko‘proq narsani ifodalaydi. Bu tasviriy xususiyatlarning ba’zilari yaxshi ma’lum. Masalan, ingliz tilida qora rang evil=yovuzlik bilan, ko‘k rang esa depression=depressiya bilan bog‘lanadi. Ranglarning o‘zlari ham tajribaning boshqa sohalari leksikasidan foydalangan holda metaforik atamalarda tasvirlangan, masalan, biz to‘q chuqur ko‘k haqida gapirganda, fazoviy pozitsiyani tushunamiz. Semantik nazariya uchun metafora ham, rang ham markaziy ahamiyatga ega; bundan tashqari, rang juda samarali metafora sohasi sifatida tan olingan. Shunga qaramay, nisbatan kam sonli asarlar ushbu mavzularni bir xilda ko‘rib chiqdilar va hattoki bir nechtasi asosiy bo‘lmagan rang atamalarini kiritish o‘rniga, asosiy rang atamalariga e’tibor qaratishdi. Ushbu dissertatsiya asosiy va asosiy bo‘lmagan rang atamalarini kompleks o‘rganish zarurligini ko‘rib chiqadi va rangning semantik sohasidagi metafora va metonimiya haqida umumiy ma’lumot beradi. Xaritalash metaforasi loyihasining bir qismi sifatida olib borilgan ushbu tadqiqot ingliz tarixiy tezaurusining noyob ma’lumotlar manbasidan foydalanib, so‘z boyligini ranglar bilan o‘troqlashtirgan va shu tariqa majoziy foydalanishga ishora qiluvchi ma’no sohalarini aniqlaydi. Keyin leksikografik dalillar keyingi rivojlanish yoki ma’no o‘zgarishlarini tekshirish uchun Britaniya Milliy Korpusi va Zamonaviy Amerika Korpusida topilgan hozirgi tildagi qanday ifodalanishi taqqoslanadi. Birinchidan, to‘yinganlik, ohang va yorqinlik kabi shartlari muhokama qilinadi. Ushbu leksika ko‘pincha rang o‘zgartiruvchi vazifasini bajaradi va *hayot, hissiyot, haqiqat,* va *axloq* kabi sohalardan rangga o‘tishi aniqlandi.

Keyin ranglarning tovush, teginish va o‘lchov bilan o‘zaro modal bog‘lanishlari haqida dalillar keltirilgan. Har bir asosiy rang atamalari o‘z navbatida asosiy bo‘lmagan rang atamalari tanlovi bilan bir qatorda

[1] Abdurahmonov.A.A “O‘zbek she’riyatida nur, rang va ruhiyat tasviri poetikasi (an’ana va novatorlik aspektida).filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dessertatsiyasi . 10.00.02. Farg‘ona: 2018. -167 b.

muhokama qilinadi, bu yerda rang atamalarining qanchalik tez-tez majoziy ma'noda qatnashishini ochib beradi.

Bu ikkilamchi asosiy rang atamalarini o'z ichiga oladi, faqat to'q sariq va bir qator asosiy bo'lmagan rang atamalari bundan mustasno. Ko'rib chiqilgan barcha dalillar rangning majoziy qo'llanilishi metonimiya jarayoni orqali paydo bo'lganligini tasdiqlaydi, garchi ular ko'pincha metafora sifatida kengaytiriladi.[1]

Sh.G'. Qayumxo'jayevaning " Abe Koboning " Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang simvolikasining berilishi ilmiy tadqiq ishida zamonaviy tilshunoslikda rang simvolikasining o'rganilganlik darajasi, Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida rang masalasi va uning ifodalanishi, Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida rang masalasiga kirish, Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida rang masalasini ochib berishdagi yondashuvlar, Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinishi, V. Ro'zimatov tarjimasidagi Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida rang simvolikasining berilishidagi simmetrik va asimmetrik munosabatlar xususidagi izlanishlar ahamiyatlidir.[2]

Xuan Vang (San'at va adabiyot oliy maktabi, Toxoku universiteti) "atirgulrang" va "kulrang" ranglari misolida ranglarning metaforaviy ifodalanishiga doir ilmiy tadqiqot ishida korpus lingvistikaga asoslandi.

Kundalik hayotda odamlar o'zlarining his-tuyg'ulari va fikrlarini boshqalarga tushunarli tarzda yetkazishadi. So'zma-so'z aytilgan iboralar mavjud bo'lsa-da, metaforalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqot ishida metaforalarni o'rganishda rangli so'zlarga e'tibor qaratiladi. Xususan, "atirgul" va "kulrang" rang so'zlarini misol sifatida ishlatib, "zamonaviy yapon korpus lingvistika"da o'rganiladi. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad metafora ifodasining xususiyatlari va metafora rolini ko'rib chiqishdir. Ushbu tadqiqotda biz korpus bazasida "atirgul" va "kulrang" rangli so'zlarni o'z ichiga olgan metafora iboralaridan foydalaniladi. Tadqiqot natijasida, kundalik hayotda rangli so'z metafora iboralari tez-tez ishlatilishi, yangi hosil qilingan metafora iboralarning unumdorligi yuqori va cheksizligi, shuningdek, rangli metafora iboralarida "vaqtinchalik", "noaniqlik", "o'zgaruvchanlik" va "ba'zi darajadagi

[1] Hamilton.R.L "Clour in English: from metonymy to metaphor". US-2016.

[2] Sh. G'. Qayumxo'jayevaning " Abe Koboning " Qumdagi xotin" roomani tarjimasida rang simvolikasining berilishi". T-2014

izchillik" metaforani rag‘batlantirishning ikkita mumkin bo‘lgan omili mavjud.[1]

Mazkur mavzuni o‘rganishda o‘zbek, ingliz, yapon tillari materiallari asosida qilingan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganib chiqdik. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tilshunoslikda rang ifodalovchi so‘zlar obrazlilikni vujudga keltirishda, hol va kayfiyat haqida tasavvur berishda, ranglar orqali salbiylik va ijobiylikni ifodalashda, hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar, ranglar ifodalagan xarakter ko‘rinishlari, rang va uning metafora bilan bog‘liqligi, tarjima masalalarida rang mavzusini o‘rganilishida rang ifodalovchi so‘zlardan foydalanilar ekan. Rang ifodalovchi so‘zlar faqat o‘z ma’noda emas, ko‘chma ma’noda ham talqin qilinadi. Bu ilmiy ishlardan maqsad, lug‘at qatlamlarida mavjud bo‘lgan ranglar ifodalovchi so‘zlarning qanday holatlarda, nima ma’noda ifodalanishlari tadqiq qilib kelingan ekan. Rang ifodalovchi so‘zlar haqidagi ilmiy ishlar adabiyotshunoslik tarjimashunoslik, folklorshunolik yo‘nalishlarida o‘rganilib kelingan va ahamiyatli hisoblanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 色彩語メタファー表現に関する研究－「バラ色」と「灰色」を例にして－王 軒（東北大学大学院文学研究科）（2014 年 3 月，国立国語研究所）

2. Hamilton.R.L “Clour in English: from metonymy to metaphor”. US-2016.

3. В. Тернер. Символ и ритуал. М. : Наука. -1983.

4. O‘tanova.S. “Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasining o‘rni”. Kand. Filolog. Nauk: 10.01.03: utv 08.04.2008, 10.01.08 Toshkent: 2007. -138 b.

5.Mamadaliyeva.M “O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti”. filolog. fan. nomzodi. 10.02.02 Namangan: 1997. – 122 b.

6. Jumatova N. “Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar”. filologiya fan. nomzodi. 10.01.08. Toshkent: 2000. -126 b.

[1] 色彩語メタファー表現に関する研究 －「バラ色」と「灰色」を例にして－－王 軒（東北大学大学院文学研究科）（2014 年 3 月，国立国語研究所）

7. Ro‘ziyevaning. M. Yo. “O‘zbek xalq qo‘shiqlarida rang simvolikasi” filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd). 10.00.08. Toshkent: 2017. -147 b.

8. Abdurahmonov.A.A “O‘zbek she’riyatida nur, rang va ruhiyat tasviri poetikasi (an’ana va novatorlik aspektida).filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dessertatsiyasi . 10.00.02. Farg‘ona: 2018. -167 b.

9. Sh. G‘. Qayumxo‘jayeva. Sh. G‘. “ Abe Koboning “ Qumdagi xotin” roomani tarjimasida rang simvolikasining berilishi”. T-2014

SI SZINPINNING XITOY OMMAVIY AXBOROT VOSITASIDA E'LON QILINGAN NUTQLARIDA MAQOLLARNING QO'LLANILISHI

Saidova Dinora Abdujabbor qizi
TDSHU 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: PhD Sh. Shamsiyeva

Xalq og'zaki ijodining ko'pgina janrlarida, jumladan, maqollarda jamiyatdagi munosabatlar, holat va hodisalarni soddaroq, oydinroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o'z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar (hayvonlar, o'simliklar, ularning mevalari, jismlar, uy jihozlari, kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat mahsulotlari va hokazolardan) obrazli ustalik bilan foydalaniladi. Ana shu narsalarning har birini timsol qilib olib, ular vositasida muayyan sifatlarga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo'lgan kishilarning obrazini gavdalantiriladi [Тошпўлатов Зиѐдулла. Афоризм адабий жанр сифатида. / Ўзбек тили ва адабиѐти. Т.: 2004, 2-сон. 54-бет].

Shu jumladan uzoq yillik tarixga ega bo'lgan xitoy xalqi ham maqollardan keng foydalanadi. Badiiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xitoy tilida frazeologik birliklarning quyidagi turlari mavjud: □用□ *guanyongyu* – «ko'p qo'llanadigan jumla» (uch iyerogliflikiar), 成□ *chengyu* – «turg'un iboralar» (to'rt iyerogliflikiar), □□ *yanyu* – «maqol», 俗□ *suhua* – «matal».

Quyida XXR publistik asarlarda ya'ni ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladigan □□ *yanyu* – «maqol» bilan tanishib chiqamiz.

XXR raisi Si Jin Pinning o'z nutqida qo'llagan maqolasidan namunalar

1. 12.07.2018 Yangshi yangliklar sayti (央□新□)

□近平主席引用了一句阿拉伯□□：«□言是叶子，行□才是果□»，用以表明行□的重要性。

XXR raisi Si Szinpin o'z nutqida arab maqolidan misol keltirdi: «Nutq bargga kabidir, harakatlantirsang mevaga aylanadi». Bu yerda harakatning muhimligi haqida gap ketmoqda.

2. 18.01.2016

中国四川汶川特大地震□生后。2016 年 1 月 18 日，□近平□中国人□：«患□□真情»。沙特有句俗□：«向急于求助的人伸出援手是最大的善行»。

阿拉伯□□□«独行快，众行□»，中国人常□«朋友多了路好走»。

XXR da kuchli zilzila sodir bo‘lgandan so‘ng, Saudiya Arabistoni XXR ga yordam qo‘lini cho‘zdi. XXR raisi Si Szinpin xalqiga qarata aytgan nutqida: «Kulfatda haqiqiy hislar namoyon bo‘ladi. Arablarda bir maqol bor: «Yordam so‘ragan kishiga tezda yordam berish eng katta yaxshilikdir».

阿拉伯□□□：«被行□□明的□言是最有力的□言»。

Arablarda bir maqol bor: «Harakatlar orqali namoyon qilingan nutq eng kuchli nutqdir».

3. 05.06.2016

中国古□□：«不□跬步，无以至千里»。阿拉伯□□□，«金字塔是一□□石□□成的»。欧洲也有句□：«□□非一日之功»。«一□一路»建□是□大的事□，需要□大的□践。

Xitoyliklarda aytishadiki: «Qadamlarni yig‘mang, minglab uzoqlarga bora olmaysiz”. Arablarda bir maqol bor: «Piramida – bir bo‘lak toshning quyilishidan hosil bo‘lgan». Osiyoliklarda esa: «Ulkan ishlar bir kunda yuzaga kelmaydi».

Albatta, «Bir makon – bir yo‘l» ni tashkil etish ham ulkan ish, katta amaliy ishlar amalga oshirilishi lozim.

4. 21.01.2016

在阿拉伯国家□盟□部的演□阿拉伯□□□：«自己的指甲才知道哪里痒»。在□展道路的探索上，照搬没有出路，模仿容易迷失，□践才出真知。

Si Szinpin arab davlatlari ittifoqi bosh qarorgohida aytgan nutqida arablarning maqolidan misol keltiradi: «O‘z tirnoqlarim qayeri bezovta bo‘lishini bilaman». Ma’nosi, rivojlanish yo‘lidagi izlanishlarda hali duch kelmagan yo‘llarga duch keladi, yo‘lni adashtirish juda oson. Shunda o‘rganilgan bilimlar amaliy yordam bo‘ladi.

5. 21.01.2016

在阿拉伯国家□盟□部的演□埃及□□□：«比□□永恒的是金字塔»。在我看来，最永恒的是埃及人民崇尚□革、追求自由的□大精神。

Si Szipin arab davlatlari ittifoqi bosh qarorgohida aytgan nutqida misrliklarning maqolidan misol keltiradi: «Vaqtdan ham abadiy bu piramidalar». Mening fikrimcha deb so‘zini davom ettiradi Si Szinpin: «Abadiy bu misr xalqining islohotlarni qo‘llab quvvatlashi, erkinlik ortidan ortda qolmaslik hissi».

6. 21.01.2016

在阿拉伯国家□盟□部的演□,中国古人□□□: «□而不舍，金石可□»。

Si Szipin arab davlatlari ittifoqi bosh qarorgohida aytgan nutqida xitoyliklarning maqolidan misol keltiradi: «Astoydil davom ettirsa, oltin toshni ham o‘ysa bo‘ladi».

7. 10.07.2018

在中阿合作□□第八届部□□会□开幕运□□在式上的□□中引用了一句 «中国□□»表示，«□某事不能做的人，不□□干□□人去做»。

Xitoy –arab hamkorligi 8- konferensiyasi ochilish marosimida Si Szipin xitoy maqolini foydalanib: «Biror narsani qilish mumkin emas deb aytgan odam boshqalar qilishiga aralashmasligi kerak».

8. 15.05.2016 Renmin Rebao gazetasidan

印度尼西□人民常□：«金□易得，朋友□求»。我□两国人民的真□情□，就是□种千金□求的宝□□富。

Indoneziyaliklar aytadi: «Tilla tangani osongina qo‘lga kiritish mumkin, do‘stni esa yo‘q». Biz ikki davlat xalqlari haqiqiy do‘stona munosabatlarga bog‘langan. Bu esa erishish qiyin bo‘lgan boylikdir.

9. 03.10.2013

□近平主席在印度尼西□国会的演□, 蒙古国有«□里心灵相通，命运与共»的□□。中国人□«好□居金不□»。中国是世界上□国最多的国家，我□把□当作宝□□富。

Si Szinpin Indoneziya hamkorlik anjumanidagi nutqida, mo’g’ullar maqolidan misol keltiradi: «Qo‘shnilar bir -biri bilan bog‘langan, taqdiri ham birdek». Xitoyliklarda bir gap bor: «Yaxshi qo‘shnini oltinga ham almashtirib bo‘lmaydi».

10. 22.08.2014

□近平主席在蒙古国国家的演□，我□要巩固睦□友好，做互利共□的□展伙伴。斯里□卡□□□，教人学会捕□，能使之永□不受□□。

Si Szinpin Mo‘g‘uliston davlatida aytgan nutqida: «Biz do‘stona munosabatlarimizni mustahkamlashimiz, o‘zaro manfaatli va yutuqli rivojlanish sherigi bo‘lishimiz lozim. Shri-Lankaliklarda bir maqol bor: «Odamlarni baliq ovlashga o‘rgating, hech qachon och qolishmaydi».

11. 16.09.2014

□近平主席在斯里□卡《每日新□》，巴基斯坦有一句□□：«□，不是□朝着海□希望的方向吹». 我要□，只要我□的心□是朝着两国人民希望的方向想，中巴全天候□略合作伙伴关系将会□域更□广、□次更丰富、内涵更充□。

Si Szinpin Shri-Lanka «Kunlik yangiliklar» gazetasida, pokistonliklar maqolidan misol keltiradi: «Shamol, dengizchilar xohlagan tomonga qarab esmaydi». Men shuni aytmoqchimanki, bizning yuragimiz har doim ikki xalq istaklari tomon esgan, Xitoy-Pokiston har doimgi strategik sheriklik maydoniga, boy darajalarga va mazmunli tarkibga ega bo‘ladi.

12. 21.04.2015

□近平主席在巴基斯坦□会的演□，越南有句俗□：«独木□成林，三□聚成山».相信只要中越携手共□，加□合作，必将开□中越关系更加美好的明天，□□中越两国共同□展繁荣。

Si Szinpinning Pokiston parlamentida qilgan nutqida aytadiki, Vetnamliklarda shunday so‘z bor: «Bitta daraxt o‘rmonga aylanishi qiyin, lekin uchta daraxt tog‘ni hosil qilishi mumkin». Men ishonamanki, Xitoy va Vetnam o‘zaro hamkorlik qilsa va hamkorlikni kuchaytirsa, bu Xitoy-Vetnam munosabatlari uchun yorqin kelajakni yaratadi. Xitoy va Vetnamning umumiy taraqqiyoti va farovonligini amalda namoyon etadi.

13. 18.01.2016

□近平主席在沙特《利雅得□》□， 中国人□：«人之相知，□在知».波斯□□□：«人心之□，有路相通»。不同国家、不同民族、不同文明之□，□□□持交流互□、和□共存。

Si Szinpin Saudiya Arabistoni «Ar-Riyod» gazetasida aytgan nutqida: Xitoyliklarda shunday gap bor: « Odamlar o’zaro bir –birini bilishda, qalban bilish eng qadrlisidir» deydi. Fors maqolida shunday

deyilgan: «Odamlarning qalblari o‘rtasida o‘xshash yo‘l bor». Turli mamlakatlar, turli millatlar va turli madaniyatlar almashinuviga, o‘zaro o‘rganishga, birga yashashga rioya qilishlari kerak.

14. 21.01.2016

□近平主席在伊朗《伊朗□» □， □□□克斯坦□□□：«只有□□果□的大□才会引人注意»。中□全方位合作已□□出累累□果，造福两国人民，也得到两国人民□□和支持。

Si Szinpin Eronning «Eron gazetasida» yozma nutqida o‘zbek maqolida shunday misol keltiradi: «Faqat hosilga boy daraxtgina e’tiborni jalb qila oladi». Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik samarali natijalar berdi, bu ikki xalq uchun ham foyda keltirdi. Shuningdek, ikki xalq o‘zaro qo‘llab – quvvatlashga erishdi.

15. 21.06.2016

□近平主席在□□□克斯坦《人民言□□》□，柬埔寨□□□«信任如□»，中柬□□友□□□□月洗礼和国□□云□幻考□。1958 年，中国同柬埔寨正式建交，两国关系开启新篇章。58 年来，两国□代□□人密切交往，建立了深厚友□。

Si Szinpin O’zbekiston «Xalq gazetasi» da kambojaliklarda bir maqol bor: «Ishonch daraxt kabidir» deydi. Xitoy va Kambodja o‘rtasidagi an’anaviy do‘stlik yillar davomida turli sinovlardan o‘tgan va chuqur ildiz otgan. 1958 yilda Xitoy va Kambodja rasmiy ravishda diplomatik aloqalar o‘rnatdi va bu ikki mamlakat munosabatlarida yangi sahifa ochdi. O‘tgan 58 yil mobaynida ikki mamlakat rahbarlari yaqin aloqada bo‘lishdi va do‘stlik munosabatlarini o‘rnatishdi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, XXR raisi Si Szinpin o‘z nutqlarida maqollardan keng foydalanadi. Xitoyliklar ko‘p hollarda «成□» ya’ni iboralardan ko‘p qo‘llanilishadi. Shu bilan birga «□□» ya’ni maqollardan ham foydalanishadi. Yuqorida matbuotda qo‘llanilgan maqollarni tahlil qilsak, maqollar faqat xitoy xalqiga tegishli emasligiga balki, turli millat vakillari xalq maqollaridan foydalanilganligiga guvoh bo‘lamiz. XXR raisi Si Szinpinning nutqida arab maqolidan 5 ta, misrliklar maqolidan 1 ta, xitoyliklar 2 ta, indoneziyaliklar, mo‘g‘ullar, shri-lankaliklar, pokistonliklar, vyetnamliklar, fors millati, o‘zbek xalqi shuningdek, kambodjaliklar maqollaridan 1 tadan qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz.

Maqollar aslida hikmatli , chuqur mazmunli ibora hisoblanadi. O‘zida chuqur ma’nolarni aks ettiradi. Si Szinpin qo‘llagan maqollarda ham chuqur ma’nolarni anglashimiz mumkin. Masalan, uning arab millatiga oid maqollarida yaxshilik qilish, doim harakatda bo‘lish kerakligi, misrliklar maqolida esa o‘z qadriyatlarni e’zozlash kabi xususiyatlar namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev B. O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonomik lug‘ati. –Toshkent.: Fan, 2006
2. Sadriddinova M. Лексика узбекских пословитс и поговорок. AKD.- Toshkent, 1985
3. Shoabdurahmonov Sh., Shoraxmedov Sh,. Hikmatnoma. – Tohkent., 1990
4. Shukurova Z. “Qissasi Rabg‘uziy” da maqollar . O‘zbek tili va adabiyoti. 2012

Internet saytlar:

1. www.renminrebao.cn
2. www.yangshan.cn

DARIY TILIDA TOPONIMLARNING LEKSIK-STUKTUR TAHLILI

Sultonova Karimaxon Ibroximjon qizi
TDSHU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent H.V. Mirzaxmedova

Afg'oniston tilga olinganda Amir Temur, Husayn Boyqoro, Sharafiddin Ali Yazdiy va Bobur yashab ijod etgan davrlar ko'z oldimizga keladi. Shu jumladan bu davrdagi voqealar, obidalar, nodir asarlar, shuningdek, shahar nomlarining kelib chiqish tarixi o'ziga ohangraboday tortadi. Bu maqolada Afg'oniston viloyat va shaharlari toponimining bir qancha misollari keltirilib o'tiladi.

"Har bir kishining o'z nomi – ismi bor. Bir xil ismli kishilar ya'ni adashlar ko'p bo'lgan holda, ularni laqab bilan farq qilganlar. Familiyalar ham aslida kishilarni bir-biridan farq qilishga xizmat qiladi. Umuman, inson narsalarga nom qo'ymasdan yashay olmaydi. Dunyodagi hamma narsaning nomi bor. O'simlik va hayvonlarning mahalliy nomlaridan tashqari ilmiy, lotincha nomlari ham mavjud Har qanday o'simlik va hayvonni lotincha nomiga qarab turli millat mutaxassislari darrov bilib oladilar. Demak, nomlar bir narsani ikkinchi narsadan farq qilishga yordam beradi"[1]

Toponimlarning leksik-stuktur tahlili to'g'risida bir qancha olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.Xususan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida bir qancha Afg'oniston shahar nomlari haqida ma'lumotlar yozib o'tilgan.

Geografik nomlar kishilik jamiyatining rivojlanish bosqichlari bilan bevosita bog'liq holda son va sifat jihatidan o'zgarib boradi.[2]

"Joy nomlari, ya'ni toponimika bir necha turga bo'linadi. Bular: gidronimiya (yunoncha gidro – suv), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros – tog', ya'ni yer yuzasining relef shakllari) – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos – uy), polinimiya (yunoncha polis – shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos – shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlaring nomlari,

[1] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.5.
[2] Ahmadaliyev Y. Toponimika va geografik terminshunoslik. – F., 2018. b.7.

mikrotoponimiya (yunoncha mikros – kichik), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar daraxtzorlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug' – aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos – xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos – odam) deb atash mumkin"[1]

Toponimlar asosan shunchaki o'ylab topilmaydi. Har bir harakatning biror bir sababi yoki maqsadi mavjud bo'lganidek, joy nomlarining qo'yilishida ko'p narsaga e'tibor berilishini Y.Ahmadaliyev quyidagicha ta'riflagan: "Aytish lozimki, toponimlar orasida juda katta qismini g'oyaviy nomlar tashkil etadi, biroq geografik tamoyillar asosida yaratilgan toponimlar bir qancha afzalliklarga ega ekanligini ta'kidlash mumkin. Birinchidan, bu nomlar jamiyatda tez-tez o'zgartirilmaydi, uzoq vaqt saqlanib turadi, mablag'larni tejalishiga sabab bo'ladi; ikkinchidan, joyning hozirgi kunda o'zgarib, unutilib ketgan tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlari, aholisining etnik tarkibi, dastlabki landshafti haqida qimmatli ma'lumot beradi; uchinchidan, joy nomlarining bosh vazifasi, manzilni aniqlab berish funksiyasini to'la bajarishga imkon yaratadi, sababi nomlashda ko'cha yoki mahalladagi asosiy iqtisodiy ijtimoiy obyektga mo'ljal olinib, toponimni darakchilik xususiyati namoyon etiladi".

Mazkur maqolada Afg'onistondagi polinimiyalarning bir nechtasiga misol keltiriladi.Misol uchun افغانستان – Afg'oniston, avvalo bu nom qay tarzda va qaysi tildan kelib chiqishiga e'tibor qaratilishi kerak.

افغانستان در زبان فارسی به معنای سرزمین افغان‌ها است[2] که اصالتاً از نام گروهی از مردم با نام افغان گرفته شده است؛ که هم‌معنی پشتون‌ها است و گروه قومی افغانستان را تشکیل می‌دهند.[3][4][5] این نام نخستین بار در قرن ۱۰ میلادی و در کتاب جغرافیایی؛ حدود العالم ذکر شده‌است.[6] تکواژ ـستان نیز پسوندی فارسی؛ به معنای مکان است.

[1] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.5.
[2] Banting, Erinn (2003). Afghanistan: The land. Crabtree Publishing Company. pp. 4, 32.
[3] Banting, Erinn (2003). Afghanistan: The land. Crabtree Publishing Company. pp. 4, 32.
[4] Ch. M. Kieffer (15 December 1983). "Afghan". Encyclopædia Iranica (online ed.). Columbia University.
[5] Abdullah Qazi. General Information About Afghanistan
[6] Vogelsang, Willem (2002). The Afghans. Wiley Blackwell. p. 18

سیاست‌مداران افغان؛در قرن نوزدهم این نام «افغانستان» را بر افراد بازمانده؛ امپراتوری درانی گذاشتند[1].

دائرةالمعارف آریانا می‌نویسد: کشوری که در تاریخ معاصر جهان به نام افغانستان یاد می‌شود، در قرون وسطی به‌اسم خراسان و در عهد باستان به‌نام آریانا شهرت داشت[[2]].

محمد باقر مصباح زاده، در کتاب تاریخ اقوام در افغانستان، «صفحات ۸ و ۹»، گفته است:در گذشته برخی مورخان و پژوهشگران افغانی با هدایت برخی عناصر در حاکمیت افغانستان، کشور خیالی به نام " آریانا " اختراع کردند؛ تا آنچه را که میراث آریایی‌ها؛نام گذاری کرده اند؛ به نام افغانستان، اختصاص دهند.

Afg’oniston fors tilidan olingan bo’lib ’’afg’onlar yashaydigan joy” degan ma’noni anglatadi. Bu nom birinchi marta eramizning XX asrda Geografik kitobda paydo bo‘lgan. Siston forscha qo‘shimcha bo’lib “joy” degan ma’noni anglatadi. Afg’on siyosatchilari XIX asrda tirik qolganlarga “Afg’oniston" nomini berishgan; Ular Durroniylar imperiyasini barpo etishdi.

Ariana entsiklopediyasida shunday yoziladi Zamonaviy jahon tarixida Afg’oniston nomi bilan mashhur bo’lgan mamlakat o’rta asrlarda Xuroson, qadimgi davrlarda esa Ariana nomi bilan mashhur bo’lgan.

Muhammad Baqir Mesbahzoda o’zining “Afg’onistondagi etnik guruhlar tarixiga oid kitobining” 8 va 9-betlarida shunday dedi: “O’tmishda ba’zi afg’on tarixchilari va olimlari Afg’oniston hukmronligidagi ba’zi unsurlarga tayangan holda, hayoliy mamlakatni o‘ylab topdilar. “Ariana” ; Aryanlarning merosi deb atalgan.”

Afg’oniston asosan 2 tildan iborat, dariy va pashtu, davlat bo’lsada “Afg’oniston” so’zi fors tilidan olinib, afg’onlar istiqomat qiladigan manzil deya tarjima qilinadi. Shuni qayd etish kerakki, ba’zi bir eronshunos olimlar XV asrdan boshlab “klassik dariy tilining fors, tojik, dariy tillariga bo’linishiga zamin paydo bo’ldi”[3] degan fikr bildirishadi. Bunda gap adabiy me’yoriy til haqida emas, balki forsiy-dariy tilining mahalliy lahjalari haqida gapirilsa ma’qul bo’lardi. Chunki, bu paytda va undan keyin fors tilida ijod qilgan Samarqand va Buxoro, Afg’oniston va Eron shoirlarining lug’at boyligi, yozish uslubi,

---

[1] . E. Huntington, "The Anglo-Russian Agreement as to Tibet, Afghanistan, and Persia", Bulletin of the American Geographical Society, Vol. 39, No.11(1907)

[2] دائرةالمعارف آریانا، ص ۱۷

[3] Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М., 1975. – С.131.

grammatik qurilishi bir xil. Faqat talaffuzda har xil bo'lgan bo'lishi mumkin.[1]

نام غزنه تلفظی در زبان‌های ایرانی شرقی است از واژه گَنزَک که در زبان‌های ایرانی قدیم به معنای گنجه ("گنج") بوده‌است و نام غزنه پس از روی دادن جایگشت آوایی گنزک/گزنک به شکل کنونی درآمده‌است

G'azna nomi Ganzak so'zining sharqiy forscha talaffuzi bo'lib, qadimgi fors tilida Ganje ("xazina") ma'nosini bildirgan va G'azna nomi Ganzak/Goznak fonetik o'zgarishidan keyin hozirgi ko'rinishiga kelgan.

دخشان از نظر ریشه‌شناسی از واژه فارسی میانه (badaxš) که یک عنوان رسمی است، گرفته شده‌است. حروف (ān) که در آخر آن آمده‌است پسوندی است که برای نشان دادن منطقه جغرافیایی بکار می‌رود؛ بنابراین کلمه بدخشان (badaxšān) به معنای متعلق بودن این منطقه به شخصی به نام بدخش (badaxš) است[2]

بدخشان در اشعار بیشتر شاعران به کیفیت لعل خویش مشهور است

Badaxshon etimologik jihatdan rasmiy unvon bo'lgan o'rta forscha (badaxš) so'zidan olingan. Oxiridagi (n) harfi geografik hududni bildirish uchun qo'llaniladigan qo'shimcha; Demak, badaxšān so'zi bu hudud Badaxš ismli shaxsga tegishli ekanligini bildiradi.

Badaxshon ko'pchilik shoirlar she'rlarida o'zining gavhar sifati bilan mashhur.

نام غور در زبان اوستایی بصورت گایری (gairi)، در سانسکریت گیری (giri)، در بلخی گوارا (g´wrao)، در فارسی میانه گار (gar)، در فارسی نو کوه (koh)، در سغدی گور (gur)، در پشتو غر (ghar) و در زبان‌های پامیری به عنوان گالاکا (ghalcca) آمده است که همه آنها معنی کوه را میدهد.

G'or nomi avesta tilida g'airi, sanskrit tilida giri, balxi g'wrao, o'rta forsda gar, forsda yangi koh (koh), sug'd tilida gur (gur), pushtu, g'ar va pomir tillarida. ghalka deb ataladi, bularning barchasi tog' degan ma'noni anglatadi.

Toponimika fanida joylarga nom berishda dastlabki e'tibor berilishi zarur bo'lgan eng muhim tamoyil joy nomlarning adreslik funksiyasi hisoblanadi, chunki faqat uning yordamida bir geografik obyektni ikkinchisidan ajratish, farqlash va aniq o'rnini topish mumkin. Joy nomi, ya'ni toponim – geografik obyektning aniq adresidir. Geografik nomlarning adreslik funksiyasi naqadar muhimligini V.A.Nikonov quyidagicha ta'riflagan: "Bir lahzaga faraz qilaylik,

---

[1] Quronbekov A va Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. -T., 2019. b.83.

[2] ایلرز، دبلیو. «BADAKŠĀN». دانشنامه ایرانیکا (ویراست آنلاین). ایالات متحده: دانشگاه کلمبیا. بایگانی‌شده از اصلی در ۲ ژانویه ۲۰۰۹. دریافت‌شده در ۲۱ اوت ۲۰۱۸.

planetamizda geografik nomlar o‘chirib tashlandi. Shaharlar, qishloq-lar, daryolar, dengizlar, tog‘lar, davlatlar, ko‘chalar hammasi nomsiz. Natijada, transport izidan chiqqan, odamlar qayerga yurishini, yuklarni qayerga tushirishni, tez yordam mashinasi qayerga borishini bilmaydi, jahon xo‘jaligining inqirozga, insoniyatning esa ibtidoiy jamoa davriga tushib qolish xavfi paydo bo‘lgan, buning hammasi kichkina bir geografik nom tufaylidir”.[1]

در ادوار قدیم به کندز اپاسکا می‌گفتند؛ کندز از کلمه فارسی کهندژ گرفته شده‌است که به معنی «شهر کهن» است و در جریان زمان به کندز تبدیل شده‌است. در زبان اوزبیکی نیز معنی کندز «روز» می‌باشد.

Qadimda Qunduzni Apaska deb atashgan; Qunduz forscha کهندژ so‘zidan olingan bo‘lib, “qadimiy qal’a” degan ma’noni anglatadi va vaqt o‘tishi bilan Qunduzga aylangan.

-ot (t) affiksi

Toponim yasovchi bu affiks ikki xil yo‘l bilan paydo bo‘lgan: biri arabcha bo‘lsa, ikkinchisi sug‘diychadir.[2]

Arabcha - ot affiksi ruscha -kina (Kievkina, Smolenkina) qo‘shimchasini eslatadi va shu joyning tevarak atrofmi ham bildiradi.[3]

Afg‘onistondagi Hirot shahri nomini ham shu jumlaga kiritish mumkin. Bu shahar nomi dastlab Hiri shaklida bo‘lgan. Hiri poytaxtlik davrida tobora kengaya borgan va Navoiy zamonida daryo bo‘ylab 15-16 km ga cho‘zilgan. Hiri shahri tevarak – atrofi bilan Hirot (Hiri Hot) deb atala boshlagan va bora-bora shu nom qonunlashib qolgan, deb hisoblaymiz.[4]

Xulosa: Bu maqolada Afg‘onistondagi shahar va viloyat nomlarining kelib chiqish tarixi, sababi va yasalish yo‘llari haqida ma’lumot aytib o‘tildi. Ya’ni toponimlar (yunon. topos – joy, onoma – nom) – joy nomlari haqida. Toponim nafaqat tilshunoslik, balki tarix va geografiya fanlari bilan uzviy bog‘liqlikka egadir.

Joy nomlari, ya’ni toponimiya bir necha turga bo‘linadi. Ulardan polinimiya (yunoncha polis – shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos – shahar), ya’ni qishloq hamda shaharlarning nomlar haqida bir qancha ma’lumot aytib o‘tildi.

---

[1] Ahmadaliyev Y. Toponimika va geografik terminshunoslik. – F., 2018. b.82.
[2] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.9.
[3] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.10.
[4] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.10.

Bizni son-sanoqsiz geografik nomlar dunyosi o‘rab olgan. Geografik nomlar xalq tomonidan qo‘yiladi va xalq mulki hisoblanadi. Xalq mulki esa muqaddas va daxlsizdir[1]

Geografik obyektlarga nom qo‘yish va ularni qayta nomlash jarayonlarini o‘rganish, bu sohada tegishli muassasalarga tavsiyalar berish toponimikaning amaliy ahamiyatini ta’kidlaydi.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. 320.b

2.Ahmadaliyev Y. Toponimika va geografik terminshunoslik. – F., 2018. 136.b

3. Yaratsher E. Encyclopedia Iranica. – A., 1983

4. Quronbekov A va Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – T., 2019. 144.b

5. E. Huntington. The Anglo-Russian Agreement as to Tibet, Afghanistan, and Persia, Bulletin of the American Geographical Society, Vol. 39, No.11(1907)

6. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М., 1975.

7. Seyid Muhammad Baqir Mesbahzoda. Afg’oniston qabilalarining tarixiga qisqacha nazar. – K., 1392. 118.b

8. Рубинчик Ю. Персидско русский словарь. – М., 1985.

[1] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.317.
[2] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.318.

“ALPOMISH” DOSTONIDA BARCHIN OBRAZI

Mardonova Umida
SamDU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Sh.G. Shomusarov

Dunyoga tamaddun toshi qo‘yilayotgan vaqtda eng og‘ir yuk bo‘lmish or-nomus masalasi ayollar zimmasida bo‘lgan va bo‘lib kelmoqda.

“Sen emasmu farzandlar shonin, – asrlardan opichlab o‘tgan?!” – A.Oripovning bu misralari ham ko‘plab voqealarga guvohlik berayotgandek. Millat mavqeyi ayolga, onaga bo‘lgan munosabat bilan o‘lchanadi, desak xato qilmagan bo‘lamiz. O‘zbek onasi, o‘zbek ayoli degan iboralar esa ma’naviy kuch-qudratning yaratuvchisi, avlodlar kamoli kabi tushunchalarni o‘zida jamlaydi. Bu jamlanma adabiyotning oziq manbasi, asosi bo‘lmish- xalq og‘zaki ijodida ham o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lib, badiiy tafakkur va hayotbaxsh an’analar folklor orqali bugungi kungacha serjiloligini saqlab kelmoqda.

“Ana shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, xalq og‘zaki ijodi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ma’naviy –ijtimoiy qimmatga ega. Bu boy ma’naviy ijodda ayol mavqeyi, xalq taqdiri u mansub bo‘lgan Vatan go‘zalliklari tasvirlangan. Tinchlik va farovonlik uchun kurash, Vatan tuprog‘ini ko‘z qorachig‘idek asrash g‘oyalari, og‘ir kunda mardlik ko‘rsatgan ayol qahramonlar ulug‘lanadi”.[1]

Shunday qimmatbaho madaniy boyliklarimizdan biri hisoblanmish “Alpomish” dostoni ham mardlik, sadoqat, or-nomus, milliy urf-odatlarni tarannum etguvchi shoh asarlardan biridir.

“Bizningcha, “Alpomish” shu qadar ko‘p qatlamli badiiy asarki, uning jilolarini ko‘rsatishga bag’ishlab hali ko‘plab tadqiqotlar bitiladi. Shundagina asarni anglash, doston zamiriga jo bo‘lgan ajdodlar ruhini his etish imkoni tug‘iladi. Asar tahlili vositasida so‘zning ilohiy qudratini tuyish orqali badiiy chanqoqni bir qadar qondirish mumkin

[1] Yo‘ldosheva S. “Alpomish” dostonida ayollar obrazi “O‘zbek tili va adabiyoti” 2015 №2

bo‘lar. Doston matnigagina tayangan va undangina kelib chiqqan holda asardagi millat ruhiyati, turmush yo‘sini badiiy ifodasidagi pinhon jihatlarni ochish, estetik mantig‘ini ommabop yo‘sinda izohlash g‘oyat muhimdir”.[1] Albatta, so‘zni his qilish bizga o‘sha millat ruhiyatini anglashga ko‘mak beradi. Til shunday ma’naviy xazinaki, uni hech qanday moddiy boylik bilan tenglashtirib ham, baholab ham bo‘lmaydi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan kuylangan “ Alpomish “ dostonidagi har bir ibora, maqol, matal til xazinasining qimmatbaho gavharlaridir.

“Alpomish” dostonining sehrli, jozibali, maftunkor tili, ijro usuli o‘quvchini sehrlasa, sehrlagudek. Doston tilining bu qadar sehrli bo‘lishini esa o‘z navbatida xalq tili ta’minlagan ko‘rinadi. Xalq tili esa tuganmas boyliklar bulog‘i, misli bir xazina.[2]

Asar o‘ziga xos obrazlar tizimiga egadir. “Alpomish” eposi o‘ziga xos obrazlar tizimi bilan farqlanib turadi. Har bir obrazning badiiyligi esa xayoliy va hayotiy uydirmalarga asoslanganligi bilan belgilanadi. Personajlar tasvirida o‘xshatish san’atining metoforik shakllari, “sifatlash turli xil nusxalari, voqea va hodisalar tafsilotida esa mubolag‘a tatbiqi ustuvorlik qiladi”.[3]

Qahramonlik dostonida ayollar obrazlari ham alohida, salmoqli o‘rin egallagan bo‘lib, ular orqali ayollarga xos bo‘lgan turli xil xislatlar turli vaziyat orqali ochib berilgan. Birgina Barchin obrazini oladigan bo‘lsak, eng avvalida u otasining tanti qizi, aql-zakovati bilan onasiga-da aql bo‘la oladigan qahramon:

Xo‘ja kelsa, chiqar murid naziri,
Xotin bo‘lmasmikan erning vaziri?!
Er deganning aqli bilmas bo‘lurmi,
Aldab – suldab yo‘lga solmas bo‘lurmi

Yana bir o‘rinda esa, butun oqsoqollar qo‘rqib, yechim topolmasdan, kofirlarga qiz uzatishga tayyor bo‘lib turganda o‘z mardligi bilan vaziyatdan chiqib ketadi:

Xafa qilma, ota, menday qizingdi,

---

[1] Yo‘ldoshev Q “ Alpomish” talqinlari . –TOSHKENT, “MANAVIYAT” 2002. 7-bet.
[2] To‘chiboyev B “ Alpomish “ dostoni va xalq tili “ O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 1999 №4
[3] Imomov K “Alpomish” eposida obrazlar tizimi “ O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 1999 № 4

Qo‘ya ber alplarga mening o‘zimdi,
Qalmoqlarga javob bermog‘im darkor…
Ul alplarga men bo‘laman barobar…
Jazosini ko‘rib ketsin qalmoqlar,
Yarashmoqqa men zulfimni tarayman,
Qalmoqlarga gapirmoqqa yarayman,-

Aytganining ustidan ham chiqdi, “ yo birimizga yoki barimizga teg”, deb turgan qalmoqlarni ham gap bilan, to’qson alplarning avlodi emasmi, ham kuch bilan qoyil qildi:

Maydon bo’lmay, bedov otlar chopilmas,
Ko’p chopilsa, xasa tulpor sobilmas,
Ketgin, qalmoq, mundane qizmiz topilmas.

Barchinning yor sifatidagi sadoqati, ona sifatidagi mehri, jasoratiga ham qoyil qolmay iloji yo‘q. Shu o‘rinda dostondagi ayrim tasvirlarni inobatga olgan holda, bir fikrni ilgari surmoqchiman, azaldan ayol ojiz emas, ojizlik bo‘lib kelgan. Ayol yaratilayotgan vaqtda ojiza qilib yaratilgan-u, ammo vaqti kelganda er yigitlarga-da og‘irlik qiladigan yukni zimmasida ko‘tara olgandir, bu jihatni xoh xalq og’aki ijodi, xoh badiiy adabiyotdagi tasvirlarda ko‘rishimiz mumkin, nafaqat adabiyot, bugungi kunda ham shunday emasmi. Lekin degan joyi bor, metindek jasoratga ega, zo‘rabor yigitlarning eng nozik tomonidan biri or-nomus masalasidir, bu jihatdan ayol ojizlikdir, sababi har yigitning onasi, singlisi, umr yo’ldoshi uning or-nomusidir. Nomus o‘ldiradi yigit zo‘rini. Shu sababli ham Hakimbek singlisi tomonidan nar-modaga (na ayol, na erkak, hezalak. Qo‘lidan hech bir ish kelmaslik) qiyoslanadi:

Har kim o‘z elda bekmi, to‘rami,
Nar-modalar sendan kamroq bo‘lami,
Mardning yori toy-talashda qolami?!

Q.Yo‘ldoshev o‘zining “Alpomish talqinlari” kitobida bu holatni shunday ta’riflaydi: “ Shu bois singil shiddat, keskinlik kerak o’rnida loqaydlik, landavurlik qilgan og’aga : “Nar- moda ishini bunda qilmagin”, deya oladi. Bunday demoqqa o‘zbek ayolining haqqi bor. O‘zbek ayolining o’z shaxsiy hayotidan ko’ra oilani afzal ko’rishi, muqaddas bilishi sof milliy ildizga ega. U er, erkak uchun yashaydi”.

Shu fikrlarga asoslangan holda ham ayol ojiz emas, er kishining ojiz tomoni desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Alpomish Qalmoq yurtiga yorini izlab borganda, Barchinni izlab keldim emas,

Ko’kqamish ko’lidan suqsur uchurdim,

Suqsurni izlagan lochin bo’laman….

deganida Barchinning ismini aytmasligiga nomusi sabab emasmi?

Alpomishning so ’zlarini eshitib, Qorajondan Barchin haqida bir so‘z aytadi:

Uchirgan suqsuring Oyko’l qo’nibdi,

To’son g ajir o’rtaga olib turibdi.

Yosh o’g’lonsan, bekor halak bo’lasan,

G’ajirlar ilojin qanday qilasan?

“-To‘qson tog’dan o’tib, buning uchun mehnat tortib, bu qalmoqlarning alpi bilan aralashib qolib, baloga yo’liqib yurgan ekan, bu qalmoq menga bilib gapirgandir, borib sharmanda bo’lguncha, bormay , shu yerdan qaytib keta bersammikan”.[1]

Bu o‘rinda Alpomishning sharmanda bo’lishiga ham sababchi Barchinmasmikan, o‘zbek yigitida oriyat kuchli bo‘ladi. To’qson alp bilan maydonda barobar kelishga tayyor, hatto alplarning zo’riman degin Ko’kamanni yelkasidan oshirib, ko’kragini ezib qo ’ygan, Boychiborning tuyog’idan gul mixlarni tishi bilan sug’irib olgan, or-nomus uchun har qanday jasoratga tayyor alp qiz Oybarchin Alpomishning oriyati oldida ojizlik edi. Yigitning yori toy-talash bo‘lishi alpning g’ururining singani, boshi egilgani, o’lgani emasmi?

Nafaqat, Oybarchin, balki barcha qizlarda bunday mardlik, nomusi uchun kurash, oila sha’nini asrab-avaylash xususiyatlari ona suti bilan jon-taniga singgandir.

“Jangovor qizlar obrazi jahonning boshqa xalqlarining dostonlarida ham mavjud. Jumladan, grek folkloridagi “amazonkalarda”, germanlarning “Nibelunglar haqida qo’shiq” asaridagi “ Zigfrid va Bryunxilda” qissasida, “Manas” dostonida, Firdavsiyning “Shohnoma”sida, “Bamsi Bayrak” va “ Alpomish “

[1] Alpomish.-T:.Sharq, 1998, 143-bet.

dostonlarida polvon qizlar va ularning yigit(yor)lar bilan kurashlari tasvirlanadi.[1]

Dostonni o'qish yoki ijrosini eshitish jarayonida "Alpomish" dostoni ayol jasorati-yu muhabbatiga bag'ishlangan qasida kabi bo'lib, bu bebaho ma'naviy qadriyat namunasi hozirda o'z bahosini yo'qotmagan holda bugungi kun qizlari, ayollari uchun qahramonlik, ya'ni oilasi, yori, farzandiga bo'lgan muhabbatini, vafosini mustahkam himoya qila olish, sadoqatga undashining guvohi bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, "Alpomish " dostoni xalqimiz madaniyatini o'rganishdagi bir xazina bo'lib, bu xazinani har safar varaqlaganda, yangidan yangi dur-u javohirlarga ega bo'laveramiz.

[1] Elian. Pyostriye rasskazki. M –L., 1963 S.-93

TURK VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA DO‘STLIK MAVZUSI

Sobirov G‘ulomjon Xikmatjon o‘g‘li
TDSHU “Turk filologiyasi”
kafedrasi stajor-o‘qituvchisi

Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janr. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Har bir tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafak-kurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiyi qarashlari, qisqasi, o‘zi va o‘zligi to‘la namoyon bo‘lgandir. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va sotsiologik mazmun kasb etadi.

Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma’no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so‘zga alohida e’tibor berish kerak. Ularda shunday so‘zlar borki, bu so‘zlar tarixan butunlay boshqa ma’nolarni anglatgan. Bundan tashqari har bir millatning o‘z diniy

e’tiqodi, yashash uslubi, madaniyati, dunyoqarashi borki, ular folklorshunoslikda o’rganiladigan maqollarda qisman o‘z aksini topadi.

Har bir tilning o‘z dunyoqarashi, mentaliteti, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab o‘zi xos maqollar dunyosi mavjud. Turk tilida ham har bire mavzuga tegishli rang-barang maqollar ko‘p. “Bana dostunu söyle sana kim olduğunu söyleyeyim”- Do‘sting kimligini aytsang sening kimliging bilinadi. Har ikkala tilda ham keng qo‘llanilgan maqol, inson o‘ziga mos odamlar bilan yaqin bo’lishini va kim bilan hamnafas bo‘lishi o‘zining saviyasi va yashash tarzini belgilab berishini ifodalaydi.

Quyida biz turk va o‘zbek tilidagi do‘stlik haqida berilgan maqollardan ba’zilarini tahlil qilamiz:

“Dost başa düşman ayağa bakar” - Do‘st boshga, dushman oyoqqa qaraydi. Do‘st hamisha yoningda bo‘ladi, holingdan xabar oladi. Dushman esa doim oyog‘ingdan poylaydi, qachon yiqilishingni poylaydi, har qadamda seni kuzatadi.

“Üzüm üzüme baka baka kararır” - Chillaki chillakini ko‘rib chumag uradi, Olma olmadan rang oladi. Bu maqol shunday ajoyib ma’no kasb etadiki, do‘st har tomondan do‘stga ta’sir qiladi, har qadamida bir-biriga o’rnak bo’ladi, dalda bo‘lib kuch beradi.

“Körle yatan şaşı kalkar” - Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi. Do‘stlar tez-tez ko‘rishishadi, yaqin bo‘lishadi va borgan sari bir-biriga o‘xshab boradi, fikrlari ham bir joydan chiqadi.

“Dost kara günde belli olur” - Do‘st boshga ish tushganda bilinadi. Sen suyangan, ishongan do‘sting og‘ir kuningda ham, yaxshi kuningda ham sen bilan birga bo‘ladi.

“Abdalın dostluğu köy görününceye kadardır” - Axmoqning do‘stligi tomi ko‘ringuncha. Axmoq, ikkiyuzlamachi odam faqat ishi bitguncha do‘st bo‘ladi, agar boshqa odamdan ko‘proq foyda bo‘lsa, shu odamga ketadi.

“Arslan postunda gönül dostunda” - bu maqol turk tilida har narsa o‘z joyida kerakli va qadrlidir ma’nosidadir.

“Ata dostu oğla mirastır” - Ota do‘sti o‘g‘ilga merosdir. Har ikkala tilda ham ko‘p ishlatiladigan bu maqol otadan keyin ham uning do‘stlariga hurmat ko‘rsatishm samimiy bo‘lishni uqtiradi. Otalarning do‘sti ham otadir.

“Bin dost az, bir düşman çok”-Do‘sting qancha ko‘p bo‘lsa ham oz, dushmaning qancha kam bo‘lsa ham ko‘p. Ya’ni do‘st doim yordam berado, yoningda bo‘ladi, sen uchun foydasi tegadi. Dushman esa har qaysi holatda ham seni yo‘ldan og‘dirishga, zarar berishga harakat qiladi. Shuning uchun do‘stning ko‘pi yaxshidir.

“Dost acı söyler” - Do’st achitib gapirar dushman kuldirib. Turk tilida mazkur maqol faqat do‘stning achchiq bo‘lsa ham haqiqatni gapirishi, soxtalik qilmasligi ifodalansa, o‘zbek tilida uning davomi sifatida dushman o‘z manfaati yo‘lida sendan foydalanib kuldirib turib oyog‘ingdan yiqitadi ma’nosida keladi.

“Dost dostun eyerlenmiş atıdır” - Do‘st do‘stning egarlangan otidir.Ya’ni do‘st har doim sen uchun har ishga tayyor bo‘ladi.

“Dost kara günde belli olur”-Do‘st boshga ish tushganda bilinadi

“Dostun attığı taş baş yarmaz”-Do‘st otgan tosh bosh yormaz. O‘zbek tilida ham turk tilida ham aynan mavjud bo‘lgan bu maqol do‘stning hatto otgan toshi ham foydadir, undan senga zarar kelmas, deya izohlanadi.

“Her şeyin yenisi, dostun eskisi”-Narsaning yangisi, do‘stning eskisi yaxshi. Ya’ni eski do‘st sinalgan bo’ladi. Dostluk eskidikçe güç ve değer kazanır, anlamına gelen bir atasözü olarak kullanılmaktadır.

“Parayla dost bulunmaz” - do‘st pulga sotilmas.

Millatni madaniyatini, xalqning o‘zligini milliy qadriyatlarini ko’rsatuvchi, ifodalovchi omillardan biri bu shu xalqqagina xos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodidir. Xalq og‘zaki ijodining takrorlanmas janrlari va o’ziga xos durdonalari bo‘lib shulardan xalq

o‘g‘zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo‘lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o‘rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Folklorning eng muhim janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq

qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Folklorshunos olimlar asrlar davomida maqollar yuzasidan o‘z mamlakatlarining olis qishloqlariga ekspeditsiyalar uyushtirib kelishmoqda va xalq tilidan yildan yilga turli mavzularga doir bo‘lgan takrorlanmas maqollarni jamlab kelishmoqda. Maqollar dunyo xalqlarining yillar davomida to‘plangan dono hikmatlari namunalaridir. Maqollardan insonlar tarbiyaviy masalalarga xos bolgan tushunchalarni, ota bobolardan qolgan eng muhim boylik hisobida e’zozlab foydalanib kelishadi. Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janrdir.

O‘zbek va turk folklorshunosligida maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z sanatkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Turk xalq maqollari ham xuddi o‘zbek xalq maqollari singari g‘oyat mukammal va xalq o‘gzaki ijodining eng sara namunalaridan biri hisoblanadi.

Ishimizning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda turk xalq maqollarini turk tilshunosligida o‘rganilish tarixi juda muhim. Bu sohada ish olib borgan olimlar, va ularning qilgan ishlarini o‘rganish mavzuyimizni yanada mustahkamlab beradi. Shu o‘rinda quyida turk olimlari tomonidan qilingan ishlarni keltirib o‘tamiz. Odatda tili va madaniyati bir xil bo‘lgan millatlarning maqollari ham bir-biriga yaqin bo‘ladi. Butun G‘arbiy Yevropa davlatlarining xalq o‘g‘zaki ijodi va

aynan maqollarning tarqalishida, maqollar kitobi deb atalmish “Bible” ya’ni Biblyaning o‘rni katta. Kitob turk xalq maqollarini o‘zida jamlagan bo‘lib, aynan qadimgi davrdagi ajdodlar tomonidan aytilgan maqollar keltirilgan. Ko‘plab turk olimlari tomonidan maqolga quyidagicha izohlar keltiriladi. Mashhur ingliz filklorshunosi, professor Mayder maqolni quyidagicha izohlaydi: “Proverbs are used in a wide range of situations and no limits to the use of the proverb. They can be used to: “strengthen our arguments, express certain

generalizations, influence or manipulate other people, rationalize our own shortcomings, question certain behavioral patterns, satirize social ills, poke fun at ridiculous situations”. Ya’ni: “Maqollar juda keng ko‘lamda qo‘llanilib ularni qo‘llashda chegara yo‘q. Maqollar bizning dalillarimizni mustahkamlash, umumiy va aniq fikrlarimizni ifodalash, boshqa insonlarni boshqarish yoki ularga ta’sir o‘tqazish, jamiyatdagi illatlarni ifodalash”.

Qaysi til qaysi millatning maollarini jamlasakham ulararo o‘zaro o‘xshashliklar va sezilarli farqlarni ko‘rishimiz mumkin. O‘xshashlik tomonlari shundan iboratki, tarbiya masalasi qaysi din, qaysi millat bo‘lishidan qat’iy nazar bir biriga juda o‘xshash. Tarbiya har bir oilada deyarlik birdek. Ammo dinlar o‘zgachaligi, millatning erki o‘zgachaligi uzaro farqlarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida biroz maqollar tahlili bilan cheklandik. Ammo diniy, madaniy, axloqiy bir biriga o‘xshash, ayniqsa turk va o‘zbek maqollarida solishtirib tahlil qilishga arzigulik maqollar soni beqiyos. Har bir xalqning folklorshunosligi hisoblanmish maqol janriga nazar tashlar ekanmiz biz bu janrning naqadar beqiyos ekaniga guvoh bo‘lamiz. Xulosa qilib aytganda qaysi til, madaniyat bo‘lishidan qatiy nazar maqollar juda chuqur ma’noli boy janr hisoblanishiga amin bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pala, İskender. Sözün Özünden Dünden Bugüne Atasözleri, Kapı Yayınları, İstanbul, 2013.

2. Ömer Asım Aksoy, Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İnkılap Yayınları, İstanbul, 2013.

3. Ebu Davud, Sünen, Nikah 1.

4. Doğan Aksan, Türkçe'ye Yansıyan Türk Kültürü, Bilgi Yayınevi, Ankara 2008, s.53.

5. Enam (6); 151.

6. İsra (17) 23,24.

7. Erol Güngör, Ahlak Psikolojisi ve Sosyal Ahlak, Ötüken yayınları, İstanbul 2008, s. 215.

8. Alfred Adler, İnsanı tanıma sanatı, Dergah yayınları, İstanbul 1985.

9. Emel Yiğen, Zonguldak İl Merkezinde Yuvaya Giden 3-6 Yaş Grubu Çocuklarda Kardeş Kıskançlığının Değerlendirilmesi, Yüksek Lisans Tezi, Zonguldak, 2005.

10. Nevzat Tarhan, Aile Okulu, Timaş Yayınları, İstanbul, 2010.

11.. “O‘zbek xalq maqollari” T.Mirzayev, A. Musaqulov. Toshkent (2005)

12. http://kuran.diyanet.gov

ADABIYOTSHUNOSLIK, ADABIY MANBASHUNOSLIK

PREMCHAND DRAMANAVISLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

Saidnazarova Nodira Otaxon qizi
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n. dots T.A. Xodjayeva

Premchand XX asrning birinchi va ikkinchi o‘n yilliklarida, ayniqsa milliy ozodlik harakatiga o‘zining juda katta hissasini qo‘shgan ijodkorlardan biri bo‘lib, yozuvchi Premchand ijodi ayniqsa, rus hindshunoslarining ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritib berilgan. Shuningdek, Premchand hayoti bilan hozirgacha ham juda ko‘plab sharqshunos, hindshunos olimlar, qolaversa, bir qancha Angliya, Yevropa mamlakatlari olimlari qiziqib kelmoqdalar va u haqida ilmiy ishlar qilmoqdalar. O‘zbekistonda ham Premchand ijodi o‘rganilgan bo‘lib, bir nechta maqolalar, kitoblar chop etilgan , universitet darsliklariga ham kiritilgan.

Hindistonda Premchand ijodi keng o‘rganilgan va hozirgacha ham o‘rganilib kelinmoqda. O‘zbekistonda Premchand to‘g‘risida chiqqan ma’lumotlardan tashqari, hali o‘rganilmagan manbalarga Zakir Huseyn kolleji, Dehli universiteti hindiy tili professori, doktor Kamal Kishor Goyankaning bir qancha izlanishlarini misol keltirishimiz mumkin. Professor Goyanka Premchand hayoti va adabiyoti bo‘yicha orginal materiallar hamda haqiqiy hujjatlarni ochuvchi katta tadqiqotchi olim, Premchand adabiyotining taniqli tanqidchisi bo‘lib, uning Premchand bo‘yicha bir qancha kitoblari nashr etilgan. Ayniqsa, uning “Premchand ensiklopediyasi” (besh jildlik), “Premchand romanlarining yaratilish uslubi “(dissertatsiya), “Premchand” (cho‘ntak kitobi), “Premchand – ba’zi xotiralar” , “Premchand va shaxmat o‘yinchisi” (Doktor Lothar Lutse bilan hamkorlikda), “Premchand – rasmiy biografiyasi”, “Premchandni o‘rganishning yangi yo‘nalishlari” diqqatga sazovordir:

Ushbu maqolada Premchand ijodi to‘g‘risida hind adabiyotshunoslarining maqolalari o‘rganilib, Premchandning hali kam o‘rganilgan va ayrim manbalarda ham juda qisqa qilib aytib o‘tilgan

sohasi – dramanavisligi va ushbu yo‘nalishga qo‘shgan hissasi, hind adabiyotshunoslarining Premchand dramalari to‘g‘risidagi fikrlari o‘rganilib, bu yo‘nalish bo‘yicha Premchand ijodi nisbatan kengroq bayon qilindi.

Premchand ijodida romantik va real qarashlar uzoq vaqt birgalikda mavjud bo‘lgan. U an’anaviy romantik personajlarni zamonaviy hind milliy hayotidagi yangi qahramonlar bilan birlashtirgan. Premchand o‘z personajlarining shaxsiy hayotini ijtimoiy manfaatlarga tobe qilishga intilgan holda uni milliy ozodlik kurashi qurboniga aylantirgan. Premchand xalqning mustamlakachilik hukmronligiga qarshi kurash mavzusiga chuqur e’tibor qaratgan. Haqiqiylik, zamonaviylikning dolzarb muammolarini tasviriy badiiy talqin qilishga bo‘lgan intilish yozuvchida borliqning mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini anglashga bo‘lgan qiziqish bilan uyg‘unlashib ketadi. Premchandning o‘z davrida bo‘layotgan ozodlik harakatiga bag‘ishlangan asarlari qatorida, uning 1923-yilda yozilgan “Kurash” dramasi ham mavjud bo‘lib, yozuvchi ushbu dramada qishloq xalqining o‘zaro aloqalari masalasini asosiy mavzusi qilib qo‘ygan.

Hind adabiyotshunoslari tomonidan Premchandning, asosan, 3 ta drama yozganligi ta’kidlanadi. Bular: " संग्राम " (" Kurash ") (1923) , " कर्बला " ("Karbala") (1924) , " प्रेम की वेदी " (" Sevgi qurboni ") (1933).

Premchand hind – musulmonlar adovatining asosiy sabablari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tar ekan, shunday fikr bildiradi: "…Hind – musulmonlar adovatining sabablaridan yana biri shunda ediki, biz hindlar musulmonlar orasidan chiqqan buyuk insonlarning asl xarakterlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega emasmiz. Musulmon hukmdorlari haqida so‘z yuritilganda, avvalo, bizning ko‘z oldimizga Avrangzebning tasviri keladi. Ammo, yaxshi va yomon xarakterli insonlar barcha jamiyatlarda bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. Musulmonlar orasida ham ko‘plab buyuk donolar, buyuk dindorlar va buyuk, adolatparvar hukmdorlar bo‘lgan."

Biror bir millatning buyuk insonlari harakterlarini o‘rganish o‘sha millat bilan yaqinlik aloqalarini o‘rnatishda yordam berishi mumkin. Hind-musulmonlarning o‘zaro kelisha olmaslik muammosi Premchand davrida ham dolzarb bo‘lgan va u buni muhim masala deb hisoblagan. Shu tufayli ham u 1924 – yili " कर्बला " ("Karbala") dramasida Husayn sohibning buyuk fidoiyligi haqida hikoya qilgan. Husayn sohibning

yuksak xarakterining o‘ziyoq ta’sirli bo‘lib, Premchand uni yanada ta’sirliroq ko‘rinishda taqdim etishga harakat qilgan, bu obrazdan kitobxonlar nafaqat rahm-shafqatni, balki g‘ururni, faxrni ham his qilishadi.

Ushbu "Karbala" dramasi 5 pardadan iborat bo‘lib, voqealar 42 ta sahnada bayon etilgan. Muallifning Husayn sohib bilan bog‘liq barcha mavjud tarixiy dalillarni to‘liqligicha taqdim etish istagi dramada aniq aks etgan.

Hind tanqidchilaridan biri o‘z maqolasida Premchandning ushbu dramasi to‘g‘risida shunday fikr bildirgan: “Dramada tanlanishi kerak bo‘lgan tartib "Karbala" da mavjud emas. Asar qurilishi "Kurash" ("Sangram") dramasining qurilishiga o‘xshab ketadi. Voqea-hodisalar va qahramonlarning ko‘pligi tufayli bitta voqea yoki qahramondan ta’sirlanish bilangina cheklanib qolinmaydi. Bu asardan go‘yoki hikoya qiluvchi dialog va ba’zi bir qisqa sahnalar orqali drama mazmunini yanayam yaxshiroq ochib bermoqchiday tuyiladi. Drama o‘zining qurilishi ya’ni kompozitsiyasi va dialog uslublari bilan ham "Kurash" dramasiga o‘xshaydi”. Ushbu dramada ham qo‘shiqlardan keng foydalanilganligini adabiyotshunoslar alohida ta’kidlab o‘tishadi.

Drama muallifi Premchandning o‘zi asar muqaddimasida shunday deb yozgan: " Dramada qo‘shiq bo‘lishi zarur ... Musulmon qahramonlar tomonidan hind qo‘shiqlari kuylanishi biroz o‘zgacha ko‘rinadi. Shuning uchun ham, urdu shoirlarining ham g‘azallaridan keltirdim. Ayrim qismlarda marsiyalardan uch – to‘rttasidan foydalanilgan... Ba’zi o‘rinlarda esa atoqli hind shoiri Shridhar Pathakning ayrim she’rlaridan ham kiritilgan."

Bu shuni ko‘rsatadiki, Premchandning o‘z davridagi turli xil hind shoirlari ijodiga bo‘lgan hurmati ham baland bo‘lgan va she’riyatdan ham yetarlicha xabardor bo‘lgan. U musiqaga ham qiziqar edi. Dramani sahnalashtirish borasida Premchandning o‘zi shunday fikr bildirgan: "Biz bu dramani sahnada ijro etish uchun yozmadik, lekin ishonamizki, agar kimdir uni sahnalashtirishni xohlasa, unda biroz qisqartirishlar kiritishi ham mumkin."

Albatta, har bir drama muallifida o‘z asarining sahnalashtirilishini ko‘rish istagi bo‘ladi, shu nuqtai nazardan ham Premchandning fikrlari asoslidir.

Premchandning uchinchi dramasi 1933 – yilda yozilgan "प्रेम की वेदी" ("Prem ki vedi" – "Sevgi qurboni") sevgining kuchini ko‘rsatib berish uchun yozilgan. Unda muallif sevgi kasta, din, rasm-rusumlar va shu kabi barcha tashqi aloqalarning har qanday turlaridan ustun ekanligini aytmoqchi bo‘lgan. Drama oxirida bosh qahramon Jeni ismli qiz aytgan gaplar aslida qaysidir ma’noda Premchand aytmoqchi bo‘lgan fikrlardir desak to‘g‘ri bo‘ladi. U shunday deydi: "Bugun men bu hiyla-nayranglarni, soxta rishtalarni sevgi yo‘lida qurbon qilishni istardim. Bu Allohning in’omi. Boylik, bilim, millatning dini bir-biri bilan kurashishi mumkin, ammo Xudoning in’omi mehr-muhabbatdir va men bu in’omni qabul qilaman. Qolganlari yolg‘ondir.

"Kurash" dramasi va "Karbala" dramalari bilan solishtiradigan bo‘lsak, ("Prem ki vedi") "Sevgi qurboni" dramasi nisbatan kichikroq dramadir. U yetti pardadan iborat bo‘lib, ular orasida ba’zi pardalarda o‘zgarishlar ham bo‘lgan. Drama syujeti ham qisqadir: nasroniy qiz Jeni nikohni bir rishta xolos deb biladi va turmush qurishni xohlamaydi. Vilyam ismli yigit esa Jeni bilan turmush qurishni istaydi.

Jenining onasi Garden xonimning eri vafot etgan bo‘lib, u yolg‘iz edi va u ham Jeni hamda Vilyamning turmush qurishi tarafdori bo‘ladi. Jeni yangi turmush qurgan dugonasi Uma va uning eri Yograj bilan uchrashib qolgandan keyin Yograjni yoqtirib qoladi, ammo dugonasi haqida o‘ylab oldinga harakat qilmaydi. Bir yil o‘tgach, Uma to‘satdan vafot etadi va Yograj Jeniga turmush qurishni taklif qiladi, ammo Jeni ikkalasining turli dinlarga e’tiqodi va yana boshqa sabablar tufayli Yograjning bu taklifini qabul qilmaydi. Bu qayg‘u Yograjning o‘limiga sabab bo‘ladi va Jeni keyinchalik sevgi uchun unga to‘sqinlik qiluvchi barcha rishtalarni, aloqalarni uzish kerakligi haqida chuqur mulohaza qiladi. Shu yerda drama tugaydi. Yana bir muhim voqea shundaki, drama so‘ngida Vilyam keksa Garden xonimga uylanadi va bu xatti-harakatlari tufayli kitobxon va tomoshabinlar oldida kulgiga qoladi. Ushbu drama orqali Premchandning muhabbat, ishonch kabi sof tuyg‘ulardan bir qadar uzoqlashgan, din, kasta va shu kabi insonning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab cheklangan nikoh borasidagi fikrlari taqdim etilgan.

"Sevgi qurboni" ("Prem ki vedi") dramasining syujeti u qadar ishonchli emasday tuyilishi, asarda yuz beradigan voqealar haddan tashqari bo‘rttirib yuborilganligi to‘g‘risida ham hind adabiyotshunoslari

alohida ta’kidlab o‘tishadi. Xususan, asarning oxiri, ayniqsa, Jenining so‘nggi dialogidagi hissiyotlari oldindan dramaga mos ko‘rinishda yaratilmagandek ko‘rinadi. Mubolag‘a, shuningdek, qahramonlar fe’l-atvorida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu dramaning uslubi ham dastlabki ikkita drama kabidir. Orasida bir nechta chekinishlar mavjud bo‘lib, ularda muallifning ba’zi izohlari ham bor. Sevgi va nikohga oid dialoglarning aksariyati munozaraga aylangan. Dialoglar, albatta, dastlabki ikkita dramaga qaraganda qisqaroqdir. Tanqidchilarning fikricha , qurilishi ya’ni kompozitsiyasi nuqtai nazaridan "Sevgi qurboni" ("Prem ki vedi") dramasi avvalgi dramalaridan deyarli farq qilmaydi. Bizning fikrimizcha esa, ushbu drama boshqalaridan yechimining noan’anaviyligi bilan ham keskin farq qiladi.

Shuningdek, ayrim adabiyotshunoslarning fikricha, dramanavis Premchandning asosiy kuchli tomoni haqida umumiy tarzda shuni aytish mumkinki, uning badiiy uslubi singari dramalarini harakatlantiruvchi yana bir asosiy kuch asarni yozishda aniq maqsad qo‘yishidir, odatda, badiiy asarlarda qanchalik kuchli ijtimoiy fikr ifodalangan bo‘lsa, shunchalik bunday dramalar kam uchraydi yoki yozuvchi bunday dramalarni kamdan-kam yozadi.

Dramalar eng ommabop, ijtimoiy san’at turidir, chunki ular odatda sahnalashtirish uchun yoziladi va u bevosita xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘ladi. Dramalarda xalq o‘z hayotini, muammolarini, ularning xolis yechimlarini ko‘ra olsagina, bunday dramalar xalq qalbidan chuqur joy egallaydi. Shu jihatdan ham ayrim tanqidchilar, o‘z maqolalarida asosan, Premchand kuchli hikoyanavis, romannavisligini, dramalari esa asosan hikoyachilikka yaqin yozilganini ta’kidlashadi. Buning asosiy sabab-laridan biri sifatida esa Premchand davrida hind teatrining bo‘lmaganligi va sahnalashtirishning yetarlicha rivojlanmaganligi aytib o‘tiladi. Premchand asosan, dramalarini matn ko‘rinishida o‘qilishi uchun yozgan va yozuvchining o‘zi ham sahna mahoratidan, sahna uchun yoziladigan dramalar texnikasidan unchalik xabari yo‘qligini, shuning uchun ham uning dramalari o‘qishgagina arzishini alohida aytib o‘tgan.

"Karbala" dramasida Premchand shunday yozadi: "Dramalar sahna asari va saboqdir. Ammo mening fikrimcha, har ikkala turdagi dramalar ya’ni o‘qish uchun yoziladigan va sahnada ijro etish uchun yoziladigan dramalar o‘rtasida hech qanday farq yo‘q. Yaxshi aktyorlar ijro etgan har qanday drama ham qiziqarli va didaktik bo‘lishi mumkin".

Premchandning ushbu fikrlari ancha oldin ya'ni taxminan 100 yil avval aytilgan. Keyinchalik 1935-yilda bergan intervyusida u "Men hech qachon drama texnikasi va sahna mahoratiga duch kelmaganman, shuning uchun mening dramalarim faqatgina o'qishga arziydi" deb tan olgan.

Premchand ko'plab drama kitoblarini ko'rib, o'rganib chiqqan va bundan uning dramaturgiya borasidagi fikrlarini shakllangan. "Daag'i maal" ("Dog' tushgan mato") va "Veyvahik atyachar" ("Oila qurgan zulm") dramalarini ko'rib chiqayotganda Premchand shunday deb yozgan edi: "Ikkala asar ham ko'ngil ochar, biroq, ular dramaturgiya nuqtai nazaridan olib qaraganda muhim ahamiyatga ega emas, dialog orqali nimadir aytiladigan har qanday asar ham drama bo'lavermaydi (Madhuri, 1924-yil sentyabr).

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Premchand bir qancha dramalar yozgan, ammo uning asosiy sohasi – hikoyanavislik va romannavislik bo'lib qolgan. Uning dramalarida teatrdan ko'ra ko'proq hikoyanavislik uslubi ustunlik qiladi. Premchand dramalarida ko'tarilgan hind-musulmonlar masalalari, milliy ozodlik kurashi, qishloq xalqining o'zaro aloqalari masalalari hamda muhabbat, ishonch kabi sof tuyg'ulardan uzoqlashib, din, kasta va shu kabi insonning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab oila qurish, cheklangan nikoh kabi ijtimoiy mavzular o'z davrida va hatto hozir ham Hindistonda dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda. Yozuvchi o'z dramalarida asosan, real hayotdagi muammolarni ko'tarib chiqqan, shu jihatdan ham uning dramalari realizm yo'nalishida yozilgan desak, to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балин В. Премчанд и его романі "Обитель любви" и "Воздаяние". Литератури Индии. – М:, 1958; Начало творческого пути Премчанда и сборник "Созе Ватан". Современная индийская проза. – М:, 1962.
2. Гаврюшина Н.Д. Премчанд и роман XX века. – М:, 2006.
3. Полинова О.С. Премчанд – демократ ёзувчи. Шарқ Юлдузи. – Т., 1951. 7-сон; Прогрессив ҳинд ёзувчиси. Шарқ Юлдузи. – Т., 1955. 3-сон; Реализм в современном индийском романе. – Т., 1984.
4. Xodjayeva T.A., Muhibova U.U. " Hindiston adabiyoti. भारतीय भाषाओं के साहित्य का इतिहास ". – T:, 2020.

5. Челишев Е.П. Литература хинди. – М:, 1968; Современная индийская литература. – М:, 1981.

6. आजकल : सितंबर 2006. Page 36

7. Dr.Chitra Yadav. मुंशी प्रेमचंद का हिंदी साहित्य में योगदान – एक समीक्षा . Journal of Advances and Scholarly Researches in Allied Education. Vol.16, Issue No. 5 , April 2019, ISNN 2230-7540.

DARIYZABON IJODKOR AKRAM USMON VA UNING «عروسی»“TO‘Y” HIKOYASI

Maksudova Durdona Abror qizi
TDSHU 3-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: stajor-o‘qituvchi F.A. Hamdamov

Hozirgi kunga kelib Afg‘oniston adabiyoti har taraflama o‘rganilmagan bo‘lsa-da, sharq xalqlari orasida o‘ziga xos o‘rni bor. Bunga sabab esa mamlakatdagi ko‘p yillardan beri uzluksiz davom etayotgan notinchlik desak xato bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan XX asrda yashab ijod etgan bir qancha adabiyot namoyondalari Afg‘oniston adabiyoti tarixiga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shishgan. Bunga misol qilib esa ularning dariyzabon adabiyotiga zamonaviy realistik yo‘nalishni nasr orqali olib kirganliklari manbalarda ta’kidlanishi bizga ma’lum. Bu tamoyil shu davrda yashab ijod etgan adabiyotshunoslar – Asadullo Habib, Abdulkarim Misoq, Muhammad Akram Usmon, Muhammad Olim Zaryob, Spujmay Zaryob, Babrak Arg‘and, Muhammad Olim Iftixor [1] kabi bir qator yozuvchilar ijodida o‘z ifodasini topdi. Bu maqolada anashu hikoyanavislardan biri bo‘lmish Muhammad Akram Usmon va uning «عروسی» “To‘y” hikoyasining qisqacha tahlilini ilm ahli va kitobxonga yetkazishni o‘zimizga vazifa qilib oldik.

Akram Usmon bugungi kunga qadar mahoratli yozuvchi deb ta’riflanadi. XX asrda yashab ijod etgan yozuvchining to‘liq ismi Muhammad Akram Usmon bo‘lib, ko‘p asarlarini Akram Usmon imzosi bilan, ba’zilarini esa “Ko‘zagar” taxallusi bilan e’lon qilgan.[2]

A. Usmon 1937-yilda Hirotda tavallud topgan. Uning otasi G‘ulom Faruq Usmon asli Kobullik yuqori martabali amaldor bo‘lib (manbalarda uni Nangarhor viloyati vodiysi vazifasida ishlagani ham aytiladi), onasi Sakina Balx viloyatining Mozori Sharif shahridan edi. Akram Usmonning millati pashtun bo‘lsa-da, ona tili dariy tili edi[3].

Yoshligidan ilm-fanga qobiliyatli bo‘lgan hikoyanavis dastlab o‘qishni Kobuldagi “Istiqlol” litseyida boshladi, keyin esa “Habibiya” litseyida davom ettirdi. Litseyni tamomlagach Kobul universitetining

---

[1] نخستین داستان های معاصر دری, پیش گفتار, یادداشت ها, نگاهی به ادنیات معاصر در افغانستان، ص، ۷۸ -۷۶

[2] Hamdamov F. “Dariyzabon, nasrnavis Muhammad Akram Usmon va uning badiiy ijodi” maqola(Kamolat sari). TDSHU,2020.

[3] R. Imonxo’jayev Afg’oniston dariyzabon adabiyoti. (XIX asr oxiri – XX asr). T, 2018. 178 b.

huquqshunoslik va siyosatshunoslik yo‘nalishida o‘qidi va uni 1962-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. Ijodkor ilmiy salohiyatini yanada oshirish uchun universitetni bitirib Tehronga ketadi, asperanturani u yerda tamomlagach 1971-yilda huquqshunoslik bo‘yicha doktorlik ilmiy darajasini oladi.[1]

Adibning sevikli ayoli Maliha tojik millatiga mansub bo‘lib, u bog‘cha tarbiyachisi bo‘lganligi, ularning ikki o‘g‘illari, Mayvand va Umid, hamda bir qiz, Orzuni o‘zlari singari ziyoli qilib tarbiya berganliklari manbalarda keltirilgan.

Akram Usmon umri davomida bir qancha lavozimlarda ishladi. Dastlab Kobul radiosi va televideniyesining ijtimoiy hamda adabiyot va san’at bo‘limida barnomaga materiallar tayyorlovchi, diktor bo‘lib ishladi. U yerdagi muvaffaqiyatli ish faoliyatidan so‘ng, Afg‘oniston FA tarix va huquqshunoslik institutini boshqardi, Afg‘onistonning Dushanbedagi elchixonasida konsul, Eronning Tehrondagi elchixonasida maslahatchi bo‘lib xizmat qildi. Ijodkor 1992 – yilda Afg‘onistondagi fuqarolik urushi avjiga chiqqan paytda Shvetsiyaga muhojirat qiladi va shu yerda umrining oxirigacha yashab 2016-yil 16-avgustda vafot etdi.

Adib umri davomida adabiyotga o‘zgacha mehr va zavq bilan yondashgan. U hikoyalar yozishni 4-sinfdanoq boshlagan.[2] Uning ilk asari esa “Oyoqlari zanjirlangan qiz” deb nomlangan va “Juvandun” gazetasida bosib chiqarilgan. Shundan so‘ng yozuvchining birinchi hikoyalar to‘plami “Qamishlar gullaganda” nomi bilan 1985-yilda nashr qilinadi.[3]

Akram Usmonni boshqa yozuvchilardan farqi shunda ediki, u zodagon oilasiga mansub bolishiga qaramay asarlarini oddiy xalq tilidan yozar edi. Bu esa uning hikoyalarida hayotga sodda ko‘z bilan qarash, ijtimoiy tengsizlik, turmush mashaqqatlari, muhojirlik va boshqa shu kabi mavzular yetakchilik qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi zamon afg‘on yozuvchisi Dastagir Noyil Akram Usmon hikoyalarini ta’riflab shunday deydi: *“Bu hikoyalar inson qalbida hayotga shaydolik, kelajakka umid, o‘qish va yozish istagini uyg‘otar edi. Uning sodda, tanti, mardonavor, vafodor va oshiq qahramonlari kitoblari*

---

[1] Hamdamov F. “Dariyzabon, nasrnavis Muhammad Akram Usmon va uning badiiy ijodi” maqola(Kamolat sari). TDSHU,2020.

[2] R. Imonxo’jayev Afg’oniston dariyzabon adabiyoti. (XIX asr oxiri – XX asr). T, 2018. 178 b.

[3] Fuod Masiho. Akram Usmon az “Kuchaye mo” raft.

sahifalari uzra tiriklardek qadam bosardilar, nafas olardilar. Ularning ruhlari uyg‘oq edi hissiyotlari taftini odam sezar edi.”[1].

Akram Usmonning hikoyalari sarasidan joy olgan «عروسی» “To‘y” nomli asari yuqoridagi fikrimizga misol bo’la oladi. Hikoya 2005-yilda «دروازۀ کابل» “Kobul darvozasi” jurnalida bosib chiqarilgan.

Akram Usmon «عروسی» “To‘y” deb nomlangan birgina hikoya orqali ko‘plab turmushdagi qiyinchiliklarni o‘zida jamlagan. Bilamizki to‘y deganda avvalo xayolimizga xursandchilik, ikki yoshning baxt-saodati ko‘z oldimizga kelishi tabiiydir, biroq bu hikoyada bir insonning taqdirida ko’plab hayotiy mashaqqatlar va burilishlar bo‘lishi mumkin bo‘lsa, bularning barchasi tushunarli, dariy so‘zlashuv tiliga xos ravishda, turli obrazlar yordamida tasvirlangan.

Akram Usmoning bu hikoyasi romantik va realistik hikoyalar janriga mansubdir, chunki bosh qahramonning ichki kechinmalari, boshidan kechirgan g’am va qayg‘uli kunlar, sevgan insoniga yetisha olmagani real hayotiy voqea hisoblanib, bunday taqdirlar har bir insonning peshonasida bitilgan bo‘lishi hech gap emas.

Hikoyaning ta’sirchanligini oshirish maqsadida ijodkor asosan dialog, monolog, ikkiliklar va to‘rtliklardan unumli foydalangan. Syujetdagi voqealar rivoji bosh qahramon Habib va uning onasi o‘rtasidagi dialoglar yordamida tasvirlanadi.

Hikoya yozuvchi tilidan so‘zlab berilgan bo‘lib, unda ikki asosiy qahramon ishtirok etadi. Ularning biri bosh qahramon, Habib ismli yigit va uning onasi. Hikoyadagi voqealar ular yashab kelayotgan hovlida bo‘lib o‘tadi. Hikoya juda tabiiy va afg‘onlarning qishloq joylarda yashovchi qatlam ishlatadigan shevaga xos yozilgan. Hikoya boshidanoq tasvirlanayotgan muhit, biroz g‘amgin va qayg‘uli bo‘lgani sabab Akram Usmon voqealar rivojini uy hayvonlari yordamida o‘ziga xos tarzda aks ettirganini ko‘rishimiz mumkin.

هوا گرگ و میش بود. چند تا خروس و ماکیان سیاه و سفید در یک صف روی زینه خوابیده بودند و گربهء سیاهی ملال آور و غمناک میومیو میکرد و شیشهء سکوت ژرف و سنگین را می شکست.

“Shomning g‘ira-shira payti edi. Bir nechta qora va oq xo‘roz-u tovuqlar bir qator bo‘lib zina ustida uxlab yotishardi. G‘amga botgan Qora mushuk sog‘inch bilan miyovlashi og‘ir va chuqur sukunatni (sokin jimjitlikni) buzardi”.

[1] Fuod Masiho. Akram Usmon az “Kuchaye mo” raft.

Habib kunning g‘ira-shira paytida uyga qaytadi va yuz-qo‘lini yuvgach onasi bir tarafda boshiga bir kulfat tushgandek parishon holda ekanligiga ko‘zi tushdi.

Ijodkor onai zorning holati qay holda ekanligini tasvirlash uchun quyidagi dialogdan foydalanadi:

حبیب صدایش زد مادر!
مادرش گیچ و هوایی جواب داد: جان مادر
حبیب پرسید امشو چی پختی؟ نان خشک داریم یا بیارم؟
مادر باز تکرار کرد: جان مادر
حبیب کنایه آمیز شکوه کرد: مادر، مه از ده می پرسم تو از درخت ها جواب میتی!

Habib *“oyi”* dedi! Onasi bir qad uchib javob berdi: *“ha jon bolam!”* Habib so‘radi: *“bugun kechga nima pishirdingiz? Yeguligimiz bormi yo olib kelaymi?”*
Onasi yana takrorladi: *“ha jon bolam”*
Habib kinoya qilib dedi: *“ona men qishloqdan gapirsam siz daraxtdan aytyapsiz!”*

Ona hech narsa demadi va Habib sezdiki onasining kayfiyati boshqacha. Hikoya qahramoni onasining bu holatiga nima sabab bo‘lganini tushunish maqsadida unga yaqin kelib dildan suhbatlashmoqchi bo‘ladi.

Ona nimadir demoqchi bo‘lganida to‘satdan ko‘zi tut daraxtining shoxlari orasidan ko‘rinayotgan oyga tushadi va to‘satdan baqirib Habibga suv olib kelishini buyurdi. Habib shosha-pisha oshxonadan toza suv keltiradi. Bu epizod orqali ijodkor afg‘onlarga xos bo‘lgan oy to‘lganda suvga qarab fol ochish odatini tasvirlash bilan bir vaqtda Habibning onasi o‘zi va farzandining taqdirida ko‘rgan mashaqqatli onlar yakun topib va nihoyat baxtli-saodatli kunlarning kelishiga umid bog‘layotganligini tasvirlashga harakat qilgan.

حبیب جان روی طالیته وا کدم، ماتوه ده او «آب» دیدم، روشنی میشه، خدا تره عمر و روزی میته و ده مراد می رسانه.

“*Habibjon toleyingdan ochdim, suvda seni ko‘rdim, yorug‘lik bo‘ladi, Xudo senga umr va rizqingni beradi va murodingga yetkizadi.”*

Shu paytda ona farzandining boshini ko‘ksiga bosib, qo‘llari bilan boshini siladi, ammo nogaxon sochlarining u yer, bu yeridan paydo bo‘lgan oq sochlarga ko‘zi tushti.

Akram Usmon hikoyaning bu qismida farzandning sabru-matonati qanchalik kuchli ekanligini, har qancha dardi va hasrati bor bo‘lmasin, ichiga yutib onani dilini og‘ritmagani va qayg‘uga solmaganligini

tasvirlab bergan. Shu tariqa uning sochlariga oq tushganligini tasvirlash yo‘li bilan hikoyaning kitobxonga ta’sirini yanada oshirgan.

Shunday bo‘lsa-da, ona qalbi juda sezgir bo‘lib farzandining dardi ichida ekanligini his etadi va nola chekib quyidagilarni xitob qiladi:

نه زن، نه اولاد، ناخورده نابرده بچیم پیرشدی، خاک به سرم شد.

“Na ayoling, na farzanding bor, yemay, ichmay qariding, onaginang o‘lsin...”

So‘ngra ona-bola xomush bo‘lib qolishdi, Habib mavzuni o‘zgartirishga urinib onasidan yana nimalarnidir aytib berishini so‘radi.

Yozuvchi onaning g‘amgin tortib yuragidan uzib javob berganini shunday so‘zlardan foydalanadi:

بچیم از چی گپ بزنم؟ از کنجای خانه؟ مه دگه پوده شدیم، مه مرغ کور استم، مرغ کور او «آب» شور.!

“Bolajonim nimadan gapiray! Uyning to’rt burchagidan so‘zlaymi? Men bir ko’zi ko‘rmas parrandaman, sho‘r suvda suzuvchi ko‘zi ko‘r qushman”.

Shu payt qo’shnisining uyidan musiqa va do‘mbira sadolari eshitildi. Ne sitamlar, ne jafolar bo’lsin-ki, Habib yoshligidan yoqtirgan, unga oshiq bo’lgan, lekin oshkor qilishga jazm qila olmagan qo‘shni qizining to‘yi bo‘layotgan edi.

Habibning onasi o‘tmishga nazar tashlab 45-48 yilcha oldingi voqealarni ko‘z oldiga keltiradi. O‘sha vaqtlar o‘g‘lini kuyovlikka qabul qilishlarini orzu qilib sovchilikka kechayu-kunduz yurgan damlari edi. Shundan so‘ng cholg‘u asboblari va musiqa sadolari bilan quyidagi she’r Habibning qulog‘iga chalinadi:

Toliqon yo’llaridan hech kim o‘tmadi	از کوتل طالقان کسی تیر نشد
Yer odamlarni yutib ham to‘ymadi	از خوردن آدمی زمین سیر نشد
Kel, ajal ustozin oldiga boraylik	بیا که برویم به پیش استاد اجل
O‘lim haqdir, biroq yosh hali qarimadi.	مردن خو حق است ولی جوان پیر نشد

Hikoyaning kulminatsion qismi shu epizod bilan berilgan desak adashmagan bo‘lishimiz mumkin. Hikoya qahramonining ruhiy holatini mahorat bilan yuqoridagi dubayti yordamida aniq va mubolag‘asiz tasvirlab bergan. Devor ortidagi to‘y va tantana sadolari bosh qahramonning qulog‘iga g‘am va qayg‘u, yillar davomida chekkan

iztiroblarini eslatardi, uning baxtsizligi va umrining ham tugab borayotganini ko‘z o‘ngidan o‘tkazardi.

Habib onasidan nega tabassum qilayotganini so‘raydi va onasi qo‘shni hovlidan kelinsalomning she’rlari va navolarini eshitayotganini aytadi.

Akram Usmon asosiy personajning ruhiy va emotsional holatini birgina jumla yordamida o*’ta ta’sirchan qilib tasvirlashga harakat qiladi:*

Kuydan ta’sirlangan Habib – *“qanday ajib dunyo ekan...”* dedi.

چی معجونی حیرت آور، تلخ و شیرین زندگی را یک سرنا صدا می دهند.

“Bu qanday hayratlanarli qorishma, hayotning achchig‘i-yu shirini bir cholg‘udan chalinib chiqsa”.

Habib chorrahada otasi bilan yuzlashib qolib, sovuqqonlik bilan va mensimay uning salomiga javob qaytarganini esladi. Onasi oshxonaga qozonni tagiga olov yoqish uchun ketdi.

Hikoya so‘ngida ijodkor qahramonning taqdiri nega bu qadar tushunarsiz va baxtsiz ekaniga javob qoldirish maqsadida Habib qo‘shnining devoriga yaqin kelib pichirlab quyidagi satrlarni aytayotganligi bilan asarni yakunlaydi:

Opa-singillar, akalar, meni eslab turinglar,
Shamshod yog‘ochidan menga tobut yasanglar.
Tobutimni sekin-sekin ko‘tarib boringlar,
Qora tuproqqa topshirib meni faryod qilinglar.
Jononaginam, qadding guldek seni,
Sekin yur, oy yuzlikimiz, sekin yur…

خواران، خواهران و برادران مرا یاد کنین
تابوت مرا ز چوب شمشاد کنین
تابوت مرا قدم قدم وردارین
برخاک سیاه بانین و فریاد کنین
جانانه گکم قات به گل می مانه
آستابرو ماه مان آستا برو...

Yuqoridagi misralar hikoyaning barcha voqealariga yechim bo‘la oladi va xulosa qilishni ijodkor kitobxonga havola qilgan.

Akram Usmon asaridagi har bir epizodni, undagi qahramonlarni to’g‘ri tanlagani uchun hikoyani o‘qiganingizda undagi voqealar ko‘z oldingizda gavdalanadi. Bir oilada bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday holat inson taqdiriga bitilgan og‘ir kunlar, hayot sinovlari bu hikoyada Habib va uning onasi misolida tasvirlangan.

Hikoya mazmunidan shuni xulosa qilib olishimiz mumkinki, bosh qahramon Habib ruhiy xastalikka chalingan yigit bo’lib, uzoq yillardan

beri oila qurish kabi muqaddas amalni bajara olmayotganligi uning qalbini qayta-qayta jarohatlaydi.

“To‘y” hikoyasi bir ruhiy xasta inson va farzand uchun kuyingan onaning holati tasvirlangan. Ruhiy holati sababli jamiyatdan ajralib turuvchi bu yigit va onai zor necha yillardan beri o‘g‘lini kuyovlik libosida ko‘rish ilinjida bo‘ladi. Ona-bolaning o‘tmishda boshdan kechirganlarini eslashga sabab bo‘lgan hodisa esa, devorning ortida bo‘layotgan qo‘shnining to‘yi bo‘lib, hikoyaning nomi ham aynan mana shu to‘y bilan bog‘liq desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Akram Usmon bu hikoyada inson qadri, onaning farzandiga bo‘lgan mehr-muruvvati, nogiron bir yigitning ushalmagan orzusi va inson taqdiri kabi mavzularni yoritib berishga harakat qilgan. Ushbu hikoyada Habib personaji yordamida jamiyatda nogironligi tufayli o‘z o‘rnini topa olmayotgan kishilarning obrazini yaratdi. Ma’suma ona obrazini esa Habibning mehribon, g‘amxo‘r onai zori personaji orqali tasvirlab berishga erishdi. Bu hikoya katta jamiyat ichida kichik insonlar, biroq ezgulikka va baxtli hayot kechirishga umid bog‘lab yashayotgan kishilar haqida desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdamov F. “Dariyzabon, nasrnavis Muhammad Akram Usmon va uning badiiy ijodi” maqola (Kamolat sari). TDShU,2020.

2. R. Imonxo’jayev Afg‘oniston dariyzabon adabiyoti. (XIX asr oxiri – XX asr). T, 2018.

3. Fuod Masiho. Akram Usmon az “Kuchaye mo” raft.

4. نخستین داستان های معاصر دری, پیش گفتار, یادداشت ها, نگاهی به ادنیات معاصر در افغانستان، ص، ۷۸ ـ ۷۶

5. Асоев Худойназар.Формирование жанровой системі прозі Афганистана на язіке дари (К вопросу типологии и национального своеобразия). Душанбе. Изд-во «Дониш», 1988.

6. http://www.kabulnath.de/Schankar%20Dara/Shamalie/Dr.%20Akram%20e%20Osman/Arosie.html

SULAYMON SHOTIYNING ’’DEVORDAGI YOZUV’’ HIKOYASINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Kurbanova Go‘zalaxon
TDSHU 4-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Sh.I. Ahmedova

Quvayt adabiyoti hozirgi arab adabiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Quvayt adabiyoti rivojlanishining xususiyati shundaki, Quvayt yozuvchilari ijodida shu mamlakatda ro‘y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotdagi jarayonlar bilan bir qatorda butun arab dunyosi uchun xos bo‘lgan hodisalar aks ettiriladi. Quvayt adabiyotining tiklanishi arab adabiyoti an’analari va turli yo‘llar bilan arab mamlakatlariga kirib kelgan g‘arb madaniyati ta’siri ostida ro‘y berdi.[1]

Halij davlatlari arab adabiyotida Quvayt davlati yetakchi hisoblanadi. Quvayt zamonaviy adabiyotida yozuvchilar orasida Sulaymon Shotiyning ijodi eng ko‘zga ko‘ringanlaridan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sulaymon Shotiy qalamiga mansub انا ... الاخر*(“Men...boshqa”)* hikoyalar to‘plamida yozuvchi jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalarni bir bilim maskanida mavhumlik bilan boshlangan voqealar timsolida tasvirlaydi. Muallif asarni mavhum shakldagi voqelik asosiga quradi. Inson hayotida yuz beradigan kechinmalar asar syujetini tashkil qiladi. Hikoyada aniq harakatlanuvchi qahramon ham, ularning ismi ham yo‘q. Hikoyada inson tuyg‘ularini nazorat qilib bo‘lmasligi, uning xayolini tobe qilib bo‘lmasligi haqida so‘z boradi.

Hikoya kompozitsion tuzilishiga ko‘ra an’anaviy shakldagi asarlardan farq qiladi. Hikoya maktabga kelgan uch kuzatuvchining, maktabga va o‘qituvchilarga bo‘lgan munosabatidagi salbiy jihatlarning ustunligi, va maktab jamoasining faoliyatidagi bunga nisbatan munosabatini chuqur hissiy jihatlar bilan bayon etadi.

منذ اليوم الأول لهذا الناظر الجديد كان كل شيء واضحا في اقواله وتعليماته وتصرفاته ، تمثل في مشيته ونبرات صوته وجسمه المتخشب وكلماته الحادة التي لا تحتمل التأويل ، فلم تطل فترة التخمينات وتوقفت

[1] Sh. Ahmedova. Arab mamlakatlari adabiyoti. O‘quv qo‘llanma T.2021. –B.40

اجتهادات حناجر كثيرة ، فقد وضحت ملامح الناظر الوافد[1].

Bu yangi kuzatuvchining birinchi kunidanoq uning yurishida, ovozining ohangida, tortinchoq gavdasida va talqin qilib bo‘lmaydigan qo‘pol so‘zlarida ifodalangan so‘zlari, ko‘rsatmalari va harakatlarida hamma narsa aniq edi.

Hikoyada kuzatuvchi so‘zi juda ko‘p marta tilga olinadi. U maktabga kelib talabalarni kuzatishga javobgar shaxs sifatida gavdalanadi. Kuzatuvchi o‘qituvchilarni bir xil o‘ylamog‘i uchun nazoratni kuchaytirish lozim degan fikrda, ammo buning imkoni yo‘q.

O‘qituvchilar sukut saqlashar va bir tarafga qarashar edi, ulardan uchtasi zerikkan holda umumiy so‘zlarni aytishdi, ammo to‘liq norozilik shubhasi sezilishi mumkin edi va kuzatuvchi yig‘ilishni tugatdi. O‘qituvchilar sukut saqlashadi, jimjitlik hukmron, hech kim bu yerda erkin emas, faqat ulardan uchtasi zerikkan. E’tibor bering faqat uchtasi. Ular bu jimjitlikdan norozilar bor ammo ular ham sukut saqlashga majbur, to‘g‘rirog‘i mahkum. Hikoyada kuzatuvchi so‘zi juda ko‘p marta tilga olinadi. U maktabga kelib talabalarni kuzatishga javobgar shaxs sifatida gavdalanadi Diqqat qilinsa, ularning “ko‘zoynaklar”i ham bir xil, ular olamni kuzatuvchining nigohi orqali ko‘radi, o‘zlari erkin fikrlashdan mahrum qilingan. Talabalarni kuzatish uch o‘qituvchiga topshiriladi va ularni “xizmatkor” deb aytish taklif qilinadi. Asarda ratsionalist so‘ziga ham urg‘u beriladi. Ratsionalist bu aniqlikni va mantiqni talab qiluvchi.

Ammo yaratgan tomonidan sharaflangan inson doimo fikrda va xayolda erkindir.

المدرسون صامتون وينظرون جهة واحدة ، ثلاثة منهم تحركوا بملل وتكلموا بكلام عام ، ولكن شبهة عدمالرضى الكامل يمكن تلمسها ، فرفع الناظر الجلسة . وبعد ايام عقد المجلس جلسة اخرى ، كان مكان الثلاثةثلاثة آخرون ، ذوو هيئة واحدة ، والغريب انهم يلبسون ملابس متقاربة ويضعون نظارات تخفى العيون، قريبة الشبه من نظارة الناظر ، اما الفرق فهو أن تلك كانت قائمة لا تبين بينما كانت عينا الناظر تبرقان.[2]

O‘qituvchilar jim bo‘lib, boshqa tomonga qaraydilar, ulardan uchtasi zerikishdan chiqib, umumiy so‘zlarni aytishdi, lekin to‘liq norozilik shubhasi bor edi, shuning uchun nazoratchi darsni to‘xtatdi. Oradan bir necha kun o‘tib kengash yana yig‘ilish o‘tkazdi.Uchovining

---

[1] .1993محفوظة الطبع حقوق . سليمان الشطى انا ٠٠ الاخر، دار النهج الجديد.- Б. 67.

[2] .1993محفوظة الطبع حقوق . سليمان الشطى انا ٠٠ الاخر، دار النهج الجديد.- Б. 68.

o‘rnini yana uchtasi, bir gavdali egalladi, g‘alati tomoni shundaki, ular tor kiyim kiyib, ko‘zlarini berkituvchi ko‘zoynak taqib yurishadi ammo farqi shundaki, ular tik turgan va ko‘rgan odamning ko‘zlari porlaganda paydo bo‘lmagan.

Kuzatuvchining fikriga ko‘ra har bir talabani uyda ham, tashqarida ham, darsda ham kuzatish lozim deyishadi. Insonni har qanday to‘siq fikrlashdan, yozishdan to‘xtatib qola olmasligi nazarda tutilgan. Asarda “erkin nafas” olish muammosi ko‘ndalang qo‘yiladi. Muallif nimani nazarda tutgani ham ma’lum ma’noda “sirli” tarzda talqin qilinganga o‘xshaydi. Adib kuzatuvchi, talablar ustidan nazorat yurituvchi o‘qituvchilar borligiga qaramasdan yana bari bir hammom devorida yozuvlar paydo bo‘layotganiga ishora qiladi. Inson o‘zi istasa umidni so‘ndirmasa bari bir fikr aytish uchun yo‘l topadi. Shuning uchun hikoya so‘ngida hech bo‘lmaganda hammom devoriga yozib qoldirish mumkin degan yozuvlar paydo bo‘ladi. Bu o‘z o‘zidan yuzaga chiqadimi yoki kimdir atayin shuni yozib qoldirganmi bu ham navbatdagi masalalardan biridir.

Bari bir yozuv paydo bo‘lavergach kuzatuvchi “Yoshlik... Yoshlar. Sizlar menga bu narsani ko‘rsatmasligingiz kerak edi, harakat qiling va nazoratni kuchaytiring”[1] deya ta’kidlaydi. Yoshlik, jasorat, yoshlik jur’ati, u har qanday to‘siqni yengib o‘tish mumkin. Bu o‘rinda muallif jamiyat hayotidagi har qanday ma’naviy va siyosiy bosimlar inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish mumkin, ammo uni bir to‘kisda tutib qola olmaydi. Bilasizmi, bir kichik hikoya misolida muallif juda katta ma’nolarga ishora qiladi. Insoniyat tirik mavjudot sifatida har qanday nazorat bo‘lsa-da, uni umid va maqsad yo‘ldan qaytara olmasligini ta’kidlaydi.

Asarda kitobxonning e’tiborini o‘ziga qaratadigan jumlalar bo‘lib, bu jumlalar naqadar to‘g‘ri ekanligini kitobxon anglaydi.

Asar muallifi zulm qancha kuchaysa erkka intilish ham undan kam bo‘lmaydi degan fikrni asar matniga singdirib yuborgan.

Hikoyada sartarosh obrazi ham bor, uning vazifasi odamlarni sochlarini olish, ya’ni uni axborot tizimidan uzish va g‘aflatga chorlashdir. Hammom nima uchun asarga kiritilgan degan savol tug‘ilishi mumkin. Hammom bu insonning poklanadigan joyi sanaladi.

---

[1] سليمان الشطى انا ٠٠ الاخر، دار النهج الجديد. حقوق الطبع محفوظة 1993.- B. 68.

Muallif inson o‘zini o‘zi isloh qilishi, gunohlardan forig‘ bo‘lishi uchun hammomga ehtiyoj sezadi degan qarashlarni ilgari suradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, muallif inson tuyg‘ularini, hislarini o‘lchashning yoki nazoratga olishini imkonsizligi, qanchalik nazorat kuchaymasin umid odamga kuch berib, maqsad tomon yo‘l olishga undaydi degan g‘oya ilgari surilgan. Muallif fikrlarini ifodalashda kutilmagan yo‘lni tanlaydi. Tashqaridan qaraganda bir oz zerikarli, aniq voqealarni emas mavhum inson kechinmalari asosiga qurishni ma’qul biladi. Sulaymon Shotiyning hikoyalari kitobxonni mushohada qilishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. I. Ahmedova. Arab mamlakatlari adabiyoti. O‘quv qo‘llanma T.2021. 188 b.
2. Ahmedova Sh. I. Quvayt hikoyachiligi rivojlanish yo‘lida //Jahon adabiyoti. T., 2009. №1. –B. 105-110.
3. سليمان الشطى انا ٠٠ الاخر، دار النهج الجديد. حقوق الطبع محفوظة 1993. 128 b.
4. D. Quronov. Z. Mamajonov. M. Sheraliyev. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent. Akademnashr 2013. 406 b.
5. www.mgimo.ru

АБУ АБДУЛЛОҲ РУДАКИЙ БОШЧИЛИГИДАГИ БУХОРО АДАБИЙ МУҲИТИ

Жумаева Камола
ТДШУ таянч докторанти
Илмий раҳбар: ф.ф.д., проф. М. Имамназаров

Сомоний ҳукмдорлар Аҳмад ибн Исмоил (907-913) ва ***Наср ибн Аҳмад II*** (913-943) ҳукмдорлик даврларида *Бухоро* давлат маркази, подшоҳликнинг зиёратгоҳи, замонасининг кўзга кўринган одамларнинг турар жойи, бутун ер юзидаги адабиётда юлдузларнинг кўтарилиш жойи ва ўша давр илмий ва бадиий ижоднинг марказига айланди[1]. Бундай қулай вазият *Бухорода янги бир адабий мактабнинг* вужудга келишига турки бўлди. Бу мактабнинг энг машур шоири ***форс-тожик адабиётининг асосчиси ва устоди***[2] деб улуғланган ва Самарқанд шаҳри атроф қишлоқларидан бирида дунёга келган ***- Абу Абдуллоҳ Жаъфар бинни Муҳаммад Рудакий*** (860-941) эди. Рудакий оддий деҳқон оиласида туғилган, у иқтидорли, шеъриятга ошно, мусиқага ихлоси баланд бўлган, шунинг учун ҳам дастабки таълимни ўз қишлоғида олиб, кейинчалик таҳсилни Самарқандга бориб давом эттиради. У ерда билим сатҳини кенгайтириб қисқа муддат ичида машҳур бўлишга муваффақ бўлади. Шоир ҳаётининг дастлабки даври ҳақидаги маълумотлар фақат битта манбада – "*Лубоб ал-албобда*" мавжуд. Муҳаммад Ауфи шоирнинг шеърдаги қобиляти, туғма кўрлиги ва бир қанча далилларни келтириб, шу хабарни етказди: "*Шоир кучли қобилят ва истеъдод эгаси бўлган. Саккиз ёшида Қуръонни тўлиқ ёд олиб, ўқишни ўрганган ва шеърлар ёза бошлаган. Авомга ёзган шеърлари ёққанлиги ёш истеъдод соҳибининг янада кўпроқ ҳаракат қилишига туртки бўлган. Шунингдек, Оллоҳ унга гўзал ва мафтункор овозни ато этган, бу эса шоирнинг мусиқа билан шуғулланишига замин яратган. У барбат чалишни ушбу санъатнинг устаси бўлган Абулабак Вахтиёрдан ўргана бошлаган. Шоир бу мусиқа асбобини чалишда шуҳрат қозонган ва унинг шуҳрати мамлакатнинг барча бурчакларигача етиб борган*[3]". Кейинги барча манбалар моҳиятан Муҳаммад Ауфининг ушбу хабарини

[1] А.М. Мирзоев. Рудаки. – М., 1968. С. 29.
[2] http://www.ziyo.com/index.php?option=com_content&task=2816&Itemid=375
[3] А.М.Мирзоев. Рудаки. – М., 1968. С. 88.

қайтаришади. Баъзи муаллифлар кичик тавсилотлар қўшса ҳам асос ўзгармайди. XV асрдан кейинги манбалар шоир ҳаётининг дастлабки даври ҳақида Муҳаммад Ауфи хабарларига ҳеч нарса қўшолмайди[1]. Ауфининг маълумотлари жуда қисқа бўлса-да, бизга ўша давр адабий муҳити ҳақида анчагина қимматли маълумотлар беради. Бухоро ҳукмдори ***Наср II ибн Аҳмад Сомоний*** даврида ***Рудакийнинг*** шуҳрати нафақат *Бухорода* балки, *бутун шарқ оламида* ёйилган эди. Аммо шоир Наср ибн Аҳмад саройига қачон таклиф қилинганлиги номаълум. Маълумки, у Абулфазл Баъламнинг таклифига биноан пойтахт Бухорога келган ва шаҳар адабий муҳити билан яқин алоқада бўлган. Манбаларда Рудакийнинг қандай қилиб ажойиб тарзда бойиб кетганлиги ҳақидаги ҳикоялар узоқ ва батавсил баён этилган. Масалан, Ауфи бу ҳақида шундай дейди: "***шоирнинг икки юз қули ва тўрт юз туяси бўлган. Рудакийдан кейин бирон бир шоирда бундай куч ва бахт бўлмаган***. Абдураҳмон Жомий "Баҳористон"ида Ауфининг бу маълумотларини такрорлайди[2]". ***Абулфазл Балъамнинг*** айтишича, "*Рудакий шоирлик борасида нафақат замондошлари, балки араб, форс шоирлари орасида тенги йўқ эди*[3]". Манбаларда шоирнинг шеърияти юз минг байтдан ошиғроқ эканлиги қайд этилган. У ғазал, рубоий, қасида, мадҳия, марсия, панду ҳикмат, ҳасби-ҳол, ҳажв ва чистон жанрларида ижод этган. "Синбаднома", "Қариликдан шикоят" асарлари, "Калила ва Димна", "Давроне фалак" каби бир неча маснавийларидан парчалар этиб келган. Шоирнинг қандай қилиб Наср ибн Аҳмад саройида шарафга етишгани барчамизга маълум. Бу ўша машҳур "***Бўйи жўйи Мўлиён келгай ҳаме***" мисралари билан бошланувчи шеъри сабабдир.

Рудакий деярли ярим аср саройда яшаб ижод этган. Шоирнинг *"Қарилик қасидаси", "Майнинг онаси"* қасидалари жуда машҳур ва улар бизнинг давримизгача тўлиқ ҳолда етиб келган. Шоир қаламидан тушиб қолган мавзулар кам. Аммо шуни таъкидлаб ўтиш керакки ижодининг аксарият қисми X аср *ижтимоий ҳаётини* ўзида мужассамлаштирган. А. Мирзоев айтадики "***Рудакий атрофида юз бераётган адолатсизликка қарши овозини кўтарганининг ўзи катта ютуқ эди***[4]".

---

[1] Ўша асар. С. 89.
[2] Ўша асар. С. 97.
[3] https://arboblar.uz/uz/people/abu-abdullo-rudaki
[4] А.М.Мирзоев. Рудаки. – М., 1968. 316. с.

Шоир шеърларида адолат ва ҳақиқий ер йигитнинг қандай бўлиши кераклилигини баён қилади:

Гар нафсинга ҳукм ўтказолсанг, мардсан,
Кўру карига мадад беролсанг, мардсан.
Мардлик эмас йиқилса гар тепиб ўтиш,
Гар илки ожизини тутолсанг мардсан[1].

Шунингдек, инсонлар орасидаги муносабат, дўстлик, душмандларга ҳам дўстона муносабатда бўлиш, очкўзлик худбинликдан тийилишга чорлайди. Қуйидаги байтларга қаранг: Шоир унда одамлар ўртасидаги дўстликни жуда қадрлайди. Дўстлар билан мулоқотни ҳаётнинг энг яхши неъмати деб билади:

Дўстларла кўришмоқдан яхшироқ,
Дунёда ҳеч хушбахтлик йўқ.
Фазилатли дўстларла кўришмоқдан,
Ғамгусор қалбларда ҳеч ғам йўқ[2].

Рудакий ўз даврида машҳур бўлган барча мавзуларда қалам тебратган. Аммо унинг (*Эй ой юзли! Сен Рудакийни ҳозир кўряпсан, У умуман бошқача бўлган пайтда кўрмагансан* [3] *)* байтлари билан бошланувчи "***Қарилик қасидаси***" ёшлигида ёзган шеърларидан мутлоқ ўзгача. Унда шоир *ёшлик, навқиронлик чоғларини* қумсайди. Байтлар мазмунидан *ҳозирги ҳаётидан норозилик, навқиронлик давринг хумори тутаётганлигининг ифори* уфуриб туради. Бу руҳ, бу кайфият қасиданинг охиригача давом этади. Гап шундаки шоир деярли ярим аср саройда яшаб ижод этган, аммо умрининг охирида, қариган чоғида у бор-ёғидан айрилган. Бизнингча, шоир "*Қарилик қасида*"си билан айтмоқчики *кўзингни шамғалаб турган бу дунё ва унинг ашёлари алдамчидир унга алданиб қолма*" – демоқчи бўлган.

Бухоро адабий мактабида Рудакийдан ташқари кўплаб шоирлар ижод этган. Улардан бири Х асрнинг биринчи ярмида яшаб ижод этган **Абулҳасан Шоҳид ибн Ҳусайн Жахуданаки Балхи.** У бу адабий мактабининг таниқли олим ва шоирларидан бири бўлган. Шаҳид икки тилда – араб ва форс-дарий тилларида шеърлар ёзган. Ижодидан намуналар турли тарихий – адабий манбаларда бизгача етиб келган. У шеъриятда Рудакийнинг шогирди ва издоши бўлган. Рудакийнинг ўзи шеърларида шогирди ва дўстини мақтаган:

---

[1] О. Бўриев. Эрону Турон назмул-жавоҳири. – Т., 2018. Б. 8.
[2] Ўша асар. Б.186.
[3] А.М.Мирзоев. Рудаки. – М., 1968. С. 98.

Шоир Шаҳид ва машҳур Фаралави
Ва қолганлар шунчаки ровий[1]

Шоҳид нафақат шоир, балки таниқли файласуф сифатида ҳам машҳур бўлган. *"**Фихристу**"га биноан Шоҳид ўша даврнинг буюк файласуфи Муҳаммад ибн Закария ўртасида фалсафа бўйича катта мунозаралар бўлган. Улар фалсафий ва мантиқий далиллар билан бир-бирини рад этиб, рисолалар ёзаган*[2]*".* А.Мирзоев айтадики шоир ўзининг гўзал ғазаллари ва чиройли қўлёзмалари билан машҳур бўлган. У Рудакийдан тўрт йил олдин вафот этган. Унинг ўлими Рудакийни чуқур қайғуга чўмишига сабаб бўлган. Шоир унинг шаънига қайғули шеър ёзди:

Шоҳид карвони биздан ўзлаб кетди
Кўзла кўрса бир тан кам
Ақлла санаса минглар кетди[3]

Абулҳусайн Муҳаммад ибн Муҳаммад Муродий Бухорий – Сомонийлар даврининг таниқли шоирларидан бири. У икки тилда форс-дарий ва араб тилларида шеърлар ёзган. Саолибий уни X аср арабийзабон шоирлари орасида санаб ўтган ва шоир таржимаи ҳолига тўхталиб ўтган[4].

Муродий нафақат Рудакийнинг замондоши, балки унинг яқин дўсти ҳам бўлган. Рудакийнинг бир шеъридан унинг ўзидан олдин вафот этганлигини билиш мумкин:

Муродий ўлди, қийин ишониш
Бундай хожанинг ўлими эмас кичик иш[5]

Абу Шукур Балхи – X асрнинг ахлоқий-фалсафий шеъриятида Рудакийдан кейин биринчи ўринда туради. Ҳеч бир манбада шоирнинг тўлиқ исми ва ҳаёти ҳақида маълумот сақланиб қолмаган. А.Мирзоев айтадики: "*У Балхдан келиб, Бухорода жойлашиб Сомонийлар пойтахтининг адабий доирасига кириб, у ерда ижодий фаолиятини давом эттирган деб тахмин қилиш мумкин*[6]". Шоирнинг

---

[1] Шеър Жумаева Камола томонидан форс тилидан ўзбек тилига ўгирилди. Ўша китоб. С. 52.
[2] Ўша китоб. С. 52.
[3] Шеър Жумаева Камола томонидан форс тилидан ўзбек тилига ўгирилди. Ўша китоб. С. 53.
[4] Ўша китоб. С. 53.
[5] Шеър Жумаева Камола томонидан форс тилидан ўзбек тилига ўгирилди. Ўша китоб. С. 53.
[6] Ўша китоб. С. 54.

асосий асари “*Офаринномa*” маснавийсидир. У Рудакийнинг “*Калила ва Димна*”сидан кейин форс-тожик адабиётининг асосий дидактик шеълардан бири бўлган.

Робия бинту каб Каздори Балхи – X асрнинг ягона муҳим шоираси. У билими, феъл атвори ва гўзаллиги билан машҳур бўлган. Шоиранинг отаси араб бўлсада, у Балхда туғилган ва шу ерда вояга етган. Бизгача шоира ҳақида жуда кам маълумот етиб келган. Шундай бўлсада, манбаларда номи келиши ва ижодидан намуналар берилишидан X асрларда аёллари фақат рўзғор юмушлари билан банд бўлмай, ижод қилиш, ўз қобилятларини кўрсатишга шароит бўлганлиги ҳақидаги умумий ҳолатни кўз олдимизда гавдалантиради.

Абулмуайяд Балхи – шеърият ва наср устаси. X асрнинг ушбу таниқли адабиётшуносининг ҳаёти ва ижоди ҳақида тарихий ва адабий манбаларда ишончли маълумотлар деярли йўқ. А. Мирзоев айтадики: “*Бу шоир ҳақида биринчи эслатма “**Тарихи Балам**”нинг муқаддимасида келтирилган, ундан юқори эҳтимоллик билан унинг ҳаёти X асрнинг биринчи ярмида ўтган деган хулосага келишимиз мумкин. Эҳтимол, у ёшлигида Рудакий билан учрашган. У “**Юсуф ва Зулайхо**”нинг романтик ҳикоясини назмда тақдим этган биринчи шоир*[1]”.

Абу Мансур Муҳаммад ибн Аҳмад Дақиқи – Эроннинг қаҳрамонлик эртаклари ва тарихий афсоналарини такомиллашишида муҳим рол ўйнаган шоирлардан бири. Шоир истеъдодли ва шеъриятда қобиляти бўлганлиги учун ҳам ёшлигидан машҳур бўлган. X аср шеъриятининг бу таниқли вакилига Нух ибн Мансур даврида “Шоҳномани назмда ёзиш буюрилган. Маълумки, Дақиқи зиёфатда ўлдирилган ва бу шарафли вазифа Фирдавсий зиммасига юкланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. А.М. Мирзоев. Рудаки. – М., 1968.
2. О. Бўриев. Эрону Турон назмул-жавоҳири. – Т., 2018.
3. https://arboblar.uz/uz/people/abu-abdullo-rudaki
4. http://www.ziyo.com/index.php?option=com_content&task=2816&Itemid=375

[1]Ўша китоб. С. 54.

ARAB MAQOLLARINING TARIXI, ILMIY O‘RGANILISHI

Diniqulov Abror Gulboy o‘g‘li
TDSHU 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: y.f.n., dots. Begmatova Buzahro

Maqol lingvistik va tarkibiy mohiyati, nihoyatda qisqa va chuqur mazmuni tufayli global adabiyotlarda noyob va aniq hodisadir. Bunga qo‘shimcha ravishda bu turli sohalarda ramz yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat bilan ifodalangan eksperimentning xulosasidir, kundalik hayotdagi turli xil o‘rinlarga bevosita qaratilgan. Amaliyot, taqlidlar, odatlar va hodisalar asnosida maqollarning holatlari tuzatiladi. Maqol butun ko‘rinishi bilan xalq donishmandligini ifodalaydi va ularning tajribalari xulosasidir, ularni qurshab turgan atrof haqidagi qarashlaridir, o‘zligi va ichki sirlaridir. Bir adib maqollar mohiyati xususida shunday degan: “Maqollar ko‘zlar va quloqlar ilojsiz qolganda, ko‘rib anglagan qalblarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘llash uchun bo‘lgan hikmat namunalaridir. Ularga “qalblar ko‘zgusi” deb nisbat beriladi”. Ko‘pchilik maqol va matal tushunchalarini bitta deb o‘ylaydi. Ular bir-birining uzviy davomi bo‘lishiga qaramay farqli jihatlari mavjud. Professor Sh.Shomusarov o‘zining “Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili” kitobida Permyakov G.Lning bu xususida bergan ta’rifini keltiradi. Maqol janrining zohiriy belgisi shundaki, odatda maqol sifatida ommalashgan hikmat grammatik jihatdan tugal gap holida shakllangan quyma so‘z birikmasi (klishe) dan iborat bo‘ladi. Matal esa tugal gap sifatida shakllanib ulgurmagan turg‘un birikmadir[1].

Arab adabiyotida ham lug‘atshunos olimlarning ko‘plari maqollarni to‘plashga qiziqish bildirgan va uning mazmunini anglagandan keyin asrlar davomida katta miqdorda maqollarni to‘play oldilar. Ibn Abdurobbah maqolga shunday ta’rif bergan edi: “Biz Allohning yordami va tavfiqi bilan gapni bezaydigan va so‘zlarning javhari, saralangan ma’nolar shodastasi va har bir joy, har bir tilda uchratishimiz mumkin bo‘lgan maqollardan foydalanamiz. U she’rga qaraganda bardavom, xitobga qaraganda mashhurroq, uning o‘rnini hech narsa bosolmaydi”. Maqollarga bag‘ishlangan maxsus kitoblar

[1] Г.Л Пермяков. От поговорки до сказки. М. Наука. 1971 С-9

nomlarini hijratning uchinchi asridan boshlab ko‘rishimiz mumkin va ularning ko‘pchiligi: “أمثال العرب”, “مجمع الأمثال”, “جامع الأمثال” deya qisqacha nomlangan.

Hijratning dastlabki 5 asrida maqollar 3 bosqichda o‘rganilgan:

- To‘plash va qayd qilish;
- Mavzular bo‘yicha tasnif qilish;
- Alifbo tartibida lug‘at shaklida tasnif qilish.

Manbasi va katalogi bo‘yicha tartiblangan kitoblarning dastlabkilaridan biri bu Obid ibn Sharyaning “Arab maqollari” kitobi, Mufzal az-Zobbiyning“Baxtli” va “Eng baxtli” singari so‘zlariga bag‘ishlangan maqollar keltirilgan tafsiliy “Arab maqollari” kitobi, Murij ibn Amr as-Sadusiyning “Maqollar kitobi” asarlari edi.

Maqollarning hayotning turli jabhalaridagi yorqin mohiyatiga ko‘ra uning nozik uslubi ustida hijriy ikkinchi asrning oxirlari va uchinchi asrning boshlariga kelib mavzu bo‘yicha tasniflash va uni tarix, fiqh, nahv, lug‘atlar, tibbiyot, falsafa, jug‘rofiya, dehqonchilik va hikoyachilik kitoblaridan alohida olish sodir bo‘ldi. Bu olamshumul qiymatga, matonatga va salobatga ega ishni birinchi Abu Obid al-Qosim bin Salom (224 h) "الكتاب الأمثال"ida boshlab berdi va u o‘z asrining yirik tilchi va hadischi olimlaridan edi.

Shubhasiz Farohidiyning “كتاب العين” kitobi dunyo yuzini ko‘rganidan so‘ng arabcha lug‘atlar tuzishda arab maqollarini to‘plash katta ahamiyatga ega bo‘ldi va tilchi ulamolar uni tasniflashga e’tiborni qaratishdi. Bu ishni Hamza ibn al-Hasan al-Isfahoniy amalga oshirdi va bir kitob tuzib uni “أفضل من الأمثال العامية” deb nomladi. Arab maqollariga oid kitoblarning alifbo bo‘yicha tasniflanishi ulardan foydalanish, maqollarni tezroq topish imkonini yaratib berdi. Uning izidan keyin Abu Halol al-Askariy ham bir kitob ta’lif qildi va uni “ جمهرة الأمثال و جر الله الزمخشري” (518) deb nomladi. Olim o‘z asarida arab maqollarini chuqur o‘rgangan. Abu Fazl Ahmad bin Muhammad al-Maydoniy "مجمع الأمثال"ida bunday tasniflanishni o‘z navbatida muhim jihat sifatida ta’kidlagan. Maqollarni alifbo bo‘yicha joylashtirishni ixtiyor qilishini “maqolni izlashdagi ehtiyoj yo‘llarini osonlashtirish uchundir, ayniqsa biz katta maqollar to‘plami ichida bo‘lsak” deb izohlaydi. Sinchikovlik bilan maqollarni to‘plashganda tilchi olimlar maqollarni tartiblashtirish uchun alifbo tartibida joylashtirishni o‘zlari ko‘zlagan maqsad deb topishdi.

Kitoblarning ba’zilarida faqat maqollarning o‘zi berib o‘tilgan bo‘lsa, ba’zilarida uning sharhi ham berilgan. Yana boshqa bir kitoblarda esa bu maqollarga chambarchas bog‘liq bo‘lgan biror hodisalar ham bayon qilib berilgan. Masalan Al-Maydoniyning “ مجمع الأمثال” kitobida berilgan maqollarning asosiy qismi qiziqarli izohlar bilan to‘ldirilgan. Al-Maydoniy u yoki bu maqolning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan voqea-hodisalar haqidagi rivoyat va hikoyatlarni ham ilova qilgan[1]. Bu esa o‘sha maqolni tushunishda bizga yaqindan yordam beradi.

Solih Ziyodning (“Xalq maqollari ensiklopediyasi”) "موسوعة الأمثال الشعبية" kitobida ham do‘stlik mavzusida ko‘plab arab xalq maqollariga duch kelishimiz mumkin. Masalan: الصاحب ما بينشيرى بفلوس maqolini uchratamiz. Bu kitob ham maqollar mavzusiga bag‘ishlangani uchun har bir maqolning sharhi maqol ostidan berib ketilgan. Ayni o‘sha kitobning o‘zida bu maqol sharhi quyidagicha keltirib o‘tilgan. “Haqiqiy do‘st narxlanmaydi. Uning do‘stligi qadrli boylikdir. Shuning uchun uni himoya qilish, do‘stligini saqlash shart. Hech qachon uning do‘stligiga beparvolik bilan qaramaslik kerak. Shu bilan birga do‘stlik aloqalarida o‘z manfaatlarini o‘tkazmaslik kerak[2]”.

Payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vassalamning ba’zi hadislari keyinchalik xalq og‘zaki ijodiga ko‘chib maqol tarzida shakllanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Masalan الصديق الحقيقي هو الذي يتمنى لك ما يتمنى لنفسه (Haqiqiy do‘st o‘ziga ravo ko‘rganni senga ham ravo ko‘radi) maqoli “Kishi o‘zi yaxshi ko‘rgan narsani birovga ulasha olmaguncha haqiqiy mo‘min bo‘lmaydi” hadisi bilan bir ma’noda ekanligi shunga ishora qiladi.[3]

Yevropada arab maqollariga bo‘lgan qiziqish XVI asr oxirlarida boshlandi. 1591-yilda Joannes Drusius o‘zining “Arabiy maqollar to‘plami”[4]ni nashr qildi. Undan so‘ng Tomas Erpenius, J. Hambraeus, Andreas Sennert, T. Agnellini, A. Galland, G. Freytag, S. Storey[5]lar arab maqollarini yevropa tillariga tarjima qilishgan.

---

[1] Sh. Shomusarov. Arab va o’zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. T. Fan. 2002. B-26

[2] صالح زيادنة "موسوعة الأمثال الشعبية“ فلسطين. 1994. ص: 273

[3] Sh. Shomusarov. Arab va o’zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. T. Fan. 2002. B-26

[4] Birinchi nashr bizgacha yetib kelmagan. Ikkinchi nashr 1612-yil.

[5] Rudolf Zalhaim. Al-amsal al arabiyya al-qodima: ma’a i’tina xoss bi kitab al-amsal li Abi Ubayd. – Bayrut, Lubnan, 1971. S. 13-20.

XX asrga kelib sharqshunoslar arab maqollarini Yevropa tilshunosligi qoidalari asosida o‘rgana boshladi. Arab tilshunoslaridan M.Tavfiq[1], A.Ismoil[2], nemis tilshunoslaridan R.Zelxaym[3], turk arabshunolaridan M.Javdat[4], A.Bulut[5] lar o‘zlarining ilmiy tadqiqot va izlanishlarida arab maqollari, maqolchilik an’anasining rivojlanish bosqichlari, ularning etimologiyasi hamda semantik xususiyatlarini yoritib berganlar.

O‘zbeklar orasida ham arab xalqi bilan ruhan va ma’nan bog‘langan mutaxassislar ko‘plab topiladi. Ayniqsa yurtimizdan yetishib chiqqan Az-Zamaxshariy bobomizning qilgan ishlari alohida tahsinga sazovordir. Bu kishining asarlari o‘rta asr arab folklorini o‘rganishdagi eng ishonchli manba deb hisoblanadi. Bundan tashqari yana bir qancha olimlar tomonidan bu yo‘nalishda samarali ishlar qilingan. Ular ham arab maqollariga befarq emasliklarini arab xalq maqollarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bilan ko‘rsatib o‘tgan. Ular o‘zlarining mashaqqatli mehnatlari bilan arab maqollarini o‘zbek o‘quvchilari davrasiga olib kira oldi. Arab folklor ijodini tadqiq qilgan professor Sh.Shomusarov arab maqollarini ham chuqur o‘rgangan. O‘zbek arabshunoslaridan Abdulla Ibrohimov bir qancha arab maqollarini o‘zbek tiliga tarjima qilib o‘zbek kitobxonlari davrasiga ularni olib kirishda o‘z hissasini qo‘shgan. Abdulla Ibrohimov tarjimalariga oid bo‘lgan bir qancha maqollarni keltirib o‘tamiz.

“Kishining iymoni uning va’dasidan o‘rganiladi”

“Insonning dushmani uning ahmoqligi, odamning do‘sti uning aqli”

“Aqlli odamning dushmanligi ahmoqning do‘stligidan yaxshiroqdir”

“Sababsiz hech qanday dushmanlik bo‘lmaydi”

“Yo‘lga chiqishdan oldin hamrohingizni tanlang”

“Kiyim uchun ipakni, do‘stlik uchun shahzodani tanlang”

“Do‘stingiz, ayiqqa o‘xshasa ham, siz sevgan do‘stingiz”

---

[1] Muhammad Tavfiq. Al-amsal al-arabiyya va al-asr al-jahiliy. -Bayrut, 1988. S. 367

[2] Alo‘ Ismoil Hamzaviy. Muqorana dalaliyya bayna al-amsal al-arabiyya va al-amsal al-ammiyya; nafs al-muallif. Al-bunyu al-tarkibiyya lil-amsal al-amiyya.

[3] Rudolf Zalhaim. Al-amsal al arabiyya al-qodima: ma’a i’tina xoss bi kitab al-amsal li Abi Ubayd. – Bayrut, Lubnan, 1971. S. 272

[4] Muhammed Cevdet Ismail. Turk-Arap Darbimeselleri Uzerine Mukayeseli bir Arastirma. – Ankara Univer, 1976. – 191 s.

[5] Ahmet Bulut. Arap Dili ve Edebiyatinda Emsal. – Istanbul Univer, 1984. – 115+271 s.

O‘zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Qahhor tomonidan arab xalq og‘zaki ijodining eng sara namunalari “Bir soatlik xalifa” (“Ming bir kecha”), “Alibobo va qirq qaroqchi va kaniza Marjona haqida mufassal hikoyat” ertaklari o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girildi. Bu asarlardagi badiiy asar qimmatini oshiruvchi xalqona o‘tkir iboralar, maqol va matallar Abdulla Qahhor tarjimasi vositasida yuksak estetik qimmatga ega manbaga aylandi. Chunonchi, amalga oshirilgan bevosita tarjimada so‘zlarning mos ekvivalentini berishda asliyatdagi uslubni qayta yaratish, milliy o‘ziga xoslikni tarjimada namoyon qilishdagi muvaffaqiyatni ta’minlaydi[1]. Xalqimiz orasida arab xalq ijodiga oid asarlarning keng tarqalgani uchun arab maqollaridan ko‘plari tilimiz ichiga singib ketgan.

Xulosa o‘rnida ayta olamizki, qadimgi tilshunos olimlar maqollarni to‘plashga alohida e’tiborini qaratishgan, adabiyot va tilshunoslikka oid kitoblarda ko‘plab maqollarni topish mumkin. Grammatikchi olimlar va hikoyanavislar o‘zlarining leksik qarashlarini asoslashda maqollarga murojaat qilishgan. Bundan maqsad tilning grammatik shaklini va e’roblarni to‘g‘ri qo‘yish zarurati bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida qadimgi davr maqollarini to‘g‘ri naql qilishni talab qilardi. Shubhasiz, hikoyachilar xalq orasida keng tarqalgan maqollarga e’tibor qaratishmagan, chunki leksik tuzilishlar va tilning mahalliy ko‘rinishlari maqol me’yorlarini cheklagan edi. Ular maqollarni odatiy so‘zlashuvda va kundalik so‘zlashuvdagi arablardan yozib olishmagan, maqollarning yozib olinishi ishonchli bo‘lgan qadimgi arab she’rlari matnlari vositasida amalga oshirilgan. Bu jarayonda ko‘plab maqollar to‘plangan va ularning adabiy-leksik tarkibi saqlanib qolingan va bu narsani qadimgi ko‘plab asarlarda uchratamiz.

O‘zbek sharqshunos olimlari ham arab maqollarini o‘rganish borasida oxirgi paytlarda salmoqli ishlarni amalga oshirilayotgani tahsinga sazovor ish hisoblanadi. Shunchaki tarjima qilishmasdan, maqollarning aslini, paydo bo‘lish sababini tadqiq qilishayotgani bor gap. Bu manbalar bo‘lajak tadqiqotchilar uchun muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi aniq.

[1] “Xalq maqollarining tarjima asarlarda ishlatilishi” https://kukaldosh.uz/21/11/2018/2397

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Shomusarov. Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. T. Fan. 2002.

2. “Xalq maqollarining tarjima asarlarda ishlatilishi” https://kukaldosh.uz/21/11/2018/2397

3. Г.Л Пермяков. От поговорки до сказки. М. Наука. 1971 С-9

4. صالح زيادنة "موسوعة الأمثال الشعبية“ 273

5. Rudolf Zalhaim. Al-amsal al arabiyya al-qodima: ma’a i’tina xoss bi kitab al-amsal li Abi Ubayd. – Bayrut, Lubnan, 1971.

6. Muhammad Tavfiq. Al-amsal al-arabiyya va al-asr al-jahiliy. - Bayrut, 1988.

7. Alo‘ Ismoil Hamzaviy. Muqorana dalaliyya bayna al-amsal al-arabiyya va al-amsal al-ammiyya; nafs al-muallif. Al-bunyu al-tarkibiyya lil-amsal al-amiyya.

8. Rudolf Zalhaim. Al-amsal al arabiyya al-qodima: ma’a i’tina xoss bi kitab al-amsal li Abi Ubayd. – Bayrut, Lubnan, 1971.

9. Muhammed Cevdet Ismail. Turk-Arap Darbimeselleri Uzerine Mukayeseli bir Arastirma. – Ankara Univer, 1976.

10. Ahmet Bulut. Arap Dili ve Edebiyatinda Emsal. – Istanbul Univer, 1984.

XOLID HUSAYNING “MING QUYOSH SHU’LASI” ASARIDA”OILA” KONSEPTI

Mahmudova Rohila Anvarjon qizi
TDSHU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD X.A. Uktamova

Oila azal-azaldan insonning his tuyg‘ulari, aql-idroki, ma’naviyati, qisqa qilib aytganda, butun borlig‘i kamol topadigan tarbiya maskani bo‘lib kelgan. Ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan oila mas’uliyati dunyoning boshqa tomonlariga nisbatan Sharqda chuqur anglanib, oilaga muqaddas tushuncha sifatida qaraladi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu boradagi fikrlarimizni rivojlantirgan holda oilaga quyidagicha ta’rif berganlar: “Har bir inson hayotida eng muhimi, bu – oila. Xalqimiz qadimdan oilani muqaddas bilib, uni doimo asrab-avaylab keladi. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo‘ladi. Oila muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi. Bir narsani unutmasligimiz lozim: xonadonlarimizdagi tinchlik-totuvlik, avvalo, oiladagi sog‘lom muhit, farzandlarimizni katta hayotga tayyorlash bilan bevosita bog‘liq”.[1] Ushbu fikrlarni inobatga olgan holda oilani o‘z konseptlari bilan qabul qilishimiz va unga amal qilishimiz lozim. “Konsept” termini lotincha *conceptus* “tushuncha” ma’nosini ifodalaydi. Konsept termini matematik mantiq termini bo‘lib, Kopengagen tilshunoslik maktabi namoyandalari tomonidan tilshunoslik faniga tatbiq qilingan.[2] “Konsept” tushunchasi bugungi kunda ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lmoqda.

1. “Janob Prezident” nomli hujjatli film intervyusidan. 2018-yil 24-iyul

2.Toshkent“Markaziy Osiyoda lug‘atchilik: an’analar va hozirgi zamon ilmiy maktablari” Ahmadjon Quronbekov so‘zlari. Toshkent davlat sharqshunoslik institute 2013

Dunyodagi bir qator atoqli olimlar ushbu atamaga turlicha ta’rif berishgan. N.D Aryutunov talqinicha, *konsept – filosofiyadagi amaliy tushuncha bo‘lib, milliy an’ana hayotiy tajriba, din, idealogiya, folklor, san’at obrazlari, kabi ko‘plab faktorlar va fikrlash jarayoni o‘rtasidagi*

munosabatlarni aks ettiradi. Konsept "inson va dunyo o'rtasidagi bog'liqlik o'rnatadigan madaniy qatlamni" o'zida namoyon qiladi. D.S. Lixachev o'zining "Концептос- фера русского языка" kitobida konsept so'zning lug'at ma'nosi bilan insonning o'z milliy qarashlari bilan to'qnashuvlari mahsuli, deb ta'riflaydi. Bu madaniy tushuncha va tasavvurlarning verballashgan fikrini ham anglatadi. Konsept milliy til va milliy tafakkurga tegishli elementdir. Yu.S. Stepanovaning fikricha, *konsept – bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi*. Konsept haqidagi qarashlarni har kim o'z dunyo qarashidan kelib chiqqan holda tushunishi va uni bayon etishi mumkin. Yu.S. Stepanovaning fikriga tayanilsa, "oila konsepti ma'lum bir xalqning asrlar mobaynida oila haqidagi to'planib kelingan bilim, sharoit, malakalarini o'z ichiga oladi."Konsept – inson ongidagi madaniy qatlamning yig'indisi. "Oila" konsepti har bir xalqda turlicha tushuniladi va bir-biridan farq qiladi. Sharq xalqlaridan biri hisoblangan Afg'oniston oilalari boshqa xalqlardan ajralib turadi. Afg'onistondagi oila madaniyati haqida biz nafaqat hayotda ko'rib bilishimiz, qolaversa, afg'on adiblarining real voqealar asosida yozilgan asarlari orqali ham ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida, hammaga ma'lum Amerikada yashab, ijod qiluvchi, asli afg'on bo'lgan adib Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" (A thousand splendid suns) asarini olish mumkin. "Oila" konsepti bu asarda adib zamonidagi oila tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan madaniy va ma'naviy tushunchalarni yaratib bera olgan. Ushbu asar XXI asrda yozilgan bo'lishiga qaramay, adib unda XX asrdagi afg'on oilalarining haqqoniy hayotini tasvirlay olgan. Bu asarni o'qigan kitobxon eng avvalo, tinch yurtda yashayotgani eng oliy baxt ekanligiga va oilaviy sharoiti hamda madaniyati bebaho ne'mat ekanligini anglab yetadi. Bu gaplarni bejizga keltirmadik, "afg'on oilasi" deganimizda ko'pchilikning hayolida urush ichida, halovati yo'qolgan oila hayoti shakllanadi. Har bir insonning baxt to'kisligi oilasidagi tinchlik va ishonchga bog'liqdir. Xonadonida osoyishtalik hukm surgan insonning boshqa ishlarida ham halovat va barakat bo'ladi, erkak va ayolning o'z burch va vazifalari mavjuddir. Ammo afg'on oilalarida ushbu tushunchalarni kamdan kam hollarda uchratishimiz tabiiy. Sababi yurtdagi notinchliklar oilalarni to'la-to'kis rivojlanishiga yo'l ochib bera olmaydi. Yurt parokanda bo'layotgan

joyda oilaning gullab yashnab ketishi qiyin vaziyat hisoblanadi. Buning uchun bir necha kishilar emas, aksincha butun jamiyat kurashishi lozimdir. Mustahkam oiladan ilmli, kuchli va ma'naviy salohiyati yuksak bo'lgan farzandlar tarbiya topadi.

"Ming quyosh shu'lasi" asarini "Yorug'likka undovchi asar" deb ham yuritishadi. Ushbu asar Xolid Husaynining ikkinchi kitobi bo'lib, 2007-yilda roman butun dunyoda bestsellerga aylandi. Ramon qahramonlari Afg'onistondagi tinch hayotni buzgan g'alayonlarning qurboniga aylangan ikki ayol va ularning oilasi tasvirlangan. Maryam – boy tadbirkorning noqonuniy qizi, esini taniboq qiyinchiliklar, nohaqliklarga ko'nikib taqdiri shu tarzda tugashiga ko'nikib ketgan ayol. Laylo esa Maryamdan farqli o'laroq baxtli hayot haqida orzu qiladigan ahil oilaning sevimli qizi bo'ladi. Bu ikki ayolning qirg'inbarot urushi ichida oila ularning taqdirini birlashtirgan edi. Urush oqibatida nafaqat yo'llari, balki taqdirlari ham, tutash bo'lgan ayollar har doim hamjihatlikdan ish ko'ruvchi, obrazlardan tasvirlangan. Iqtidorli yosh yozuvchi va tarjimon Rustam Jabbarov mahurat bilan o'zbek tiliga o'girgan. Bu roman hayot haqiqatining qog'ozda aks etgan tasviridir.

Xulosa o'rinida aytishmiz lozimki, afg'on oilasida chinakam tinch oilani yaratish uchun insonlarning fikrlash dunyosini o'zgartirishimiz, oiladek muqaddas ne'matni qadriga yetishi va farzandlarning baxtli kelajagi uchun birgalikda harakat qilishlari kerakligini tushuntirishimiz va ularga ko'mak berishimiz lozimdir.

AQSH VA G‘ARB DETEKTIV ADABIYOTI TARIXIDA “OLTIN DAVR”

Abdulazizova Mahbuba Umidjon qizi
TDSHU 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD N.A. Rasuleva

Realizm va gotika janrlari uyg’unligi mevasi hisoblangan detektiv janri o’n to’qqizinchi asr o’rtalaridagina paydo bo’lganiga qaramasdan, tez mashhurlikka erishdi va o’sha vaqtdan buyon o’z pozitsiyasidan voz kechmadi.

Birinchi va ikkinchi jahon urushi oralig‘idagi davr g‘arb detektiv adabiyoti uchun “oltin davr” bo‘lib xizmat qildi. Buyuk Britaniya va AQSHning o‘zidagina minglab detektiv romanlar yaratildi. Endi detektiv asarlarni o‘qish bekorchi odamlar uchun vaqt o‘tkazish vositasi emas edi, balki quyi sinf vakillari ham bu borada musobaqalashadigan bo‘lishdi. [1]Bu paytga kelib asarlardagi romantik atmosfera asta-sekin yo‘qoldi va turli xil jinoyat, qotilliklar har bir romanning ajralmas faktoriga aylanib bordi. Lekin ushbu qotilliklar faqatgina belgi edi. Odamlarni yaxshilik va yomonlik, hamda bular o‘rtasidagi kurash emas, sirlarni qanday hal qilish qiziqtirar edi. “Oltin davr”da ijod qilgan ko‘plab yozuvchilar o‘z iste’dodlarini kitobxonlar ko‘nglini olish, yoxud o‘quvchilar va yozuvchilar orasidagi viktorina uchun sarflardilar. Yozuvchi va o‘quvchilarda sirni ochish uchun bir xil imkoniyat bo‘lgani sabab, bu turdagi romanlar viktorinaning bir ko‘rinishi hisoblanar edi. Bu davrda yaratilgan ijodiy ishlar asosan, sotsial muammolarni tatbiq etmaydigan va ijtimoiy hayot jarayonlarini targ‘ib etmaydigan, shunchaki vaqtni qiziqarli o‘tkazish uchun foydalaniladigan labirint o‘yinlardan iborat edi.

Amerikadagi “Oltin davr” asoschisi S.S. Van Dayn, uning asl ismi Uill Genri Rayt (1888-1939). “Bensondagi qotillik” (1926) va “Kanar orollaridagi qotillik” romanlar seriyasida u bilimdon detektiv Filo Vans obrazini yaratish orqali mashhurlikka erishdi. Elleri Kuinn ham Reytyning izidan bordi. Kuinn asarlarining o‘ziga xos jihati shundaki, o‘quvchilarga boshidanoq ko‘rsatmalar berib borilib, ishni detektiv bilan birgalikda yechishga imkon beriladi. Kuinning eng yaxshi asarlari – “Golland

[1] Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.

poyabzali siri" (1931), "Yunon tobuti siri" (1932), "Xitoy apelsini siri" (1934). Kuinn tomonidan asos solingan "Mystery Story Magazine" jurnali qisqa detektiv romanlar rivojida muhim rol o'ynadi. Ushbu davrda yozuvchi Reks Stott (1886-yillar) tomonidan yaratilgan "yumshoq kursi"dagi detektiv Niro Vulf ham yetarlicha mashhur bo'lgan. [1]

Xuddi shu davrda Britaniyada ham ko'plab detektiv yozuvchilar bo'y ko'rsatdi. Ulardan eng mashhuri – "detektiv qirolichasi" deya ta'riflanadigan va "Oltin davr"ning eng yorqin yozuvchilaridan bo'lgan Agata Kristi. Uning debyut asari "Stayzl mulkining g'aroyib tarixi" va Frimen Kraftsning "Bochka" asarlari detektiv adabiyotni oltin davrga olib kirdi. Agata Kristi romanlarining mashhurligi illyuziyalar yaratish uchun shubhali personajlar, chalkashtirilgan tartiblarni o'z o'rnida qo'llab, hayratlanarli yakun o'ylab topishidadir. U hayoti davomida ikki izquvar Puaro va miss Marpl obrazlarini tasvirlagan 70 ga yaqin roman yozadi. Agata Kristi yaratgan asarlar orasida "Sharqiy ekspressdagi qotillik", "Nil tragediyasi" kabilari ekranlashtirilgan. "Detektiv French" asari muallifi Friman Uells Krofts (1879-1957), detektiv Redjinald Ford Sen obrazini yaratgan X. K. Beyli, Rodjer Sheringema obrazini yaratgan Entoni Berkli, Feyr va Genri obrazini yaratgan Dikson Karr (1906), hamda ikki lord detektiv Pit va Vima obrazlari muallifi Doroti Seyers (1893-1957) va boshqalar ham Britaniyalik mashhur detektiv yozuvchilar qatoriga kiradi. [2]

1920-yillar so'ngida Amerikada "uddaburon bolalar" nomini olgan "anti-an'anaviy detektiv romanlar" vujudga keldi. Ushbu turdagi roman murakkab jarayonlarni, urush sahnalarini tasvirlaydi va an'anaviy detektiv romanlardan tubdan farq qiladi. Bunday romanlar qaysidir darajada ijtimoiy haqiqatni aks ettiradi. Birinchi jahon urushidan keyingi xalqaro iqtisodiy tushkunlik Qo'shma Shtatlarni chetlab o'tmadi. Ishchilar ishlaridan ayrilishdi, kambag'al hayot kechirishdi, amaldorlar nohaqliklarga yo'l ochishdi, jamiyat esa notinch kayfiyatda hayot kechirdi. Ayrim detektiv yozuvchilar ushbu sotsial reallikni ko'rsatish orqali detektiv romanlarning adabiy darajasini ko'tarishga harakat qildilar. "Uddaburon bolalar" haqidagi romanlarning asoschilari Daxir Hammet (1894-1961), Raymond Chedler (1888-1958). Ular yaratgan asarlarda

---

[1] Бавин Сергей. Зарубежный детектив XX века: Популярная библиографическая энциклопедия. – М: Книжная палата, 1991, 206 с

[2] Д. Д. Николаев. Детектив // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. – 1596 С

personajlar syujet talablariga moslashtirilgan asarning ramzigina emas, noqulay vaziyatlarga tushib qoladigan, zaif nuqtalari mavjud bo‘lgan haqiqiy qahramon sifatida tasvirlana boshladi. Hammet romanida detektiv – qahramon va bandit. Chendler asarlaridagi detektiv Filipp Marlou haqiqatgo‘yligiga qaramasdan, qurol bilan jang qiladigan tushkunlikka tushgan odam. Ushbu romanlarda politsiya qonun himoyachisi emas, aksincha jinoyat olami bilan til biriktiradi, ba’zi jinoiy tashkilotlar esa kuchli siyosatchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Asarlardagi boshqa qahramonlarning ham alohida shaxsiyati bo‘lib, odamlarga haqiqiylik tuyg‘usini beradi. Hammet va Chendler personajlar xarakterini ochib beradigan dialoglardan foydalanish orqali hikoyaning haqiqatga yaqinligini, uning rivojini ko‘rsatib bera olar edi. Hammetning “Qonli hosil”, “Shisha kalit”, “Oriq odam”, Chandlerning “Azizim, alvido”, “Kichik singil” va boshqa asarlari nafaqat “uddaburon bolalar” haqidagi asarlarning dastlabki namunasi bo‘ldi, balki adabiyot olamida o‘z o‘rniga ega romanlardan bo‘lib qoldi. “Uddaburon bolalar” romanlari o‘z rivoji cho‘qqisiga yetib borishga ulgurmadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin tijorat qiymatini ko‘zlagan ayrim amerikalik va ingliz detektiv roman-chilari ushbu romanlarni axloqsizlik namunasi deya baholashdi. [1]

Insoniyatni qiynab kelayotgan muammolar va ijtimoiy voqelikni o‘rganish uchun ijod qilgan bir nechta detektiv yozuvchilar mavjud bo‘lib, ular o‘z asarlarida ana shu muammolarga yechim topishga harakat qilishadi. Shunday yozuvchilar orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shvetsiyalik yozuvchi Fridrix Drenmat nemis tilida yozilgan “Sudya va uning qotili”, “Va’da” “Langar” asarlarida jinoyat ildizlarini fosh etib, realizm orqali adolat qaror topishiga erishadi. Belgiyalik yozuvchi Djorj Simenning fransuz tilida yozilgan detektiv romani jinoyatchilar psixologik holatiga e’tibor qaratgan holda ularning ichki dunyosini yoritib beradi. Uni jinoyatni kim sodir etgani emas, nima uchun sodir etgani qiziqtiradi. U hissiyotlar mantig‘iga urg‘u berib, murakkab jinoiy motivlarning asl sabablarini oydinlashtiradi. Djorj Simenning “Sariq kuchuk”, “Neyron urushi”, “Ogyustning o‘limi”, “Megret va istalmagan guvoh” kabi asarlari ham mavjud.[2]

---

[1] Александр Борисенко, Виктор Сонькин. «Не только Холмс. Детектив времен Конан Дойла». «АСТ» 2015, 576 с.

[2] Ильина Н. Что такое детектив? / Н. Ильина // Ильина Н. Белогорская крепость : сатирическая проза : 1955–1985 / Н. Ильина. –Москва : 1989. С 329-330.

1940-yildan keyin yozilgan detektiv romanistlarga Perri Meysonni yurist va detektiv sifatida gavdalantirgan Qo‘shma Shtatlardan graf Stenli Gardner, mister va miss Nortlar haqida detektiv hikoya yozgan Fransis Rokridj va Richard Rokridjlar kiradi. Latis va Marta Xennessat Emma Larson taxallusi ostida detektiv-bankir Jon Putner Techer obrazini, britaniyalik Elizabet Makintosh (1896-1952) Jozefin Ti taxallusi ostida detektiv Grantni, Robert Bryus Montgomeri esa Edmund Krispin taxallusi ostida detektiv Keyn Vas Fina obrazlarini yaratadi. [1]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig‘idagi “Oltin davr” Amerika hamda Buyuk Britaniya detektiv adabiyotiga ulkan ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. o‘sha davrda yaratilgan asarlar hali hanuz kitobxonlar e’tiboridan tushmay kelmoqda. Detektiv romanlar hozirgi kunga kelib ham mashhur bo‘lib, g‘arb adabiyotida “Ahmoq opa-singillar”, “Mongrella”, “Margaretning tobuti” kabi asarlar yaratilmoqda. Qo‘shma Shtatlardagi yillik kitob savdosining deyarli to‘rtdan bir qismini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бавин Сергей. Зарубежный детектив XX века: Популярная библиографическая энциклопедия. – М: Книжная палата, 1991, 206 с
2. Д. Д. Николаев. Детектив // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. – 1596 С
3. Александр Борисенко, Виктор Сонькин. «Не только Холмс. Детектив времен Конан Дойла». «АСТ» 2015, 576 с.
4. Ильина Н. Что такое детектив? / Н. Ильина // Ильина Н. Белогорская
крепость: сатирическая проза : 1955–1985 / Н. Ильина. –Москва : 1989. С 32-330.
5. Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.

[1] Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.

К ПРОБЛЕМЕ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ, ИХ ОТРАЖЕНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ.

Джабриева Наргиза Ахматовна
Магистрант 1-го курса ТГУВ
Науч. рук.: К.Ф.Н. Шорасулова Ш.М.

В данной обзорной статье рассматриваются гендерные стереотипы в Японской культуре , в языке и в художественном тексте в частности прозе, на основе произведений , авторами которых являются женщины.

Ключевые слова: гендерные стереотипы в лингвистике, гендер, женская проза, вежливая речь, феминизация, маскулинность, фемининность, мужская речь, женская речь.

Аннотация: Обращаясь к проблеме гендерных стереотипов стоит определить понятия гендерного стереотипа в лингвистике.

Изучение гендера в литературоведение относят к последнему десятилетию XX века, это, прежде всего , связано с повышенным интересом к гендеру в данной сфере, а именно преобладанием патриархальной спецификации общества, проявление черт маскулинности (мужественность) и фемининности (женственность) в художественных произведениях(с.273-274) (Краева 2013г.) В связи с тем, что основная часть текстов написана мужчинами, стоит вопрос о необходимости изучения женской литературы, в частности теории литературы с позиции гендерного аспекта и выявлением элементов женского письма, то есть «…гендерная система общества оказывает влияние на создание и интерпретацию литературных произведений».

В качестве одного из основных авторов исследовавших тему гендерных различий можно выделить Герт Хофстеда. В ходе исследований Япония была отнесена автором к «мужскому» социуму, где доминирует четкое разделение гендерных ролей.

В традиционных гендерных представлениях Японии наблюдалось четкое разделение полов и социальных ролей, которые закреплялось с самого рождения. В довоенной Японии законы и мораль утверждали , что мужчина обладает полной властью над женщиной, как в политической, так и в семейной сферах. Общество воспринимает женщину в качестве жены и

матери , хранительницей домашнего очага и ее род деятельности не имеет большого значения.

Гендерные стереотипы отражаются в языке как в виде устойчивых сочетаний; что выражается через фразеологизмы, пословицы и поговорки. В диссертационной работе «Японская семья как феномен культуры» (Воркина К.С. 92с.) исследовала паремии японского языка позволившего выявить гендерные стереотипы, характеризующие мужчину и женщину по разным параметрам. «Мужское слово- закон. Мужчина сказал , мужчина сделал. 男子の一言、金鉄の如し。Мужчина- это отвага, мужество, храбрость, а женщина- это очарование и привлекательность. 男は度胸、女は愛嬌。Говоря о характере женщин представлены также и отрицательные поговорки: Собираясь три женщины, всегда создают шум. 女三人よれば姦しい。Нет умных женщин. 女人に健常なし. Мужчина снаружи, женщина внутри. 男は外女は中。(Словарь японских пословиц и поговорок). На основе анализа японских поговорок можно заключить, что оно отражает бытовую картину мира японского народа. Следовательно, сложившиеся стереотипы о женщине и мужчине свидетельствует о гендерном неравенстве норм языкового выражения.

Демьянов Е.Н.в своей исследовательской работе « Специфика женского типа речи в японском языке» исследовал «Гендерную дифференциацию речи». В Японском языке женская и мужская речь проявляет свои особенности главным образом в разговорном стиле. Таким образом, становится возможным определить речь мужчин и женщин ка разновидности языка, в рамках которых происходит различие единиц языка в зависимости от пола. Женщины используют более вежливые формы языка, чем мужчины, так как занимают слабую позицию в обществе. В отношении к супругам существует заметная разница в обращении. Муж употребляет низкую форму вежливости в отношении своей жены. Например, грубую форму повелительного наклонения: Деру мае ни тегами во васуруна!-出る前に手紙を忘るな！ Перед тем как уйти, не забудь письмо!, жена в свою очередь использует

более вежливые формы этого наклонения: Ие во деру мае ни тегами во васуренайде кудасай！家を出る前に手紙を忘れないでください！ Перед тем как выйти из дома, не забудь пожалуйста письмо!

Конрад Н.И. (Японский лингвистический сборник 1959г) писал “Муж в обращении к жене употребляет те слова, обороты и конструкции речи , которые выражают, в общем, отношения хозяина к служанке: и наоборот, речь жены при обращении к мужу будет носить отпечаток отношения “низших” к “высшим”.

Женщины всегда выбирают более вежливые формы вне зависимости от ситуации. Мужчины обычно четко дифференцируют степень учтивости, ориентируясь на собеседника и условия общения. Японец, занимающий более высокую социальную ступень говорит вежливее в сравнение с нижестоящим, а старшие употребляют более вежливые обороты чем молодые.

В 1967 г было проведено сравнения языка мужской и женской литературы, а именно лексического запаса, и были сделаны выводы о том, что женские произведения содержат гораздо меньше экспрессивно-эмоциональных выражений, но больше примеров независимой оценки проблемы и объективного суждения.(«The Woman’s Hand: Gender and Theory in Japanese Women’s Writing”- Stanford University Press,1996 p.94)

Стоит отметить, что в 1970е годы термин «женская литература» (女性文学) который стал использоваться в литературоведении при характеристике творчества писательниц послевоенного времени. К этим годам отмечается очевидный для критика и читателя расцвет женской японской прозы. Современная Японская проза, представленная в частности, рассказами и новеллами (短編小説) имеет ряд объединяющих тенденций, в равной степени характерных как для мужской и для женской литературы.

«Для обозначения подобной литературы был создан специальный термин- «женская проза», под которой принято понимать социокультурный феномен, который возникает в процессе освоения женщинами публичного пространства и находит

свое выражение в литературных произведениях, аккумулирующих описание окружающего мира социального опыта женщин.»(Рабжаева М. Женская проза. Словарь гендерных терминов.)

Введение:

Специфика женского творчества репрезентирует особую художественную картину мира с кардинальными отличиями от мужского миропонимания, и это, естественным образом, предопределено биологическими, психологическими, социальными особенностями женского отношения к жизни, к реальности, к самой себе и как следствие, к самовыражению и самодостаточности. Творчество женщин имеет свои характерные черты, что писательницы могут выражать как общечеловеческий, так и сугубо женский, взгляд на мир, который уже благодаря своей специфике, представляет ценность.

Основная часть:

В диссертационной работе «Гендерная проблематика в творчестве Цусима Юко»

Воробьева В.А. рассмотрела особенности женской литературы в послевоенный период и социальные и исторические факты, в условиях которых эта литература развивалась. Она выделила доминирующую проблематику в феминистской женской литературе этого периода. Основные произведения Цусимо Юко в большинстве своем затрагивают гендерную и иную социальную проблематику, интересующую феминистски настроенных писательниц женской литературы в Японии во второй половине XX века. Наиболее распространенной гендерной проблематикой, объединяющей большинство произведений Цусимо Юко, является проблема матери одиночки в японском современном обществе. Женщины, разведенные и одинокие имеющие детей вне брака, пытаются найти свое место в социуме и добиться уважение к себе. «Это может показаться парадоксальным, но японки, в конце концов, в лучшем положении, чем японские мужчины. Те должны работать на благо общества, а женщины не обязаны становиться рабами компаний. Для нас не все так просто, но у нас есть лучший выбор. Правда до сих пор нет четкого рецепта для нашего счастья.» (Tsushima Yuko. I am not Pessimistic about the future of women.) (Electronic resource).

В своей исследовательской работе « Место «тю:кан бунгаку» («Промежуточной литературы) в литературном процессе современной Японии.» Шапка Я.М. анализировала творчество современной писательницы Японии Есимото Банана. В ее произведениях присутствует многослойность. Внешняя сторона- это, в основном, истории людей, теряющих близких, их переживания и жизнь после этого. В ее сочинениях люди всегда теряют тех, кого любили, и это настолько больно, что почти начинает ощущаться физически.

Сразу после писательского дебюта Есимото в конце 1980-х ее творчество стало ассоциироваться с культурой «се:дзе». Эстетика «се:дзе» возникла в конце 1970-х и представляла собой то, что написано женщинами, ориентировано на женскую аудиторию и описывает сугубо женские проблемы , касающиеся любви и работы.

В произведениях Есимото наблюдается размытие гендерных границ. (Есимото и в своих публицистических выступлениях поддерживает идею феминизации мужчин и «возвращения» их в семейный круг.) В ее произведениях нет стереотипных «идеальных» семей, они существуют лишь, в образах, снах, мечтах, или в обманчивых воспоминаниях.

Также в ее произведениях у персонажа обычно нет отца, так как он бросил семью или находится далеко. И это означает что эти семьи не могут быть патриархальными. Подобный мотив также соответствует реальным изменениям в современном японском обществе, в котором растет роль женщины, а количество традиционных патриархальных семей постоянно уменьшается. В ее произведениях возникает новый тип семьи, которую объединяет не кровное родство , а эмоциональная связь. Так, например, один из главных персонажей повести «Кухня» (キチン, 1987) Эрико это мужчина , который сменил пол после смерти своей жены, он приглашает жить с ним и ее сыном Юити, главную героиню – Микагэ – после смерти ее бабушки. Так как он был знаком с бабушкой девушки. Этих людей связывает чувство потери. Все произведения Есимото Банана написаны от первого лица. Персонажи произведения говорят с улыбкой и легкой иронией. Например для Микагэ- главной героини повести «Кухня»

одиночество не является недостатком, а финал ее произведения всегда оставляет для героя надежду на душевное исцеление. За обычными историями Есимото скрываются вопросы гендера, религии, и игр человеческого сознания.

Анализ художественных произведений, написанных писателями и писательницами, позволяет «увидеть мир» глазами мужчины и женщины и обнаружить особенности данного видения. Художественный текст следует рассматривать таким образом, как отражение языковой личности автора и воплощение его индивидуального восприятия мира.

«Исследование художественного текста в гендерном аспекте представляет весьма продуктивном для познания гендера лингвистическими методами. Через отбор жизненных явлений рассмотрение их под определенном углом зрения, художественный язык, словесные образы в тексте обнаруживается мироощущение его создателя , обусловленное наряду с другими факторами и гендером автора. Именно такое описание художественного текста, учитывающее и его содержание, и конкретное языковое воплощение , позволяет исследовать его сквозь призму когниции и коммуникации, выявить особенности языковой личности автора.(Кубрякова Е.С.2001г)

Выводы:

Исследования гендерных стереотипов на материале японского языка показало универсальность понятий «мужественность» и «женственность», которые обладают определенной национально-этнической спецификой. Культура определяет некоторые характерные черты, присущие тому или иному полу, что оказывает соответствующие воздействие на формирование гендерных стереотипов. Исследователями были отобраны устойчивые единицы, именующие и характеризующие мужчин и женщин в японском языке. Таким образом, гендерные стереотипы в японском языке обладают определенной национальной спецификой и отражают традиционные ценности и идеалы.

Также исследователи отмечают ,что «женская проза» за счет усложнения образов и использования изобразительно-выразительных средств языка, рождающих неоднозначность высказывания, является очень противоречивым пластом культуры и предоставляет множество возможностей для интерпретации

текста с разных перспектив. Для создания более целостного представления о «женской прозе» и возможности более детально проанализировать выбранные нами произведения, необходимо рассмотреть особые черты, которые находят свое отражение в литературных работах авторов- женщин.

Использованная литература

1. Воробьева В.А. Диссертационная работа “Гендерная проблематика Цусимо Юко”

2. Воркина К.С. Диссертационная работа “Японская семья -как феномен культуры”

4. Герт Хофстед “Маскулинность и фемининность”1988г 256с

5. Демьянов Е.Н. Квалификационная работа “Специфика женского типа речи в Японском языке.

6. Кубрякова Е.С. “О тексте и критериях его определения/ Текст. Структура и семантика. М: Наука, 2001 72-81с

7. Конрад Н. И. “ О языковом существовании/Японский лингвистический сборник.1959г

8. Краева К.В.2013г “ Дескрипция и проявление гендера в художественной литературе” 273-274с

9. Рабжаева М. “Словарь гендерных терминов. Женская проза“

10. «Словарь Японских пословиц и поговорок»

11. Шапка Я.М. Квалификационная работа “2017 г “Место тю:кан бунгаку (“Промежуточной литературы”) в литературном процессе современной Японии

12. “The Woman’s Hand: Gender and Theory in Japanese Women’s Writing” – Stanford University Press.1996. p.94

HINDISTON MUSTAQILLIGIDAN KEYINGI DAVRDA ADABIY OQIMLAR: YANGI HIKOYA

Sultonova Gavhar
TDSHU 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: F.f.d.,prof. U.U. Muhibova

1945-yildan 1952-1953-yillargacha bo‘lgan davrda hind adabiyotida, uning bir qator yetakchi vakillarining ijodida realistik yo‘nalish yetakchi mavqe egallagani kuzatilsa, 50-yillarning o‘rtalaridan boshlab modernizmga xos belgilar rivoj topa boshladi. Bilamizki, bu davr hind adabiyotiga mustaqillikdan keyingi davr adabiyoti bo‘lib kiradi. Shuningdek, bu davrga kelib umumiy “yangi adabiyot” nomi ostida turli adabiy oqimlar va ularda ham modernizmning ko‘pgina xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

“Yangi adabiyot”ning o‘ziga xos xususiyati she’riy janrlar va hikoyanavislikda, shuningdek “yangi she’riyat” (“nai kavita”), “she’riyatga qarshi” (“akavita”) va shu kabi boshqa oqimlarda nisbatan to‘liq namoyon bo‘ldi.

“Ayrim hind adabiyotshunoslari, deydi Ye.P. Chelishev, – she’riyatda bu yo‘nalishning paydo bo‘lishi va “Yangi she’riyat” jurnaliga asos solgan Jagdish Gupta nomi bilan bog‘laydilar... Ba’zi hollarda “yangi she’riyat” hind adabiyotidagi “eksperimental” va ilg‘or tendensiyalar sintezining natijasi sifatida qaraladi”.[1]

“Yangi she’riyat” va “she’riyatga qarshi” oqimlar A.N. Senkevich va M.L. Salgapnik kabi hindshunos-adabiyotshunoslar va tarjimon-larning ishlarida yetarli darajada to‘liq tahlil qilinadi.[2]

50-yillarning o‘rtalari 60-yillarning boshlarida “yangi hikoya” (“Nai kaxani”) oqimiga birlashgan hind hikoyanavis yozuvchilarining ijodida ham modernizm belgilari kuzatildi. Bu yozuvchilar ijodi o‘zbek hindshunosligida deyarli tadqiq qilinmagan.

---

[1] Челышев Е. Современная индийская литература.- М., 1981. С.253–254.

[2] Сенкевич А.Н. Тенденция развития «новой поэзии» хинди 70-х гг., // “Современная художественная литература за рубежом”. — М., 1979; Идеология индийских «новых левых» и «новая поэзия» хинди // сб. «Литературы Зарубежной Азии в современную эпоху».- М., 1975.

Ushbu oqimning paydo bo‘lishi 50-yillarning boshlarida hind adabiyotiga yosh hikoyanavis yozuvchilarning katta guruhini kirib kelishi bilan bog‘liqdir. Ularning orasida Rajendra Yadav (1929), Kamleshvar (1932), Amarkant (1925), Dxarmendra Gupta (1934), Nirmal Varma (1931), Mannu Bxandari (1931), Shrikant Varma (1931) va boshqa shu kabi bugungi kunda juda ham mashhur bo‘lgan nosirlar bor edi. Ularning ijodiy uslubi, hayot yo‘llari va hatto dunyoqarashlari o‘rtasidagi farqlarga qaramasdan, taxminan 1953-1955-yillarga kelib ularning ijodida ularni yangi adabiy oqimga birlashtirishga imkon beradigan ayrim umumiy jihatlar paydo bo‘la boshladi (mazkur yillarda ham hikoya juda mashhur adabiy janrligicha qolishda davom etdi). Modernizm tendensiyalari, eng avvalo, mazkur yosh yozuvchilarning avvalgi an’analardan, ilg‘or realistik hikoyanavislikdan hamda “yangi izlanish” vakillarining hikoyanavislik ijodiyotlaridan qat’iy voz kechganliklarida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy dunyoda insoniyat shaxsining tanazzuli “yosh hikoyanavislar” asarlarining mavzusi va muammolar majmuini belgilab beradigan asosiy masala bo‘lgan edi. Uzoqlashish, yolg‘izlik, individual aql-idrokning barbod bo‘lishi va jinsiy hayot asarlarning asosiy mavzulari bo‘lib hisoblanadi.

Yosh hikoyanavislar darhol “yangi” yo‘l tutishga harakat qilgan bo‘lsalar-da, “yangi izlanish” vakillari ortidan “g‘amgin va umidsiz voqelik”ni tahlil qilishda shaxsning “haqiqiy his-tuyg‘ulari”ni ifoda etishdan uslub sifatida foydalanadilar.

“Yangi hikoya”ning g‘oyaviy-estetik tamoyillari 50-yillarning o‘rtalariga keliboq paydo bo‘ldi hamda mashhur “Kaxani” nomli adabiy jurnalning 1956-yilda chop etilgan sonida (1960-yildan boshlab ushbu jurnal “Nai kaxaniyan” nomi ostida chiqa boshladi) “yangi hikoya” oqimining g‘oyaviy-estetik asoslarini belgilab qo‘ydi.

Voqelikning fojiaviy idrok qilinishi nafaqat G‘arb adabiyotining ta’siri, balki mustaqillikka erishgandan keyingi davrda ko‘pgina hind ziyolilari timsollarining barbod bo‘lishi bilan izohlanadi. Shuningdek, mustaqillik o‘rta sinf vakillariga sezilarli natijalarni olib kelmadi. “Yangi hikoya” vakillaridan biri Kamleshvar o‘zining “Nai kaxani ki bxumika” (“Yangi hikoyaga kirish”) asarida bu haqida ma’lumot beradi.[1]

[1] Kamleshvar. Nai kaxani ki bxumika. Deli, 1966.

Biroq “yangi hikoya” oqimi juda xilma-xil, rang-barang ediki, bu oqimga kirgan ko‘pgina yosh yozuvchilar o‘z ijodlarida realistik an’analarni rivojlantirdilar. Bu, eng avvalo, Moxan Rakesh (1925-1972) hikoyalariga tegishlidir.[1]

Moxan Rakesh, yuqorida ta’kidlanganidek, “hududiy nasrchilik” vakili bo‘lib hisoblangan va uning hikoyalarida realistik va neoromantik an’analar rivojlangan. Uning ijodiy tarjimayi holi boshlangan “yangi hikoya”larida modernizm tendensiyalari ham namoyon bo‘ladi. Bu, eng avvalo, uning “Miss Pol” kabi juda mashhur bo‘lgan “yangi hikoya”siga tegishlidir. Bu hikoyada shaxs “his-tuyg‘ulari”ning tahlili, bosh qahramonning yolg‘izligi muammosiga bo‘lgan yuqori e’tibor yosh yozuvchini realistik an’analardan voz kechishga majbur etadi.

Hind hikoyanavisligi taraqqiyotining avvalgi an’analari bilan taqqoslaganda, “yangi hikoya”da ishtirok etuvchi shaxslar, qahramonlar doirasi cheklanadi. Bular, asosan, yoshlar, ko‘pincha talabalar, shahar jamoatchiligining o‘rta qatlamidagi ayollardir.

Mazkur oqimning modernizmga oid jihati shunda namoyon bo‘ladiki, ko‘pgina “yangi hikoya”larda syujetga bo‘lgan e’tiborning kamayishi kabi xususiyat xosdir.

Kamleshvarning boshqa “yangi hikoya”larida nafaqat hikoyaning syujetiga, balki ichki dunyosining tahliliga bo‘lgan e’tibor kamayadi. Kamleshvarning mashhur “yangi hikoya”laridan biri “Dilli men yek maot” (“Dehlidagi o‘lim”) da aynan shu holat kuzatiladi. Ushbu hikoyada voqealar nomsiz qahramon tilidan hikoya qilinadi. Dastlab, u o‘z derazasidan dafn qilish marosimini kuzatadi: unga kamroq tanish bo‘lgan, uning uyidan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda istiqomat qilgan, o‘limi haqidagi ma’lumotni bir kun oldin gazetalar orqali xabar topgan tijoratchi Devanandni dafn qilishadi. U dafn qilish marosimida ishtirok etish yoki etmaslik to‘g‘risida fikr yuritadi, keyin esa bu jarayonda ishtirok etish va shu munosabat bilan o‘z idorasiga ishga bormaslikka qaror qiladi. “Dehlidagi o‘lim” hikoyasida nafaqat Dehlidagi sovuq tumanli qishki tongning, balki o‘rta qatlam vakillari istiqomat qiladigan katta shahar uyidagi kundalik hayotning haqiqatga monand manzarasi yaratiladi. Kitobxon nafaqat ushbu sovuq tumanni, balki mazkur Dehli tongining deyarli barcha tovushlari va hidlarini tom ma’noda “his qiladi”. Hikoyada

[1] Moxan Rakesh. Panch lambi kaxaniyan. Deli, 1960.

“ichki monolog” uslubidan foydalanilgan. Jamiyat o‘rta qatlami vakilining kechinmalari, his-tuyg‘ularini tadqiq qilish shundan guvohlik beradiki, bu asarda 50-yillarning oxiri – 60-yillarning o‘rtalarida hind hikoyanavisligida modernizmga oid xususiyatlar kuzatiladi.

Kamleshvarning “yangi hikoya”larida modernizmga oid belgilarning realistik detallar bilan qo‘shilishi bejiz emas. U tabaqalarga qarshi chiqadi, insonlarning tengligi uchun kurashadi. Ekzistensializm falsafasi va adabiyotining “yangi hikoyanavislar”ga ta’siri to‘g‘risida xulosa qilish mumkin. Ushbu masala hind mualliflarining asarlarida, masalan, doktor L.G. Mangalning “Astitvavad aor nai kaxani” (“Ekzistensializm va “yangi hikoya”) monografiyasida tadqiq qilingan.[1]

60-yillarda Kaliforniya universiteti (AQSH) olimlari tomonidan “Modern Hindi short stories” nomli to‘plam chop etilgan bo‘lib, unga hind tilidagi “yangi nasrchilar”ning ko‘plab asarlari kiritilgan. Tanqidchilar katta zavq bilan mazkur asarlar haqida yozgan edilar. To‘plamning muqaddimasida yozilishicha, bu hikoyalar Hindistonning adabiy hayoti G‘arbning adabiy hayotidan juda ham farq qiladi deb o‘ylaydigan G‘arb kitobxonlari uchun “kutilmagan sovg‘a” bo‘lishi mumkin. Bu hikoyalar shaxsning yolg‘izligi va azob-uqubatlari faqat G‘arb adabiyotlariga tegishli emasligini tushunishga yordam beradi. Mazkur adiblarning hikoyalari hind yozuvchisi XX asrda yashayotganligi va o‘z mamlakatining dolzarb muammolariga aloqador ekanligidan guvohlik beradi. AQSHda chop etilgan ushbu to‘plamga hind tilidagi “hududiy” nasrchilar Pxanishvarnatx Renu va Moxan Rakesh, shuningdek iste’dodli yosh yozuvchi Amarkantning (1925-yilda tug‘ilgan) ba’zi hikoyalari ham kiritilgan.

Hind tilidagi “yangi hikoyalar” o‘sha davrdagi hind yozuvchilari va tanqidchilari orasida katta bahslashuvlarni keltirib chiqardi. Hind tilidagi adabiy jurnallarning sahifalarida qizg‘in munozaralar avj oldi va u mazkur oqimning yutuqlari va kamchiliklari bo‘yicha baholashga bo‘lgan turli yondashuvlarni ma’lum qildi. Ushbu bahslashuvlar badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topdi. Amarkantning “Xatyare” (“Qotillar”)[2] hikoyasida o‘sha o‘rta tabaqaga mansub bo‘lgan yosh hind ziyolilarining keskin tanqidi o‘z aksini topgan. Dastlab ular qoloq

[1] Mangal L.G. Astitvavad aor nai kaxani. Deli, 1975.
[2] Amarkant. Xatyare. — Desh ke log, Allaxabad., 1964.

ma’naviyatga qarshi isyonni ifoda etuvchi “yangi nasrchilar” sifatida namoyon bo‘ldilar, ko‘plab “yangi hikoyalar”ning qahramonlari sifatida ishtirok etdilar.

Amarkantning hikoyasi 60-yillarning boshlarida hindi nasrchiligida paydo bo‘lgan yangi oqim “sachetan kaxani” (“ongli hikoya”)ning ba’zi bir g‘oyaviy-estetik holatlarini ham aks ettiradi. Unda realistik tendensiyalar va ijtimoiy-tanqidiy belgilar yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi.

Keyinchalik, “qarama-qarshi hikoya” (“akaxani”) ham paydo bo‘ladi. “Qarama-qarshi hikoya”da nafaqat modernistik tendensiyalarni kuchaytirib beruvchi xatti-harakatlari seziladi, balki avangard doiradagi tendensiyalar namoyon bo‘ladi, “jinsiy hayot va siyosat” asosiy mavzuga aylanadi.

60-yillarning boshlarida “yangi hikoya”ning boshqa shakllari ham paydo bo‘ladi, biroq ularning barchasi mustaqil oqimga aylanib ulgurmasdan, tezda yo‘q bo‘lib ketdi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikdan keyingi davr Hindiston adabiyoti uchun chinakamiga katta ta’sir ko‘rsatgan davr bo‘ldi. Ayniqsa buni nasrning hikoya janrda kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Челышев Е. Современная индийская литература.- М., 1981. С.253–254.
2. Сенкевич А.Н. Тенденция развития «новой поэзии» хинди 70-х гг.,
3. “Современная художественная литература за рубежом”. – М., 1979;
4. «Литературы Зарубежной Азии в современную эпоху».- М., 1975.
5. Kamleshvar. Nai kaxani ki bxumika. Deli, 1966.
6. Moxan Rakesh. Panch lambi kaxaniyan. Deli, 1960.
7. Mangal L.G. Astitvavad aor nai kaxani. Deli, 1975.
8. Amarkant. Xatyare. – Desh ke log, Allaxabad., 1964.

SUN DAVRI SHE'RIYATI RIVOJIDA LI SINJAO O'RNI

Mirfayziyeva Munisa
TDSHU 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: kat.o'qit. Sh.T. Komilova

Li Sinjao-Song sulolasi davrida Xitoyning shoiri va ocherk yozuvchi adibi edi. U Xitoy tarixidagi eng buyuk shoirlardan biri hisoblanadi.

Li Sinjao 1084- yilda hozirgi Shandun provinsiyasida joylashgan Jansiu shahrida olim-amaldorlar oilasida tug'ilgan. Otasi o'qimishli bo'lganligi sababli xonadonida kitoblar ko'p edi, shu sababli Li bolaligida har tomonlama ta'lim olishga muvaffaq bo'ldi.o'z davri uchun olimlar oilasidan bo'lgan adiba o'zgacha iqtidor egasi edi. uning she'rlari yuqori tabaqa vakillari orasida turmushga chiqmasidan avval juda mashhurlikka ega bo'lgan. 1101-yilda u Chjao Mingchengga turmushga chiqdi, u bilan san'at to'plami va epigrafikadagi qiziqish-larini baham ko'rdi. Ular hozirgi Shandun shahrida yashaganlar. Turmush o'rtog'i o'zining rasmiy karyerasini boshlaganidan so'ng, odatda uyda bo'lmasdi. Ular unchalik boy emasdilar, lekin ustiga yozilgan xatlar va kolligrafiya yig'ishni yaxshi ko'rishardi, birgalikda baxtli hayot kechirdilar. Bu esa uni ba'zi sevgi she'rlarini yozishga ilhomlantirdi. Li va uning umr yo'ldoshi ko'p kitoblar yig'ishdi. Ular she'riyatga mehr qo'yganlar va odatda bir-birlariga shuningdek, Shang va Chjou sulolalarining bronza buyumlari haqida she'rlar yozishgan. 1127- yilda Kayfeng poytaxti bo'lgan Shimoliy Song Jin-Song urushida Jurjonlar qo'liga o'tdi. Shandun shahrida janglar bo'lib, ularning uyi yoqib yuborilgan. Er-xotin Nanjingga qochayotganlarida ko'p mol-mulklarini olib ketishdi, u yerda 1 yil yashashdi. Chjao 1129- yilda rasmiy lavozimga ketayotib vafot etdi, bu fojiali voqeadan so'ng, Li aslo tuzalmadi. To'plamdan qolgan narsalarni saqlash unga bog'liq edi. Li turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng nashr etilgan "Jīn Shi Lù" (jīn shí Lù) asarida o'zining turmush hayoti va qochish paytidagi tartibsizliklarni tasvirlab bergan. Uning oldingi she'riyatida beg'ubor kunlari yuksak jamiyat ayoli sifatida tasvirlangan, hamda nafisligi bilan ajralib turgan.

Keyinchalik Li Jurjonlarga qarshi urushdan so'ng, Song hukumatining yangi poytaxtiga aylangan Xanchjouga joylashdi. Bu

vaqt davomida, u she’r yozishni davom ettirdi. U, shuningdek, dastlab Chjao Mingcheng tomonidan yozilgan Jīn Shi Lù kitobini yakunlashda davom etdi. Kitob asosan bronza va toshlardagi xattotlik haqida edi: unda Li va Chjaoning dastlabki davrda to‘plagan va ko‘rgan hujjatlari ham eslatib o‘tilgan. Ba’zi zamonaviy ma’lumotlarga ko‘ra, u unga yomon munosabatda bo‘lgan Chjan Ruchjou ismli erkakka turmushga chiqqan va bir necha oy ichida u bilan ajrashgan. U bu nikohning tanqididan omon qolgan.

Uning asosan ***ci*** shaklidagi hamda hayotdagi turli taqdirlarni kuzatish haqidagi atigi 100ga yaqin she’rlari saqlanib qolgan. Shuningdek, ***shi*** shaklidagi bir nechta she’rlari etib kelgan. Uning hayoti burilishlar bilan to‘la edi, uning she’rlarini ikkita asosiy qismga bo‘lish mumkin. Dastlabki davrda she’rlarining aksariyati qizlik vaqtidagi tuyg‘ulari bilan bog‘liq edi. Ular ko‘proq sevgi she’rlariga o‘xshardi. Janubga ko‘chib o‘tganidan so‘ng esa, ular uning Jurjonlarga qarshi urushdan nafratlanishi va vatanparvarligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. U Xitoy she’riyati o‘lchovlarini birinchi marta batafsil tanqid qilgan shoirdir. U wǎnyuē pài "nozik cheklov" ustasi sifatida hurmat qozongan.

Li Sinjao ***ci*** adabiy janr sifatida o‘zining mukammallik cho‘qqisiga erishgan, uslub va ohang jihatidan bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikkita *ci* maktabi paydo bo‘lgan davrda yashagan: jasur romantik uslub va nafis cheklovli uslub. Lining ikkinchi uslubga tegishli ekanligiga shubha yo‘q. Ammo gap uning shoirlar orasidagi mavqei haqida ketganda, tanqidchilar haddan oshib ketishadi,ba’zilari uni Xitoy tarixidagi eng buyuk shoir sifatida maqtasalar, boshqalari uni yirik Song shoirlari ichida ustun ekanligini inkor etishadi.Bugungi kunda Qing shoiri Vang Shizhenning fikriga ko‘ra, Xin Qiji she’riyatning jasur romantik uslub vakili bo‘lsa, Li Sinjao nafis cheklov uslub vakili edi.Uo‘zidan oldingilarning barcha go‘zal fazilatlarini o‘ziga meros qilib oldi va ijodiy rivojlantirdi va oxir-oqibat ulardan ham o‘zib ketdi. U o‘ziga xos yangi uslub – Yi An uslubini rivojlantirish orqali she’riyatning nafis cheklangan uslubini eng yuqori mukammallikka olib keldi, bu ko‘plab taniqli, zamonaviy va keyingi shoirlarga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk Sin Qiji uning muxlislaridan biri bo‘lib, Xitoy xattotligida uchraydigan Yi An uslubida "Shan tog‘ dovonidan o‘tish" nomli she’rini yozgan. Bu she’rdagi osoyishtalik muhiti Li Sinjaoning oq chaykalar jonlantirilgan hamda deyarli bir xil kayfiyatda yozilgan

"Zavqqa to‘lgan Nilufarlar" she’riga juda o‘xshaydi. Vang Shijen u kabi 17tadan kam bo‘lmagan qofiyali she’rlar yozdi. Poeziya haqida gapirganda, Song sulolasining mashhur olimi va tanqidchisi Vei Taio‘zining "She’riyat haqida tasodifiy eslatmalar" asarida poeziyada tasvirlangan narsa aniq bo‘lishi kerakligini, lekin yetkazmoqchi bo‘lgan tuyg‘uni to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etishdan saqlanish lozimligini ta’kidlagan. Shu tariqa kitobxonga o‘zi tasavvur qilib, shoirning ichki o‘ylariga kirib borishi uchun imkoniyat taqdim etiladi. Li Sinjaoning ci shaklidagi she’rlari yuqori darajada bu xususiyatlarga egadir. Song shoirlari orasida u she’riy nutq va adabiy vositalar ustasi ekani bilan ajralib turar edi. Uning she’rlari tabiat tasvirlari, moddiy narsalardan, asosan, sharob, choy va xushbo‘y tutatqi, deraza pardalari va to‘shak yostiqlari, olxo‘ri, kassiya, olma daraxti, xrizantema kabi gullar va o‘simliklar, maysalar va tollar, yovvoyi g‘ozlar, oq qarqaralar, chaykalar va boshqa qushlar, shuningdek, tabiat hodisalari: quyosh, oy, yulduzlar, yomg‘ir, shamol, qor, shudring, ayoz, bulut va tuman kabilarga to‘la. Ba’zan ulardan keyin inson hodisa va harakatlarining ba’zi tavsiflari keladi, bu esa taxminan tabiat tasvirlariga parallel bo‘ladi. Lekin shoir ataylab o‘z his tuyg‘ularini aytishdan o‘zini tiyadi, shunda kitobxon uning ko‘nglini nima bezovta qilayotganini taxmin qilishi mumkin.

Masalan:

Zarhallangan sher yondirgichda endi ladan tutuni yo‘q,
To‘shakdagi qip qizil ko‘rpalar,
Vidolashuv fikrlarining chalkashligi,
Lekin qo‘rquv tufayli aytishga ikkilanyapman,
So‘nggi paytlarda ozib ketyapman,
Buning sababi mastligimdan emas,
Buning sababi kuzning sog‘inchi ham emas.

Li Sinjao shuningdek, "Zavqqa to‘lgan Nilufarlar" asarining quyidagi qismlarida ko‘rsatilganidek, iqtidorli shaxs bo‘lgan:

So‘z bilan ta’riflab bo‘lmaydigan darajada go‘zal,
Mening yonimga juda issiq joylashib olgan o‘sha
yam-yashil tepaliklar va yaltirab turgan soylar,
Qum ustida mudragan qarqara va chaykalar,
Bu boshni aylantirishga o‘xshamaydi,

Xuddi bunchalik erta ketayotganimdan ularning ham jahli chiqqandek, go‘yo.

Uning she’rlarida zamondoshlari ijodida ko‘p uchraydigan bezakli iboralar o‘rniga sodda iboralarni ko‘p uchratamiz. U kundalik so‘zlashuv iboralarni qayta ishlash va ularni chuqur ma’noga ega bo‘lgan adabiy iboralarga aylantirishdek sovg‘aga ega edi. Uning she’rlari ko‘plab parallel jumlalar hamda mukammal tarzda moslashtirilgan takroriy so‘z va iboralar bilan boyitilgan.

Misol uchun uning durdona asarlaridan birini olaylik, "Uzoq g‘amgin ohangga umidsiz qayg‘u". Mazkur asar Li dahosiga xos bo‘lgan adabiy jasoratni xayoliy tarzda takrorlaydigan yetti juft personaj bilan boshlanadi. Bunday takrorlash she’rga nafaqat musiqiy ritm beradi, balki tabiatning keyingi tasvirlari uchun kuchli debocha bo‘lib xizmat qiladi: jozibali obi-havo, bemaza sharob, uvullagan oqshom shamoli, g‘oyib bo‘layotgan yovvoyi g‘ozlar, yerdagi qarovsiz so‘ligan xrizantemalar, soyabon yaproqlariga alamli tomayotgan mayda yomg‘ir va nihoyat oqshom payti deraza oldida men! Bularning barchasini keltirib chiqaradigan, yakuniy jumlada jamlangan ayanchli manzara ichimizga kirib borib, qalbimizni zavq-shavq bilan to‘lqinlantirmasdan qolmaydi.

Xulosa, Li Sinjao-Song sulolasi davrida Xitoyning shoiri va ocherk yozuvchi adibi edi. U Xitoy tarixidagi eng buyuk shoirlardan biri hisoblanadi. Li Sinjao ***ci*** adabiy janr sifatida o‘zining mukammallik cho‘qqisiga erishgan. Uning asosan ***ci*** shaklidagi hamda hayotdagi turli taqdirlarni kuzatish haqidagi atigi 100ga yaqin she’rlari saqlanib qolgan. Shuningdek, ***shi*** shaklidagi bir nechta she’rlari etib kelgan.

TARIX, TARIXIY MANBASHUNOSLIK, SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI

SHOHRUH MIRZO HUKMRONLIGI DAVRIDA TEMURIYLAR DAVLATI ELCHILIK MUNOSABATLARINING MANBALARDA AKS ETTIRILISHI

Jumayev G‘ayratjon Ismatullo o‘g‘li
TDSHU 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.d., prof. M.M. Is’hoqov

Sohibqiron Amir Temur vafotidan so‘ng u umri bo‘yi yaratgan imperiya toj-taxti uchun kurashlar domiga tushib qoldi. Taxt uchun kurashni Amir Temurning qizi Og‘a Begimning o‘g‘li ya’ni nabirasi amirzoda Sulton Husayn boshlab berdi. Keyin esa Xalil Sulton singari boshqa amirzodalar toj-taxt da’vosi bilan o‘zaro kurash boshladilar. Amir Temur hayotlik paytida Xuroson hukumatini Shohrux Mirzoga topshirgan edi. U esa Xurosonda hijriy 807-yil ramazon oyida (1405-yil 3-martdan 2-aprelgacha) davlat jilovini qo‘lga olib, amirlar isyonlarni bostirib, mamlakatni birlashtirishni boshladi. “Hijriy 809-yilda (milodiy 1407-yilda) Mozandaronni fath etdi. 811-yilda (milodiy 1409-yilda) Movarounnahrni fath etishga kirishdi. Amir Xudaydod, Amir Shayx Nuriddin isyonlarini bostirib, Movarounnahrni Mirzo Ulug‘bek va Amir Shoh Malikka topshirdi. 817-yilda (milodiy 1414-yilda) Fors mamlakatini hazrat hukumati doirasiga kiritdi. 819-yilda (milodiy 1416-yil 1-martdan 1417-yil 18-fevralgacha) Kirmon viloyatini oliy shonli podshoh fath etdi. 823-yilda (milodiy1420-yil 17-yanvardan 1421-yil 6-yanvargacha) turkman Qora Yusuf Qora quyunli vafot etib, Ozarbayjon fathi amalga oshirildi. Mazkur yilning rajab oyi oxirlarida Shohrux Mirzo va Qora Yusufning o‘g‘li Iskandar o‘rtasida harbiy to‘qnashuv yuz berdi. Iskandar ibn Yusuf mag‘lubiyatga uchradi. Shohrux Mirzo g‘alabaga erishdi. Hijriy 830-yil rabi ul-oxirining yigirma uchinchisi (milodiy 1427-yil 21-fevral) juma kuni Ahmad Luri Badbaxt degan kishi Hirotning Jome masjidida Shohrux Mirzoning badaniga pichoq sanchadi, Ahmad esa o‘sha zahoti o‘ldiriladi. Ul hazratni hakim Ali A’lo Taloq pichoq zarbidan saqlab qoladi. Hijriy 832-yilda (milodiy 1428-yil 11-oktyabrdan 1429-yil 30-

sentyabrgacha) Iskandar ibn Yusuf yana bir marta Iroq va Ozarbayjonga hujum qildi. Shohrux Mirzo ul tomonga shoshilib, Salmos sahrosida Iskandarni yana mag‘lub qildi. Shundan so‘ng Xuroson, Balx, Badaxshon, Movarounnahr, Turkiston, Zobuliston, Seyiston, Jurjon, Mozandaron, Iroq, Fors, Ozarbayjon mamlakatlari Shohrux Mirzo tasarrufiga kiritildi. Xoqoni said (Shohrux Mirzo) qirq uch yil mustaqil ravishda saltanat va davlatni boshqarish tojini kiydi va Ray viloyatida 850-yili zulhijja oyida (1447-yil 17-fevraldan 19-martgacha) vafot etdi. U yetmish ikki yoshda edi.”

Shohrux Mirzo imperiyani qo‘l ostida qaytadan birlashtira oldi. Shohrux Mirzo davrida davlatni boshqarish amirlar, shahzodalar va mahalliy hokimlar orqali amalga oshirildi. U ichki va tashqi siyosatda anchayin mohir, kechirimli, ulug‘vor, taqvodor, oliyjanob va saxiy hukmdor edi. Shohrux Mirzo davrida temuriylar davlatining elchilik munosabatlarida va tashqi va ichki siyosatda o‘ziga xos tizim va jarayonlarni kuzatamiz. Ichki siyosiy jarayonlardalar Shohrux Mirzo va shahzodalar, amirzodalar o‘rtasida diplomatik vazifalarini hukm-dorning yaqinlari amalga oshirgani ma’lum. Barlos, qavchin, arlot, do‘g‘lot, nayman kabi turkiy urug‘lardan bo‘lgan amirlardan, no‘yon-lardan, tarxon amirlardan, diniy ulamolardan (sayyidlar, shayxlar) chiqqan e’tiborli shaxslar ushbu vazifalarni amalga oshirdi. Shuningdek ushbu elchilik vazifasini bajargan diplomatlarni markaziy hokimiyat tizimida (devonda) ma’lum vazifadagi amaldorlardan bo‘lganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, sadr, tavochi, ko‘kaldosh, qozi, parvonachi, bakovul, yasovul va boshqa mansab egalari keltirib o‘tishi-miz mumkin. Masalan, Turkiston viloyatlari hokimi Amir Xudaydod Husayniy va Xalil Sultonni Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog‘idagi jangda Xalil Sultonni mag‘lubiyatga uchratib Movarounnahrning barcha hududini o‘z tasarrufiga kiritganda: “Hijriy 811-yilda zulqa’daning 13-da Xalil Sulton Xudaydodning qo‘liga asir tushdi. Bu paytda Samarqandda bo‘lgan Shayx Nuriddin Bodg‘is yaylovida bo‘lgan Shohrux Mirzo bilan birlashish uchun Buxoro tomon yurdi Shohruh Mirzo Amudaryodan o‘tganda, Mirak Ahmad Mirzo va Saydi Ahmad Mirzolar ham o‘z qo‘shini bilan Hisori Shodmondan Xuzorga uning mulozamatiga yetib keladi. Shunda Amir Xudoydod Xalil Sultonni hibs olib Mug‘uliston tomon qochadi. Shohrux Mirzo Samarqandni egallagandan so‘ng Ladino («Matla us-sa’dayn»da Ladunyo deb berilgan) Tarxonni Amir Xudaydod oldiga nasihat va

mulozamatiga keltirish uchun yuboradi.” Yana shunday holat Amir Shayx Nuriddin isyon ko‘targan paytda Shohrux Mirzo Mavlono Qutbiddin va To‘kal Qarqarani Shayx Nuriddin oldiga yuborishida kuzatamiz. Xondamir o‘zining «Habib us-siyar» asarida keltirishicha: “Hijriy 817-yilda (milodiy 1417-yil) Mirzo Ulug‘bek Samarqanddan O‘zgandda (O‘zgand) hukumatini boshqarayotgan Mirak Ahmad Mirzo oldiga elchi jo‘natib uni huzuriga chorlaydi. Mirak Ahmad Mirzo esa elchini nopisandlik bilan jo‘natib yuboradi. Janob Ulug‘bek esa xos va qarindoshlari hisoblanmish Amir Boyazid Parvonachini o‘sha muhim ish bilan O‘zgandga jo‘natdi. Amir Boyazid ham avvalgi elchidek qaytib keldi, Mirzo Ulug‘bek esa Andijonga yo‘l oldi.”

Shohruh Mirzo shuningdek, shahzodalar va amirlar o‘rtasidagi munosabatlardan ham doimo ogoh bo‘lib turganini tarxiy manbalarda shunday bayon etishgan: “Mirzo Ulug‘bekning navkari Malik yasovul kelib, Mirzo Ulug‘bek bilan amir Shohmalik orasida bir kudurat mavjud ekanligini arzga yetkazdi. On hazrat mo‘g‘ullarning qaytib ketganligi va Malik yasovulning xabari jihatidan Movarounnahrga yurish borasida ikkilanib bir necha kun Jijiktu maysazorida to‘xtab turdi va amir Sayyid Ali tarxonni xabarlarni tekshirib aniqlash uchun Samarqandga jo‘natdi. Amir Sayyid Ali ahvolni surishtirib ko‘rib bildiki, on hazrat amir Shohmalikka inoyat ko‘rsatib Movarounnahr mulklariga sohib ixtiyor qilib tayinlaganidan beri (amir Shohmalik) barcha ishlarni ko‘pchilik ra’yiga muvofiq to‘g‘ri fikr va o‘tkir nazar bilan tartibga solgan, Mirzo Ulug‘bekka nisbatan esa pand-nasihat qilish va davlatxohlik ko‘rsatish maqomida ekan. Ammo ko‘pchilik tabiatiga, xususan podshohlarga, nasihat achchiq tuyuladi, chunki ular hamma vaqt tiriklik ta’mini o‘zlari uchun shirin va mazali bo‘lishini istaydilar va butun olamni o‘zlaridan past deb biladilar. Agar amir (Shohmalik) biror maslahatga binoan shahzodaning ra’yiga xilof ish qilgudek bo‘lsa, g‘arazli kishilar uni betartiblik va bemulohazalikka yo‘yib, boshqa bir suratda ko‘rsatadilar.”

Shohruh Mirzoning tashqi siyosatda ham faol bo‘lganini o‘z davlati xavfsizligi uchun va mintaqada hukmronlikni o‘z qo‘liga olish uchun olib borgan tashqi elchilik aloqalarida, Oltin O‘rda, Xitoy, Hindiston, Misr singari davlatlar bilan bo‘lgan elchilik munosabatlarida ko‘rishimiz mumkin.

Ustozimiz Xurshid Fayziyevning «XV asr birinchi yarmida Temuriylarning Ko‘k va Oq O‘rda bilan siyosiy aloqalariga doir» nomli

maqolasida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “Shohrux Mirzo (1377-1447) mamlakat birligini saqlash va xavfsizligini ta’minlash uchun Dashti Qipchoqdagi davlatlarning siyosiy hayotiga bevosita va bilvosita aralashishga majbur bo‘ldi. Movarounnahrda nisbatan mustahkam hokimiyatni barpo etgan Shohrux Mirzoning Xorazm masalasidagi keyingi faoliyati amir Idiku bilan olib boriladigan muzokaralar, siyosiy mavqeni mustahkamlash bilan bog‘liq turli harakatlar orqali xarakterlanadi.

1409-yilda Oltin O‘rda hukmdori bo‘lgan Fo‘ladxon va amir Idiku tomonidan keskinlashayotgan vaziyatni tartibga solish va munosabatlarni shakllantirishda tashabbusni qo‘lga olish maqsadida Shohrux Mirzo huzuriga elchilar kelgan. Voqealarning bunday rivojidan manfaatdor bo‘lgan Shohrux Mirzo elchilarni yaxshi kutib olgan. Shohrux Mirzo Ko‘k O‘rdaga Fo‘ladxon va amir Idikuning elchilariga qo‘shib amir Hasan boshchiligida o‘z elchilarini yuborgan. Mazkur elchilik orqali o‘z o‘g‘li Muhammad Jo‘ki Mirzoga amir Idikuning qizini so‘ratgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, mazkur so‘rov ijobiy hal bo‘lgan yoki yo‘q masalasi shu paytgacha tadqiqotlarda o‘z aksini topmagan.”

Temuriylar va Oltin O‘rda munosabatlariga oid xabarlarni Abdu-razzoq Samarqandiy “Matla us-sa’dayn” asarida bayon qilishicha: «O‘zbek viloyatiga, amir Idiku huzuriga ketgan Abon tavochi qaytib kelib, «amir Idiku (xoqoni said)ning qadr-qimmatini ulug‘lash va amr-farmonini hurmatlash borasida biror daqiqani ham rioyasiz o‘tkazmadi, maktub yetib borganligi munosabati bilan iftixor boshini falakka ko‘tardi», – deb arz qildi. Amir Idiku amir Abonning chechan tili bilan qaytargan javob so‘zlar va uning shirin adosiga havola qilgan hikoyatlardan xayrixohliklar isi sodiqlik dimog‘iga yetib keldi mazmuni shunday: «Men on hazratning quli va xizmatkoriman, har nimaiki buyursalar farmonni ado etuvchiman; on hazratning iltifotlaridan iltimos shuki, shu tariqa (bizga) rioya qilib, ittifoqsizlik pardasini ko‘tarish va do‘stlik eshigini ochish borasida muxlislar uchun yupanch bo‘lgan elchilar almashinish va maktublar yozishish yo‘lini ochiq va serqatnov tutsinlar, g‘arazgo‘ylarning so‘zlariga iltifot qilmasinlar va loyiq xizmatlarni bajarishga ishorat qilishdan bizni darig‘ tutmasinlar, chunki biz xizmatni ado etishda davlatxohlik asarlarini zohir qilurmiz»

Bundan tashqari Temuriylar va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarga oid ma’lumotlar “Habib us-siyarda” asarida keltirilishicha:“Hijriy 815-yil muharramning juma kunida (1412-yil 15-aprel) humoyunning xumo soyaboni yetib kelib «Bog‘i Zog‘on» uzra o‘z soyasi bilan uni bahramand qildi. Shunga yaqin paytda Xitoy xoni Voy Mang xonning elchilari kelib, u oliyjanob podshohning turli sanalarda yozilgan maktubini topshirdi. U maktub salom va tabrik so‘zlaridan tashqari Xalil Sulton Mirzoning maqtovga molik qilmishi va ishlaridan iborat edi. Hazrat xoqoni said elchilarga shohona izzat va hurmat ko‘rsatib, ≪Oliy martabali shahzodalar va amirlar ularga to‘y qilib bersin!≫ deb buyurdi. Xitoy elchilari ishlarini ham yetarli darajada tezlashtirib, Shayx Muhammad Xo‘shiyni ularga hamroh qilib, ul tomonga jo‘natdi. Va yana – hijriy 822 yil ramazon oyida (1419-yil 21-sentyabr-20-oktyabr oralig‘i) Ardasher tavochi Mochinning Doy Mang xonligi elchilari hamrohligida olampanoh dargohiga qaytdi. U 820 yilda Xitoyga ketgan edi. U podshohona sovg‘a-salomlar keltirish bilan birga, Doy Mang Xonning mehru muhabbat va yakdillikka to‘la maktubini ham yetkazdi. Hazrat Said esa Chinning Bi To va Mochin xoni elchilarini izzat-hurmat bilan qabul qildi va ularga juda ko‘p in’omlar berdi. Elchilarning ba’zilari Mirzo Ibrohim Sultonning oldiga – Sherozga ketdilar, bir guruhi esa Amir G‘iyosiddin Shoh Malik bilan uchrashish uchun Xorazmga qarab yo‘lga tushdilar. 823 yilda (1420-1421-yillar) hammalari birgalashib Samarqandga keldilar. Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon ularga katta to‘ydek bazm uyushtirdi va Xitoyga kuzatib qo‘ydi.”

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla us-sa’dayn” asarida bu voqea shunday bayon etilgan – “ Shu orada Xitoy viloyatidan, u mamlakatlarning Chin-u Mochin va boshqa yerlari podshohi Doy-Ming xon tarafidan elchilar yetib keldi. (Xoqoni said tomonidan): «Shahar va bozorlarga ziynat berilsin, har bir san’at egasi o‘z hunarini to‘la zohir qilib do‘konini bezatsin», – degan humoyun farmon sodir bo‘ldi. Amirlar istiqbol rasmi bo‘yicha (shahardan) tashqari chiqib elchilarning hammasini izzat-hurmat bilan shaharga olib kirdilar. (Bu) xuddi yoshlik chog‘idek shodlikni orttiruvchi bir zamon va visol kechasidek g‘amni tarqatuvchi bir on edi. Hazrat xoqoni saidning (Shohruh Mirzoning) farmoni bo‘yicha Bog‘i Zog‘onga xuddi jannat bog‘idek oro berib, Bahrom savlat, sher haybat yasovullar har kimning (o‘ziga xos) joy va makon tayin qildilar. Hazrat xoqoni said balandlik

avjidagi oftob singari xurshid chehra bilan saltanat taxtiga ko‘tarildi. Ulug‘ amirlar elchilarni qo‘l o‘pish sharafiga yetkazib, tortiqlarni qo‘ydilar va ularning so‘zlarini arz qildilar. Xitoy podshohining maktubi quyidagi mazmunda edi. Xitoy podshohi maktubining surati: «Doy-Ming, podshohi muazzam, Samarqand diyoriga Shohrux bahodir uchun noma yubormoqda! Biz fikr qilamizki, xudovandi taolo yer bilan osmon o‘rtasidagi jami xaloyiqni ularning har biri rohat va farog‘atda yashasin deb yaratgan. Biz xudoyi taoloning madadkorligida ilohiy hukmga bo‘ysunib jahondorlik qilib kelmoqdamiz. Shu sababli biz yaqinu yiroq orasida farq qilmaymiz, hammani bir tekis, barobar bilamiz. Bundan ilgari eshitgan edikki, sen oqil va kamolotga yetgan kishisan va boshqalardan ulug‘roqsan, xudovandi taoloning amriga itoat qilib kelmoqdasan, raiyat va askarlarni parvarish qilib, ularning hammasiga ehson-u yaxshiliklar ko‘rsatibsan; shu sababli biz behad shod bo‘ldik. Alalxusus, kimxob va tarqu kiyimlarni yetkazsin uchun, elchi yubordik; elchi u yerga yetib borgach, sen bizning so‘zlarimizga hurmat bilan qarab marhamatimizni yaxshi yuzaga chiqaribsan, katta-kichik hamma shodmon bo‘libdilar va sen ham darhol elchi yuboribsan; elchilar sening salomingni, otlar ham u diyor matolaridan iborat tuhfalaringni yetkazdilar. Sening do‘stlik yo‘lida ekanligingni ko‘rdim: sen maqtov va navozishga sazovor ekansan. Ilgariroq mo‘g‘ullar davri oxiriga yetgan edi. Sening otang Temur fumo xudovandi taoloning amriga itoat qilib, bizning ulug‘ podshohimiz Toy-Zuyga nisbatan yaxshi do‘st bo‘lib, elchilar va tuhfalarni qat’ qilmagan. Shu sababli (Toy-Zuy) u diyorning (Xitoydagi) odamlariga omon berib, hammasini davlatmandlikka yetkazgan. Biz ham ko‘rdikki, sen otangning himmat va ravishiga yaxshi mutobiat qilibsan. . Endi Su- Jo‘ning Kasoy hazorasi odamlaridan Du-Jixun-Boyni va Sun-Qung-Ji sadasi(dan) Dong-Chingni bir guruh kishilar bilan qo‘shib, sadoqat zohir bo‘lsin uchun tabriknoma, kimxob kiyim va targ‘ular bilan yubordik. Bundan keyin ham odamlarni yuboramiz, toki ular bordi-keldi qilsinlar va yo‘llar kesilib qolmasin; ular o‘z istaklaricha tijorat va kasb qilsinlar. Xalil Sulton sening birodarzodang; o‘z tug‘ishganlik haqqingni bajo keltirmog‘ing uchun sen uni yaxshi tarbiyat qilishing kerak. Sen bizning sadoqat-u ra’yimizga hamkorlik qilishing lozim. Bildirib qo‘ymoqchi bo‘lganimiz ana shu». Bu maktubga qo‘shib yana bir maktubni yuborgan edilar, unda jo‘natilgan sovg‘a-tuhfalar mufassal tarzda bitilgan edi. Yana bir (maktub) yo‘l xati qabilida bo‘lib, u

elchilar uchun edi. Uch maktubning har biri fors xati bilan fors tilida yozilgan va xuddi o‘sha maktubda so‘z mazmuni mo‘g‘ul xati bilan turkiy tilda yozilgan, yana o‘sha maktubda o‘sha mazmunni xitoy xati bilan o‘z (xitoy) tilida yozgan. Xoqoni said hazratlari maktubni (o‘qittirib) eshitib, uning nozik mazmunini o‘tkir fikr bilan mulohaza qildi va maqsadlarini to‘la tushunib olgach, hammani ishtirok etishga chaqirib, «Amirlar elchilar sharafiga to‘y bersinlar», – degan farmon sodir bo‘ldi. Xitoy elchilarining muhim ishlari to‘la bitganidan keyin, ularga ijozat berilib, qaytib ketdilar. Shayx Muhammad Baxshiy elchilik rasmi bo‘yicha ular bilan birga ravona bo‘ldi. Xitoy podshohi to shu vaqtgacha islom dinini qabul qilmaganligi va shariat talabi bo‘yicha ish tutmayotganligi sababli hazrat xoqoni said do‘stlik yuzasidan: «Zoraki u hidoyat nuri tufayli imonga musharraf bo‘lsa», – degan umidda arab va fors tillarida yozilgan ikki nasihat nomani yubordi.”

Xitoy bilan elchilik aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, Xitoy hukmdori o‘z elchisiga uchta maktub yozdirib berib yuboradi. Bulardan birinchisi Shohruh Mirzoga atalgan bo‘lib, o‘zining asl maqsadi bayon qilingan maktubdir. Ikkinchisi esa Xitoy hukmdori yuborgan sovg‘a-salomlar ro‘yxatidir. Uchinchisi esa elchilarning o‘ziga yo‘l xaritasi tarzidadir. Unda ehtimol elchilar yurgan yo‘llar va shaharlar ahvoli haqida yozib olib kelish (razvedka ma’lumotlari) buyurilgan bo‘lishi mumkin. Elchilik maktublari fors, turkiy va xitoy tillarida yozilgan e’tiborga molik. Xuddi shunday Shohruh Mirzo ham elchilik maktublarida o‘sha davr xususiyatiga xos ish yuritganligi ma’lum, uning maktubi fors tilida yozilganligi manbalarda aniq keltirilgan va yana ehtimol turkiy, xitoy tillarda va mo‘g‘ulchada ham yozilgan bo‘lishi ham mumkin. u ham yuqoridagi uchtalik maktub an’anasida maktub jo‘natgan. Elchilar xatlarning xavfsizligi va maxfiyligiga qattiq e’tiborda bo‘lishgan. Shohruh Mirzo maktubining yana bir xususiyati esa Xitoy hukmdorini islom diniga o‘tishga chorlab nasihatnoma yozishidadir. Xulosa qilib aytganda, Shohruh Mirzo davrida Temuriylar davlatining o‘sha davrdagi qo‘shni davlatlar va uzoq boshqa mamlakatlar elchilik munosabatlari anchayin rivojlanganini guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hazratqulov.J., Bekjonov.I., G‘iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar, Toshkent, O‘zbekiston.2013.
2. O‘rinboyev.A Abdurazzoq Samarqandiy, Matla us-sa’dayn Toshkent,O‘zbekiston. 2008
3. Юсупова.Д. Жизнь и труді Хондемира монографии. - Т:2006
4. Гиёсиддин Хондамир. Хабиб ус-сияр. Буюклик хислати. Нашрга тайёрловчи Бекжонов. Тошкент. Шарк нашр. 2011. 3.бет.
5. Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Хабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. Нашрга тайёрловчи Хазраткулов .Ж., Бекжонов.И. Тошкент Узбекистон нашр. 2013.17-20- бетлар.
6. Fayziyev.X, XV asr birinchi yarmida Temuriylarning Ko’k va Oq O’rda bilan siyosiy aloqalariga doir maqolasi Toshkent, 2020 1-8-betlar

ХИВА ХОНЛИГИ СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ ИЖТИМОИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.

Абдухалилова Азиза Эркиновна
ТДШУ таянч докторанти
Илмий раҳбар: т.ф.д., проф. А. Дониёров

Бугунги кунда Ўзбекистонда солиқ сиёсатини ва давлат солиқ ҳизмат органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш бўйича кўплаб чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, янги таҳрирдаги Солиқ кодекси ва солиқ концепцияси, шунингдек бошқа ҳуқуқий-норматив ҳужжатлар солиқ сиёсатини такомиллаштириш, солиқ юкини камайтириш, солиқ тизимини соддалаштириш ва низоларни судгача ҳал қилиш кабиларни кўзда тутади. Бу соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар замирида нафақат дунё тажрибасига, балки солиқ сиёсати ва тизимининг тарихий илдизларига таяниш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шу жиҳатдан, Ўзбекистон тарихининг ажралмас қисми бўлган Хива хонлиги Қўнғиротлар сулоласи даври (1763-1920) солиқ ва ер ислоҳотлари, солиқ тизими ва иқтисодий-молиявий бошқарув механизми, солиқ сиёсатининг ижтимоий тамойилларини тадқиқ этиш долзарб масалалардан саналади.

Хива хонлиги солиқ тизими мусулмон қонунчилиги асосида шакллантирилган бўлиб, асрлар давомида шариат асосидаги тартиблар сақланиб келинган. XIX асрда Қўнғиротлар сулоласи ҳукмронлиги даврида ҳам хонлик солиқ тизими шу таъомилга асосланган.

Хива хонлигида солиқ амалиётига девонбеги, қўшбеги ва меҳтар бошчилик қилган. Улар ўзларининг бирламчи ҳизмат вазифаларини бажариш билан бирга, солиқ тизимида ҳам ўзларига топширилган вазифаларни амалга оширганлар[1:130].

Қўнғиротлар сулоласи вакили Муҳаммад Раҳимхон I (1806-1825) ҳукмронлиги даврида амалга оширган иқтисодий ислоҳот сабаб хонликдаги солиқ тизимига ҳам бир қанча ўзгартиришлар киритилади. Ислоҳот натижасида маҳсулот билан йиғиб олинадиган *харож* ўрнига пул кўринишидаги солиқ солғут жорий этилди. Бу хақида сарой тарихчиси бўлган Баёний маълумот беради: “Муҳаммад Раҳим I халқнинг норозилиги яна кучайиб, турён кўтарилишидан қўрқиб

солиқ солиш тартибларини ўзгартиришга киришди. Харож деб аталгани ва натура билан олинадиган эски солиқ тизимини бекор қилди. Бунинг ўрнига солғут деб аталган пул солиғи жорий этди”[2:47].

Хонликда солиқ сиёсатини амалга оширишда яна бир жиҳат, солиқ тўловчиларнинг ижтимоий қўллаб-қувватлаш масаласи ҳисобланган. Шу жиҳатдан, хонликда асосий солиқ ҳисобланган ер солиғини миқдорини белгилашда мулкнинг тури катта аҳамиятга эга бўлган. Хонликда хусусий мулкчиликнинг атойи ва ёрлиқли мулк турлари мавжуд бўлиб, улар солиқ муносабатларида бир-биридан фарқ қилган ва турли миқдорда солиқ олинган.

Атойи мулк (“ота” сўзидан келиб чиққан) солиқга тортиладиган, ер эгасига мерос тариқасида ўтган хусусий ерлар бўлган. Мавзу доирасида ўрганилган қуйидаги ҳужжатда унинг қандай тоифаларга бўлинганлиги ва қанча солиқ олинганлиги аниқ келтирилган: *“Солғут чиқғонда зархарид мулк ерли кишилардин аъло авсот одно қилиб, ери кўп кишидин 3 пухта тилло, озроқ ерли кишидин 2 пухта тилло,ондин ҳам ери оз кишидин кишидин 1 пухта тилло олурлар ҳар йил 1 қозувчи олиб, ёф қозурурлар”* [3:458].

Манбаларда атойи мулкнинг 10 танобдан ортиқ ерга эгалик қилувчи мулкдорлар *аъло* деб аталувчи тоифани ташкил этган ҳамда йилига 3 пухта тилло ёки 54 танга, 5-10 таноб ерга эгалик қилувчи адно тоифаси 2 тилло, 5 танобгача ери бўлган деҳқонлар авсот деб номланиб, улар 1 тилло миқдорда солиқ тўлаганлар[4:23].

Қўнғирот сулоласи ҳукмдорлари томонидан олиб борилган кенг миқёсдаги ирригацион ишлар, хонлик жанубида бўз ерларнинг ўзлаштирилиши ва янги ер эгалиги шакли ёрлиқли мулк ер эгалигини вужудга келтирди[5:182]. Ердан олинадиган солиқ миқдори тўғрисида қуйидаги ҳужжат маълумот беради: *“...вилоятда одам кўб бўлғондин сўнгра бикар ердин ер бериб ҳар беш танобға бир пухта тилло олурлар ҳар ўн танобға бир киши қозучи олиб қозу қозурурлар шул қозучилар яна ёф қозиб ерларға су элтурлар шул ерни икки бешдин икки ғалла олурлар шул ердин ... дафтарға ёздурур ҳар беш танобға бир пухта тилло олурлар ... қадимдан қоида шулдур”* [3:458]. Ушбу ҳужжат матнидан маълум бўладики, дастлаб ҳукмрон сулола ташаббуси билан ўзлаштирилган ерлар аҳолига бўлиб берилган. Хоннинг махсус ёрлиғи асосида ушбу янги подшолик ерлари хусусий шаклга ўзгариб, ёрлиқли мулк ерларига айланиб борган. Бунинг эвазига бундай ижарачи-

мулкдорлар даҳяк ўрнига ҳар 5 танобдан 1 тилло миқдорда ер солиғи солғут тўлай бошлаганлар. Хонликдаги хусусий мулкчиликдаги ерлардан бундай тартибда солиқ ундириш янги ер эгаларини ижтимоий қўллаб-қувватлаганлигидан дарак беради.

Ўзбекистон Миллий архивида сақланаётган Хива хонлари архиви фонди ҳужжатларида солиқ тўловчилар рўйҳатлари ва баъзиларида исмларининг қаршисида ёки уски қисмда *тоза* атамаси келтирилган. “Қўй йили моҳи шавволда мувофиқ ёрлиқдорларнинг дафтари юзасидин ёзилғон меҳтар оқо саноғ дафтари”да ушбу атама кўплаб учрайди[6:432]. Мавзу доирасида ўрганилган ҳужжатлардан ва атаманинг форс тилида *янги* деган маъносини ҳисобга олган ҳолда, тоза атамаси мулкдор эгалик қилаётган ер янги ўзлаштирилган ерлар бўлган ва солиқ имтиёзига эга бўлган. Қизиқарли жиҳати, мулкдорларнинг масжидлар бўйича эгалик қилаётган ер таноби ва унинг қанчаси *“тоза”* эканлиги ёзилган. Масалан, Масжиди Муҳаммад Карим оталиқда Мулла Бекниёз ибн Бержон ерининг 5/10 таноби тоза деб белгиланган. Бу маълумот унинг 5 таноб ери янги ўзлаштирилганлиги ва ўша қисми учун имтиёзли солиқ тўлаганлигини англатади. Яъни 5 таноби атойи мулк бўлиб, у адно тоифасига киритилган ва 2 пухта тилло тўлаган. Қолган 5 таноби эса ёрлиқли мулк ҳисобланиб, унинг учун 1 пухта тилло солиқ олинган.

Архив маълумотларга кўра, мамлакатда юз берган турли офатлар, қурғоқчилик даврида, ҳосилни сув олиб кетиши ва бошқа вазиятларда аҳоли томонидан хонга солиқлардан озод қилиши ҳамда моддий ёрдам беришини сўраб илтимосномалар жўнатилган [7:103]. Зеро, шариатда ҳам ердан сув узилиб қолса, сел кетиб сув босиб қолса ёки экинга бирор офат етса, унда харож олинмайди, деб белгиланган.

Хива хонлиги солиқ тизими тарихига оид архив манбаларида хонликда амал қилган солиқ сиёсатининг ижтимоий жиҳатлари ҳам бўлганлигини кўришимиз мумкин. Айрим ҳолларда солиқ тўлашдан қийналиб қолган фуқаролар томонидан хон номига мурожаатнома йўлланган [8:437]. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Марказий архивида сақланатган ушбу ҳужжат, *“Вузаратпаноҳ давлат ва иқбол ва умрларини мустадом қилғай Омин ва Роббил аъламин, арзимиз бу ке Эшниёзнинг ўғли Худойбергон турумиз отамиздин манақ Таъвоби қатағон мавзеида икки ёрим таноб ер қолиб эрди онинг қозу ва солғутидин ожиз турурмиз ўзлари олиб эгалик қилсалар деб умидвор турурмиз ва дома иззакум иқболким соҳиб иҳтиёр турур. ассалому*

алайқум. алтақсир алтақсир.” Ҳужжат матнида 2,5 таноб ери бўлган Эшниёз ўғли Худойбергон исми шахсдан хон номига мурожаатнома йўлланган. Бундан ер эгаси солғут тўлашга ва мехнат мажбуриятини (козу) бажаришга имкони йўқлиги билдирмоқда.

Бундай мурожаатлар хон томонидан бефарқ қолдирилмасдан, масалани ўрганиб чиқиш учун бирор масъул шахсни тайинлаб, мурожаат асосли бўлса, у шахс солиқлардан озод этган.

Хонлик аҳолисининг оғир вазиятда, қийналиб қолган йилларида хон солиқдан озод қилган ёки унинг миқдорини камайтирганлиги тўғрисидаги маълумотлар бошқа манбаларда ҳам учрайди. В.А.Гиршфелд ва А.С.Галкин ёзишича, аҳолининг солиқ юкини камайтириш тўғрисидаги илтимосномалари одатда, ижобий ҳал қилинган ва хон солиқни ярим баробарида камайтирилган [9:33].

Хива хонлиги тобелигига кирган кўчманчи чорвадор аҳоли ҳам давлат эътиборидан четда бўлмай, уларни итоатда ушлаб туриш ва қўллаб-қувватлаш мақсадида солиқ енгилликлари бериб борилган. Жумладан, Муҳаммад Раҳимхон даврида кўчманчи қорақалпоқлар учун ер солиғининг имтиёзли шакли солғут– кесма жорий қилинади.

Кўчманчи аҳолининг ўз вақтида солиқ тўлаб боришини таъминлаш ҳамда уларни рағбатлантириб туриш учун қимматбаҳо тўнлар билан мукофотлаб турган [10:106]. Хива хонлари архиви фондида қабила оқсоқолининг хонга итоаткорлиги, инъом этилган қимматбаҳо ҳадья *ҳилат* учун миннатдорчилик билдирган номаси сақланмоқда.

Бундан ташқари манбаларда солиқ йиғиш жараёнидаги келишмовчиликлар ҳам учраб турган. Баъзан солиқ тўловчилар айби билан, баъзи ҳолларда ўлпон йиғувчиларнинг суистеъмолликлари туфайли юзага келганлиги ҳақида маълумотлар учрайди. Хива хонлигида солиқ тўловчилар солиқлар, турли тўловлар ҳамда солиқ йиғувчилар билан келиб чиққан муаммоли ҳолларда ўз норозиликларини хонга ёзма мурожаат орқали билдирганлар [11:433]. Бундай вазиятлар келиб чиқишини олдини олиш ва солиқ йиғувчиларнинг суистеъмолликлари бартараф этиш учун солиқ амалиётида масжид оқсоқоли ҳамда мироблар ҳамроҳлик қилишлари йўлга қўйилди.

Хива хонлиги Россия империяси томонидан босиб олингандан сўнг ҳам ҳукмрон сулола аҳоли манфаатларини ҳимоя қилишда давом этади. Бу борада бир неча маротаба Амударё бўлими бошлиғи билан

ёзишмалар олиб боради. Жумладан, 1897 йил Амударё бўлими бошлиғига хонликда шакар, керосин, гугурт, чит каби маҳсулотлар билан тижорат қилаётган рус фуқароларидан акциз солиғи олиниб, маҳаллий савдогарлар бу масалада имтиёзга эгалиги ва улардан акциз солиғи олинмаётганлигидан шикоят қилишади. Хоннинг жавоб ҳатида хивалик савдогарлар Россияга бормаётганлиги, улар бундай маҳсулотларни Хивада сотиб олаётганлиги, улардан икки маротаба солиқ ундириш тижоратчиларни хонавайрон қилиши мумкинлигини ёзади. Шунингдек, рус савдогарлари сўнгги вақтларда савдо дафтарларини кўрсатмай, хон ғазнасига закот тўламай қўйди ва бу бизга катта зарар келтирмоқда, деб ёзади.[12:8]

XIX аср Хива хонлиги тарихига оид манбалар таҳлили асосида хонлик солиқ тизимининг ижтимоий тамойиллари, адолат принциплари ўрганилди ва куйидаги хулосаларга келинди.

Биринчидан, Қўнғиротлар сулоласи даврида амалга оширилган солиқ ислоҳоти натижасида давлат бошқарув аппаратида солиқ ишлари бўйича аниқ мансабдорларнинг белгиланганлиги, бекларнинг солиқ жорий этиш ва йиғиш ҳуқуқидан маҳрум этилиши, ўлпон йиғувчиларга маҳаллий маъмурлар ҳамроҳлик қилиш тартибининг жорий қилиниши солиқ йиғиш жараёнидаги турли суеъстемолчилик ва низолар юзага келишини олдини олди.

Иккинчидан, ҳукмрон сулола янги ерлар ўзлаштирилишининг ташаббускорига айланиб экин майдонларининг кенгайтириши, ушбу жараёнда иштирок этган, ерсиз ва кам ерли деҳқонларни ер билан таъминлаш, бу орқали солиқ тўловчилар сафининг ошиши ва давлат хазинасига тушумнинг кўпайишига эришилади. Бундай ер эгаларига солиқ имтиёзларининг берилиши аҳолининг ушбу қисмини марказий ҳокимият томонидан ижтимоий қўллаб қувватланганлигини кўрсатади. Бу эса ўз навбатида, хонлик иқтисодий ривожланишини ҳам таъминлаган.

Учинчидан, қурғоқчилик, ҳосилсизлик, сел кетиши ва бошқа турли табиий офатлар вақтида ёки аҳолининг солиқларни тўлашга қурби етмаган холарда хонга илтимосномалар йўллаши ва кўп ҳолларда ушбу масаланинг ижобий ҳал этилиши марказий ҳокимиятнинг аҳолини ижтимоий қўллаб келганлигини кўрсатади.

Тўртинчидан, хонлик фуқаролигига ўтган кўчманчи чорвадор аҳоли ҳам марказий ҳукумат эътиборидан четда бўлмаган, улар учун махсус имтиёзли кесма тизимининг жорий этилиши ҳамда солиқларни

ўз вақтида тўлаган уруғларни доимий рағбатлантириб туриш ишлари уларнинг давлат ҳомийлигида бўлганлигидан далолат беради.

Бугунги кунда ҳам солиқ ва унинг ижтимоий тамойиллари масаласи ўз аҳамияти йўқотган эмас. Солиқ сиёсати ва тизимининг тарихий илдизларига таяниш замонавий қонун ва меъёрий ҳужжатлар самарадорлигини ошириш, камчиликлардан холи бўлиши ҳамда энг муҳими аҳоли ижтимоий холатига мос тарзда жорий этилишига асос бўла олади. Хусусан ўтган йили бутун дунё қолаверса юртимизда кузатилган пандемия эпидемиологик шароитда аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш учун бир неча солиқ ва тўловларни тўлаш муддатлари узайтирилиши, божхонадан киритиладиган баъзи товарларга имтиёзлар берилганлиги, давлат иншоатларида ижарада турувчилардан шу даврда ижара хақининг олинмаслиги, давлат мақсадли жамғармалари ташкил этилгани ҳолда аҳолининг қийналган қисмига махсулотларнинг етказиб берилиши кабилар сўзимизнинг тасдиғи бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кун А. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве//Туркестанские ведомости. 1873. – №33.С.130-131

2. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Қўлёзма манбалар асосида нашрга тайёрловчи Иқболой Адизова. –Т.1991.

3. ЎзР.МДА. И-125, 2-рўйхат Хива хонлиги архиви ҳужжатлари фонди. 458-йиғма жилд.

4. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. –Т.1959.Б.23

5. Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве во второй половине XVIII – первой четверти XIX вв. Тарих фан. номз. …дис. – Тошкент 2008. – Б.182

6. ЎзР МДА. И-125, 2-рўйхат 432-йиғма жилд.

7. ЎзР МДА. И-125, 2-рўйхат 103-йиғма жилд.

8. ЎзР МДА. И-125, 2-рўйхат 437-йиғма жилд.

9. Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статическое описание Хивинского ханства...Ч.2-С 35.

10. ЎзР МДА. И-125, 2-рўйхат, 106-йиғма жилд.

11. ЎзР МДА. И-125, 2-рўйхат 433-йиғма жилд.

12. ЎзР МДА. И-125, 1-рўйхат 8-йиғма жилд.

KUSHONLAR PODSHOLIGI DAVRI MADANIYATIGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

G‘aniyeva Yulduz Qurbonali qizi
TDSHU 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbari: PhD B.A. Odilov

Kushon podsholigi o‘zbek davlatchiligi tarixida eng qadimiy va qudratli davlatlardan biridir. Saltanat hududi bir qancha o‘lkalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning madaniyati butun jahon uchun ahamiyatlidir. Kushon podsholigida turli xil antik madaniyatlar vujudga keladi-ki, bu madaniyatlarning ta’siri kelgusida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan davlatlar madaniyati uchun taraqqiyot beshigi bo‘lib xizmat qiladi. Demak, bugungi kunda Kushon madaniyatini o‘rganish orqali Sharqda vujudga kelgan madaniyatlarning shakllanishi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Bugungacha Kushon madaniyati o‘rganilgan bo‘lsada, ammo izchil ravishda, yetarlicha tadqiq etilmagan. Hali Kushon podsholigining nafaqat madaniy, balki boshqa sohalarida ham qarama-qarshiliklar, fikrlar xilma-xilligi mavjud. Ya’ni bu borada aniq konsepsiya yo‘q. Mana shunday qarama-qarshiliklarga nuqta qo‘yish, ushbu davr madaniyatini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Kushon Podsholigining mavhum jihatlari ustida arxeolog va sharqshunos olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan va bu tadqiqotlar bugungi kungacha davom etmoqda[1]. Jumladan, Kushonlarning dastlabki poytaxti bo‘lgan Dalvarzintepani o‘rganish 1967-yilda tarixchilar Galina Pugachenkova va Masson tomonidan boshlangan. O‘zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi buddaviylik ibodatxonasi ham aynan shu hududda. 1968-yilda qadimgi Termiz hududida Budda haykali topildi. Shuning natijasida bu yer ko‘plab arxeologlar tomonidan o‘rganildi. Shunga o‘xshash arxeologik yodgorliklarning topilishi va tilga kirishi ular haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimizda qo‘l keladi. 1932-yilda Termizdan 7 kilometr uzoqlikda joylashgan Ayritom hududida Amudaryo tubida akant barglari orasida arfa, do‘mbira va ud chalayotgan belbog‘li tosh relyef, 1979-yilda Baqtriya yozuvi aks etgan yodgorliklari, Fayoztepada Stupa ochiladi, Dalvarzintepadan turli oltin buyumlar va haykallar, Qoratepadagi ibodatxonalar Xolchayon va boshqa hududlardan yodgorliklar topiladi [4].

Kushon podsholigini o‘rganish doirasida 1913-yil va 1960-yillarda London, 1968-Dushanbe, 1970-yilida esa Qobulda xalqaro simpoziumlar bo‘lib o‘tdi. Xalqaro Yunesko tashkiloti qoshidagi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganish komissiyasi esa kushonlar tarixi-yu madaniyatini o‘rganish asosiy vazifalaridan biri ekanligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tdi. Arxeologlar Kushon madaniyatiga oid Bagram, Balx, Began, Afg‘onistondagi Surx-Ko‘tal, Hindistondagi Kosambi, Pokistondagi Sirsukx, Taksila, O‘zbekistondagi Ayritom, Bozorqal’a, Dalvarzintepa, Zartepa, Ko‘xna Vos, Termez, Xayrobodtepa, Xolchayon, Fayoztepa, Tojikistondagi Kayqubodshoh, Ko‘hna qal’a, Shahrinav va Munchoqtepada qazish ishlarini olib borishdi. Ular arxeologik topilmalar va qadim yozma manbalar asosida o‘zlarining muhim ilmiy xulosalarini berib o‘tgan: burjli mustahkam mudofaa devoriga ega bo‘lgan shahar qurilishi taraqqiy etgan, bir necha o‘nlab shunday shaharlar, ko‘plab yirik suv inshootlari qurilgan. Shaharlar ichida arklar mavjud bo‘lib, ularning atrofini turli binolar majmuasi qurshab turgan. Podsholikning shimoli-g‘arbiy hududlarida binolar qurilishida asosan xom g‘isht va paxsadan, janubi-sharqida esa toshdan foydalanilgan. Shaharlar har jihatdan strategik qulay bo‘lgan daryolar bo‘ylarida bunyod etilgan.[1] Saltanatda quruvchilik ham shakl jihatidan, ham mazmunan taraqqiy etib borgan. Alohida binolar misolida biz bir tomondan, quruvchilikning san’at bilan uyg‘unlasha borib, mazmunan boyishi jarayonining guvohi bo‘lamiz[2]. Shaharlar podsho saroyi, boy zodagonlar va hunarmandlar mahallasi, ko‘cha va maydonlar hovuzlar, turli dinlarga mansub inshootlar, ekinzor va bog‘lardan iborat bo‘lgan. Uylar ko‘p xonali, hashamatli bo‘lib, ikki qavatli qilib qurilgan. Hovli sahni, xonalar poli, zinalar va turli hajmdagi pishiq g‘ishtlar qo‘llanilgan. Ayvon yog‘och ustunlari ostida ohaktoshdan yo‘nilgan chiroyli tag kursilar o‘rnatilgan. Binolar tomidan tushadigan suvlar uchun maxsus sopol tarnovlar ishlatilgan.[1]

Bino va xonalar haykaltaroshlik, tasviriy san’at asarlari bilan bezatilgan, haykal va rasmlarda asosan podsholar, podsho xonadoni a’zolari, boy zodagonlar, sozanda va masxarabozlar tasvirlangan. Baqtriya rasmlari tasvirlanish texnikasi va ranglar mutanosibligiga ko‘ra yuqori baholanadi. Xususan ilk Kushon davriga xos bo‘lgan hajmli uslublaridan hind rassomchilik maktabi foydalanmagan. Bu uslub Baqtriyada keng foydalaniladi.[4] Budda diniga ta’luqli inshootlarda esa Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepadagi kabi

Budda va uning safdoshlari, izdoshlari, Kohinlar va xizmatkorlar ifodalangan. Haykallar, asosan, ohaktosh, loy va ganchdan tayyorlangan, ular orasida sirtiga tilla suvi yuritilganlari ham bor. Devoriy suratlarda esa diniy va bazm marosimlari, tabiat manzaralari, suvoriylar tasvirlangan. Ushbu majmualarning ikki ming yilga yaqin vaqt o‘tishiga qaramay, haligacha devorlaridagi suratlar, naqshlarning saqlanib qolgani ustalarning o‘z kasbiga munosabati, tajribasi to‘g‘risida ham ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lamiz. Shuningdek, bu davrda kulolchilik ham taraqqiy etganiga topilgan sopol buyumlarning, xilma-xilligi va o‘zining nozik jarangdorligi yaqqol misol bo‘ladi. Amaliy san’at yuksak darajada rivojlangan uning eng yaxshi namunalari Sank-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanmoqda. Podsholikda zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari yasash, mato to‘qish va ilm-fan rivojlanadi[1].

Kushon davri madaniyatini va arxeologiyasini o‘rganish maqsadida imperiya tashkil etilgan hududlarda yanada faol arxeologik qazishmalar olib borilishi lozim. Bu orqali Kushon podsholigining biz uchun jumboq bo‘lib qolayotgan sir-u sinoatlarining ochilishiga erishiladi. Bu borada esa arxeologlardan o‘z faoliyatlariga yanada mas’uliyat bilan yondashishlari talab etiladi.

Ko‘rilayotgan davrda astronomiya, matematika, musiqashunoslik, grammatika, metrologiya, kimyo, falsafa, tibbiyot, dorishunoslik kabi fanlar e’tibor kuchayib, chuqur o‘rganilgan. Kanishkaning o‘zi adabiyot va san’at homiysi bo‘lib, uning saroyida mashhur buddaviy olimlar Pareva va Vasumitra, buyuk shoir va faylasuflar Ashvagxosha, Matricheta, Nagarjuna hamda Charaka yashab ijod qilgan. Savdoning rivojlanishi yozuv taraqqiyotini ham ta’minlab bergan va uning keng tarqalishi uchun imkon yaratgan. Oromiy yozuvi asosida sug‘d va xorazmiy yozuvi vujudga keldi.Bundan tashqari hind alifbosiga asoslangan kxaroshtxi yozuvi namunasi ilk bor Termizdan, teri va taxtaga bitilgan rasmiy yozuvi namunasi esa Tuproqqal’adan topilgan[1]. Kxaroshti yozuvi Yunon-Baqrya davlati paytidanoq foydalanilgani to‘g‘risida fikrlar mavjud. Agar Kushon yozuvi haqiqatan kxaroshtxi alifbosidan olingan bo‘lsa, yozuv Yunon-Baqtriya davlati davrida Hindiston savdogarlari va hunarmandlari tomonidan Baqtriyaga olib kelingan. Shimoliy Baqtriyadagi Dalvarzintepadan olingan xazinaning oltin quymalaridagi kxaroshtxiy yozuvi bu taraqqiyotdan guvohlik beradi[6]. Qoratepa va Fayoztepadan topilgan

bitiklarning aksariyati sopol idishlar, asosan choynak va ko‘zalarga qora rang bilan bitilgan [4].

Ahmadali Asqarovning "O‘zbek xalqining Etnogenezi va Etnik tarixi" o‘quv qo‘llanmasida tarixdan yuechjilarning eron tilli qabila sifatida o‘rganib kelinishiga doir quyidagi fikrlar aytib o‘tiladi. "Ammo ular Sharqiy Turkistondan chiqib dastlab Shimoliy Baqtriyani so‘ng, Baqtriya janubini va Shimoliy Hindistonga ham kirib borganlarida ular turkiyda so‘zlashganlar. Lekin bu zamin ijtimoiy va siyosiy hayotida eroniy til muhiti yetakchilik mavqeyida edi. Shu boisdan ularning til jihatidan eroniylashuvi tabiiy edi. Kanishka davlat tilini boxtariy tili etib belgilagan".

Hindiston hududi bosib olinishi biln Mamlakat hududiga buddaviylik dini ham kirib keladi. Faol buddaviy missionerlar tomonidan din mamlakat hududiga targ‘ib etiladi. Bu esa o‘z navbatida madaniyatga ham ta’sir etmasdan qolmadi.

Kanishka I buddizm tarixida birinchi bo‘lib, vaqti-vaqti bilan diniy yig‘in chaqirib turishni joriy etgan. Dastlabki yig‘inda buddaviylikning Mahayana mazhabi rasmiylashtiriladi va bu hududda buddizm rivojlanadi[1]. Jumladan, buddizm tarqalishi bilan Gandxaradan hind madaniyati unsurlari kirib keldi. Garchi bu unsurlari keng tarmoq yozgani bilan, lekin ular "chetdan kelgan" bo‘lganligi uchun Budda ibodat dargohlari chegarasidan nariga o‘tolmadi[3].

Podsholik yerlaridan bevosita o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li tashqi savdo rivojlanishida ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi aniqlandi. Kushon podsholari zarb qildirgan oltin, kumush va mis tangalar Efiopiya, Skandinaviya, Italiya va boshqa mamlakatlardan topilganligi davlatning qudratli ekanligidan va chet mamlakatlar bilan keng miqyosda savdo aloqalarini o‘rnatganidan darak beradi[1]. Xan davlati va Rim saltanati bilan iqtisodiy va elchilik munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yiladi. Milodiy 99-yilda Kushon elchisi Rimga yuborilishi ham buning tastig‘idi [5].

Azamat Ziyoning "O‘zbek davlatchiligi tarixi" asarida keltirilishicha tanga pullarning ko‘p miqdorda zarb etilishi mamlakatdagi konchilik sohasi bilan bog‘liq. Kadfiz II ning har birining og‘irligi 8 gramm atrofida bo‘lgan tangalarining muomalaga kiritilishi, asosan, o‘lkaning oltin konlari imkoniyatiga suyanilgan holda amalga oshirilganiga shubha qoldirmaydi. Umuman olganda

bularning bari Kushon Podsholigini nechog‘li qudratli bo‘lganligidan darak beradi.

Shunday qilib, Kushon madaniyati o‘z-o‘zidan shakllanmagan, uning rivojlanishida albatta, qo‘shni mamlakatlar etnografiyasi ajralmas o‘ringa ega. Bu davr etnografiyasi to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar topilmalar orqali o‘rganilgan. Bu sohaning asosiy muammosi davlatning etnologiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yetarli emasligi.

Kushonlar madaniyatini o‘rganish, ularning O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston xalqlari madaniyati, taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyatini ilmiy baholashda muhim ahamiyatga ega.

Kashf etilgan topilmalarni keng ommaga tanishtirish maqsadida turli xil ko‘rgazmalar bo‘lib o‘tmoqda. Hali yoritilmagan jihatlarni ochish ustida O‘zbekiston, AQSh, Italiya, Vengriya, Tojikiston, Afg‘oniston, Rossiya, Yaponiya olimlari ishlashmoqda [1].

Shunday qilib, davlatchiligimiz tarixida kushonilar davri siyosiy, iqtisodiy, madaniy va tashqi aloqalar sohalarida kattadan-katda yutuqlarga erishilgan asrlar bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kushon podsholigi nafaqat O‘zbekiston hududi tarixida, balki butun dunyo tarixida ajralmas va muhim o‘rin tutadi. Bu vaqtda O‘zbekiston hududi Xitoy va Hindistonni bog‘lovchi transkontinental aloqalar markaziga aylanadi. Saltanatda rivojlangan madaniyat mintaqa hududiga tashkil topgan keyingi davlatlarga ham ta’sir o‘tkazgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent 2003.
2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi, Toshkent, 2001
3. N. Nizomiddinov, Qadimgi Hindiston tarixi va madaniyati, Toshkent 2014
4. Shokirjon Pidayev, Qadimgi O‘zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros, Toshkent, 2011.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2006.
6. History of civilizations of central Asia.

ПУТЕШЕСТВИЯ АДМИРАЛА ЧЖЕН ХЭ

Султанбекова Данара Ботир кизи
Студентка 4-го курса ТГУВ
Науч. рук.: д.и.н., проф. Н.Э. Каримова.

За восемьдесят лет до прибытия Васко да Гамы[1] в Западную Индию ведущую роль в Китайском море и Индийском океане, от Юго-Восточной Азии до Персидского залива и Восточной Африки, занимал китайский флот. В период 1405-1433 гг. при династии Мин[2] было совершено семь морских экспедиций под руководством адмирала Чжэн Хэ[3], с целью исследования указанных регионов, известных тогда как *Западные океаны* (西洋, *Сиянь*). В одном из таких путешествий обычно участвовало около 300 судов, в том числе несколько *кораблей-сокровищниц* – 宝船 *(баочуан)* длиной более 400 *футов*[4], сопровождаемых судами снабжения, танкерами с водой, военными кораблями с пушками и многоярусными патрульными катерами; общая численность личного состава флота превышала 28000 человек. Как отмечает Леватес: «Это была уникальная армада не только в истории Китая, но и всего мира, которую нельзя было превзойти, пока флот вторжения времен Первой мировой войны не вышел в море». В отличие от европейцев, китайская армада никогда не стремилась установить колониальное господство военной силой [6:20; 9; 10:26].

На постройку кораблей были мобилизованы целые провинции, привлечены лучшие специалисты, большинство из них было из провинции Фуцзянь[5]. Более 400 домохозяйств плотников, парусников и кораблестроителей были переведены из

---

[1] Васко да Гама (1460-1524) – португальский мореплаватель эпохи Великих географических открытий. Командующий экспедицией, которая впервые в истории прошла морским путём из Европы в Индию.

[2] Великая Минская империя (大明帝国) – государство, образовавшееся на китайских землях после свержения власти монгольской империи Юань. Существовало с 1368 года по 1644 год.

[3] Чжэн Хэ (郑和, 1371-1433, также известен как Санбао (三宝) – китайский адмирал, дипломат, путешественник.

[4] *Фут* – единица измерения длины в английской системе мер. Равняется 0.3048 м.

[5] Фуцзянь (福建) – провинция на юго-востоке Китая.

морских регионов на верфь в Лунцзян[1] в столицу у реки Янцзы[2], возможно, от 20000 до 30000 специалистов были собраны в одном месте во имя общего дела. В Нанкине[3] работали две верфи – одна для обычных лодок, а другая для *кораблей-сокровищниц.* Верфи в Лунцзяне включали семь сухих доков для обслуживания судов шириной от 90 до 120 футов, с двух доков для судов шириной 210 футов. В период Мин наиболее популярным типом океанских кораблей были *шачуань* – 沙船, или *песочные лодки* с плоским дном, которые использовались для путешествий по относительно мелководным прибрежным водам [2:10; 4:128; 11:27].

Дизайн и строение корабля зависело от возложенных на нее функций. Ключевыми кораблями во флоте были *корабли-сокровищницы,* их функция заключалась в демонстрации мощи Китая, с целью побуждения других народодов вступить в систему дани. Корабли перевозили китайские товары, войска и домашний скот [6:77].

На конференции под названием «Venture Toward the Seas», проходившей в Тайбэе в сентябре 2001 года, Синь Юань'оу, инженер-кораблестроитель и профессор истории науки Шанхайского университета Цзяотун, представил доклад «Технический анализ размеров кораблей Чжэн Хэ» («关于口和宝船气度的技口分析», Гуаньюй Чжэн Хэ баочуань циду де цзишу фэнши*)*. В этой статье он утверждал, что корабли Чжэн Хэ не могли быть такими большими, как записано в официальной истории Мин (明史, «Мин ши»). Согласно этой работе, корабли, построенные для морских экспедиций Чжэн Хэ, имели длину 44 *чжан*[4] и ширину 18 *чжан*, что соответствует 447 *футов* на 183 *фута* [11:50].

Согласно «Минши», официальной истории Мин, *корабли-сокровищницы* имели размер 447 на 183 *фута* [1:2]. Согласно научной статье Салли К. Черч «Чжэн Хэ: Исследование достоверности 450-футового корабля-сокровищницы» настоящие

---

[1] Лунцзян – река в провинции Фуцзянь (КНР).

[2] Янцзы (长江, «Длинная река») – самая длинная и многоводная река Евразии, третья в мире по полноводности и четвёртая в мире по длине.

[3] Нанкин (南京) – бывшая столица Китая, порт в низовьях реки Янцзы, место пребывания властей провинции Цзянсу.

[4] *Чжан* – единица измерения длины в Китае, равная приблидительно 3,333 м.

размеры этих кораблей в Лунцзяне были, вероятно, ближе к 200-250 футов в длину. Черч основывает свою аргументацию на выводах профессора Синь Юань'оу [1:3; 11:65].

По Леватесу длина кораблей варьировалась от 400 до 440 *футов* при ширине от 160 до 180 *футов*, что, в свою очередь, требовало сооружения сухого дока шириной до 210 *футов* на док, а длина каждого из семи сухих доков составляла 1500 *футов* [6:77]. Но фактический размер *кораблей-сокровищниц* был спорным, пока в 1957 году археологи не обнаружили на верфи Лунцзян огромный руль длиной 36,3 *фута*, открытие которого уточнило существующие записи. Так размер сухих доков в Лунцзяне шириной 210 *футов*, достаточно большие, чтобы вместить корабль шириной 166 *футов*. Из этого следует, что длина корабля составляла примерно 390-408 *футов*, а ширина – 160-166 *футов*. При водоизмещении 10000 и более тонн это, несомненно, были самые большие деревянные парусные корабли, когда-либо построенные в мировой истории, затмевавшие флагман Колумба[1] «Св. Марию»[2], который был всего 85 *футов* в длину [13:480].

Строительство *кораблей-сокровищниц* начиналось с укладки корпуса и переборок. Они были сделаны из вяза, камфары, софоры и кедра; руль тоже был из вяза. Киль кораблей был связан железными обручами, предположительно для усиления конструкции деревянного хребта [3:199; 6:77].

Каждая из *кораблей-сокровищниц* имела 9 мачт, сделанных из ели, с расположением мачтовых балок не по осевой линии, а с чередованием левого и правого борта [8]. Нецентральная компоновка мачт позволяла парусам, их количество было 12, поворачиваться на гораздо большей площади, чем конструкции западного образца. Сами паруса были сделаны из прочной шелковой ткани красного цвета [6:82; 10:27]. Менее заметные аспекты кораблестроения были столь же необходимы и жизненно важны для успеха на море, как и их общая планировка и конструкция. Гидроизоляция производилась смесью тунгового масла, которая использовалась на китайских кораблях с VII века.

---

[1] Христофор Колумб (1451-1506) – испанский мореплаватель итальянского происхождения, в 1492 году открывший для европейцев Новый Свет (Америку).

[2] Санта-Мария (Святая Мария) – флагманский корабль, на котором Христофор Колумб в 1492 году открыл Америку.

Корпуса были острыми, как ножи, для преодоления больших волн, а также высокие носы и корма с килем на дне корпуса для повышенной устойчивости в открытом море. Также были добавлены широкие нависающие палубы: самый нижний был заполнен камнями и песком для балласта; на второй палубе были жилые помещения для моряков и складские помещения; третья палуба включала кухню, открытое пространство и мостик управления; а четвертая палуба представляла собой боевую платформу, вооруженную двадцатью четырьмя бронзовыми пушками с дальностью стрельбы 800-900 футов. Корабли были усилены прочными носами для тарана небольших лодок и сбалансированным рулем направления, который можно было поднимать и опускать, в качестве дополнительного киля [10:27]. Хоть эти корабли и не были построены для ведения войны, они все же были в состоянии защитить себя в случае необходимости. Но, военную защиту оказывали эскортные суда *фучуань* 165-футовой длины и 5-мачтовой конструкции, состоящие во флоте [4:129].

Переборки были герметизированы по отношению к палубе над ними и корпусу внизу, образуя водонепроницаемые бастионы, которые значительно повышали структурную стабильность огромных кораблей. Эта конструкция разделения на отсеки получила широкое распространения на западе лишь с появлением гражданского лайнера Титаник[1] в 1911 году – более чем через 600 лет после его первого использования во флоте Чжэн Хэ [5]. Полагается, что для навигации был использован электромагнитный компас времен династии Сун[2] [4:129].

Как описывает Леватес: «… *Корабли-сокровищницы* были роскошными. Там были большие каюты для имперских посланников, а оконные залы и вестибюли были украшены балконами и перилами. Трюмы корабля были заполнены дорогими шелками и фарфором для торговли с зарубежными странами» [6:82].

По данным «Инъя Шэнланя» (瀛涯□□), в 11-й год правления Юнлэ (1413 г.) флот насчитывал 27670 человек личного состава, в

[1] Титаник – британский трансатлантический пароход, второй лайнер класса «Олимпик». На момент ввода в эксплуатацию являлся самым большим судном в мире.

[2] Империя Сун (宋朝) – государство в Китае, существовавшее с 960 по 1279 гг.

том числе 27238 военнослужащих. Всего флот насчитывал около 200 кораблей (船舶) [12]. Флот состоял из пяти типов кораблей, три из которых являлись военными (□用船只), а именно: *конные корабли* □船 *(мачуань),* лодки 坐船 *(зоучуан)* и военные корабли □船 *(чжань чуан)* [7:154].

Кроме *кораблей-сокровищниц* в состав флота, входили и другие специализированные суда различных размеров: восьмимачтовые *конные корабли,* на которых перевозили лошадей и строительные материалы, необходимые для ремонта флота в море, семимачтовые *корабли снабжения*, содержащие основные продукты питания для экипажа, *военный транспорт*, в которых размещались припои, и танкеры с пресной водой, доставлявшие достаточно воды для непрерывного плавания в течение одного месяца или дольше. Флот также имел два типа боевых кораблей, предназначенных для использования против пиратов. Корабли были оснащены большими сигнальными флагами, колоколами, барабанами, гонгами, фонарями и почтовыми голубями для связи друг с другом во время путешествия [5]. Высшими командирами флота были евнухи разных рангов. Экипажи флота включали офицеров, сотрудников Министерства обрядов (отвечающего за иностранные дела), старших секретарей Министерства доходов, астрологов и геомантов, переводчиков, знающих арабский и другие языки Центральной Азии, а также ряд офицеров-медиков и фармакологов, задача которых заключалась в сборе трав. Остальную часть экипажа составляли обычные моряки и солдаты, а также кузнецы, конопатчики и плотники для проведения необходимого ремонта [10:27].

К 1474 году флот уменьшился до одной трети, а к 1503 году осталась лишь десятая часть его пикового размера. В 1500 году за выход в море на корабле с более чем двумя мачтами без специального разрешения для китайцев стало уголовным преступлением. Позже чиновникам было разрешено уничтожать крупные корабли. Частные купцы и корабелы бежали из морских провинций и подвергались суровым наказаниям за участие в международной торговле, некоторые нашли работу вдоль

Большого канала[1] и многие другие обосновались в заграничных китайских общинах по всей Юго-Восточной Азии, что впервые стало важной особенностью региона в первые годы правления династии Мин. Более того, подозрение, что те, кто занимался прибрежной торговлей, контактировали с некитайцами за пределами досягаемости центральной власти и имели склонность к контрабанде, запретили жителям прибрежных районов заниматься торговлей. Это, в свою очередь, привело к возникновению пиратства у побережья Китая, где Тайвань стал главным центром активности. Это развитие событий, в котором часто обвиняют японских пиратов (которые, в основном, были китайского происхождения), привело к тому, что население целых районов было перемещено от побережья, чтобы «уморить пиратов голодом» и пресечь контрабанду, а также уничтожить навыки мореплавания, необходимые для этого [2:12].

С XV века отношение к экспедициям Чжэн Хэ стали противоречивыми. Ученые-конфуцианские чиновники были обеспокоены доверием императора к евнухам и считали такие дорогостоящие экспедиционные мероприятия бессмысленной тратой ресурсов. Они уничтожили морской журнал Чжэн Хэ и намеренно оставили *корабли-сокровищницы* без необходимого смотра, чтобы предотвратить их возможное использование в будущем. Навыки мореплавания Императорского Китая так и не были восстановлены, и эти путешествия редко упоминались позже в официальных династических записях [10:29].

Таким образом, рассмотрев несколько взглядов относительно реальности размеров кораблей Чжен Хэ, можем прийти к выводу, что корабли были поистине крупных размеров. Они были продуманы до мелочей и хорошо оснащены. Была налажена связь между кораблями, все корабли и лодки, входящие в состав экспедиции, имели свои функции и четко следовали инструкции. Инженерное и техническое превосходство было явным не только по отношению к своему времени, но и по отношению к недалекому прошлому – XX веку.

---

[1] Великий канал (大运河) – судоходный канал в Китае, одно из древнейших ныне действующих гидротехнических сооружений мира, соединяет крупные порты страны Шанхай и Тяньцзинь.

Использованная литература

1. Church S. Zheng He: An Investigation into the Plausibility of 450ft. Treasure Ships. – Monumenta Serica, vol. 53, 2005. – 43 p.
2. Cook T. Zheng He and Chinese expansion // Chinese and European expansion. – P. 5-12.
3. Dryer E. Zheng He and the Oceans of the Early Ming Dynasty, 1405-1433. – New York: Pearson Education, 2006.
4. Dwinnels Mark. Lost Leviathans: The Technology of Zheng He's Voyages. Undergraduate Review, 4. – Massachusetts: Bridgewater State University, 2008. – P. 127-131.
5. Guan Jincheng. Zheng he xia xiyang de chuan // Zheng He Yanjiu bainian lunwen ji. 郑和下西洋的船 //郑和研究百年论文集 (Корабли путешествия Чжэн Хэ в Западный океан). 北京：北京大学出版社, 2005。68-71 页.
6. Levathes Louise. When China Ruled the Seas, The Treasure Fleet of the Dragon Throne, 1405-33. – New York: Simon and Schuster, 1994. – 256 p.
7. Li Sogzhu. Zheng he xia xiyang dui jiejue nanhai zhengduan di qishi.李松竹. 郑和下西洋对解决南海争端的启示. (Просветление путешествий Чжэн Хэ в Южно-Китайское море для разрешения споров в Южно-Китайском море). – 重庆科技学院学报（社会科学版）2010 年第 3 期。– 154-160 页.
8. Sandström F. "The Square Rigging" *Sailing Ships* (accessed 2 December 2007) // http://sailing-ships.oktett.net/square-rigging.html
9. Twitchett D., Mote F. The Cambridge History of China: The Ming Dynasty 1368-1644, Part 1, Vol. 7. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 232 p.
10. Yang Wei. Admiral Zheng He's Voyages to the "West oceans" // Education About ASIA. Volume 19, Number 2. – Columbia University Press, 2014. – P. 26-30.
11. Weisser P. The admiral's carrot and stick: Zheng He and the Confucius institute. – San Bernardino: California State University, 2018. – 232 p.

12. Zhang Tingyu. Mingshi: Huanguan chuan.张廷玉。明史：宦官传。(История династии Мин: биография евнуха). – 中华书局，1974。

13. Zhou Shide. Cong baochuanchang duo gan de jianding tuilun zheng he bao chuan. 周世德。从宝船厂舵杆的鉴定推论郑和宝船. (Оценка руля с верфи сокровищ и вывод о кораблях с сокровищами Чжэн Хэ). –《文物》，1962 年第 3 期。– 72-81 页。

ТАСАВВУФ ФАЛСАФАСИ ВА АДАБИЁТИНИНГ ГЛОБАЛ АҲАМИЯТИ

Раҳмонбердиев Исломбек,
ТДШУ магистранти
Илмий раҳбар: ф.ф.д., доц. Ж. Холмўминов,

Замонавийлик дунёвий феномен сифатида замонавий назариётчиларнинг урф-одатлар ва динга қарши қарашларида ниҳоятда кучли таъсирга эга. Ушбу икки элемент секуляризм тараққиёти глобаллашиб бориши натижасида кучсизланиб бораёт-гандек. Бироқ, секуляризм тарафдорларининг давлат бошқаруви ва демократия хусусидаги қарашлари ва уларнинг ваъдалари ўзини оқламади.Ушбу вазиятда Ислом ҳаракати ҳақиқий Исломни қайтариш ғоясини илгари суриши модернизм ва дин ўртасидаги замонавий муносабатларга яққол мисолдир.[1]

Бир томондан кўп маданиятли, бир томондан эса глобаллашув жараёнида ягона иқтисодий макон ва ягона маданиятга қараб кетаётган даврда,Тасаввуф таьлимоти ислом дунёсида сокинлашиб, яккаланиб қолган. Исломшунос тадқиқотчилар тасаввуфнинг инқирозига икки омилни асосий сабаб қилиб кўрсатишади: тасаввуф аҳлининг Ислом жамиятига бўлган ишончининг йўқолиши; шариат аҳлининг ҳақиқий Ислом таълимотидан узоқлашиб, шариат буюрган ибодатларни адо этишда нуқсонларга йўл қўйиши. Шунингдек, номусулмон жамиятли Ғарбнинг тараққиёти мусулмон давлардан кўплаб жиҳатларда устунлик қилишмоқда. Ушбу кўп маданиятли ва глобаллашув замонида, кўплаб мусулмонларнинг дунёқараши прагматик кўриниш ола бошлади.

Прагматик дунёқараш капитализм ривожи фонида инсониятга ниҳоятда катта босим ўтказмоқда. Ғарб мамлакатларида “Фаровонлик жамияти” ўтган асрнинг саксонинчи йилларига қадар ўрнатилган бўлсада,инсониятнинг бахт-саодатга эришуви ҳақидаги секуляризм тарафдорлари ва прагматик сиёсатчилар илгари сурган ғоялари ўзини оқламаганини бугунги кунда ривожланган

[1] Achmad Ubaedillah,”Sufi Islam And the nation state:Durul Arkam movement in the post Suharto er of Indonesia”. Indonesian journal of Islam and Muslim Societies 5,no.1(2015):80.

мамалакатлардаги суитситситлар,турли жиноятлар ва ахлоқий бузуқликлар кўрсаткичлари ўсиб бораётгани бунга яққол далилдир. Демократик жамиятларнинг асосий шиори бўлмиш “инсон ҳуқуқлари ва хоҳишлари олий қадрият”лиги натижасида ҳозирги кунда Ғарб мамлакатлари ўз қонунчилигига бир қанча инсонийликка зид бўлган ахлоқсизликларни ўз мамлакатларида легитимлаштириш га мажбур бўлмоқда. Шветсарияда инсон яшашни истамаса уни ўз талаби асосидаосон йўл билан ҳаётига нуқта қўювчи Сарко номли 3-д мосламалар ҳукумати томонидан рухсат берилган. [1] Ғарб мамлакатлари, жумладанНидерландия, Германия, Белгия, Люксембург, Канада, Колумбия каби иқтисодиёти барқарор ривожланган мамлакатларда кузатилиши[2] демак, иқтисодий ривожланиш ва фаровон ҳаёт ҳар доим ҳам инсонга бахт олиб келмайди деган хулоса чиқаришга олиб келади. Бир сўз билан айтганда, капитализм инсониятга фойдадан ташқари катта зарар ҳам келтирмоқда.

Ушбу фикрни Ғарб жамияти зиёли қатлами томонидан эътироф этилиши[3] ушбу хулосани қанчалик тўғри эканлигини исботлайди. Ғарбда “Коммунизм миллионлаб инсонларни ўлдирди, капитализм ҳам”[4] номли қараш ҳозирги кунда шаклланиб бўлган. Капитализмга фашизмга ёқилғи вазифасини бажарди.[5] Ғарбда капитализм бир қанча урушларга сабабчи бўлгани омили ҳам кўтарилиб, инсоният муштарак ғоялар билан тинч-тотув яшаш ўрнига, салбий рақобат қилиб қон тўкиши ҳақида бир қанча файласуфлар томонидан бот-бот такрорланмоқда.

XIX асрда яшаб ижод қилган рус файласуфи ва жамиятшуноси М.Бакунин инсон хохиш ва майлларининг эркинликликлари мавжуд ахлоқий кодекслар доирасида бўлса позитив анархизм, агар бунинг тескариси бўлиб унга ҳукумат ва жамият томонидан мақулланса негатив анархизмга сабаб бўлади, дея таъкидлаган ҳам ушбу икки атамани фанга қўшган. Негатив анархизм бугунги кунда Ғарбда қанчалик қарор топди? Бугунги кунда ғарб маданияти ва

---

[1] Insider.3 d-printed suicide pods are now legal in Switzerland.
[2] Nicola Davis “Euthanasia and assisted dying rates are soaring”. Guardian.
[3] George Monbiot”Capitalism is killing the planet-it is time to stop buying into our own destruction”.Guardian.
[4] Umar Haque “If Communism killed millions,Capitalism too”.Eudaimonia.july-2018 .
[5] Umar Haque “When ideas becomes ideology,The prise is us”. Eudaimonia.july-2018 .

унга сингиб кетаётган ахлоқий бузуқликлар ҳамда Ғарб орқали кириб келаётган оммавий маданият инсониятни ахлоқий таназзулга бошлаётгани бугунги кунда сир эмас. Бакуниннинг неагтив анархизм[1] қарор топганлигини Ғарбда инсоний фитрат ва табиатга бутунлай зид бўлган бир жинсли никоҳ, ўз жинсини ўзгартириш ҳуқуқи, ўз жонига қасд қилишда ҳукуматнинг амалий ёрдами каби инсон эшитса сесканадиган тушунчалар бугун инсониятни иқтисодий ривожланиш қатори ушбу муаммоларни ҳам келажак авлод учун зудлик билан ҳал қилиш кераклигини кун тартибига қўймоқда. Ушбу рўй бераётган воқеалар фонида христиан оламида одамларнинг черковга бўлган ишончи кескин тушиб кетиб, айримлари динсизликни, катта қисми эса ислом динини ихтиёр қилаётгани айни ҳақиқат. Статистик маълумотларга қараганда, 2016 йилга қадар Ғарбий Европа аҳолиси исломни қабул қилиш кўрсаткичи сезиларли 11% ни ташкил қилган бўлса, ушбу кўрсаткич 2050-йилга қадар 16% дан кам бўлмаган ҳолатда етиб бориши башорат қилинган.Ушбу кўрсаткич миграция омилидан ҳоли эканлиги фактдир.[2] Ушбу кўрсаткич иқтисодий фаровонлиги юқори Скандинавия давлатлари, Франция, Германия, Нидерландия, Белгия, Буюк Британия, Австрия, Шветсария каби давларда 12% дан юқори кўрсаткичдалиги фикримиз исботидир. Европа мамлакатлари нафақат исломни қабул қилиб ислом шариати буюрган амалларни адо этишга ўтмоқда балки, иқтисодиёти ва сиёсатига ҳам исломий ҳкумларни жорий этаётгани ҳақиқатдир.Ислом молияси атамаси бугунги кунда дунё бўйлаб иқтисодиётга кенг қилинаётган дастур ҳисобланади.[3]

Европа олимлари тасаввуфни ислом динининг алоҳида бир ячейкаси сифатида талқин қилиб, “Sufism” (Германия ва Францияда ҳам шундай) атамасининг сўнгги “исм”(изм) қисми унинг алоҳида бир ғояга эга тарихий мактаб эканлигининг исботидир.[4] Мутафаккирлар ”Тасаввуф исломнинг фундаментал ажралмас қисми бўлиб, Имон, Ислом, Эҳсон номли устунларининг Эҳсон қисмига тўғри келади. Имондан дин (қалам), Исломдан

[1] Woodcock, George (1962, 1975). Anarchism, 158. Harmondsworth, England: Penguin Books. ISBN 0-14-020622-1.
[2] Muslim Population Growth in Europe | Pew Research Center (pewforum.org)
[3] Islamic Finance in Europe (deloitte.com)
[4] Annemarie Schimmel, Dim e nsi Mistik Dalam Islam (Jakarta: Pustaka Firdaus, 2002), 52.

шариат, Эҳсондан эса тасаввуф вужудга келди”,[1] деган фикрни тасдиқлайдилар.

Инсон онги ва феъл-атвори бевосита ўзида кўплаб фактлар ва қадриятларни жам қилади. Улардан бири бўлмиш факт асосан илм-фандан, қадриятлар эса диний ва диний бўлмаган фалсафалар, хусусан, гуманизм ва экзистенциализмдан қувват олади.[2]

Руҳият диний фалсафанинг ажралмас қисми бўлиб, қадриятларни белгилаб бергани учун инсониятнингруҳий камолот бағишлайди. Шуни англаган ҳолда,1884-йилда [3] Бутунжаҳон Соғликни Сақлаш Ташкилотининг 37-Халқаро Ассамблеясида руҳий саломатликни ижтимоий ва маданий жиҳатдан инсон саломатлигининг асосий қисмларидан бири эканлиги белгиланган.Инсон руҳиятини ўрганиш Ғарбий Европанинг тиббиёт мактаблари илмий машғулотлари рўйхатига киритилган.[4] Руҳий саломатлик нуқтаи назаридан, руҳият ушбу соҳада бошқа ўринларда “қалб”, “кўнгил” атамалари билан ҳам қўлланилади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, инсон саломатлигига ёндашувнинг ушбу кўриниши биқ қанча позитив, баъзи ҳолларда негатив натижаларни фанга тақдим қилган. Ушбу тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мазкур ёндашув инсон саломатлигига фойда келтириши кўрсаткичи зарар келтириши ёки ҳеч қандай фойда келтирмаслигидан анча юқоридир.[5] Тасаввуф нафақат мусулмон оламида, балки номусулмон оламида ҳам кенг ёйилган, Шарқдан Ғарбга томон ёйилиб бораётган ўзига хос маънавият шакли бўлиб, уни маънавий, руҳий фойдаси нуқтаи назаридан тадқиқ қилиш керак.[6]

ХУЛОСА

---

[1] M. Amin Syukur, Tasawuf Kontekstual Solusi Problem Manusia Modern (Yogyakarta: Pustaka, 2003), 112.

[2] Fulford KW. Religion and psychiatry: Extending the limits of tolerance. In: Bhugra D, editor. *Psychiatry and Religion: Context, Consensus and Controversies.* London: Routledge; 1996. pp. 5–22. [Google Scholar] [Ref list]

[3] Basu S. How the spiritual dimension of health was acknowledged by the world health assembly — A report. New Approaches Med Health. 1995;3:47–51. [Google Scholar] [Ref list]

[4] Br J Psychiatry. 1994 Oct; 165(4):441-6.

[5] Pathways to postoperative hostility in cardiac patients: mediation of coping, spiritual struggle and interleukin-6. *Ai AL, Pargament K, Kronfol Z, Tice TN, Appel H. Res Nurs Health. 1987 Dec; 10(6):391-8.* [PubMed]

[6] S. Haque Nizamie, Mohammad Zia Ul Haq Katshu, and N. A. Uvais“Sufism and mental health” Indian J Psychiatry. 2013 Jan; 55(Suppl 2): S215–S223.doi: 10.4103/0019-5545.105535

Айни пайтда соғлом ақл билан тафаккур қилиб, бир ҳақиқатни тан олиш фурсати етиб келди: Тасаввуф XXI асрга келиб, глобал маънавий-руҳий ҳодиса сифатида ўзлигини намоён эта бошлади. Зеро, “бугунги кунда Ер шарининг ЯпонияданАмерикагача бўлган ҳудудлари оралиғида Тасаввуф таълимотини фавқулодда қизиқиш билан ўрганиш жараёни бошланган. Бугунги кунда бу исломий тафаккур ва ҳаёт тарзи – Тасаввуф ва унинг фалсафаси, бадиий адабиёти, ҳаётбахш ғояларини мусулмонлар билан биргаликда турли дин ва миллат вакиллари ҳам ўрганишга бел боғлашган. Нега? Чунки тобора маънавий қашшоқлик, ахлоқий тубанлик ва руҳий инқирозлар гирдобига тушиб бораётган инсоният Тасаввуфнинг руҳий тарбия усулларидан фойдаланишга муҳтож бўлиб бормоқда”.[1]

Хулоса қилиб айтганда, Тасаввуф таълимотини эскирган матоҳ сифатида баҳолаш катта хато эканлигини инсоният тарихий тажрибаси кўрсатиб бермоқда. Зотан, иррационал билиш усулига асосланган, аммо, шунингдек, рационалистик билишни ҳам бутунлай инкор этмайдиган ушбу диний-фалсафий таълимот Ер шарининг катта қисмида ўзининг салкам 1300 йиллик мавжудлиги давомида такомиллашиб бориш ва модернизациялашиш имкониятлари кенглигини исботлаб берган. Бу ҳолатни айниқса, ҳам Шарқ ва ҳам Ғарб дунёсида кенг тарқалган Мавлавия (Мавлоно Жалолиддин Румий асос солган) ва Нақшбандия (Хожа Баҳоуддин Нақшбанд асос солган) каби ирфоний тариқатлар мисолида ҳам кўриш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. / Форс тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси.Тошкент: “Маънавият”, 1997.

2. Жаъфар Холмўминов. Тасаввуф онтологияси. – Тошкент: “Yosh avlod matbaa”, 2021

3. Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал Жазарий. Тасаввуф сирлари . –Тошкент, 1999.

4. Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Термиз, 2007.

[1] Жаъфар Холмўминов. Тасаввуф онтологияси. – Тошкент: “Yosh avlod matbaa”, 2021. – Б.15.

5. Nicholson R.A. The Idea of Personality in Sufism. – New Delhi, 1976.
6. Гольдциер И. Лекции об исламе. – Санкт-Петербург: Брокгауз-Ефрон, 1912.
7. Бартольд В.В. Учёные мусульманского «Ренессанса». //Соч. Т. VI. – Москва, 1966
8. سعید نفیسی، . ایران در تصوف های سرچشمه. - . - ص. ۱۰۵ تهران، ۱۳

YUNUS EMRE VA PANTEIZM

Quvatov Javohir Umar o‘g‘li
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi J.B. Sulaymonov

Yunus Emrening ijodida tabiat va Alloh masalalari juda ko‘p uchraydi. Shu boisdan ba’zi olimlar uni panteist bo‘lgan deb ham fikr bildirishgan. Yunus Emrening panteist ekanligi haqidagi da’voni birinchi bo‘lib Fuat Ko‘prulu aytgan. Bundan tashqari, Rizo Tevek Bo‘lukbashi, Sofi Huri, Talat Sait Xalman, Adnan Sayg‘un, Sabahattin Eyyubog‘lu, Abdulla Rizo Erguven kabilar ham Yunus Emreni panteist sifatida ko‘rishgan.[1]

Xususan, Rizo Tevfik: “Yunus Emre va uning mukammal ijodiy namunalarini falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilsa, biz uning qarashlarini panteistik idealist tarafdori sifatida olishimiz mumkin. Nima bo‘lganda ham tasavvufda falsafiy qarash bo‘lgan borliq bilan umumiylik hosil qilish nazariyasi bunga ishora qilmoqda. Yunus Emre yangi Aflotunchilik yo‘nalishini ikkinchi yoki uchinchi tomondan olgan; aynan shu sababdan unda falsafiy qarashlarni o‘zgargan islomiy ko‘rinishda qabul qilishiga sabab bo‘lgan. Uning sherlaridagi ma’nolar asosga ega. Yunus Emre hech narsani o‘z-o‘zidan ijod qilmadi, uning barcha falsafiy satrlari va aqidalari yangi Aflotunchilik natijasidir.[2] Rizo Tevfik panteizmni modda birligi bilan tenglashtirib, quyidagi fikrlarni aytadi: “Panteist ya’ni moddaning birligiga, hamma narsada yaratuvchi borligiga ishonch hosil qilgan inson “idealizm” tarafdoridir. Aynan Yunus Emreni panteist deyishning asosi ham shu yerda akslangan desak bo‘ladi. Qaysiki, Yunus Emre o‘z ijodida yaratganni jamiki mavjudlikda akslanishiga, unda uning bir bo‘lagini ko‘rishga intilishi ortidan uning olam podshosi sifatida tasvirlanishi bu uni moddiyat bilan bir joyga qo‘yadi: “Soyamda akslangan sifatsan, bog‘ingdan bog‘imga kelgan ey gul”

Sofi Huri shunday deydi: «Yunusning tabiat kuchlari va inson hayoti bilan panteizmga e’tiqodi u boshidan kechirganlarini o‘zida his qilishi va shu orqali o‘zligini topgani bilan o‘lchanadi.[3]

---

[1] Nurullah ÇETİN DTCF Dergisi Yunus Emre Özel Sayısı | 2021
[2] Uchman, bilgili kitapi 1982, 37-bet).
[3] Nurullah ÇETİN DTCF Dergisi Yunus Emre Özel Sayısı | 2021

Aynan insonni ilohiylikka da'vosi sifatida ko'riladigan ruhning birligi g'oyasi, ba'zida borliqni ham ilohiy qilib qo'yadi. Qaysi ma'nodaki, mavjudlikning asosi dastlabki substansiya bilan uyg'un ekan, demak u ham o'zida ilohiylik kasb eta oladi degan qarashni yuzaga keltirib qo'yadi. Ayni shu kabi qarashni turk olimi Ta'lat Sait Xalman quyidagicha keltiradi: "Turk she'riyatida ilk bor Xudo va insonni umumiylashtirish va shu orqali uni ya'ni insonni ilohiy qilgan shoir Yunus Emredir".[1]

Yana bir turk olimi Abdulloh Rizo Erguven ham aynan Yunus Emre ijodini alohida o'rganishi ortidan uning qarashlarida panteistik mohiyat ustun degan xulosa keladi. Uning fikricha panteizmni o'zi bu zaruratdir. Ayni so'z yuritilayotgan davrda hali bu dunyoqarash vakillari bo'lmagan, ammo ushbu qarashni ma'lum bir elementlarini o'zida akslantirgan yunon falsafasi bor edi. U aynan shunga urg'u bergan holda Yunus Emreni qisman qadimgi yunon falsafasidan xabardor bo'lgan degan qarashni ilgari suradi. "Bu ijod bevosita Yunusda rivojlanib o'sgan xudoning ramzlari. Xudo sizning butun borlig'ingizni qamrab oladi. Sizning borligingiz hamma narsani qamrab oladi Bu esa har bir kukunda siz borligingizni bildiradi. Qismlari bir-biriga bog'liqligi kabi bu ijod koinotda mavjud bo'lgan udir va o'sha Yunusning bir qismidir!"[2]

Yunus Emreni panteist deb ta'riflaganlarni Anqara universiteti professori Nurulloh Chetin shartli ravishda ikki guruhga bo'ladi.

1.Mahalliy sharqshunoslar: Bular sharqshunoslikni zamonaviy dunyo o'lchamlariga moslashtirish va shu orqali turk-islom madaniyatini yoyishni maqsad qilganlar. Ular ayni voqeliklarni zamonaviy dunyoga yaqinlashtirishni yo'li qadriyatlarini g'arbliklar nuqtai nazaridan baholash, g'arb terminologiyasidan foydalanuvchilardir. Masalan, tasavvufdagi vahdat ul-vujud masalasini, ya'ni tananing birligi tushunchasini ular panteizm atamasi bilan ifodalab, bu ikki tushunchani tenglashtiradilar va ayni mantiqdan kelib chiqib Yunus Emreni pantiest sifatida tasvirlashadi. Yunus Emreni panteist sifatida talqin qilishdan maqsad, turk-islom madaniyati, e'tiqod tizimi va qadriyatlar tizimini g'arb tushunchalari bilan tushuntirish va G'arb tafakkuriga integratsiya qilishdir.

---

[1] Nurullah ÇETİN DTCF Dergisi Yunus Emre Özel Sayısı | 2021
[2] Nurullah ÇETİN DTCF Dergisi Yunus Emre Özel Sayısı | 2021

2. Taqlidchilar: Ikkinchi guruh Yunus Emreni panteist deganlarni fikri o‘laroq o‘ylashadi va o‘zlari mushohada qilishni xohlamaydi yoki qilolmaydiganlardir. Shuning uchun ham bu toifa jiddiy qabul qilinmaydi.

Panteizmga ko‘ra, Xudo va borliq birdir. Yaratilish yoki yaratilish yo‘q. Gegelga ko‘ra koinot yaratilmaydi, u tabiat qonunlariga muvofiq davrdan davrga o‘zgaradi. Sabab oqibat kategoriyasi orqali biri o‘z vaqtida ikkini talab qilib kelaveradi. Uning fikricha, Xudo ham sodir bo‘ladigan sababdir. Panteizmning yana bir namoyondasi Spinozaning fikricha, Xudo yaratuvchi emas. Xudo borliq bilan birga deterministik tuzilishga aylanish jarayonini boshdan kechiruvchi haqiqatdir. Spinozaning qarashlarida mavjud bo‘lgan hamma narsa biron sababga ko‘ra mavjud bo‘lishi kerak va uning aytishicha, hamma narsa bir-biriga sabab-oqibat munosabatlari bilan bog‘liqdir.[1] Biroq, bu yondashuv dunyo dinlari tomonidan ta’riflangan "Xudo" tushunchasiga to‘g‘ri kelmaydi. Tasavvufda, tavhid masalasida, Xudo avval va doim mavjuddir deb qaraladi. Bu boshqa sababga bog‘liq emas, ya’ni avval dastlabki u. Qolgan harakatlar esa yaratiladi va ularning yaratilishi, yaratuvchisi Allohning sababiga bog‘liq, ya’ni ular Yaratuvchi bilan doimiydir. Yunus Emre esa islomiy e’tiqodga ko‘ra ijodni qabul qilgan. Shu boisdan uning so‘zi bu islom orqali baholanishi kerak, agar ayni shu tarzda yondashilsa Yunus Emre ulug‘lagan inson obrazi ramziylik kasb etadi. O‘z-o‘zidan tabiat va borliq umumiyligi nazariyasini Yunus Emre ijodidan izlash va uni sharhlash ko‘proq legizm maktabi vakillarining yondashuvi kabi xarakterlanishi mumkin. Umumiy olib qaraganda Yunus Emre o‘rtasidagi bahslar markazida ham uning aynan fikriy mansubligi asosiy o‘rin egallaydi. Qaysi ma’nodaki, mavjud realliklar bilan taqqoslaganda Yunus Emre anchayin edialist ijodkor. Shu boisdan uning she’riyatida biz bevosita sofistik mavhumliklarni anchayin sodda shaklda ko‘ramiz. Ammo bu degani uning ijodi badiiy bo‘yoqdorlikdan holi degani emas. Yunus Emreni biz naturalist sifatida ham tasavvur qilishimiz mumkin bo‘ladi, qaysiki mavjudlik va atrof haqidagi qarashlari bizni shu hukmni berishga undaydi. Ammo bunda ham bir g‘alizlik bor, ya’ni undagi naturalistik ko‘proq majoz bilan o‘ralgan. Bu esa o‘z o‘rnida umuman boshqa hukmning tushunchasi bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Erdem, H. (1990). Panteizm ve Vahdet-i Vücud Mukayesesi. Ankara: Kültür Bakanlığı.

Islom falsafasi bilan shug‘ullanuvchi professor Remzi Demir fikricha, “Tusavvufiy dunyoqarashga oid asarlarda so‘fiylik paydo bo‘lgan davrdan to hozirgi kungacha, falsafiy dunyo bilan son-sanoqsiz qarama-qarshiliklar ko‘zga tashlanadi. Bu qarama-qarshiliklarning eng muhimi so‘fiylik falsafasining bir tomondan panteizm, ikkinchi tomondan islom bilan bog‘liqligidir. Bu borada Yunus Emre merosiga murojaat qilsak yechimga biroz yaqinlashganday bo‘lamiz. Bugungi madaniyat va falsafiy tadqiqotlarda panteizm haqidagi turli fikrlarga duch kelamiz. Bizningcha, sharq va g‘arb panteizmi deb tushuniladigan panenteizm, teofanizm kabi tushunchalar so‘fiylik panteizmini tushunishga yordam berishdan ko‘ra to‘sqinlik qiladi. Avvalo, “panteizm” ilmiy kategoriya sifatida dunyoning barcha geografik mintaqalarida umumiy ma’noga ega bo‘lishi kerak. Sharq va g‘arbiy panteistik ta’limotlarni tipologik taqqoslash buni yaqqol ko‘rsatadi. Biroq, taqqoslashda o‘sha davr vakillarining asarlaridan foydalanish kerak. XII-XIII asrdagi Sharq panteistlarining asarlarini Spinoza asarlari bilan taqqoslash, odatda, ilmiy ahamiyatga ega emas.”[1] Yuqoridagi fikrning qiymati davrlar o‘rtasidagi va ayni tushunchalarning makon va zamonda farqlanishini hisobga olishni ta’kidlamoqda. Bu nima degani? Remzi Demirning fikricha Yunus Emre yashagan zamon va makonda uning qarashlari ayni uning diniy mansubligi ortidan bo‘lgan. Bu esa uni biz panteist deb hisoblasakda aynan uning o‘zi borliqni anglashda o‘z damenanti hisoblanmish dindan foydalangan. Natija biz uning fikriy qarashlaridagi ma’nolarni tabiat falsafasiga yo‘naltirsakda, mohiyatan u islomda akslangan. Bu munozarada eng asosiy bo‘g‘in shundan iboratki, Yunus Emre o‘z qarashlarida ikki qirg‘oqqa ham joy tashlab ketgan va hosila o‘laroq bugun bu qirg‘oqning qaysi birida Emrening o‘zi borligi hamma uchun ochiq bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prof. Dr. Remzi Demir – Muhalif filozof Yunus Emre ve Türk panteizm Bilim ve Utopya jour.
2. Erdem, H. (1990). Panteizm ve Vahdet-i Vücud Mukayesesi. Ankara: Kültür Bakanlığı.

[1] Prof. Dr. Remzi Demir – Muhalif filozof Yunus Emre ve Türk panteizm

3. Nurullah ÇETİN DTCF Dergisi Yunus Emre Özel Sayısı | 2021 Ankara ins.
4. Mustafa Tatcı. "Divan-ı Yunus Emre" (PDF). Kültür ve Turizm Bakanlığı, E-Kitap. Erişim tarihi: 11 Ocak 2014
5. Yunus Emre ve Mistizm, İBRAHİM SAĞIR .2021
6. "Yunus Emre Divan ve Risaletü'n-Nushiyye", Mustafa Tatcı 1994.

SIRXAK FALSAFIY MAKTABINING KOREYS IJTIMOIY-FALSAFIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Murodilloyev Nodir Baxodir o‘g‘li
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi J.B. Sulaymonov

Yigirma birinchi asrdagi Janubiy Koreya ikki asr avvalgi holatidan juda farq qiladi. XIX asrda u mutlaq monarxiya edi. Bugungi kunda Janubiy Koreya qizg‘in kurashli saylovlar orqali saylangan prezident va parlamentga ega bo‘lgan demokratik davlatdir. Ikki asr oldin Koreya iqtisodiyoti asosan agrar edi va Koreya tashqi savdo bilan juda kam shug‘ullandi. Bugungi kunda esa Janubiy Koreya butun dunyo bozorlarida katta talabga ega bo‘lgan avtomobillar va smartfonlar ishlab chiqaradigan sanoat va tijorat markazidir. Ikki asr oldin Koreya jamiyati irsiy, kasbiy iyerarxiyaga asoslangan edi. Bugungi kunda janubiy koreyaliklarning aksariyati shaharlik o‘rta sinf vakillari bo‘lib, ularning ijtimoiy mavqeyi ko‘proq ularning ta’lim ma’lumotlari va shaxsiy yutuqlari bilan belgilanadi.

Zamonaviy demokratiya, sanoatlashtirish va shahar o‘rta sinf jamiyati birinchi bo‘lib G‘arbda paydo bo‘lganligi sababli, ko‘pchilik bugungi kunda Janubiy Koreyani an’anaviy dunyoqarashidan voz kechib, ularni G‘arbning yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalari bilan almashtirgan, g‘arblashuv mahsuli bo‘lgan davlat deb o‘ylashlari ajablanarli emas. Batafsilroq aytganda, 1910-yildan 1945-yilgacha Yaponiya o‘z mustamlakachiligi ostidagi Koreyaga zamonaviy G‘arb institutlarining o‘ziga xos versiyalarini tatbiq etish orqali Koreyada modernizatsiyani boshlagani uchun bunda yaponlarning xizmatlari katta, deb qaraydiganlar ham mavjud[1]. Biroq, Janubiy Koreyaning bugungi kundagi ko‘rinishiga oid ikkala qarash ham to‘laqonli emas. Ularning ikkalasi ham Koreyada XIX asr oxirigacha sodir bo‘lgan voqealarni

[1] Whether Japan’s colonial rule had a positive or negative impact on Korea’s march toward modernity is a subject of heated debate among scholars who study modern Korea. For contrasting views, see Gi-Wook Shin and Michael Robinson, eds., Colonial Modernity in Korea (Cambridge: Harvard University Press, 1999); and Hong Yung Lee, Yong-chool Ha, and Clark W. Sorensen, eds., Colonial Rule and Social Change in Korea, 1910-1945 (Seattle: University of Washington Press, 2013).

e'tiborga olmaydilar, o'shanda koreyslar taqdirlari uchun o'zlari mas'ul bo'lgan va na Yaponiya, na G'arbga qaram bo'lgan.

Bu davrda biz koreyslarni G'arbda amalga oshirilayotgan modernizatsiyadan bir necha o'n yillar oldin iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni taklif qilib, xalq oldida javob beradigan hukumatni talab etganlarini ko'rishimiz mumkin. Koreya bugungi kunda global konvergensiya fenomenining namunasi ekanligini inkor eta olmaymiz. Ko'p jihatdan u siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tashkilotga o'xshash yondashuvlarni qabul qilgan dunyodagi boshqa mamlakatlarga o'xshaydi. Shunga qaramay, demokratiya, sanoatlashtirish va irsiy tabaqalanishdan kasbiy maqomga o'tish kabilar Koreya zaminida ildiz otishi uchun bu tuproq ularni qabul qilishga tayyor bo'lishi kerak edi. Koreya o'z jamiyatini o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi, chunki koreyslar bu o'zgarishlar ularga ilgari qaror qilgan maqsadlariga erishishda yordam berishini tushunishgandi. Islohot va o'zgarishlarga bunday ochiqlik bo'lmaganida, Koreya qisqa fursatda bugungi kundagi zamonaviy davlat, iqtisodiyot va jamiyatga aylanishi mumkin bo'lmas edi.

Koreyaning so'nggi sulolasi Choson (1392-1910) davrida intellektual hayotda neo-konfutsiylik, jumladan, uning hukumat, iqtisodiyot va jamiyat qanday tashkil etilishi kerakligi haqidagi farazlari hukmronlik qilgan. Konfutsiylik o'zining konservativ tabiati, hozirgi va kelajakdagi muammolarni hal qilishda o'tmishga tayanishi bilan mashhur edi. Biroq, biz buni koreys konfutsiychilari faqatgina ruxsat etilgan ma'lum bir tor doiradagi g'oyalar bilan shug'ullangan, deb tushunmasligimiz lozim. Ular bugungi kunni tanqid qilishlari va o'tmishdagi eng yaxshi tajribalarni qayta tiklash maqsadida ilg'or islohotlarni taklif qilishlari mumkin edi. XVII asrda Koreya konfutsiychiligida islohot harakati paydo bo'lishi uchun yetarlicha keng sharoit mavjud edi. Ushbu islohot harakati bugungi kunda sirxak, "real fanlar maktabi" deb nomlanadi[1]. Sirxak atamasi XX asrda Yaponiya mustamlakachiligi ostidagi koreyslar tomonidan zamonaviylikning tub ildizlarini izlayotgan yaponlarning koreyslar o'z modellariga amal qilishlari kerakligi haqidagi da'volariga qarshi turish uchun yaratilgan atamadir. O'sha millatparvar olimlar XX asrning modernizatsiya tendensiyalarini XVII-XIX asrlarda ishlab chiqib taklif etgan bir necha koreys Konfutsiy olimlarini topishga muyassar bo'lishdi.

[1] For a survey of the sirhak movement, see Michael C. Kalton, "An Introduction to Silhak," Korea Journal 15, no. 5 (1975): 29-46.

Keyin ular o‘sha yozuvchilarni Sirxak – real fanlar maktabi nomi ostida birlashtirdilar.

Sirxak olimlari deb nom olgan bular bugungi kunda o‘zlarini bir xil siyosiy yoki falsafiy oqimning a’zolari deb bilmaganlar. Bundan tashqari, ularda Koreyani qanday isloh qilish kerakligi haqida turli xil bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlar bo‘lgan. Masalan, ba’zilar Sin sulolasi hukmronlik qilayotgan Xitoydan so‘nggi texnologiyalarni olib kelish orqali savdo iqtisodiyotini jonlantirish va samaradorlikni oshirishni taklif etgan. Boshqalar esa, qadimda ideal deb qaralgan jamiyat asosida yotgan va inson mehnati mahsulining adolatli taqsimotini shakllantirgan o‘z-o‘zini ta’minlovchi xo‘jalikka qaytish uchun shundoq ham cheklangan qishloq xo‘jaligi savdosini yanada qisqartirishni taklif qilishgan. Shunga qaramay, sirxak maktabining turli bo‘limlari a’zolari tomonidan yozilgan maqolalarda an’anaviy tartibni shubha ostiga qo‘yuvchi va agar ular qabul qilinganida Koreyani zamonaviylik sari yo‘lga qo‘ygan bo‘lardi, deb hisoblangan takliflarni ko‘rish mumkin.

Masalan, zamonaviy dunyoning belgilaridan biri insonlarning huquqiy tengligidir. Sirxak yozuvchilari gender tengligini talab qilmagan bo‘lsalar-da, biroq ularning ba’zilari erkaklarni oilaviy kelib chiqishiga ko‘ra kamsitishni to‘xtatishga chaqirgan. Bunday kamsitishning eng dahshatli ikkita misoli – qullik va ikkinchi darajali xotinlarning o‘g‘illarini davlat xizmatining yuqori lavozimlaridan chetlashtirish edi. Diskriminatsiyaning har ikkala shaklini Konfutsiy nuqtai nazaridan oqlash qiyin bo‘lsa-da, ularning ikkalasi ham XVIII asrda Koreyada mustahkam o‘rnashib olgan edi.

Koreyslarning deyarli 30 foizga yaqini XVIII asrda qul bo‘lgan. Bu holat Yu Xyong Von (1622-1673) va Li Ik (Songho taxallusi, 1681-1763) kabi sirxak olimlarini dahshatga soldi, ularning ikkalasi rivojlangan davlat namunasi sifatida qaralgan Xitoyda ham bunday keng miqyosdagi qullik mavjud emasligini ta’kidladilar. Ular ba’zi odamlar boshqalardan ko‘ra ko‘proq hurmatga loyiq ekanligini va ba’zi odamlar buyruq berishga, boshqalari esa bunday buyruqlarni bajarishga ko‘proq mos kelishini tan oldilar. Shunga qaramay, ular bunday tafovutlarni irsiyatdan ko‘ra individual fazilatlar asosida hal qilinishi kerakligini ta’kidladilar.

Konfutsiyning o‘zi haqiqiy janob merosxo‘rlikka ko‘ra emas, balki xizmatlariga ko‘ra shunday bo‘ladi, deb ta’kidlagan. Yu va Songho

qullikka barham berishga chaqirganlarida konfutsiylik ruhiga sodiq edilar. Yu Suvon (1694-1775) olijanob otalarning barcha o‘g‘illariga teng munosabatda bo‘lishga chaqirgan, u ikkinchi darajali o‘g‘illarning yuqori lavozimlarda xizmat qilishini taqiqlash tufayli ko‘p iste’dodlar behuda ketganligini yozgan. Koreya, xuddi Xitoy kabi, davlat amaldorlarini davlat xizmati imtihonlaridagi natijalariga qarab tanlardi. Biroq, Xitoydan farqli o‘laroq, Koreya bu imtihonlarga otalik va onalik darajasiga qarab erkaklarni qabul qilishni cheklagan. Agar yigitning otasi asilzoda bo‘lsa, lekin uning onasi oddiy odam bo‘lsa, unga davlat xizmatining yuqori lavozimlari uchun raqobatlashishiga ruxsat berilmagan. Songho ham, Yu Suvon ham o‘g‘illarni onalik kelib chiqishiga ko‘ra bunday kamsitish konfutsiylik ruhiga zid ekanligini va hukumat amaldorlarini tanlash jarayonining bir qismi bo‘lmasligi kerakligini ta’kidladilar.

Biroq tenglik jamiyati uchun qilingan bu takliflarning hech biri Choson sulolasi davrida amalga oshirilmagan. Shunga qaramay, qattiq ijtimoiy iyerarxiyaning asosiy elementlariga nisbatan bunday chaqiriqlar XVII-XVIII asrlarda aytilgani koreyslar zamonaviy G‘arb bilan to‘qnash kelishdan oldin ham islohotlar haqida o‘ylaganliklarini ko‘rsatadi[1].

Zamonaviy dunyoning yana bir xususiyati – mamlakatlarning huquqiy tengligi, zamonaviy o‘zlikni belgilaydigan millatparvarlik g‘oyalaridir. Koreya ming yildan ko‘proq vaqt davomida mustaqil davlat bo‘lib kelgan. Biroq, XIX asrning oxirigacha Xitoyning irmoqli davlati bo‘lib, uni “yuqori mamlakat” deb atagan. Ilgari koreyslar o‘z mamlakatlarining darajasini Xitoy tomonidan belgilangan standartlarga qanchalik mos kelishi bilan o‘lchaganlar. Bunday “sinotsentrizm” Koreyada 1890-yillargacha kuchli bo‘lib qoldi. Biroq, XVIII asrda biz koreys tiliga xos bo‘lgan narsalarga qiziqish ortib borayotganini ko‘ra boshlaymiz va hatto Xitoyni markazsizlantirishga chaqiruvchi bir nechta chaqiriqlarning guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Xong De Yong (1731-1783) hamda uning do‘sti Pak Chi Von (1737-1805) Xitoyga sayohat qilgan va uning Koreyaga nisbatan texnologik jihatdan qanchalik rivojlanganligidan hayratda qolgan sirxak olimi edi. Ular Koreyaga Sin sulolasida qo‘llanilgan eng yangi texnologiyalarni

[1] English translations of excerpts from Yu Hyŏng-wŏn’s criticism of slavery and Yu Suwon’s criticism of discrimination against secondary sons can be found in Yong-ho Ch’oe, Peter Lee, and Wm. Theodore de Bary, eds., Sources of Korean Tradition, Volume II: From the Sixteenth to the Twentieth Centuries (New York: Columbia University Press, 2000), 157-167.

import qilish haqidagi takliflari uchun sirxakning “Shimoliy ta’lim” yo‘nalishining vakillari hisoblanadi. Shunga qaramay, ikkalasi ham Xitoyning “markaziy qirollik” bo‘lishi shart emasligini aytib, bunday qarash bahsli masala ekanini tan oladilar. Olimning fikriga ko‘ra, ma’lum qarashni ilgari surayotgan insonning holatidan kelib chiqib istalgan davlatni markazga qo‘yish mumkin. Xong De Yong bu masalaga yanada chuqurroq yondashib, Yerni koinotning markaziga qo‘yish ham munozarali ekanligi, sababi bu yondashuvni berayotgan inson koinotning qaysi nuqtasida joylashganiga bog‘liq ekanini izohlaydi[1].

Xitoyning markazlashuviga qaratilgan ushbu nazariy muammolar bilan bir qatorda, Xitoy va Koreya teng ekanligini ko‘rsatadigan, Koreya hayoti va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘proq e’tibor berilishini ham ko‘rishimiz mumkin. An’anaga ko‘ra, koreyslar Xitoyning landshaft rassomchilik qoidalariga amal qilishgan va tog‘larning xitoycha yoki umumiy sahnalarini tasvirlashgan. Biroq, Chong Son (1676-1759) bu an’anani buzadi va o‘z rasmlarida mashhur Koreya tog‘larini tasvirlashni boshlaydi, shu qatori, Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasidagi hozirgi chegaradan shimolda joylashgan mashhur Olmos tog‘lari seriyali rasmlarini chizadi. Bir necha o‘n yillar o‘tgach, Kim Xong Do (1745-?) va Sin Yun Bok (1758-?) yanada erkinroq ijod qilib, Koreyadagi kundalik hayot sahnalarini aks ettiruvchi janrdagi rasmlarni ishlab chiqarishni boshladilar. Jumladan, koreys yangbanlari (koreys kiyimidagi zodagonlar), kiseng (Koreyaning professional ko‘ngilochar ayollari) bilan qishloqda sayr qilishlari va koreys kurash uslubida bir-birlarining kuchini sinab ko‘rayotgan ikki erkakni tomosha qilish uchun qishloq maydoniga yig‘ilgan olomon sahnalarini ko‘rish mumkin. Koreya milliy g‘ururining ortib borayotgan yana bir namoyishi sifatida XVIII asrda noyob koreys she’riy janri bo‘lgan sijoning birinchi antologiyalari nashr etilgan. Sijo asrlar davomida og‘zaki shaklda bo‘lib kelgan, garchi mahalliy koreys yozuvi Xangil uch asr oldin ixtiro qilingan bo‘lsa ham, sijolar Xangilda yozilmagan va nashr etilmagan.

Koreyaning madaniy o‘ziga xosligi hamda tobora ortib borayotgan g‘urur haqidagi da’volar XIX asr oxirigacha Koreyaning Xitoy bilan

[1] For more on late Chosŏn dynasty challenges to Sinocentrism, see Lim Hyung-taek, “Sinocentrism in East Asia and the Task of Overcoming It,” Sungkyun Journal of East Asian Studies 8, no.1 (2008): 71-87; Song Youngbae, “Countering Sinocentrism in Eighteenth-Century Korea: Hong Tae- Yong’s Vision of ’Relativism’ and Iconoclasm for Reform,” Philosophy East and West 49, no. 3 (1999): 278-297.

rasmiy tengligini e'lon qilish darajasiga yetib bora olmadi. Biroq, koreyslar obro'li va o'ziga xos madaniy hamjamiyat ekanligi haqidagi qarashlar bunga zamin tayyorladi. Zamonaviy dunyo bilan to'qnashuvdan oldin siyosiy va madaniy sinotsentrizmga qarshi bunday qarashlar bo'lmaganda, ushbu uchrashuvga javoban paydo bo'lgan millatparvarlik ancha so'nib ketgan yoki keyinroq paydo bo'lgan bo'lar edi[1].

Ildizlarini sirxak harakatidan izlashimiz mumkin bo'lgan zamonaviy dunyoning yana bir xususiyati – bu qo'l ostidagilarning ehtiyojlariga ko'proq javob beradigan va mamlakat resurslarini yanada adolatli taqsimlashga yordam beradigan hukumatning tayinlanishidir. Choson davridagi Koreya demokratik davlat emas edi va sirxak olimlarining hech biri uni demokratik davlat bo'lishini taklif qilmagan. Biroq, konfutsiylik o'zi boshqaradigan odamlar uchun javobgar bo'lgan hukumatni talab qilardi.

Yu Xyong Von, Li Ik va Chong Ya Kyong (1762-1836) omma orasidagi qashshoqlikdan xavotirda edilar. Resurslarning tengsiz taqsimlanishini bartaraf etishni qashshoqlikka yechim deb hisoblashdi va qishloq xo'jaligi yerlarini qayta taqsimlashni, zarur bo'lganidan ko'proq narsaga ega bo'lganlardan olib, yetishmayotganlarga berishni taklif qildilar[2]. Chong samarasiz va adolatsiz boshqaruv masalasiga ham to'xtalib o'tdi. U davlat amaldori sifatidagi faoliyatining boshida tuman hokimi lavozimida ishlagan edi. Keyinchalik, u Koreyada katolik jamiyatini tashkil etishda ishtirok etgani uchun lavozimidan chetlashtirilib, surgunga majbur bo'lganida, mahalliy hukumat ma'muriyatiga qo'llanma yozish uchun o'z tajribasidan foydalandi. Uning "Xalqni boshqarish to'g'risida"gi nasihatlarida namunali tuman hokimlari soliq yig'uvchi, sudya, ocharchilik va jamoat ishlarini boshqaruvchi sifatida o'z vazifalarini qanday bajarganliklari, ularga nisbatan adolatsizlikka uchraganidan hech kim shikoyat qilmaganligini misol qilib ko'rsatadi. U o'sha iltifotli hokimlarni tumanlaridagi odamlarning ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirib, o'z g'arazli manfaatlarini ko'zlayotgan tuman hokimlari bilan taqqoslaydi. Uning asosiy maslahati shundan iboratki, davlat amaldorlari cho'pon o'z qo'ylarini qanday boqsa, o'z tumanidagi

[1] "Early Visions of Reform and Modernity: Sirhak and Religious Movements in Choson Korea", Don Baker, Volume 19:1 (Spring 2014): Teaching Asia through Field Trips and Experiential Learning, 2014.
[2] Sources of Korean Tradition, II, 70-88.

odamlarga ham shunday g‘amxo‘rlik qilishga mas’ul ekanini unutmasliklari kerak. Tuman hokimining vazifasi o‘z tumanidagi odamlarga yanada samarali hayot kechirishga yordam berishdir. Buning uchun u ularga adolatli munosabatda bo‘lishi va o‘z hayotini yanada qulayroq qilish uchun bu lavozimga tayinlanmaganini yodda tutishi kerakligini ta’kidlaydi[1]. Bu demokratiya emasdi, lekin shunga qaramay Chong hukumat o‘zi boshqaradigan odamlarning farovonligi uchun javobgar ekanligini ayta oldi. U o‘z davridagi ko‘pchilik bu tushunchani unutganini his qildi va bir necha o‘n yillar o‘tgach, u o‘z qarashlari bilan koreyslarni mas’uliyatli hukumatdan zamonaviy javob beradigan hukumat tushunchasiga o‘tishga tayyorladi – bu xalq vakili bo‘lgan, ular tomonidan tanlanadigan va boshqariladigan hukumat tomon tashlangan qadamlar edi[2]. Sirxak harakati Koreyaga zamonaviylikni olib kelmadi. Biroq, u Koreyani o‘sha yo‘nalishga qaratdi, natijada koreyslar zamonaviy g‘oyalar kirib kelganda ularni qabul qilishga tayyor edilar.

Sirxak an’anaviy tartibni shubha ostiga qo‘ygan yagona intellektual kuch emas edi. XVIII-XIX asrlarda Koreyada ikkita yangi din paydo bo‘ldi, ular ham ushbu an’anaviy tartib asos bo‘lgan ba’zi taxminlarni buzdi. Ulardan biri chetdan kirib kelgan katoliklik dini edi. Ikkinchisi Tonxak bo‘lib, katoliklik diniy muammosiga javoban paydo bo‘lgan mahalliy yangi din edi.

Zamonaviy dunyoning muhim xususiyatlaridan biri – davlatning imkoniyatlarini cheklash va davlat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda xalqning ishtiroki bo‘lib, an’anaviy Koreyada bularning hech bir xususiyati mavjud emas edi. Birinchisini Koreyaga katoliklik kiritgan bo‘lsa, ikkinchisini Tonxak birinchi o‘ringa olib chiqdi. Katoliklik, albatta, chetdan kelgan din edi. Biroq, katoliklik Koreyada G‘arb dunyoqarashi kirib kelishidan oldin ildiz otganligi juda muhimdir. Koreyada katolik missionerlari bo‘lishidan oldin katoliklar bo‘lgan. Bir necha yosh koreys konfutsiy olimlari Xitoydagi iezuit missionerlari tomonidan yozilgan xitoy tilidagi missionerlik nashrlarini o‘qib chiqdilar va oralaridan birlarini Xitoy poytaxtiga yevropalik ruhoniy bilan uchrashish uchun

---

[1] Choi Byong-hyon trans., Admonitions on Governing the People: Manual for All Administrators, (Berkeley: University of California, 2010).

[2] "Early Visions of Reform and Modernity: Sirhak and Religious Movements in Choson Korea", Don Baker, Volume 19:1 (Spring 2014): Teaching Asia through Field Trips and Experiential Learning, 2014.

yubordilar. U Koreyaga baptist katolik sifatida qaytib keldi va ko‘plab do‘stlarini dinga qabul qila boshladi[1].

Koreyaning birinchi katoliklari xristian dini va konfutsiylik bir-birini to‘ldiruvchi ekanligiga va katoliklarning Xudoga bo‘lgan e’tiqodi ularga konfutsiylik qo‘ygan yuksak axloqiy talablarni qondirish uchun zarur bo‘lgan kuchni berishiga ishonishgan. Biroq, ko‘p o‘tmay, ular Vatikan katoliklarga oilaviy qurbongohga marhumning ota-onasini sharaflovchi ruhlarga atalgan lavha qo‘yishga ruxsat bermaganini aniqladilar. Bu muammo edi, chunki Choson Konfutsiy hukumati har bir o‘qimishli odamdan shunday oilaviy qurbongohga ega bo‘lishini va o‘zida ushlab turgan ruhlarga atalgan lavhalar oldida qurbonlik qilishni talab qilgan. Hukumat katoliklarni o‘z marosim qoidalariga bo‘ysunmagani uchun qatl qila boshlaganida, Koreyaning birinchi katoliklari tanlov qilishlari kerak edi: katoliklikdan voz kechish, konfutsiy bo‘lib qolish va tirik qolish yoki konfutsiylikdan voz kechib, katolik bo‘lib qolish va shahid bo‘lish xavfi.

Katolik bo‘lib qolishga qaror qilganlar Choson hukumatiga yangi muammo tug‘dirdilar. O‘sha paytdagi aloqa va transport texnologi-yasining chegaralari hukumatning amaldagi imkoniyatlarini cheklagan bo‘lsa-da, jamiyatning hech bir sohasi nazariy jihatdan cheklanmagan. Hukumat hatto din va marosim ishlariga ham aralashish huquqiga ega edi. Biroq, yangi din tarafdorlari katoliklarni o‘z vijdonlariga ergashish uchun yolg‘iz qoldiradigan cherkov va davlatni ajratish kerakligini talab qildilar. Bu Koreyadagi uyushgan guruh davlatning jamiyat ustidan to‘liq nazorat qilish haqidagi da’vosiga tarixda birinchi marta e’tiroz bildirgandi. Garchi bu da’vo dastlab qabul qilinmagan bo‘lsa ham (1791-yildan 1871-yilgacha bo‘lgan bir qator ta’qiblar natijasida minglab koreys katoliklari halok bo‘ldi), bu jangning birinchi zarbasi bo‘lib, natijada davlat fuqarolik jamiyati paydo bo‘lishi uchun yetarli kuchdan voz kechdi. Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatiga qarshi chiqishga qodir bo‘lganidan so‘ng hozirgi Janubiy Koreyadagi demokratiya uchun yo‘l ochilgan edi[2].

---

[1] James Huntley Grayson, “A Quarter-Millennium of Christianity in Korea,” Christianity in Korea, eds. Robert E. Buswell Jr. and Timothy S. Lee (Honolulu: University of Hawai’i Press, 2006), 9.

[2] "Early Visions of Reform and Modernity: Sirhak and Religious Movements in Choson Korea", Don Baker, Volume 19:1 (Spring 2014): Teaching Asia through Field Trips and Experiential Learning, 2014.

Bu haqiqatan ham jang bo‘lganligi XIX asrning ikkinchi yarmida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Koreyaning birinchi mahalliy uyushgan dini 1860-yillarda paydo bo‘lgan. O‘zini Tonxak ("G‘arb ta’limi" deb nomlangan katoliklikdan ajratib ko‘rsatish uchun "Sharqiy ta’lim") deb atagan bu yo‘nalish avvalida siyosiy hokimiyatga qarshi kurash sifatida boshlanmadi. Biroq, asoschisi 1864-yilda o‘zining marosimdagi nopokliklari uchun qatl etildi. Hukumatga qarshi pozitsiyani egallashga majbur bo‘lgan uning izdoshlari yashirin yo‘lga o‘tishdi, lekin o‘zlarining yangi e’tiqodlarini yoyishda davom etdilar. 1890-yillarda ularga minglab dinni qabul qilganlar qo‘shildi va bu Koreyada eng yirik dehqon qo‘zg‘olonida namoyon bo‘ldi. Garchi qo‘zg‘olonning inqilobiy tabiati biroz bo‘rttirilgan bo‘lsa-da, Koreyaning keng hududidagi ko‘p sonli dehqonlar o‘z hukumatlaridan mahalliy hokimiyat amaldorlari o‘rtasidagi korrupsiya haqidagi shikoyatlarini tinglashni talab qilish uchun birinchi marta birlashgandilar[1]. Bu koreyslarning hokimiyatga bo‘lgan munosabati o‘zgarganligi va endi koreyslar o‘z hayotiga ta’sir qiladigan qarorlarda ovoz berishni talab qilayotganining aniq belgisi edi. Bunday munosabat zamonaviy siyosiy hamjamiyatning yana bir belgisi bo‘lib, o‘ziga xos jihati u G‘arb g‘oyalarini qabul qilishdan ko‘ra ko‘proq Koreyaning diniy va siyosiy madaniyatidagi mahalliy o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘lgan. Tonxak maktabi kengaya boshlagan ilk davrlardagi chaqiriqlari xuddi sirxakka o‘xshab erkaklarga nisbatan kasbi, yoshi va jinsidan qat’i nazar teng munosabatda edi. Tonxak ta’limoti zamonaviy qarashlardan biri bo‘lgan har bir insonning ichida ilohiylik bir oz bo‘lsa ham borligi, ya’ni barcha insonlarni hurmat qilishga qaratilgan yana bir o‘zgarishdan dalolat beradi[2].

Sirxak harakatining turli islohot takliflari, shuningdek, Koreyaning birinchi katoliklari tomonidan e’tiqod erkinligi talablari, Tonxak ta’limotining hukumat qarorlariga ko‘proq xalqning hissasini qo‘shishni talab qilishi va yoshi, jinsi yoki kasbiga qarab kamsitishning tugatilishi Koreyani darhol zamonaviy dunyoga o‘tishi uchun yetarli emas edi. XX

---

[1] For an argument for the less-than-revolutionary nature of the Tonghak Uprising, see Young-Ick Lew, “The Conservative Character of the 1894 Tonghak Peasant Uprising: A Reappraisal with Emphasis on Chŏn Pong-jun’s Background and Motivation,” Journal of Korean Studies no. 7 (1990): 149- 180.

[2] For more on the Tonghak movement, see George L. Kallander, Salvation Through Dissent: Tonghak Heterodoxy and Early Modern Korea (Honolulu: University of Hawai’i Press, 2013).

asrning oxirgi choragida Janubiy Koreya bugungi kunda biz ko‘rib turgan demokratik va sanoati rivojlangan mamlakatga o‘xshay boshlagandi. Shunga qaramay, uchinchi dunyo mamlakatlari bo‘lib qolayotgan dunyoning boshqa ko‘plab mamlakatlari bilan solishtirganda, Janubiy Koreyaning so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida erishgan yutuqlari tahsinga sazovordir. Bu taraqqiyotning katta qismi Choson sulolasi koreyslariga berilishi kerak, boisi ular demokratiya, tenglik va sanoatlashtirishdan kelib chiqqan iqtisodiy o‘sish kabi zamonaviy G‘arb g‘oyalaridan to‘liq xabardor bo‘lishlaridan ancha oldin islohotga chaqira boshlaganlar. Hozirgi davrda rivojlanish, bu bosqichga katta larzalarsiz o‘tishlarida XVII-XVIII asrlardagi koreys ma’rifatparvarlarning mehnatlari kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Choi Byong-hyon trans., *Admonitions on Governing the People: Manual for All Administrators*, (Berkeley: University of California, 2010).

2. "Early Visions of Reform and Modernity: Sirhak and Religious Movements in Choson Korea", Don Baker, Volume 19:1 (Spring 2014): Teaching Asia through Field Trips and Experiential Learning, 2014.

3. Whether Japan’s colonial rule had a positive or negative impact on Korea’s march toward modernity is a subject of heated debate among scholars who study modern Korea. For contrasting views, see Gi-Wook Shin and Michael Robinson, eds., *Colonial Modernity in Korea* (Cambridge: Harvard University Press, 1999); and Hong Yung Lee, Yong-chool Ha, and Clark W. Sorensen, eds., *Colonial Rule and Social Change in Korea*, 1910-1945 (Seattle: University of Washington Press, 2013).

4. For a survey of the sirhak movement, see Michael C. Kalton, “An Introduction to Silhak,” *Korea Journal* 15, no. 5 (1975): 29-46.

5. English translations of excerpts from Yu Hyŏng-wŏn’s criticism of slavery and Yu Suwon’s criticism of discrimination against secondary sons can be found in Yong-ho Ch’oe, Peter Lee, and Wm. Theodore de Bary, eds., *Sources of Korean Tradition, Volume II: From the Sixteenth to the Twentieth Centuries* (New York: Columbia University Press, 2000), 157-167.

6. *Sources of Korean Tradition, II,* 70-88.

7. James Huntley Grayson, "A Quarter-Millennium of Christianity in Korea," *Christianity in Korea*, eds. Robert E. Buswell Jr. and Timothy S. Lee (Honolulu: University of Hawai'i Press, 2006), 9.

8. For an argument for the less-than-revolutionary nature of the Tonghak Uprising, see Young-Ick Lew, "The Conservative Character of the 1894 Tonghak Peasant Uprising: A Reappraisal with Emphasis on Chŏn Pong-jun's Background and Motivation," *Journal of Korean Studies* no. 7 (1990): 149- 180.

9. For more on the Tonghak movement, see George L. Kallander, *Salvation Through Dissent: Tonghak Heterodoxy and Early Modern Korea* (Honolulu: University of Hawai'i Press, 2013).

L.N.TOLSTOY “IQRORNOMA” ASARINING ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK TAHLILI

Rashidova Hushnoza
TDSHU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.R. Ikramova

Buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning “Iqrornoma” asari adibning hayotda ko‘p narsalarga iqror bo‘lganligi haqidadir. Adib atrofidagi har bir kishining ichki dunyosiga, ularning hayotda qanday maqsadda yashayotganligi bilan qiziqadi va o‘zining hayoti bilan ularning hayotlarini taqqoslagan o‘rinlari juda ko‘p.

Bu o‘rinda borliq tushunchasini ishlatish o‘rinli deb bilamiz. Adib uchun o‘z hayotidan tashqaridagi barcha hodisalarni yo‘qlik deb olsak, adib o‘sha yo‘qlikni anglash uchun ko‘p aziyat chekadi. Lekin, vaqt o‘tishi bilan adib uchun yo‘qlik bo‘lgan hududlar asta-sekinlik bilan u uchun borliqqa aylana boshlaydi. Borliq – bu bizni qurshab turtgan va barcha voqea-hodisalar ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘ladigan joydir. Ko‘p hollarda inson hayotini o‘zgalarning fikr-mulohazalari bir daqiqada o‘zgartirib yuborishiga guvoh bo‘lamiz. Adib hayotidagi bir voqea bunga misol bo‘ladi. Adibning bir do‘sti shunchalik dinga amal qiluvchi kishi bo‘ladi, o‘sha do‘sti akasining bir og‘iz gapi bilan diniy amallarni bajarishni to‘xtatadi. Bu yerda asosiy sabab, akasining gapi emas, ya’ni u odamning irodasi yetmaganligini asosiy sabab qilish mumkin. Asardagi “taraqqiyot” so‘zini antologik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, obyektlarning har jihatdan rivojlanib, yetuklik darajasiga yetgan uning taraqqiyotga yetishgan shaklidir. Har qanday sharoitda ham rivojlanish, uzluksiz o‘zgarishlar bo‘lgan joyda taraqqiyot bo‘ladi.

Asarda “tasodifiy” degan jumla ham bor. Adib bu jumlani “ajal” so‘ziga nisbatan qo‘llagan. Ya’ni adib aytadiki, “ajal” bu tasodifiy “xastalik” emas, “Tasodifiy” so‘zini “shakl” so‘zi bilan bog‘lab izohlaydigan bo‘lsak, shakl – bu biz ko‘zimiz bilan ko‘radigan barcha obyektlarning tashqi ko‘rinishi ya’ni shakli ba’zilar uchun tasodifiy bo‘lishi mumkin. Adib hayotida juda ham ko‘p tasodifiy hodisalarga duch keladi. Do‘stlarining, yaqinlarining hayotidagi hodisalar adib uchun tasodifiy bo‘lib tuyuladi.

Adib bunday hodisalarni ko‘rib tushkunlikka tushadi va bunday holatdan qutulish uchun xorijga ham ketadi. U yerdagi hayotni, odamlarni ko‘rib, o‘z mamlakatidagi hayot bilan taqqoslab, ongida turli xil qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘ladi. Barcha narsa “sofizm” bo‘lib ko‘rinadi. Ya’ni dunyodagi barcha narsaning asosi “yolg‘on” degan fikr ham keladi. Ba’zan G‘arb bilan Sharqdagi hayot tarzini “qorishiq” ya’ni “eklektika” deb tasavvur qiladi. Adib Parijdaligi vaqti qatl manzarasini ko‘radi, hamma narsa “aqlga muvofiq” deymiz, nahotki bu holat ham aqlga muvofiq bo‘lsa, barcha narsalar, aqlga muvofiq deb tasdiq-layotgan nazariyalar bu o‘rinda o‘zini oqlar olarmikin?- deb o‘ziga o‘zi savol beradi .

Dunyoni ongimizdagi ilm boshqaradi, lekin u ham hayotning ma’nosi haqidagi soxta gaplardan nariga o‘tmaydi – deb ta’kidlaydi. Hayotning ma’nosi nima? degan savolni o‘rtaga qo‘yadigan bo‘lsak, asarning ma’nosidan kelib chiqib, hayotning mazmuni cheksizdir.

Adib aytadiki: hayotning ma’nosi haqida Suqrot, Sulaymon payg‘ambar, Shopengauer va Budda o‘z hayotlaridan, tajribalaridan kelib chiqib turli xil fikrlarni bildiradi. Misol tariqasida qushlarning, hayvonlarning hayotlarini keltirib o‘tadi. Cheksizlik – bu tushun-chaning ma’nosi juda kengdir. Matematikadagi misollarning yechimi cheksiz bo‘lganidek, hayotning davomiyligi ham cheksizdir. Osmondagi yulduzlarni olsak, ular ham cheksizdir. Insonlar hayotda turli xil ishlarni bajaradi va ana shu ishlarning orqasidan yeb ichadi. Boy odam bilan kambag‘al odamning ham dunyoqarashi har xil, hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, jamiyatdagi vaziyatlar natijasida bu ikki toifa vakillarida dunyoqarash shakllangan. Ya’ni inson hayotga qanday ko‘z bilan qarasa, hayot ham unga shunday ko‘z bilan boqadi.

Mavhum bu tushunchani izohlaydigan bo‘lsak, biz hali ma’nosini to‘liq anglab yetmagan, biror obyekt yoki voqea-hodisaning qanday davom etishi, kelajagi qanday bo‘lishi biz uchun aniq bo‘lmasa, u mavhumdir. Ya’ni to‘liq ishonch hosil qilinmagan voqea-hodisalardir.

Misol uchun biror bir jamiyatdagi buyumning mohiyati to‘laligicha tushunilmasa bu ham mavhum bo‘ladi. Mohiyat – bu jumlaga antologik jihatdan qaraydigan bo‘lsak, biror obyektning asosiy ma’no anglata-digan qismi mohiyatdir. Asarda dunyo nima degan savol ham bahsli munozaraga sabab bo‘ladi. Qadimdan barcha mashhur olimlar va mutafakkirlar bahslari davomida nihoyat bitta xulosaga kelishgan:

“Dunyo cheksiz va anglab bo‘lmaydigan bir narsa. Inson hayoti ana shu anglab bo‘lmaydigan narsaning bir bo‘lagi” .

Insonlarning barchasi ham haqiqatni sevuvchi emas. Haqiqat bu tajribada isbotlangan va barcha tomonidan qabul qilingan anig‘i va sarasidir. Asarda buyuk faylasuf olim Suqrot bejizga “Biz hayotdan qay darajada uzoqlashsak, faqat shu darajada haqiqatga yaqinlashib boramiz” deb aytmagan . Bu fikrdan biz shunday xulosaga kelamiz, ya’ni inson rohat-farog‘atdan kechib, dunyodagi barcha quvonch bag‘ishlovchi narsalardan voz kechib, uzlatda hayot kechirsa inson haqiqatga yaqinlashar ekan. Yana asarda hind shahzodasi Sidxarta Gautama hayot faqat quvonch va shodliklardan iborat deb o‘ylar edi. Bir kuni sayohatga chiqqan shahzoda qari, bemor va vafot etgan kishilarni ko‘rib, uning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketadi. Shunda atrofidagilarning tushuntirishlari bilan shahzoda hayot faqat rohat-farog‘atdan iborat emasligini tushunib yetadi.

Bundan shunday fikrga kelishimiz mumkinki, hattoki birgina voqea ham insonning dunyo qarashini o‘zgartiradi. Asarda yana makon va vaqt tushunchalari ham mavjud, ularga izoh beradigan bo‘lsak, makon ya’ni materiya moddiy obyektlarni birlashtiruvchi tushuncha. Vaqt esa hayotimizda ro‘y beruvchi hodisalarning ketma-ketligi, davomiyligi tartibini ifodalaydigan tushunchadir. Hodisalarning o‘zaro aloqadorligi natijasida yuzaga chiqadi. Adib “Hayotning ma’nosi taraqqiy etishda va bu taraqqiy etishga ko‘maklashuvda” degan xulosani beradi.

“Inson ertaga qanday ko‘ngilsiz voqealar bo‘lishini bilmasdan yashaydi, qora terga botib mehnat qiladi, va oxiri ko‘ngilsiz voqealardan biriga duch keladi, bunday vaziyatda uning hayotda qilgan barcha ishlari behudaga chiqadi deb hisoblaydi. Asardan olgan ma’lumotlarimizga tayanib adib yashagan davrda o‘sha jamiyatdagi kishilarda diniy va falsafiy dunyoqarashlar bo‘lgan, degan fikrga kelamiz. Ko‘proq diniy e’tiqod qiluvchilarda diniy dunyoqarash shakllangan. Jamiyat a’zolarining ko‘pchiligi qadimgi aqidalarga (aksiologiya) sodiq kishilar bo‘lganligini asarning mohiyatidan bilishimiz mumkin. Haqiqat va yolg‘on haqida ko‘proq bilish uchun adib muqaddas rivoyatlarni o‘rganishga, tadqiq etishga majbur bo‘ladi. Sababi, adib haqiqat bilan yolg‘onni bir-biridan ajratib olish kerakligini aytadi. Adib tushida ko‘rgan kechinmalar juda sodda va ixcham deb ta’kidlaydi. Bundan shunday fikrga kelamizki, uyg‘oqlikdagi

kechinmalar murakkab va chigal, demak adib ko‘z o‘ngidagi voqea-hodisalarning ham tushdagi kabi sodda va ixcham bo‘lishini xohlaydi. Oxir oqibatda adib diniy ta’limotda haqiqat borligiga ishonadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Iqrornoma” asari buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning hayotidan bir parcha keltirilgan asardir. Asarni o‘qib shunday xulosaga kelamizki, bu asar ma’lum ma’noda barcha uchun ma’naviy ozuqa berish vositasidir. Asarni o‘qib haqiqat bilan yolg‘onni adashtirib yubormaslik kerakligini, insonning hayotda yashashdan maqsadi bo‘lishi kerakligini tushunamiz. Har qanday sharoitda ham insonda kuchli iroda bo‘lishi zarur. Irodasi mustahkam odamgina hayotda nima yaxshi-yu, nima yomonligini fahmlay oladi. Insonga diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlar ham birdek zarurdir. Asarda Suqrot, Sulaymon payg‘ambar, Budda, Shopen-gauerlarning hayot haqidagi fikrlarini o‘qib o‘zimiz keraklik xulosalar chiqaramiz. Shu o‘rinda adibning “Ko‘p donolikda buyuk qayg‘u bor, kim bilimni ko‘paytirsa qayg‘uni ko‘paytiradi” degan fikrlari ham juda to‘g‘ri. Sababi, inson miyasida(ongida) ma’lumotlar ko‘payib ketsa, inson ongini boshqarishga hatto ojizlik qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.N.Tolstoy. Iqrornoma. T.:Ma’naviyat ,1998.
2. Л.Н.Толстой. Исповедь. М., 2014.
3. www.ziyo-uz.com

RIFA AT-TAXTOVIY VA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK QARAShLARINING QIYOSIY TAHLILI

Jo'raboyeva Ruhsora Muhiddin qizi
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.R. Ikramova

XIX – XX asr boshlari arab mamlakatlarida madaniy yuksalish davri hisoblanadi. Umuman olganda, bu hodisa rivojlangan arab mamlakatlarida arablarning ongidagi va ijtimoiy hayotidagi "yevropalashtirish''jarayoni deb tushuniladi. Ushbu jarayonda arablar hayotida keskin siljishlar ro'y berdi. Bu–madaniy hayot jonlanishi, yangi arab adabiyoti shakllanishi, ma'rifatparvarlik harakati va musulmon islohchiligi paydo bo'lishi, eski tuzumga qarshi hamda milliy ozodlik harakatiga nazariy zamin yaratish uchun g'oyalar ishlab chiqilishi bilan ifodalanuvchi davr edi. Ushbu davrda mutafakkirlar va adiblar – barcha vatanparvar ziyolilar ijodida diniy islohchilik g'oyalari, mustaqillik uchun kurash, G'arbning ilg'or fani va madaniyatini o'rganish masalalari, xalq orasida ilm-ma'rifat tarqatish g'oyalari o'z aksini topdi. Bu jarayon XIX asr birinchi choragidan, Muhammad Alining (1805–1848) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, yer islohotlari orqali hamda Yevropa mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatila boshlagach, rivoj topdi. Bunga Napoleonning Misr va Falastinga yurishi (1798-1801) turtki bo'ldi. Fransuzlarning Misrga kirib kelishi va bu yerda uch yil davom etgan istilosi misrliklar hayotida ma'lum o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Xalq orasidan chiqqan va hukmdor darajasiga ko'tarilgan Muhammad Ali Misr tarixida yorqin iz qoldirdi. Muhammad Alining buyuk xizmati shundaki, rasman Turkiya tarkibida bo'lgan Misr mustaqil davlatga aylandi. Misr sanoati va qishloq xo'jaligi birmuncha rivojlandi. Yer islohoti natijasida yirik yer egalaridan, vaqflardan olingan yerlar davlat ixtiyoriga o'tdi: harbiy islohotlar natijasida kuchli armiya va harbiy-dengiz floti tuzildi. Madaniyat va ma'rifat sohalarida ham islohotlar o'tkazildi. Muhammad Ali yevropacha shakldagi xususiy maktablar ochdi, iqtidorli yoshlarni Fransiyaga ta'lim olishga yubordi, bosmaxona ochdi, o'z matbuotini yaratdi va Suvaysh kanalining qurilishi loyihasini tayyorlay boshladi.

Har xil yo'nalishdagi xususiy maktablar ochilib, ularda yevropacha o'qitish uslubi qo'llanildi. Ular orasida muhandislik, matematika

yo‘nalishidagi politexnika maktabi «Muhandisxona» (1816), «Tillar maktabi» («Dar ul-alsun», 1835) alohida ajralib turardi. «Tillar maktabi» Yevropa tillarini biluvchi tarjimonlar tayyorlash bilan shug‘ullanardi. Natijada arab kitobxonlari Yevropaning ko‘p mumtoz asarlari, ilmiy tadqiqotlari bilan tanishdi. 1873 yilda «Dar ul-ulum» («Ilmlar uyi») kolleji ochildi. Unda diniy ilmlar bilan birga, tabiiy va riyoziyot fanlari ham o‘qitila boshlandi. Taniqli Misr olimi, filolog, shoir va ilohiyotchi Hasan al-Attor (1766-1838) yangi dunyoviy ilmlarni tatbiq etishda jonbozlik ko‘rsatdi. U fransuz olimlari va G‘arbiy Yevropaning ilmiy yutuqlari bilan tanishgach, «Vatanimiz o‘ziga notanish bilimlarni o‘zlashtirish orqali, albatta, o‘zgarishi va yangilanishi kerak»[1], – degan fikrga keladi. 1830 yilda Hasan al-Attor al-Azhar universiteti rektori lavozimiga tayinlandi va talabalarning butun bir avlodini yetishtirdi. Ular orasida Ilohiyotchi filolog Muxammad at-Tunisiy (1789–1857), shayx Muhammad Ayad at-Tantaviy (1810-1861), ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunos, ma’rifatparvar va jamoat arbobi Rifoa at-Taxtoviylar (1801-1873) bor edi.

“Misrda ma’rifatparvarlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi ikki yo‘nalishda rivojlandi. Bir tarafdan, o‘tmishdagi boy madaniy merosga murojaat etish va ikkinchi tarafdan, G‘arb madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirish, ya’ni G‘arb va Sharq madaniyatlarini uyg‘unlashtirish asosida rivojlandi. Bu, birinchidan, arablarning o‘z urf-odatlarini saqlagan holda, milliy madaniyatni rivojlantirish xohishini ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchidan, Yevropa ilmiy-texnikaviy tafakkuri yutuqlariga, G‘arb madaniyati va turmush tarziga qiziqishini namoyon qildi”[2]. Arab ma’rifatparvarlari ijtimoiy taraqqiyotga ma’rifatchilik yo‘li bilan yetishish mumkin deya, o‘z oldilariga ta’limni, ilmiy- texnikaviy bilimlarni xalq orasida targ‘ib etish vazifasini qo‘ydilar. Keyinchalik bu ma’rifiy g‘oyalar taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgan eski tuzum, sarqitlar, orqaga tortayotgan an’analarga qarshi yo‘naltirilgan keng mafkuraviy harakatga aylandi. Ma’rifatchilik zaminida XIX asrning oxirgi choragida diniy yo‘nalish-musulmon islohchiligi paydo bo‘ldi. U mohiyati murakkab hodisa bo‘lib, islomdagi ratsionalistlik oqim sifatida tanildi. Bu oqim vakillari ijtimoiy tuzum asosini ma’rifiy islom tashkil etishi lozim, o‘shandagina jamiyatda ziddiyatlar yo‘qoladi, deb hisoblardi. Musulmon islohchilari inson aql-zakovatini tarannum etib, sxolastik aqidaviy

[1] Криллина С. А. Ислам в общественной жизни Египта. –М., 1989. –С. 162.
[2] Babayeva.E.Ma’rifat yo‘llarida.-T.:Fan va texnalogiyalar,2012.-B.6.

tushunchalarga qarshi chiqqanlar. Insonning yorug‘ dunyodagi hayotini kamsitgan so‘fiylar ta’limotiga aql-idrok va irodaga ega bo‘lgan mehnat ahlini tarannum etgan insonparvarlik ta’limotini qarshi qo‘yardilar. Ular din inson hayotida yetakchi o‘rinni egallaydi, degan g‘oyani ilgari surdilar. Ularning fikricha, ijtimoiy taraqqiyotga isloh qilingan din orqali erishish mumkin. Islom islohchiligi Misrda paydo bo‘lib, keyinchalik butun islom dunyosiga tarqaldi va ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Arablarga, ularning madaniy va mafkuraviy yuksalishiga fransuzlar juda katta ta’sir ko‘rsatganliklarini tadqiqotchilar yakdillik bilan tan oladilar.

Bu davrda yutimizda ham “Jadidchilik harakatlari” kurtak yoyib ulgurgan edi.Misrda bo‘lgani kabi Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim»ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiy yo‘lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko‘rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qo‘shin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma’rifatchilarining Turkiston o‘lkasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo‘lsa-da milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o‘lkadagi mahalliy xalqning ongiga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. Natijada, ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga, milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffaq bo‘ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma’rifatchilik g‘oyalari tarqala boshladi, yangi ta’lim-tarbiya shoxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targ‘ibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Shunday sharoitda Turkistonda ko‘plab ma’rifatchilar yetishib chiqdi.

Misrda ma’rifatparvarlik ikki yo‘nalishda rivojlangan bo‘lsa Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko‘rsatdi. Bular–maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida, o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so‘nggi choragida uyg‘ongan

ma’rifatchilik, ma’rifatparvarlik qarashlarining ta’siri katta bo‘ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e’tibor bersak, ma’rifatparvarlik mafkurasi demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g‘oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko‘ramiz. Mamlakatimizda ma’rifatparvarlik g‘oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus iste’lochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo‘lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g‘arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning iste’lochilar tomonidan bo‘g‘ib qo‘yilishi, uchinchidan, millatparvar – fidoiy kishilarning qattiq taqib ostiga olinganligi va hatto ularning qatl etila boshlaganligi edi.

Jadidchilik harakati vakillari o‘zlarining ma’rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan demokratik g‘oyalarni: ilm o‘rganish, fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo‘lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so‘z va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat qurilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g‘oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san’atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta’siri ostida o‘z milliy qiyofasini yo‘qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma’naviy-axloqiy takomillarni yanada kuchaytirish, milliy o‘zligini anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e’tiqodlarni mustahkamlash kabi g‘oyalarni asos qilib olindi. Misrda bu harakat islom dinini isloh qilish haqidagi g‘oyalar bilan kechgan bo‘lsa, Turkistonda aksincha asos qilib islom mafkurasi olindi.

Misrda ma’rifatparvarlik harakatining dastlabki vakili bo‘lmish Rifa at-Tahtaviy va Turkiston Jadidchilik harakati yetakchilaridan bo‘lish Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan ilgari surilgan qarashlardagi o‘xshash va farqli jihatlarga nazar tashlasak.

Misr ma’rifatparvarlik harakatining ilk vakillaridan bo‘lmish Rifoa Badavi Rafii at-Taxtoviy 1825 yilda xadiv Muhammad Ali davrida Fransiyaga boradi. Al-Azhar universitetida tahsil ko‘rgan, to‘la-to‘kis diniy ma’lumotga ega bu shayx Parijda fransuz tilini o‘rganadi, madaniyat bilan tanishadi, ayniqsa, Volter, Russo, Monteskiye asarlari unda chuqur taassurot qoldiradi. 1830 yil iyuli inqilobining guvohi bo‘ladi va o‘ziga tegishli xulosalar chiqaradi. Misrga qaytib kelgach, ilm-ma’rifat tarqatish sohasida keng ko‘lam olgan harakatga qo‘shiladi va uning taniqli namoyandalaridan biriga aylanadi. Shu kezlari Misrda «al-Varoi al-Misriya» nomi bilan arab tilida ro‘znoma ilk bor chop etila boshladi. Shayx

unga muharrirlik qiladi. At-Taxtoviy va uning atrofidagi ilg‘or ziyolilarning faoliyati natijasida Yevropa tillaridan 2000 dan ziyod asar arab tiliga tarjima qilinadi. Ular orasida fan-texnika, madaniyat, san’at, harbiy ish,qurilish, ta’lim-tarbiya va boshqa ko‘plab sohalarga bag‘ishlangan asarlar, o‘quv qo‘llanmalar, Qomuslar tarjima qilindi va nashr etildi. Bular hammasi kelajak arab ziyolilarining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Taassurotlarini «Rifoa sayohati» nomli asarda aks ettirib,o‘zining ilg‘or mulohazalarini to‘la ifodaladi.Bu asarning to‘liq nomi «Parij ziyoratidan sof oltin olinishi»dir («Taxlis al-ibriz fi talxis Bariz». 1834). Asar muallifi Fransiyani Misr uchun ibratli manba va o‘rnak sifatida tan olib, u erda o‘rnatilgan tartiblar, urf-odatlar, ta’lim tizimi, qo‘yilgan ilmiy ishlar darajasi jamiyatning siyosiy-tashkiliy tarkibi haqida so‘z yuritadi.

Taxtaviy musulmon dunyosini jahon ma’naviy madaniyati o‘chog‘i deb hisoblasa-da, fransuz maorif tizimi afzalligini tan oladi va yevropacha ta’lim tizimi o‘z mamlakatida qo‘llanilishi, ayniqsa, o‘quv yurtlarida ratsionalistlik fanlar kiritilishi zarurligini isbotlaydi. Asarda Fransiyadagi mavjud siyosiy institutlar, liberal harakat va konstitutsion boshqarish haqida batafsil fikr yuritiladi. At-Taxtoviyning fikricha, Lyudovik XVIII ning konstitutsion partiyasi «adolatlidir». «Unda yozilgan ko‘p narsalarni siz Qur’onda ham, sunnatda ham topolmaysiz, lekin ular tushungan narsa, ya’ni adolat va qonuniylik davlat ravnaqi va xalqlar farovonligining vositasidir... «Adolatlilik tamaddunning asosi» ekanligini siz ham tushuna olasiz. Fransuzlar «erkinlik» so‘zini biz «adolatlilik» tushunchasining ma’nosini tushunganimizdek tushunishadi" [1] . Shu tariqa at-Taxtoviy “erkinlik” degan yangi tushunchani anglashga harakat qildi va uni siyosiy g‘oya sifatida talqin etdi. Keyinchalik, XIX asrning 70-yillarida at-Taxtoviy «erkinlik» tushunchasini inson mavjudligining besh ko‘rinish-dagi muhim omili, ya’ni erkinlik insonning tabiiy holati sifatida, o‘zini tutish erkinligi, e’tiqod erkinligi, fuqaroviy va siyosiy erkinligi sifatida ilk bor tahlil qildi. At-Tahtoviy partiyaning asosiy bandlariga batafsil sharh beradi. Birinchi («Hamma qonun oldida barobardir») bandiga sharhida undagi bor tamoyilni yuqori baholaydi: bu tamoyil adolat o‘rnatish, tahqirlanganga yordam berish, past tabaqali insonga o‘z intilishlarini ro‘yobga chiqarishda ko‘maklashish, qonun oldida u ham baland mavqeda turishini sezdirishga qaratilgandir. At-Taxtoviy insonlarning qonun oldida

[1] Жамал ад дин аш-шайал .Рифаа Рафни ат –Тахтавий .Навабигу ал фикри ал арабийн. Кохира.-В.86.

tengligini tan oladi va bu, uningcha, Sharq hukmdorlarining o‘zini nazorat qilmasligiga chek qo‘yadi. At-Taxtoviy Muhammad Aliga chin dildan xizmat qilsa-da, uning fikricha, Oliy hukm xudodandir, qo‘l ostidagilar o‘z hukmdoriga so‘zsiz itoat qilishi kerak, lekin hukmdor ham qonunga bo‘ysunishi lozimdir.

Fransiyadagi iyuli inqilobiga bag‘ishlangan bobda at-Taxtoviy 1789 yilda sodir bo‘lgan Buyuk fransuz inqilobi tarixi bilan tanishtiradi. Bu inqilob, at-Taxtoviy fikricha, ikki partiyaning to‘qnashuvi natijasida kelib chiqqan. Ulardan biri, qirol to‘la hokimiyatga ega hukmdordir, degan fikrda bo‘lgan. Boshqasi esa, qirol Qonunni ijro etuvchi bo‘lishi lozim, deb hisoblagan. Muxammad Ali davrida Misrdagi adolat qonuniylik masalasi ma’rifatli kishini qiziqtirishi tabiiy, albatta. “Fransuz qiroli xohlaganini qiladigan mutlaq hukmdor emas” deydi Tahtaviy.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Rifa at-Tahtaviyning ham, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham dunyoqarashiga katta ta’sir etgan voqea o‘zga mamlakatlar va madaniyatlar bilan tanishuv bo‘ldi. Behbudiy Turkiya va Misrga sayohat qilib, bu yerlardagi yangi sistemadagi maktablarni yurtimizda ham ochish tashabbusi bilan chiqqan bo‘lsa, Taxtaviy Yevropa xususan Fransiya ta’lim tizimni yutuqlarini Misrda joriy etish haqida so‘z yuritadi.Har ikki ma’rifatparvar ham xalqni ma’daniyatini yuksaltirish,ilm va zamon bilan hamnafas qilish uchun asosiy vosita deya teatr va nashriyotni ko‘rsatishadi.Tahtaviy Misrda dastlabki nashriyotga asos solgan bo‘lsa, Behbudiy 1912-1913 yillarda Samarqandda “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnaliga asos soladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Teyotr – ibratnomadur, hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir… Umumiy odatlarni nafiva zararidan paydo bo‘laturg‘on natijalarni teyotrxonada aynan ko‘rsaturlarki, har kim bundan ta’sirlanib yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqqa sabab bo‘lur…teyotr xonalari mazxaroboz xona bo‘lmay, balki ibratxonadur, mushaxxis-akstyor muallimi axloqdur”.

Rifa at-Tahtaviy: “Fransuzlar fikriga ko‘ra, teatr odob-axloqni tanqid qiladi va tuzatadi; namoyishlar tugashi bilan pastga tushadigan pardada to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Teatr – odob maktabidir”,-deb yozilgandi”. Tahtaviy teatrni Misrda keng yoyishni targ‘ib qiladi. Rifa at-Tahtaviy parlament va konstitutsion monarxiya tarafdori bo‘lsa, Behbudiy prezidentlik boshqaruvi va parlamentar tizimni yoqlab chiqadi. Bu ikki mutafakkirning ikki xil boshqaruv sistemasidagi davlatda yashaganligi bilan ham bo‘g‘liq.

Garchi bu davrda Misrda bo‘lganiday Buxoroda ham mutlaq monarxiya tuzumi hukmron bo‘lsa-da Muhammad Aliy Misrda katta o‘zgarishlar qila oldi. U ilm-fanni, yevropacha turmush tarzi targ‘ib qilayotgan, xalqni eskilik, qoloqlik sarqitidan allaqachon qutqarish kerakligini tushunib yetgan ziyolilarni qo‘llab quvvatladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babaeyva E. Ma’rifat yo‘lida.-T.:Fan va tehnalogiya, 2012.

2. Кирилина С. А. Ислам в общественной жизни Егирта .-М., 1989.

3. Жамал ад дин аш-шайал. Рифаа Рафни ат-Тахтавий. Навабигу ал-фикри ал –арбайи. Кохира.

4. Кримский А.Е. История новой арабской литератури 19-нач 20 вв.-М.,1971.

XIX ASR OXIRI XX ASR O‘RTALARIDA KOREYADA IJTIMOIY-FALSAFIY HAYOT

Avloberdiyev Isomiddin Akmal o‘g‘li
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.R. Ikramova

Asrlar davomida koreys jamiyati to‘rt tabaqaga (qatlamga) bo‘linar edi. Birinchisiga dvoryanlar – hukumat va viloyat hokimlari, harbiy ofitserlar («yanbanlar) yoki oliy toifalar, ikkinchisiga – vrachlar, rassomlar, tarjimonlar, astronomlar, astrologlar, mayda amaldorlar («chuynin» yoki yarim oliylar), uchinchisiga – dehqonlar, mayda savdogarlar, hunarmandlar, baliqchilar («yan min» yoki oliymaslar) va to‘rtinchisiga – qullar, hamda ularga teng sanaluvchi qassoblar, etikdo‘zlar, raqqosalar va boshqalar («chen min» yoki qullar). Bu tabaqalarga bo‘linish ma’lum bir tabaqa vakili bo‘lgan. 1910 yilda Yaponiya Koreyani butunlay bosib olindi va u yapon general-gubernatorlik hokimiyati boshqaradigan mustamlaka mamlakatga aylantirdi. Tanqid kuchi ostida hamda ijtimoiy keskinlikni yumshatish maqsadida 1893- 1894 yilgi dehqonlar urushidan keyin nobi tizimi biroz soddalashtirildi, oddiy odamlarning haq-huquqlari esa yanbanlar bilan tenglashtirildi. Mansab egallash uchun o‘tkaziladigan Chin-kvago imtihonlari ham eskirgan an’ana sifatida yo‘q qilindi[1]. Koreyaga olib kirilgan nasroniylik qattiq qarshilikka uchradi. Nasroniylikni umuman man qiluvchi qonun aslida 1786 yili qabul qilingan edi. XIX asrga kelib esa nasroniylik umumkoreya miqyosida ta’qib qilindi. Chjusianlar uchun xorijda yagona namunaviy davlat bu Xitoy bo‘lib qoldi. Uning oldida sajda qilish haqida ortodokslardan biri Chxve Ik Xyon aytgan edi: «Shimol! Bu yerda Osmon va Yer paydo bo‘lgan, «in» va «yan»lar ham birinchi bo‘lib bu yerda paydo bo‘lgan. Shu bois, aynan shu yerda barcha buyuk, pok va komilliklar birlashishi yuz bergan, bu yer buyuk donishmandlar yeridir. Chxve lk Xyon uchun Xitoy – taraqqiyot sinonimidir, boshqa xalqlar esa – buzg‘unchilardir. An’anaviy tizimning radikal tarafdorlari chet elning har qanday ta’siriga qarshi chiqdilar. Jumladan, Li Xon Xo (1792- 1868) g‘arb tovarlariga boykot e’lon qilishni taklif etgan va bu bilan mamlakatni g‘arblashtirishni

[1] Axmedova M.A., Xan V.S. Koreys Falsafasi. -T.:TDSHI nashriyoti.2009. –B.69.

oldini olish mumkin deb hisoblagan. Konfusiychilikning o‘rtacha yo‘I tutadiganlar qanoti vakillari, jumladan, Pek Nak Kvan, chet el sarmoyasini faqat mamlakat iqtisodi oyoqqa turib olganidan keyingina kiritish mumkinligi haqida fikr bildirganlar. Yapon agressiyasi davrida ko‘pgina konfutsiychilar, «Vijon chxoksa» harakati ishtirokchilari vatanparvar shiorlar bilan chiqdilar va yaponlarga qarshi kurashga chaqirdilar. Bu kurashlarda ishtirok etish shakllari turlicha bo‘lgan. Ayrimlari qarshilik va bo‘ysunmaslik sanksiyalari bilan chiqdilar.

Jumladan, koreys qirolichasi o‘ldirilganidan so‘ng yapon hokimiyati koreys hukumatini koreys milliy soch turmagini qilishni man qiluvchi dekret qabul qilishga majbur qilgan. Chxve Ik Xyon buni amalga oshirishdan bosh tortgan, .natijada hibsga olinib yapon qamoqxonalariga tashlangan va o‘sha yerda olamdan o‘tgan. Boshqalari, Yu Rin Sek kabilar, qarshilik ko‘rsatish qurolli harakatida ishtirok etgan. Konfutsiychilik nazariyotchilarining dehqonlar bilan birga partizanlik chiqishlari ularning ongini o‘zgartirmay qolmadi. XIX asr koreys falsafasi tarixida nafaqat falsafasi obyektiv idealizmning rivojlanishi bilan balki moddiyistik qarashlarning ham rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Bu qarashlar faylasuf olim va ensiklopedik izlanishlardan keyin falsafa, matematika, mantiq, astronomiya, geografiya, fizika va psixologiya sohalarida katta meros qoldirgan Chxve Xan Gi (1808- 1873) qarashlarida o‘z aksini topgan. Chxve Xan Gi ta’limoti g‘arb ilm-fan yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan ta’limot bo‘ldi. KXDRda stalin-maoistlar tushunchasidagi «sotsializm» va «kommunizm» qurishga qaratilgan totalitar tipdagi siyosiy tizim shakllandi. Tirikligida rasmiy ravishda «Buyuk dohiy janob Kim Ir Sen» va «Qadrdon rahbar Kim Chen Im deb nomlanadigan rahbar va uning o‘g‘liga qaratilgan shaxsga sig‘inish kuchaydi[1]. Shimoliy Koreya jamiyatidagi o‘zgarishlarning g‘oyaviy va metodologik asosi deb e’lon qilingan «Marksizm-leninizm» Stalin maoistlar tushunchasidagi «marksizm-Ieninizm»ga yaqin va autentik marksizmdan juda uzoq, ko‘pgina yetakchi masalalarda esa butunlay unga teskari. Natijada davlat mafkurasi va insoniyat falsafiy hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlarining oliy cho‘qqisi deb e’lon qilingan «chuchxe» falsafasi kelib chiqadi. Bu ta’limot asosida kelgusi jamiyatning asosiy mohiyati

[1]Axmedova M.A, Xan V.S,Koreys Falsafasi-T.:TOSHDSHI nashriyoti.2009.B-29.

tavsifi ham aniqla belgilab berildi: «kommunistik jamiyat – bu chuchxe g‘oyalari hukm suradigan va amalga oshiriladigan jamiyatdir. «Chuchxe»ning asosiy tezisi shundan iboratki, «inson – hamma narsaning egasi, u hamma narsani hal qiladi» yoki, boshqa so‘z bilan aytganda, «sen o‘z taqdiringning egasisan, taqdiringni hal qilish uchun kuch o‘zingda mavjud» Chuchxening yetakchi g‘oyasi «mustaqillik» yoki «o‘z kuchiga ishonishdir. Bu sifat, hamda undan kelib chiqadigan ijodga qobiliyat va onglilik, chuchxe falsafasida inson borlig‘ining mohiyatidir. Chuchxeda marksizmning yetakchi g‘oyalaridan biri bo‘lgan ijtimoiy borliq – moddiy ishlab chiqarishning bir uslubi va odamlarning shunga mos keladigan ijtimoiy hayoti ijtimoiy ongni belgilaydi degan g‘oyasi qayta ko‘rib chiqildi. Chuchxeda unga butunlay qarama-qarshi bo‘lgan tezis ishlab chiqildi: «Ijtimoiy hayotda eng muhim va hal qiluvchi omil bu siyosiy va ma’naviy hayotdir»[1]. Sotsializm sharoitida, chuchxe asoschilarining fikricha, asosni hokimiyat yoki iqtisod emas,balki sotsialistik g‘oyani o‘zida aks ettirgan inson tashkil etadi»[2].

Shu bois uch asosiy yo‘nalish: «chuchxey inqilobi» – «iqtisodiy qurilishi», insonni tarbiyalash va jamiyatni o‘zgartirishlarni olsak, bunda «insonni qayta tarbiyalash masalasiga ko‘proq e’tibor qaratish lozim»[3]. Shunday qilib, chuchxega xos bo‘lgan g‘oyaviylik jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo‘lib qolmoqda. Chuchxeni davlat falsafasi darajasiga ko‘tarib, undan boshqa barcha falsafiy yo‘nalish rivojlanishlar qonundan tashqari deb e’lon qilingan Shimoldan farqli ravishda Janubda buddizm va konfutsiychilik va g‘arb falsafasi ta’sirida vujudga kelgan koreys falsafasining turli an’anaviy yo‘nalishlari rivojlanishda davom etdi. Bu holat an’anaviy va g‘arb qadriyatlarining birgalikdagi faoliyatining ma’naviy-madaniy holatining yaqqol aksidir. Koreys falsafasining an’anaviy yo‘nalishlariga kelsak, sof an’anaviy izlanishlar bilan bir qatorda an’anaviy muammolar va konseptual apparatlarni g‘arb falsafasida rivoj topgan muammo va tushunchalarga bog‘lashga intilishni kuzatish mumkin. Bu kontekstda konfutsiychilik

[1] Filosofskaya ensiklopediya. T.3. -M, .1964,str-23.
[2]Koreya. Sifrli fakti. — Seul,1993.
[3] «Koreya segodnya)). — Pxenyan. 1990, NE 2.

falsafasi va pragmatizm[1], dzen va Vitgenshteyn falsafasi[2], koreys falsafasining an'anaviy tushunchalari va zamonaviy ekologik mushohada va boshqalar tadqiq etiladi[3].

Janubiy koreyalik faylasuflarning ko'pchiligi AQShda ta'lim olganlar. Bu va boshqa tarixiy sharoitlarga ko'ra Janubiy Koreyada g'arb yo'nalishlaridan anglo-amerikan oqimi, va, ayniqsa, analitik falsafa, ko'proq rivojlandi. Shunday bo'lsa-da, plyuralizm siyosati ta'sirida mamlakatda falsafiy maktablarning deyarli barchasi faoliyat ko'rsatadi deyish mumkin. 90-yillardan boshlab Koreyada MDH davlatlarida tahsil olgan, va ayniqsa Moskva hamda Sankt-peterburg oliy dargohlarida tahsil olgan faylasuflar paydo bo'la boshladi.

Janubiy koreys falsafasining yetakchi mavzularidan biri an'anaviy milliy qadriyatlarning, madaniyatning va obrazli tafakkurning zamonaviy Koreyaga transformatsiyasi masalasidir. Bu muammo G'arb-Sharq, «ota va bolalar», an'anaviylik va industriallik, kollektivizm va individualizm va boshqa kontekstlarda tadqiq etiladi[4]. Faylasuflar, tarixchilar, sotsiologlar va politologlar murojaat qiladigan keyingi muhim masala bu Koreyani birlashtirish muammosidir.

Janubiy Koreyaning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar dunyosini qiziqtiruvchi masalalar bu jins, oila, ta'lim va tanazzuldan keyingi davr falsafasi kabi masalalardir. Chxve Xan Gi ortodoksal konfutsiyachilikka to'g'ridan to'g'ri qarshi chiqdi va yangi zamon yangicha qarashlami talab qiladi degan fikrni bildirdi.

Chxve Xan Gining falsafiy ontologiyasi moddiyistik va tabiiy ilmiy tamoyillarga asoslanadi. «Umuman va asosan, – deb yozadi u, – tabiat va insonning paydo bo'lishi «ki» moddiyistik ibtidoning faoliyati natijasidir[5]. Chxve Xan Gining bilish nazariyasida Van Yan-minning ichki sezgi yoki hissiyot (intuitivizm) tushunchasini hamda daoslarning sezgi organlariga bo'lgan ehtiyotkorsiz munosabatlarini tanqid ostiga oladi. Ratsionalizmning bir tomonlamaligini tanqid qilish bilan bir qatorda Chxve Xan Gi bir tomonlama xarakterga ega bo'lgan.

---

[1] Jungsik Um. Zen and Wittgenstein. — Philosophy and Culture. -Seoul: Korean Philosophical Association. 1999. Vol. /. N 1.

[2] Kyung-hee Nam. Gyu/: Ecological Reason. — Philosophy, Culture and Education: Asian Societies in Transition. -Seoul- Korean National Commission for Ui1esco. 1999. Vol. 2.

[3] O'sha asar.

[4] D.A.Pulatova. Koreya falsafasi.Toshkent,2018. –B.132.

[5] Koreya. Sifrli fakti. — Seul,1993.

Xulosa qilib aytganda bu davr Koreys falsafasidagi asosiy mavzu Koreyani rivojlantirish va uni mustamlakachilikdan ozod etish bo‘lgan. Bu yo‘lda faylasuf-marifatparvarlar har xil ssenariylarni o‘rtaga tashlashgan. Avval boshdan Xitoy Koreya uchun ideal sistema deb hisoblangan. Bu davrga kelib Xitoyning mustamlakachi davlatlar tomonidan bosib olinishi va bunga qarshi hech qanday qarshilik qilisha olishmaganini ko‘rgan koreyslar demak Xitoy mukammal emas ekan degan qarorga kelishadi. Bundan keyin Koreyani rivojlantirishning 3ta asosiy yo‘li qoladi bular Koreyani G‘arblashtrish va milliylikni yo‘qotmagan holda G‘arbga qarshi turish. Jahon urushlari esa G‘arbning ham ideal emasligini ko‘rsatib berdi. Va shu vaziyatda koreyslarning ikki davlatga bo‘linib ketishi va ikki xil rivojlanish, ikki xil tuzumni ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova M.A. Xan V.S. Koreys falsafasi.-T.:TDShI nashriyoti. 2009.

2. D.A.Pulatova. Koreya falsafasi.T.,2018.

3. Jungsik Um. Zen and Wittgenstein. – Philosophy and Culture. - Seoul: Korean Philosophical Association. 1999. Vol. /. N 1.

4. Kyung-hee Nam. Gyu/: Ecological Reason. – Philosophy, Culture and Education: Asian Societies in Transition. -Seoul- Korean National Commission for Ui1esco. 1999. Vol. 2.

5. Koreya. Sifrii fakti. – Seul. 1993.

6. Koreya segodnya)). – Pxenyan. 1990, NE 2.

IMOM AL-BUXORIY – ALLOHNING YERDAGI MO‘ZIJALARIDAN BIRI

Dilora Tursunaliyeva Dilmuhammad qizi
TDSHU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.R. Ikramova

“Agar keyingilarda Imom Buxoriyni maqtash eshiklari ochiladigan bo‘lsa uning madhiga qog‘ozlar yetmay, nafaslar toqat qila olmay qolur. Zero, u bamisoli sohili bo‘lmagan dengiz erur”[1].

Hadis – islom dini ta’limoti bo‘yicha Qur’ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, Muhammad (s.a.v.) payg‘abarning hayoti va faoliyati, shuningdek ularning diniy va axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi. Muhammad (s.a.v.) biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko‘rsatgan bo‘lsalar, yoxud boshqalarning o‘zlaricha qilayotgan biron ishini ko‘rib, uni man etmagan bo‘lsa, shu uch holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko‘rsatmalar haqidagi hikmatlar hadis deb yuritiladi. Hadislarda islom dini ahkomlari ya’ni, farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabilardan tashqari, axloq-odobga doir ko‘rsatmalar ham talqin etiladi. Ularda ibodatning tartib-qoidalari va ularni mukammal bajarishga da’vat etish bilan birga insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha’niga dog‘ tushiradigan razil sifatlar qoralanadi.

Shuning uchun ham islomning ilk davrlaridanoq musulmonlar hadislarga juda katta ahamiyat berishgan. Eshitgan har bir hadisni xatosiz, asl holicha boshqalarga yetkazishga qat’iy rioya qilingan. Bu to‘g‘rida payg‘ambarimizning o‘zlari musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turganlar. Hadis mazmuni va iborasini buzib o‘zicha yangi hadis to‘qib tarqatuvchilar qattiq qoralangan. Bunday talabchanlik payg‘ambar vafotidan ancha keyinga qadar ham hadislarning sof holda saqlanib turishiga imkon bergan. Lekin keyinchalik turli sinfiy va ijtimoiy ziddiyatlar, islom dinidagi ichki g‘oyaviy kurashlar natijasida ko‘pgina soxta hadislar ham yuzaga kelgan. Natijada yirik muhaddislar hadislarni ishonchli manbalar asosida qayta ko‘rib chiqish va ularning haqiqiylarini soxtalaridan ajratish uchun ancha xizmat qilganlar. Hadislarni og‘zaki

[1] Ahmad Muhammad Tursun.”Sohilsiz dengiz” T.,2020. –B.3.

an'anadan dastxat qilish va kitob holiga keltirish hijriy sananing ikkinchi asridan (ya'ni milodning VIII asridan) keng avj olgan.

Shunday ulug' muhaddislardan biri- Imom Buxoriydir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Ahnaf Yazdabih Buxoriy bo'lib, hijriy 194 (810) yili Buxoroda tug'ilgan[1]. Uning otasi Ismoil ham Buxoroning yetuk ulamolaridan hisoblanib, farzand tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Garchi otasida go'dakligida vafot etgan bo'lsa-da, Fotimabibi farzandining istiqboli uchun jonkuyarlik qildi. Ismoil farzandlaridan ayniqsa, Muhammadni ilm olishiga, Rasululloh hadislarini to'plash va tadqiq qilish ishiga ko'mak berishini vasiyat qilgan edi. Onaizor o'g'lining ilm olishi uchun barcha dard-u alamlarga, sog'inchi va iztiroblarga bardosh berdi, ammo Muhammadning ulug' muhaddis bo'lganini ko'ra olmay bu dunyoni tark etdi. Sakkiz ming hadisni yod bilgan Fotimabibi o'g'liga yoshligidan boshlab arab harflarini o'rgatdi, kichik suralarni yod oldirdi. "9 yoshida Qur'oni karimni to'la hifz etgan, hadis eshitishni yaxshi ko'rar, voyaga yetguncha 70000 ming hadisni yod olgan edi"[2].

Yosh muhaddis o'z davrining yetuk olimlaridan tahsil olgan va ularni Qur'on tilovati, hadislarni sanadini xatosiz, to'liq yoddan aytib berish bilan lol qoldirgan. Buxoriy jami 1080 ustozdan hadis ilmini o'rgangan". Imomning o'zi: "Qaysi bir ustozning oldiga bormayin, mening undan oladigan foydamdan ko'ra uning mendan oladigan manfaati ko'proq bo'lar edi" degan edilar"[3].

Imom Buxoriy ilm yo'lida mashaqqatli safarlar qilgan, turli shaharlarga borib, ulamolardan eshitgan hadislarini jamlab borgan. To'plangan barcha hadislarni sanadiga katta e'tibor bergan va sanaddagi barcha kishilarning hayotini yaqindan bilgandan so'nggina sahih hadis sifatida yozib qoldirgan. "Buxoriy umuman 600000 ming hadisni to'plab, shundan 100000 ming sahih, 200000 ming zaif hadisni yod olgan, bularni to'plashda 90000 ming kishi huzurida bo'lgan"[4]. Muhaddisning shunday hadislar to'plami – "Al Jome' as-sahih" asari uning nomini butun dunyoga tanitdi. "Bu asarning to'liq nomi "Al-Jame' as-sahih al-musnad min hadisi Rosulillah sollallohu alayhi

[1] Ahmad Muhammad Tursun,Imom Buxoriy T.,2021. –B.8.
[2] Ahmad Muhammad Tursun,Imom Buxoriy.T.,2021. –B.8.
[3] Ahmad Muhammad Tursun, Sohilsiz dengiz.T.,2020. –B.55.
[4] Ahmad Muhammad Tursun,Imom Buxoriy.T., 2021. –B.8.

vasallam va sunanihi va ayyamihi" ("Rasullulloh sollallohu alayhi vasallamning hadislari, sunnatlari va ayyomlari haqida jamlovchi, sahih va musnad")dir"[1]. Xalq orasida "Sahih Buxoriy" deya nom olgan asar, 16 yil mobaynida yozilgan. Ushbu asar Qur'oni Karimdan keyingi o'rinda turishi ham bejiz emas, chunki bu asarda barcha sahih hadislar joy olganligi, mukammal tartibga ega ekanligi, qimmatbaho ma'lumotlar bilan boyitilganligi asar qiymatini yanada oshirgan. Payg'ambarimiz aytgan so'zlari va qilgan barcha ishlari dastlabki davrlarda yozib qoldirgan bo'lsada, ammo yagona kitob shaklida jamlash ishi amalga oshirilmagan. Keyinchalik musulmonlarni quvontiradigan ishni amalga oshirishga muvaffaq bo'lishgan. "Muarrixlar Rasulloh sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflarini jamlash va kitob holiga keltirish ishlari rasmiy ravishda hijriy yuzinchi yillarda xalifalik qilgan Umar ibn Abdulaziz davrida bo'lganini yozishadi. U taniqli olim Ibn Shihob Zuhriy va boshqa muhaddislardan omma uchun hadis kitobi yozishni so'radi. Ibn Shihob Zuhriy sodda bir kitob ta'lif qildi. Boshqalar ham unga ergashishdi. Rasmiy ravishda hadis kitoblari yozish shundan boshlanadi"[2]. Aytib o'tilgandek, bu kitob juda sodda tarzda bayon etilgan va keyinchalik yagona sahih bo'lgan kitobni Imom Buxoriy taklif etgan. Buxoriyning bu asarni taklif etishida Is'hoq ibn Rohavayhning o'rni beqiyos. "Ulamoning o'zi: "Bir kuni Is'hoq ibn Rohavayh ashoblariga qarata: "Nabiy sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari bo'yicha muxtasar bir kitob jamlasalaringiz-chi!"deb qoldilar. Payg'ambar alayhissalomning hadislarini jamlash, ularning sahih va nosahihini ajratish, tadqiq qilish mening azaliy orzuyim, hayotimning bosh maqsadi edi. Ustozning fotihalarini oldim. Allohdan tavfiq berishini va oson qilishini so'rab, shu kitobni jamlashni boshladim"[3]. Asar yozishga bel bog'lagandan so'ng, ulamoning tushiga Payg'ambarimiz kiradilar va bu ilohiy xabar orqali "Sahih Buxoriy" asari yozilishiga turtki bo'ladilar. "Ushbu kitobdagi birorta ham hadis yodimdan ko'tarilgan emas. "Sahih"ni ham 3 martadan yozganman". "Al-Jome'us sahih"ning asosiy qismini Masjidul-Haromda yozdim. G'usl qilib, 2 rakat namoz o'qib, istihora qilmay turib unga birorta ham hadis yozmadim. Keyin Madinai Munavvarada Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning ravzalari bilan minbarlari orasida o'tirib, kitobni

[1] Ahmad Muhammad Tursun,Sohilsiz dengiz.T.,2020. –B.123.
[2] Ahmad Muhammad Tursun, Sohilsiz dengiz.T.,2020. –B.127.
[3] Ahmad Muhammad Tursun, Sohilsiz dengiz.T.,2020. –B.116.

boblarga ajratdim, tarojumlarni tuzdim. Men zehnimni faqat shu ishga sarfladim, amal bilan yod oldim, yozgan barcha hadislarimga o‘zim amal qildim. Ushbuni hijriy 238 sanada (853 yilga to‘g‘ri keladi) yozib tugatdim”[1]. Ushbu asarga ayrim manbalarda 7563 ta, ayrimlarida esa 7275 ta sahih hadislar jamlagan. “Uni 600000 ming chamasidagi hadislar orasidan ajratdim”[2], deydi imomning o‘zi.

“Ana shu noyob kitobga jami 82 ta sharh yozilgan”[3]. Alloma Ibn Xaldun mashhur “Muqaddima” asarida shunday yozadi: “Ustozimiz rahmatullohi alayhim shunday deyishganini ko‘p marotaba eshitgan edik: “Buxoriyning kitobiga sharh yozish musulmonlar uchun qarzdir. Biroq Islom ulamolaridan hech birlari ushbu mas’uliyatdan ozod qila oladigan, qarzdan qutultiradigan birorta sharh yozishmadi. Ayni chog‘da bir qancha sharhlar bitilgan bo‘lsa-da, biroq ulardan birortasi ham imom Buxoriyning o‘zi to‘plam boblari tarojumalarida bayon qilgan fiqhiy hikmatlaru nuqtalarni o‘sha ilmiy durlari hadisiy va tarixiy nozik javohirlarni o‘zlarida mujassam etmagan”[4].

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining tashabbuslari bilan ushbu asar diyorimizda yangi nom ostida va qo‘shimcha 3 ta yana hadislar to‘plamini jamlab -“Oltin silsilasi”deya nom oldi. Ushbu ishni amalda g‘oyat katta mehnat talab etsa-da, ko‘zlangan maqsadga erishilib, o‘zbek xalqi uchun katta sovg‘a bo‘ldi. Quvonarli jihati shundaki, “Oltin silsilasi” siz va biz yaxshi bilgan o‘zbek tilida aniq va puxta bayon etilgan . Hadislarda aytilishicha, Muhammad alayhissalom: “Mening so‘zimni eshitib, uni anglab, yod olib, so‘ng uni boshqalarga eshitganidek yetkazgan kishini Alloh yorlaqasin”[5], deb marhamat qilganlar. Bu asar nafaqat o‘zbek xalqi uchun balki butun jahon musulmonlari uchun bebaho asar hisoblanib, ushbu noyob asar haqida ba’zi insonlarning asarga bildirgan fikrlari: “ Butun musulmon olamida Islom dini markazlaridan biri sifatida tan olingan, ulug‘ muhaddis allomalar, aziz-avliyolar vatani bo‘lgan O‘zbekiston zaminida Qur’oni karimdan keyingi asosiy muqaddas manba bo‘lmish hadisi shariflarning “Oltin silsilasi” ruknida chop etilayotgani, hech shubhasiz, ulkan madaniy hodisadir. Katta ilmiy-

[1] O‘sha asar. –B.118.
[2] O‘sha asar. –B.118.
[3] Ahmad Muhammad Tursun,Imom Buxoriy. T.,2021. –B.8.
[4] Ahmad Muhammad Tursun,Sohilsiz dengiz, T.,2020. –B.124.
[5] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va boshqalar. Oltin silsilas. T.,2021. –B.7.

ijodiy mehnat, kuch-g‘ayrat talab etadigan, tom ma’noda noyob bu to‘plamni nashr etishga azmu qaror qilgan siz, azizlarni Musulmon ulamolari butunjahon kengashi a’zolari nomidan chin qalbimdan muborakbod etaman” Doktor Aliy Muhyiddin Qorado‘iy, Musulmon ulamolari butunjahon kengashining Bosh kotibi”[1].

“Ma’lumki, ushbu bebaho ilmiy meros sobiq mustabid tuzum davrida mutlaqo e’tibordan chetda qolgan edi. Mustaqillik sharofati bilan bu diyor o‘zining diniy-madaniy qadriyatlarini tiklash borasida ham ulkan imkoniyatlarga ega bo‘ldi. “Oltin silsilasi” nomli hadislar to‘plamining nashr etilayotgani bu yo‘ldagi yana bir ulkan tarixiy qadamdir. Shubhasiz, “Alloh go‘zal amal qilganlarning ajru mukofotini zoye qilmas”[2], Shayx Muhammad Said Ramazon Butiy. Bunday ulkan ishlarni amalga oshirgan insonlarga qancha rahmatlar aytsak ham oz. Faqatgina bizga taqdim etilgan ushbu asarlarni o‘qib-o‘rgansak, amalda tatbiq etsak kifoya.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, butun dunyoni o‘tkir zehni bilan lol qoldirgan muhaddis butun musulmon ahli uchun bebaho yodgorlikni hadya etdi. Imom Buxoriydan so‘ng hadislar to‘plami taklif etilgan bo‘lsa-da, muhaddisning asari kabi ishonchli va puxta bo‘lmadi. “Al-Jome as-sahih” asariga jamlangan barcha hikmatlar xazinasi musulmonlar uchun katta tuhfa sanaladi. Ona diyorimiz muhaddislarni, ulamolarni, olimlarni voyaga yetkazgan yurt hisoblanib, ulug‘ muhaddisning ishini o‘zbek o‘g‘loni davom ettirdi va xayrli ish barcha musulmon xalqlari uchun ulkan yangilik bo‘ldi.

Ulug‘ muhaddisning umr safar yo‘li haqida qancha yozsak ham, qancha gapirsak ham oz…Buxoriy xuddi ilmlar bilan to‘lgan bir dengiz edi, uni na sohili bor, na qirg‘og‘i… Bunday inson va bunday asar yozilishi uchun Imom Buxoriy yana bu foniy dunyoga qaytsagina, amalga oshishi mumkin.

---

[1] O‘sha asar. –B.8.
[2] O‘sha asar. –B.9.

“LI” TOIFASI – KONFUTSIYLIK ETIKASINING ASOSI

Botirov Sobirjon Aziz o‘g‘li
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. E.M. Izzetova

Konfutsiychilik ta’limi, avvalo, inson o‘z-o‘zini anglashdan boshlanadi, chunki ta’limot insonga bog‘liq va insonga yaqin bo‘lgan ixtilof va tuyg‘ularni aks ettiradi. Qolaversa, “Inson tabiati – Osmon in’om etgan ne’matdir” kabi asosiy iboralar taniqli konfutsiychilik olim-pedagoglari tomonidan tez-tez keltiriladi. Aynan mana shu “odob-axloq” tushunchasi koinotdagi tartib-intizomning manbai ekanligini qadimgi odamlar ochib bergan va biz yashayotgan jamiyatning to‘g‘ri tartib bilan ishlashi uchun eng muhimi – bu odob-axloq deb hisoblaganlar. Ular jamiyatning “odob-axloq” asosida shakllanishini xohladilar. Boshqa axloqiy tamoyillar bilan taqqoslaganda, “Li” kategoriyasi uzoqroq tarixga egadir va Konfutsiy madaniyatining rivojlanishi davomida ta’limot markazi sifatida doimo talqin qilib kelingan. Konfutsiychilikning umumiy nuqtai nazari shundan iboratki, “Li” kategoriyasi insonlar munosabatlarini rivojlantirish, jamiyatda tinchlik, totuvlik va to‘g‘ri boshqaruvga yordam beradi. “Li” tushunchasi konfutsiychilik asosiy qadriyatlarining muhim qismlaridan biridir, shuning uchun ushbu kategoriyani va uning evolyutsiyasini o‘rganish va shu bilan bir qatorda bevosita bu tushunchani falsafiy tahlil qilish konfutsiychilik madaniyatini yanada chuqurroq tushunishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

“Li” tushunchasi birinchi navbatda konfutsiychilik etikasining asosi hisoblanadi, qolaversa klassik Xitoy falsafasining ham markaziy kategoriyalaridan biri sifatida talqin etiladi. Xitoy lug‘atidagi boshqa ko‘plab atamalar singari, “Li” ham bir-biriga bog‘liq ma’nolar turkumini o‘z ichiga oladi, bu esa boshqa tillarda bitta so‘z bilan ayni bir ifoda berishni qiyinlashtiradi. Tushuncha ikkita asosiy, “axloq” va “marosim” ma’nolarini anglatgan holda, ularni o‘zida birlashtirgan. Etimologik jihatdan, “Li” iyeroglifining yozuv ko‘rinishi uni “Ti” antologik tushunchasi (“tana”, “tuzilma”, “mohiyat”) bilan bog‘laydi, shu o‘rinda ikkala ieroglifning grafik asosi marosimlarning mohiyatini aks ettiradi degan xulosaga kelsak bo‘ladi. Ko‘rinishidan, bu ikki ieroglifning etimologik munosabati, “Li” kategoriyasining ontologik

funksiyasini oldindan belgilab qo‘ygan bo‘lib va katta ehtimol shu tufayli, nafaqat madaniy hayotda, balki jamiyatdagi eng muhim omilning ifodasi sifatida ham qarala boshlagan. Miloddan avvalgi 1-mingyillikkacha “Li” ta’siri diniy marosimga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik asosan axloqiy talqin sifatida ko‘rila boshlandi.[1]

Eng qadimiy yozma yodgorliklarda (“Shu jing” va “Shi jing”) “Li” kategoriyasi siyosiy ziddiyatlarni yengib o‘tishga imkon beradigan va shu bilan bir qatorda, dunyo birligini aks ettiruvchi marosimlarni, obro‘li shaxslarning boshqa quyi jamiyat vakillariga nisbatan xatti-harakatlari, shuningdek, ma’bud va ajdodlarga bag‘ishlangan, qolaversa saroy marosim shakllari ma’nosini bildiradi deb ko‘rsatib o‘tilgan.[2]

Barcha holatlarda “Li” atamasi inson faoliyati, ajdodlar ruhiga hurmat ko‘rsatishdan tortib dasturxon odobigacha, va ularni rag‘batlantiradigan va mustahkamlaydigan odob-axloq munosabat-larini anglatadi. Sodda qilib aytganda, “Li” inson harakatlarini cheklaydigan va ularni boshqaradigan xatti-harakatlar standartlariga ishora qiladi. Qadimgi klassik Xitoy dini va falsafasida keng tarqalgan ijtimoiy tartib va axloqiy xulq-atvor bilan bog‘liq umumiy muammoni hisobga olsak, bu tushuncha qanday qilib ilk konfutsiychilar uchun to‘liq markaziy tushunchaga aylanganini anglab olish qiyin emas.

Biroq klassik konfutsiychilik faylasuflarining har biri “Li” kategoriyasiga har xil yondashuvda bo‘lgan, shu sababli tushunchani tahlil etish mobaynida, unga nisbatan qator munosabatlarni navbatma-navbat ko‘rib chiqishni talab qilinadi. Konfutsiy ustoz (keyinchalik diniy va axloqiy faylasuf) sifatida axloq va ijtimoiy uyg‘unlikni targ‘ib qilishda “Li” ning o‘rni zarurligini tushuntirdi. Vaziyatdan qat’i nazar, “Li” xulq-atvorning ichki yo‘l-yo‘riqlari ma’nosida, qolaversa insonni shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish ma’nolarida tushunilgan. Konfutsiyga “ Oliyjanob inson qanday bo‘lishi kerakligini so‘rasak bo‘ladimi?” deb savol berilganida, u shunday javob beradi: «Marosim qoidalariga rioya qilishdan chalg‘itadigan hech narsaga qaramang; marosim odobini buzadigan

[1] Сыма Цянь. Исторические записки. –М.:: Восточная литература, 1986. - С. 352.
[2] Древнекитайская философия. Собрание текстов. – М.: Мысль, 1972. – С. 79.

hech narsaga quloq solmang; marosim odobini buzadigan hech narsa haqida gapirmang va qilmang.»[1]

Ushbu tushunchasining "axloq" va "marosim" sifatidagi talqin etilishi va ma'noviy jihatdan yakdil bir to'xtamning noaniqligi Konfutsiyning ikkita yirik izdoshi va konfutsiychilikdagi qarama-qarshi oqim asoschilari hisoblanadigan Men szi va Syun sziga "Li" tushunchasini turli yo'llar bilan izohlash imkonini berdi.[2] Men szi "Li" ga boshqacharoq yondashuv beradi. U Konfutsiy aytganidek ushbu tushunchani o'rganish mumkin bo'lgan odob-axloq modeli sifatida emas, balki ichki yaxshi xulq-atvor tuyg'usini anglatuvchi atama sifatida ta'rifladi. Adolat, yaxshilik, odob va donolik kabi fazilatlar insonga tabiatan mos deb biladi:

"Insonlar aslida qanday bo'lsa, ular yaxshi inson bo'lishi mumkin. Ularning tabiatida mehr-shafqat, boshqalarga hurmat, ularni ma'qullash kabi xususiyatlar tabiatan bor. Aksincha, insonlarning yaxshi emasligiga kelsak, bu ularning ichki salohiyatida ayb degani emas. Bu shunchaki, ular o'zlaridagi ezgu qalblariga e'tibor qaratmaydilar. Izlang va siz, albatta, unga erishasiz". Shunday qilib, Konfutsiy va Men szi nuqtai nazarlari o'rtasida sezilarli farqlarni ko'rish mumkin. Konfutsiy uyg'un xulq-atvorni targ'ib qilishda "Li" zarurligini ta'kidlagan bo'lsa-da, Men szi inson tabiatiga ko'proq ishonadi.[3]

Men szidan farqli o'laroq, Syun Szi inson tabiatan yovuzroq ekanligiga ishonadi – bu uning yoshiga xos bo'lgan tartibsizlik va noaniqlikdadir deb hisoblaydi. Shunday qilib, Konfutsiyga fikrlariga qo'shilgan holda, u inson xatti-harakatlarini tartibga solish va uyg'un jamiyat qurish uchun "Li" zarurligini ta'kidladi:

"Inson o'zining tabiatiga ergashib, undagi his-tuyg'ulariga erkinlik bersa, muqarrar ravishda janjal va nizolarga aralashadi, jamiyatning shakl-qoidalarini buzadi va jinoyatchiga aylanadi".[4] Binobarin, inson avvalo Konfutsiy ko'rsatmalari bilan o'zgarib, marosim tamoyillari (Li) ga amal qilishi kerak, shundagina u odob va kamtarlikka amal qila

---

[1] The Analects of Confucius. Translated by Burton Watson. — New York: Columbia University Press, 2007. – P. 13.

[2] Cua A.S, Li and Moral Justification: A Study in the Li Chi, Philosophy East and West. -Hawaii: University of Hawai'i Press, No. 1, Jan., 1983 — P. 7.

[3] Schwartz B.I. The World of Thought in Ancient China. -Massachusetts: Belknap Press of Harvard University Press, 1985. – P. 194.

[4] Xunzi (Basic Writings). Translated by Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 2003. – P. 114.

oladi, jamiyat qoidalari va tartib-intizomga bo‘ysunadi. Shu bilan birga, u Konfutsiyning qarashlarini kengaytirib, ushbu xulq-atvor me’yorlari odamlarning istak va his-tuyg‘ularini boshqarish va ularni tartibga solish usullarini aniq o‘rganib chiqadi. Shunday qilib, Syun Szi inson his-tuyg‘ularini tartibga solishdagi funksiyasini maqsadli o‘rganish orqali “Li” ning jamiyatdagi rolini kengaytirgan bo‘lsa-da, lekin bu ishni u ochiqdan-ochiq pessimistik va biroz avtoritar kontekstda amalga oshiradi.

Urf-odatlarga sodiqlik, ularga rioya qilish, masalan, ota-onaga hurmat shular jumlasidandir. Umumiy ma’noda, “Li” jamiyat asoslarini saqlashga qaratilgan har qanday faoliyatni o‘z ichiga oladi. Konfutsiyning fikricha, umuman olganda, bizning har qanday xatti-harakatlarimiz, xoh u ovqat yeyish, xoh salomlashish, hammasi shunchaki emas, balki marosim shaklida bo‘lishi kerak, ya’ni ongli ravishda, asta-sekin, hissiyot bilan bajarilishi kerakligi aytiladi. Kundalik hayotining turli jabhalarini marosim tarzida o‘tkazishning ushbu tamoyili odamlarga hayotni, uning ruhini yaxshiroq his qilishlariga imkon berish uchun mo‘ljallangan deb qaraladi. Albatta, har qanday marosim hurmat (inson o‘ziga, boshqa odamlarga va tabiatga) va qadr-qimmat bilan to‘ldirilishi kerak.

Shu bilan birga, insonlar o‘zlarining harakatlarida ham, birodarlariga ko‘rsatilgan to‘g‘ri o‘rnak va yordamlarida ham an’analarga fidoyilik amaliyotini saqlab turishlari kerak. “Li” tushunchasining marosim me’yorlari, qadriyatlarga asoslangan xatti-harakat namunalari odamlarni birlashtiradi va bir vaqtning o‘zida qulay muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan makonga imkon beradi. Konfutsiyning fikricha, inson qadr-qimmatga ega noyob mavjudotdir. Inson qadr-qimmati "Li" dan kelib chiqadi va unda gavdalanadi. O‘zlashtirilgan odat, marosim insonni hayvondan ajratib turadi. Shaxsiy yondashuvlar, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar birgalikda “Li” kategoriyasining qanday qilib har bir narsani, yaxshi va yomonni, shaklga ega va shaklsizni keng masshtabda va batafsil ko‘rinishda qamrab olganligini ko‘rsatadi. Aynan shu “Li” ning jamiyatda to‘liq amalga oshishidir deb qarasak bo‘ladi.

“Li” jamiyatning barcha jamiyat a’zolari tomonidan rioya etilishi kerak bo‘lgan axloq normalari edi. U, shuningdek, yuqori tabaqa vakillarining o‘zlaridan quyidagilarga nisbatan adolat va hurmat bilan munosabatda bo‘lishi lozimligini o‘z ichiga oladi. Konfutsiy

aytganidek, "Hukmdor o‘z vazirlari bilan odob-axloq qoidalariga ko‘ra ish olib borishi kerak va vazirlar ham o‘z hukmdorlariga sodiqlik bilan xizmat qilishlari kerakdir"[1].

Xulosa qilib aytganda, konfutsiychilikda jamiyat “Li” tamoyili asosida quriladi. Ijtimoiy odob-axloq qoidalari oiladagi, do‘stlikdagi, subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni va boshqalarni tartibga soladi. “Li” ajdodlardan avlodlarga o‘tib keladigan urf-odatlar va munosabatlar majmui hamdir. Xususan, u ota-bobolar, qishloq oqsoqollari va hukumat amaldorlari tomonidan boshqalarga o‘rgatiladigan to‘g‘ri ijtimoiy xulq-atvor normalaridan iborat. “Li” tushunchasi farzandlarga taqvo, birodarlik, solih amallar, yaxshi xulq va sadoqat kabi ezgu g‘oyalarni targ‘ib qiladi. Qolaversa, uning bevosita ta’siri insonning o‘zidan yuqori mansab vakillariga sodiqlik va jamiyatda muhim o‘rin egallovchi shaxslarga hurmatda bo‘lish kabi odob qadriyatlarini singdirgan. Shu qatorda, Konfutsiy marosimlarni to‘g‘ri ishlaydigan hukumatning asosi sifatida muhimligini ta’kidladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Сима Цянь. Исторические записки.– М.: Восточная литература, 1986.-482 с.

2.Древнекитайская философия. Собрание текстов. – М.: Місль, 1972. - 363 с.

3.The Analects of Confucius. Translated by Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 2007. – 176 p.

4.Xunzi (Basic Writings). Translated by Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 2003. – 160 p.

5.Cua A.S, Li and Moral Justification: A Study in the Li Chi // Philosophy East and West. -Hawaii: University of Hawai’i Press, No. 1, Jan., 1983. – pp. 1-16 (16 pages).

6.Schwartz B.I. The World of Thought in Ancient China. - Massachusetts: Belknap Press of Harvard University Press, 1985. – 490 p.

[1] The Analects of Confucius. Translated by Burton Watson. — New York: Columbia University Press, 200. – P. 139.

MISR MA'RIFATPARVARI MUSTAFO KOMILNING IJTIMOIY QARAShLARI

Abdufattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.R. Ikramova

Ma'lumki, ilgari kuchli davlat bo'lgan Usmonli saltanati XVI asrdan boshlab chuqur inqirozga yuz tuta boshladi. Turk saltanati tarkibida bo'lgan arab mamlakatlariga esa XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridan rivojlangan Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, Angliya va Fransiyaning qiziqishi kuchayadi hamda ularga nisbatan asta-sekin siyosiy va iqtisodiy tazyiq o'tkazila boshlanadi. Ayrim arab mamlakatlari bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi, boshqalari esa iqtisodiy va siyosiy jihatdan qaram davlatga aylandi. Mahalliy hukmdorlar hokimiyati zulmiga Yevropa davlatlarining mustamlaka zulmi ham qo'shildi. Oxir-oqibat, arab xalqlari G'arb mamlakatlari bilan yaqinlashuv oqibatida arablar, bir tarafdan, G'arb mustamlakachilarining kuchayib borgan tazyiqiga uchradilar, ikkinchi tarafdan, tanazzulga yuz tutayotgan turk sultonlari tazyiqiga uchradilar.

Mustamlakachilik siyosati arablarning ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy va madaniy hayotida ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Arablar siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini yo'qotgan sari ular o'rtasida mustamlakachilarning siyosati va zulmiga qarshi norozilik va milliy mustaqillik uchun kurash g'oyalari avj ola boshladi. Pirovard oqibatda bu qaram mamlakatlarda ham g'oyaviy uyg'onish davri boshlandi. Bu davr arab mutafakkirlari tomonidan "an-Nahda" (" Uyg'onish") yoki "an-Nahda al-arabiya" ("Arab uyg'onishi") deb ataladi[1]. Shu davr mutafakkir va adiblari – barcha vatanparvar ziyolilar ijodida diniy islohotchilik g'oyalari, mustaqillik uchun kurash, G'arbning ilg'or fani va madaniyatini o'rganish masalalari, xalq orasida ilm-ma'rifat tarqatish g'oyalari o'z ifodasini topdi. Misr ozodlik kurashi, ma'rifatparvarlik g'oyalarini Rifo at-Tahtaviy boshlab bergan bo'lsa, Ali Muborak, Nosif al-Yozijiy, Jamol ad-Din al-Afg'oniy, Abdulloh Nadim, Jurjiy Zaydon, Qosim Amin, Mustafo Komil kabi ma'rifatparvarlar davom ettirdi.

[1] E.D.Babayeva. Ma'rifat yo'lida. T.:Fan va texnologiya. 2012. –B.10.

Mustafo Komil o‘zining qisqa, ammo sermazmun hayotini Vatan ozodligi uchun bag‘ishladi. U milliy ozodlik harakatining eng oldingi safida borib, bu harakat rahbarlaridan biriga aylandi. Otashin nutqlari, publitsistik maqolalari bilan ezilgan xalq ommasini vatanni sevishga, uning ozodligi uchun kurashishga chaqirdi. Mustafo Komil 1874-yil 14-avgustda Qohirada harbiy muhandis Ali Afandi Muhammad oilasida tug‘ildi. 12 yoshga to‘lganda otasi olamdan o‘tdi. Maktabda o‘qigan chog‘larida Mustafo o‘z tengdoshlaridan erkin fikrlashi va so‘zamolligi bilan ajralib turardi. Bir kuni maorif vaziri Ali Muborak maktablarni ziyorat qilib, Mustafo Komil o‘qiydigan sinfga kirib qolgan. Shunda Mustafo she’r o‘qiyotgani va o‘qituvchi savoliga javob berayotganini ko‘rib, vazir uning zukkoligi, jasurligi, fikrlash qobiliyatiga tan berib: «Haqiqatan sen Imr ul-Qayssan, sening kelajaging buyuk»[1], – deb yuborgan.

Mustafo Komil Qohiradagi huquq bilim yurtida o‘qidi, so‘ng 1894-yili Fransiyaga borib, Tuluza universitetining yuridik fakultetini tamomladi. Vataniga qaytib, advokaturada xizmat qila boshladi. Mustafo Komilda yoshlik yillaridanoq mamlakatni xonavayron, xalqni och-yalang‘ochlikka mubtalo etayotgan ingliz mustamlakasiga qarshi kurash ruhi kuchayib bordi, u butun shijoatini, kuch-g‘ayratini shu kurashga bag‘ishladi. Mustafo talabalik yillarida mamlakatdagi taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z safiga birlashtirgan siyosiy to‘garaklarda faol qatnasha boshladi. Mamlakatning yirik «al-Ahram» va «al-Muayyad» ro‘znomalarida Mustafo Komilning ham vatanparvarlik maqolalari paydo bo‘la boshladi. Misr xalqining farzandi, o‘z mamlakatining ozodligi hamda milliy mustaqilligi uchun tolmas va shijoatli kurashchi Mustafo Komil 1893-yil 8-yanvarda xalq ommasi oldida birinchi marta otashin nutq so‘zladi. Tuluzada uning «Misr xavfi» nomli birinchi risolasi nashr etiladi.

Mustafo Komilning ma’rifiy g‘oyalarini shakllanishida Yevropa madaniy hayoti, shuningdek, Fransuz ma’rifatparvarlari g‘oyalarining ahamiyati katta. U Yevropaning bir qancha davlatlarini kezib, u yerdagi ziyolilar bilan fikr-mulohazalar almashadi. U o‘zi bilan hamfikr bo‘lgan ziyolilarni Fransiyada topadi. Ilg‘or fransuz yozuvchilari va olimlari, jumladan, mustamlakachilikning ashaddiy dushmani bo‘lgan yozuvchilar Leon Dode va Pyer Loti bilan do‘stlashadi. Uning mashhur fransuz jamoat arbobi Jyulyetta Adan bilan bo‘lgan do‘stona aloqasi alohida e’tiborga sazovor. Yosh vatanparvarning butun intilishlari Jyulyetta Adan tomonidan

[1] Jurjiy Zaydan. Mustafa Kamil. Bunat-an-Nahda al-arabiya. Qohira. 1934 –B.56.

qizg‘in qo‘llab-quvvatlanadi. O‘ziga hamfikr va ma’naviy suyanchiq topgan Mustafo Komil Adanga yuborgan xatida quyidagilarni yozgan:

«Men yoshman, ammo qalbimda cheksiz buyuk maqsadim bor, aziz Vatanimni himoya qilmoqchiman. Ba’zilar sening Vataning yo‘q deyishadi, aslo unday emas! Yuragimda buyuk muhabbatim bor ekan, demak, Vatanim ham bor. Bu muhabbat shu qadar jo‘shqin, shu qadar kuchliki, hamma narsani yenga oladi. Navqiron yoshligimni, kuch-quvvatimni, butun hayotimni Vatanga bag‘ishlayman. Men endigina yigirma bir yoshga to‘ldim. Tuluzada huquq fanlari magistri unvonini oldim. Endilikda esa Vatanimga bo‘lgan buyuk sevgimni, sadoqatimni hayajon bilan yozmoqchiman. Ana shu haqda olamga baralla jar solmoqchiman» [1] . Ushbu otashin gaplar yosh ma’rifatparvarning Vataniga bo‘lgan muhabbati naqadar cheksiz ekanligining isbotidir.

1900-yilda Mustafo Komil «al-Liva’» («Bayroq») nomli kundalik ro‘znoma chiqara boshladi. Oradan ko‘p o‘tmay, fransuz va ingliz tillarida «Misr bayrog‘i» ro‘znomasini ham nashr qila boshlaydi. Bu ro‘znomalarning har bir soni vatanparvarlik va ozodlik ruhi bilan sug‘orilgani uchun xalq tomonidan sevib o‘qiladi. Mustafo Komil bu ro‘znomalar orqali ingliz hukmronligiga qarshi kurashibgina qolmay, balki barcha imperialistik davlatlarning bosqinchilik, talonchilik siyosatini ham qoralaydi. Mustafo Komil Misr masalasini ko‘tarib, Fransiya, Germaniya, Turkiyalarga boradi, ulardan yordam qilishlarini so‘raydi, u yerdagi gazetalarda maqolalari bilan chiqadi. Biroq uning bu harakatlari o‘zi kutgan natijani bermaydi. Misr ozodligi, uning kelajagini faqatgina Misrliklar saqlab qolishi mumkinligini anglab yetadi. Buning uchun esa diniy millatchilik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan ichki ziddiyatlarni bartaraf qilib, butun xalqni birlashtirish kerak edi. U Misrliklarni birlashtirish uchun “Umma” tushunchasiga sekulyaristik ruh beradi, ya’ni dunyoviy ma’noga yaqinlashtirilgan «millat» («umma») tushunchasini targ‘ib qiladi. Uningcha, «millat» («umma») geografik, iqtisodiy, til yoki din jihatidan birlashgan bir guruh kishilardir. Bu yerda diniy omil oxirgi o‘ringa o‘tadi. «Millat»ning bunday tushunilishi Misrda har xil a’zolarini diniy e’tiqodli kishilarni, birlashtiradi va vatanparvarlikka yo‘naltiradi. Bundan maqsad Misrda yashaydigan musulmon va xristian koptlarni ingliz bosqinchilariga qarshi kurashga birlashtirishdir. Mustafo Komil g‘oyasiga ko‘ra, Misrliklar

[1] Крачковский И.Ю. Мустафа Камиль и Жюльетта Адан (к истории национального движения в Египте). Л., Отт.из "Известий" ЛГУ, 1928. –С.179

deganda, qaysi dinga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, Misrda yashaydigan xalq tushuniladi. «Biz anglashimiz kerakki, Misrdagi musulmonlar va koptlar yagona bir millatdir[1]», – deydi Mustafo Komil. Uning fikricha, diniy va milliy ong orasida hech qanday qarama-qarshilik yo‘q. Shuning uchun musulmon va xristianlar o‘rtasida vatanparvarlik birligini tiklash kerak.

«Misrda biz bir millatmiz, ba’zilarimiz koptlar, boshqalarimiz (ular ko‘proq musulmonmiz. Bizda ikki burch, diniy va vatanparvarlik burchi bor. Diniy burch koptlardan o‘z e’tiqodini avaylab himoya qilishni talab etadi. Musulmonlardan esa o‘zining diniy burchini ado etish talab qilinadi, ular islom tamoyillariga to‘g‘ri bo‘ysunishlari kerak. Ammo vatanparvarlik burchimizga kelsak, musulmonlar va koptlar Misr – Vatan manfaatlarini hammadan yuqori qo‘yishlari lozim, sevimli mamlakatimiz, o‘zimizning mustaqillik va erkinligimiz uchun birgalikda xizmat qilishimiz kerak” [2] . Mustafo Komilning ushbu gaplaridan shuni anglashimiz mumkinki, u Vatan oldidagi fuqarolik burchini har qanday burchdan ustun ko‘rgan, hatto diniy burchdan ham. Biroq u dinning muqaddasligini, inson hayotidagi ahamiyatini hech qachon inkor etmagan, aksincha vatanparvarlik ruhini diniy ruh bilan oziqlantirgan. Mustafo Komil fikricha, Vatanparvarlik hissiyoti diniy hissiyotga yaqindir. Shuning uchun u «Vatanni sevmoq iymondandir» («Xubb ul-vatan min al – iyman») degan shiorni ilgari suradi. “Biz dinni masjid yoki cherkovda eslaymiz, qolgan paytda biz umumiy vatanimiz borligini his qilishimiz kerak,[3]”- deydi Mustafo Komil. U qachonlardir Abdulloh Nadim ko‘targan «Misr uchun» shiorini yanada balandroq ko‘tarishga harakat qilgan.

Mustafo Komil o‘zining inglizlar zulmiga qarshi siyosiy kurashini ma’rifatparvarlik faoliyati bilan chambarchas bog‘lagan. U Misrdagi ayanchli ahvolning muhim sabablari xalqning jaholat va savodsizligida, deb biladi. Shundan kelib chiqib, Misr mustaqilligi, iqtisodi madaniyati yuksalishi xalqning ma’rifatli bo‘lishiga bog‘liq masala, deb hisoblaydi. Odamlar ma’naviy tushkunlik va siyosiy ko‘rlikdan faqat ma’rifatli bo‘lish yo‘li bilan qutulishlari mumkin, deydi va qullikdan qutulish uchun xalqni zamonaviy fan-texnika yutuqlarini mukammal egallashga da’vat etadi. Agar xalq bilimdon, o‘qimishli bo‘lsa, o‘z haq-huquqini bilib oladi, deb hisoblaydi u. “G‘arb va Sharq xalqlarini qiyoslaganda

---

[1] Ахмед Ришад. Мусфата Камиль. Хаятуху ва кифахуху (Мустафа Камиль. Жизнь и борьба). Кайр, 1958, -С. 250. (на араб. яз).
[2] Ali Fahmi Komil. Mustafa Komil pasha fi 34 robian. 9-qism. Qohira. 1908 –B.252.
[3] O‘sha asar. –B.254.

ko‘ramiz-ki, farq o‘qimishlilik va ma’rifatlilik saviyasidadir. Mamlakatdagi asosiy balo – ingliz mustamlakachilar siyosatida, ular madaniy yuksalishni har yoqlama bo‘g‘ishga intilishadi. Ular Misrda milliy maktablarni yopishdi, erkin nashrni bo‘g‘ishga intilishdi. Barcha davlat maktablarini qat’iy nazorat ostiga qo‘yishdi. Qo‘llaniladigan dasturlar faqat inglizlarni qoniqtirardi, xolos”[1]. Chindan ham, Britaniya hukmdorlari misrliklar o‘qishiga qarshi edi. Misrdagi rezident Kromerning so‘zlari bunga yaqqol dalil bo‘ladi: “O‘rta va oliy ta’limni qo‘llashimiz Misrning ichki avtonomiya saviyasini ko‘taradi, deb hisoblayman. Misrliklarning ma’naviy qiyofasi o‘zgarmaguncha, bu borada shoshilish kerak emas...Ta’limdan maqsad adabiyotchilarni tayyorlash emas, balki xizmatchilarning ehtiyojlarini ta’minlashdir[2]”. Haqiqatan ham, istilo boshlanganidan so‘ng dastlabki 20-yil ichida ma’rifat ishlariga Misr byudjetidan 1% gina mablag‘ sarf etildi, xolos.

Mustafo Komil bolalarning milliy maktablarda o‘qitilishiga alohida e’tibor beradi. U yoshlarni inglizlar ta’siri ostida qolgan davlat maktablaridan ko‘ra, milliy maktablarda o‘qitishni targ‘ib qiladi. Bitta mustaqil maktab 20 ta davlat maktabidan afzaldir, deydi u. Birinchi shunday milliy maktab 1898-yilda ochilgan. Mustafo Komil qurbi yetadigan misrliklarga murojaat qilib, shunday maktablarni ochishga yordam berishlarini so‘raydi. Bu g‘oya yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Bu g‘oyani Misr ma’rifatparvari Rifoa at-Taxtoviy birinchilardan bo‘lib ko‘targan edi va u Mustafo Komil tomonidan hayotga tatbiq etildi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun birinchi o‘rinda ona tilini takomillashtirish kerak, arablar o‘z tarixi va madaniyatini bilishi kerak, deydi. Mustafo Komil.: “Shu yo‘l bilan, biz taraqqiyotga erishamiz. Yoshlar bugungi kunning tayanchi va kelajakning umididir. Ular yordamida Misr yangilanadi, boshqa millatlar orasida munosib o‘rin egallaydi. Kelajak o‘qimishli yoshlar qo‘lidadir[3]”.

Mustafo Komil xalqda milliy g‘urur, u o‘tmishi bilan faxrlanish hissini uyg‘otishga, milliy o‘zlikni anglashga chaqiradi. U Qosim Amin bilan birga milliy kadrlar tayyorlash maqsadida milliy Qohira universiteti ochilishiga asos soldi. Universitet uning vafotidan keyin, 1908-yilda ochilgan. Misrda yagona bo‘lmish al-Azxar universiteti dinni kadrlar yetishtirsa, Qohira universiteti dunyoviy ta’lim berib, milliy kadrlar

---

[1] Шафика-паша Ахмед. Мои воспоминания за полвека. Каир. 1924-1936. –С.37.
[2] O‘sha asar. –С.38.
[3] Али Фахми Камиль. Мустафа Камиль паша за 34 года жизни, т.1, Каир. 1908. –С.276.

yetishtiradigan bo‘ldi. Mustafo Komil: “Biz xalqimizni ko‘tarishimiz kerak. Uning o‘z huquqlari va burchlarini anglashini, ta’lim va ma’rifat orqali lozim darajaga ko‘tarilishini xohlaymiz[1]”, – deydi. Ta’lim va ma’rifatning zaruriyligini bildirib, «Misrdagi o‘qituvchilar va ta’lim» maqolasida yozadi: “Ta’lim – madaniyatni harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biridir, chunki dunyoda baxtga erishishning eng yaqin yo‘li bu bilim va ta’limdir”[2]. Uning fikricha, ta’lim negizida islom yotadi. Qur’on esa zamonaviy falsafiy, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy g‘oyalarning barchasini o‘z ichiga olgan va unda barcha oliy haqiqatlar mujassamlangan. Shu sababli u asos solgan Qohira Universitetida ta’lim dasturida zamonaviy G‘arb fanlari bilan birgalikda diniy ilmlar ham o‘rgatilishini yo‘lga qo‘ygan.

Mustafo Komil G‘arbning Sharq xalqlari o‘rganishi kerak bo‘lgan yutuqlariga havas bilan qaraydi. U G‘arbliklar erishgan ilm-fan yutuqlarini Sharqliklar uchun o‘rnak qilib ko‘rsatadi. Jumladan, G‘arb nashriyotini yuqori baholab, “G‘arb sivilizatsiyasining yutug‘i – siyosiy va ilmiy nashrlik erkinligida deb bilaman”,- deydi. Mustafo Komil G‘arbdagi matbuot erkinligi, so‘z erkinligi Misrda ham bo‘lishini istardi. U matbuot ishlari rivojiga juda ko‘p hissa qo‘shgan. O‘zining «al-Liva’» («Bayroq») nomli ro‘znomasida «Ommaviy minbar» ruknini ochgan. Unda misrliklar har bir masalada o‘z mustaqil fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega edilar. Mustafo Komil ijtimoiy masalalarni Jamol ad-Din al- Afg‘oniyning g‘oyalari, islom islohchiligi ruhida hal etgan. Ko‘p xotinlilikni qoralagan, ayollar ta’lim olishi borasida jonbozlik qilgan, ular uchun alohida maktablar ochgan. G‘arb turmush tarzini ko‘r-ko‘rona qabul qilishga qarshilik bildirgan.

1907-yilda Misr milliy ozodlik harakatida demokratik kuchlarni birlashtirgan «Hizb al-Vatan» («Vatan partiyasi») siyosiy partiyasini tuzadi. Bu partiyaning asosiy vazifasi ingliz istilosini tugatish hamda Misr avtonomiyasini saqlagan holda Turk sultoni suverenitetini tan olish va konstitutsion tuzum o‘rnatishdan iborat edi. Mustafo Komil xalq o‘z mamlakati ishlarida, ijtimoiy hayotida, davlatni boshqarishda faol qatnashishi lozim, buning uchun o‘z bilimini oshirishi zarur, deb hisoblardi. U o‘zining «Hizb al-Vatan» partiyasi dasturiga kambag‘allar

---

[1] Абд ар-Рахман ар-Рафии. Мустафа Камиль муассис аль-харакат аль-ватанийа фи Миср. Каир. 1950. –С.211.

[2] Ахмед Ришад. Мусфата Камиль. Хаятуху ва кифахуху (Мустафа Камиль. Жизнь и борьба). Қайр, 1958. –С.244.

ta'limining zarurligi haqida xususiy band kiritadi. Dehqonlar va ayollarning o'qitilishiga alohida e'tibor beradi. Mustafo Komil davlatni boshqarishning eng qulay uslubi parlament va konstitutsiya deb qaraydi. Uning fikricha, konstitutsiya xalqqa davlat ishlarini nazorat qilish va hukumatdan o'z faoliyati to'g'risida hisob olib turish imkonini beradi. Konstitutsiya shunday bo'lishi kerakki, misrlik ham chet ellik ham, umuman biror kimsa qonun va tartibni buza olmasin.

Mustafo Komil 1908-yil 10-fevralda, 34 yoshida sil kasalidan vafot etdi. Uning dafn marosimi imperializmga qarshi namoyishga aylanib ketdi. Unda 50 mingdan ziyod misrliklar qatnashdi. Bu haqda mashhur arab ma'rifatparvari Qosim Amin bunday yozgan edi: «1908-yil 11-fevral Mustafo Komilni dafn etish kuni Misr xalqining qalbi kuchli urayotganini ikkinchi marotaba ko'rishim edi. Birinchi bor men uni Danshavay ishi ustidan chiqarilgan hukmning ijrosi paytida ko'rgan edim»[1]. Mustafo Komilning adabiy va publitsistik merosini uning ukasi Ali faxmi Komil yig'ib, 10 jilddan iborat «Mustafo Komilning o'ttiz to'rt yillik hayoti» nomi bilan 1908-1910-yillarda Qohirada nashr ettirgan. Mustafo Komil 1893-yilda «Andaluziyaning zabt etilishi» («Fatha al-Andalus») nomli tarixiy qissa yozgan. «Sharq masalasi» («al-Mas'ala ash-sharqiya»), «Chiqayotgan quyosh» («atsi- Shams al-mushriqa») asarlarida ozodlik, taraqqiyot va ma'rifat g'oyalari asosiy o'rin egallagan.

Umuman olganda, Mustafo Komilning ma'rifatparvarlik qarashlarida ikki yo'nalish seziladi. Biri, G'arb yutuqlari, ya'ni, Yevropa ta'lim-tarbiya va madaniyatini Misrda qo'llash, ikkinchisi – milliy madaniyat, an'analar, urf-odatlar va ona tilini saqlashdir. G'arb madaniyati Mustafo Komil singari ma'rifatparvarlarning ongida dunyoning rang-barang qirralarini ochishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, ularga Yevropa fan-texnika tafakkuri va madaniyati ijobiy ta'sir etdi. Mustafo Komil Yevropa madaniyati, ilm-fan yutuqlari bilan tanishib, o'z yurtiga chetdan baho bera oldi. Jamiyatdagi muammolarni xolis tahlil qilib, mamlakatining bu holga tushishiga sabab bo'lgan mustamlakachilik siyosatini ochiqdan ochiq tanqid qildi. Mavjud tuzum zulmidan ezilayotgan xalqiga ozodlik sari yetaklovchi yo'lchi chiroq bo'lib xizmat qildi. Mahalliy nizolar, diniy kelishmovchiliklar natijasida bo'linib ketgan Misr xalqini Vatan manfaatlari yo'lida birlashishga da'vat etdi. Qoloqlik va jaholatning birlamchi sababi ilmsizlik deb bilib, xalqga

[1] Крачковский И.Ю. Мустафа Камиль и Жюльетта Адан (к истории национального движения в Египте). Л., Отт.из "Известий" ЛГУ, 1928. -С.176.

ilm-ma’rifatni targ‘ib qildi. Mustafo Komilning zamonaviy Misr taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalaridan biri shuki, u asrlar davomida hukmronlik qilib kelgan mumtoz arab ilmi hamda zamonaviy G‘arb ilmi sintezini amalga oshirdi. Yevropa ilm-fan yutuqlarini qabul qilgan holda Misrliklarga xos bo‘lgan milliylik bilan uyg‘unlashtirdi. Zamonaviy Yevropa andozalariga asoslangan holda jamiyat qurishni targ‘ib qildi. Shu bilan birga, Misr hududiy birligi, milliyligi, tili, dinini saqlab qolish uchun kurashdi. Misrning boy tarixiy o‘tmishi, madaniyatini ko‘tarib, misrliklardagi milliy g‘ururni uyg‘otishga, Vatanga bo‘lgan muhabbatni kuchaytirishga harakat qildi. Milliy birdamlikka, ilm-ma’rifatga erishgan xalqgina o‘z kelajagini o‘zi qura olishini uqtirdi. Sharq xalqlari ichidan faqatgina Yaponiya bunday yuksalishga erishganini e’tirof etib, millatini ham Yaponiya singari taraqqiyotga erishishiga umid bog‘ladi. U Misr ozodlik kurashining milliy mafkurachisigina emas, balki dovyurak amaliyotchisi sifatida tarixda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.D.Babayeva. Ma’rifat yo‘lida. T.:Fan va texnologiya. 2012.
2. Э.Д.Бабаева. Общественно-политической и просветительские взгляді Мустафі Камиля.(диссер.) Ташкент. 1974.
3. Крачковский И.Ю. Мустафа Камиль и Жюльетта Адан (к истории национального движения в Египте). Л., Отт.из "Известий" ЛГУ, 1928.
4. Ахмед Ришад. Мусфата Камиль. Хаятуху ва кифахуху (Мустафа Камиль. Жизнь и борьба). Qайр. 1958.
5. Шафика-паша Ахмед. Мои воспоминания за полвека. Каир. 1924-1936.
6. Али Фахми Камиль. Мустафа Камиль паша за 34 года жизни, т.1, Каир. 1908.

XITOYNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI (XIX-XX ASR BOSHI)

Abdazimov Javlon Murod o‘g‘li
TDSHU 2-kurs magistranti,
Ilmiy rahbar: Fal.f.d.,prof. G.Ro‘zmatova

XIX-asrning ikkinchi yarmida Xitoyda chuqur iqtisodiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Xorijiy kapitalning kirib kelishi Xitoyning feodal mamlakatdan yarim feodal va yarim mustamlakaga aylanishiga hissa qo‘shdi. Xitoy bozorining arzon xorijiy ishlab chiqariladigan tovarlarga to‘lib toshganligi, iqtisodiyotining poydevorini buzdi, hunarmandchilik va sanoatini yo‘q qildi. XX-asrning birinchi o‘n yilligida kapitalistik taraqqiyot avvalgi davrga nisbatan ancha tez rivojlandi. Milliy kapitalning eng kuchli pozitsiyasi yengil sanoat, xususan to‘qimachilik sanoatida bo‘lgan. Ushbu sohada chet el tovarlari uchun raqobatda Xitoy paxta zavodlari mahsulotlarining arzonligi va sifatli ekanligi, shuningdek, Xitoyda ularga bo‘lgan talab katta bo‘lgani uchun nisbatan sust edi. Biroq, mamlakatda milliy sanoatning rivojlanishiga chet el kapitalining hukmronligi to‘sqinlik qildi. XX-asrning boshlarida Xitoy nihoyat yarim mustamlakaga aylantirildi. Imperialistik davlatlar Xitoyga tobora ko‘proq tengsiz shartnomalar o‘rnatdilar. Iqtisodiyotdagi – konlar, temir yo‘llar, moliya – chet el kuchlari nazorati ostida edi. Mamlakatning iqtisodiy qoloqligini mustahkamlash maqsadida, imperialistlar og‘ir sanoatni yaratishga to‘sqinlik qiladilar. Xitoyda mashinasozlik sanoati deyarli yo‘q edi. Imperialistlarning itoatkor vositasi bo‘lgan Szin hukumati yangi paydo bo‘lgan Xitoy burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilishga qodir emas edi. Xitoy burjuaziyasi komprador va milliyga bo‘lingan. Komparadorlar – jahon va milliy bozorlar o‘rtasidagi vositachilar – xorijiy banklarning buyurtmalarini bajarishadi, import qilinadigan mahsulotlarning sotilishini osonlashtirdilar, chet el kapitaliga Xitoydan xom ashyo sotib olish va eksport qilishda yordam berishdi[1]. Milliy burjuaziya esa savdogarlar, yer egalari, mansabdor shaxslar va dehqonlarning farovon qismidan tuzilgan. Ular feodal munosabatlar zulmiga qarshi chiqadilar, munosabatlarni davom ettirish qo‘llaniladi va saqlanib qoladi. Biroq, feodal yer egaligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan burjuaziya feodalizmga qarshi izchil va qat’iyatli kurasha

olmadi. Mayda burjuaziya manjur hokimiyati va chet el kapitali tomonidan bosim qilingan. Ammo u milliy burjuaziyaga qaraganda iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchsizroq edi va xalqning keng ommasining kurashiga rahbarlik qilib, ularni g‘alabaga yetaklay olmadi. Proletariatga kelsak, 1911-1913 yillardagi inqilob arafasida hali ham fabrika ishchilari juda kam edi. Ishchilar dahshatli sharoitda yashashgan. Kambag‘al dehqonlar va hunarmandlar hisobiga ko‘payib borayotgan son-sanoqsiz ishsizlar armiyasi, mehnatkash xalqning turmush darajasining pasayishiga hissa qo‘shadi. Xitoy aholisining aksariyat qismini tashkil etadigan dehqonlar shafqatsiz ekspluatat-siyaga duchor bo‘ladilar. Chet el kapitalining ustunligi va qishloqdagi feodal munosabatlarning hukmronligi mamlakatda kapitalizmning asta-sekin rivojlanib, muvozanatni egallashiga olib keldi. Bu shuni anglatadiki, dehqonlar xonavayron bo‘lib, yerdan mahrum bo‘ladi, ammo o‘z kuchlaridan foydalana olishmadi. Kapitalistik sanoat vayron bo‘lgan dehqonlarning bir qismini ish bilan ta’minlashi mumkin edi. Imperializm va feodalizm hukmronligini bekor qilish, agrar masalani yo‘q qilishdan dehqonlar hayotiy jihatdan manfaatdor edilar.

Oxir oqibat Sinxay inqilobiga olib kelgan iqtisodiy g‘alayon XIX asrning ikkinchi yarmida Xitoyda kapitalistik kuchlarning kengayishi bilan boshlandi. XIX asrning 60-90-yillarida tabiiy iste’molni tovar bilan intensiv ravishda almashtirish bilan rag‘batlantiriladigan shahar va qishloqlarda hunarmandchilikning an’anaviy (feodal) shakllarini bosqichma-bosqich yo‘q qilinishi yuz beradi, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik ishlab chiqarish Xitoy bozorida an’anaviy turmush tarzining yo‘q qilinishi ortiqcha ishchi kuchi bozorini shakllantirdi. Tijorat va pul kapitalining to‘planishi kuchayib boradi, bu XIX asr oxiridan boshlab Xitoyda kapitalistik tizimning shakllanishiga hissa qo‘shadi. Ba’zi savdogarlar, yer egalari yangi turdagi korxonalarga sarmoya kiritishni boshladilar. XX-asrning birinchi o‘n yilligida Xitoyning kapitalistik taraqqiyoti XIX-asr oxiriga qaraganda ancha tez rivojlandi. Shunday qilib, agar 1900 yilda mamlakatda kapitali 50 340 074 yuan bo‘lgan 156 ta zamonaviy turdagi yirik va o‘rta milliy sanoat korxonalari mavjud bo‘lsa, unda 1911 yilda ularning soni 521 ga, kapital esa 159 654 812 yuanga etdi[1].

Milliy kapitalning eng kuchli mavqeyi yengil sanoat, xususan to‘qimachilik sanoatida bo‘lgan. Ushbu sohada chet el tovarlari uchun raqobat Xitoy paxta zavodlari mahsulotlarining arzonligi va sifatli

ekanligi, shuningdek, Xitoyning o‘zida unga bo‘lgan talab katta bo‘lganligi sababli nisbatan sust edi. O‘tgan yillar davomida oziq-ovqat sanoati ham rivojlandi. Shanxay, Xankou, Tyanszin, Guanchjou (Kanton) va boshqa shaharlarda un ishlab chiqarish, sovun tayyorlash, tamaki, gugurt tayyorlash va boshqa milliy sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatgan. 1901-1911 yillarda mashinalar ishlab chiqarishga xususiy sarmoyalar hajmi o‘tgan o‘ttiz yilga (1871-1900) nisbatan deyarli 3 baravar oshdi[2].

Ushbu davrda mamlakatda yiliga o‘rtacha 50 ta xususiy Xitoy fabrika va konlar ishga tushirildi. Aksariyat davlat va aralash davlat-xususiy korxonalarining xususiy mulkiga o‘tish boshlandi. Tashqi savdo hajmi oshdi. Xitoy milliy kapitalizmining o‘sishini chet el kapitali raqobati ushlab turdi. 1901-1911 yillarda Xitoyda chet elliklar tomonidan asosan 91 ta korxona tashkil etilgan. Ushbu o‘n yil ichida chet elliklar tomonidan yaratilgan fabrikalar, zavodlar, konlar, elektros-tansiyalarning dastlabki kapitali 74 million yuanni tashkil etdi, bu XIX-asrning ikkinchi yarmiga nisbatan deyarli 1,5 baravar ko‘pdir. Xorijiy korxonalarning mahsulotlari, mahalliy korxonalar to‘lashi shart bo‘lgan ichki bojlardan ozod qilindi. Chet el kapitalining ustunligi temir yo‘l qurilishida kuzatildi. 1895 yildan 1911 yilgacha 9253 km temir yo‘l liniyalari tortildi. O‘sha paytda Xitoyda mavjud bo‘lgan temir yo‘llarning 93% chet el kuchlariga tegishli yoki ularning nazorati ostida bo‘lgan va faqatgina 7% Xitoy nazorati ostida qolgan. Xorijiy kapitalni Xitoyga eksport qilish hajmi oshadi. 1900 yildan 1914 yilgacha xorijiy investitsiyalar 750 million dollardan 1.650 million dollarga o‘sdi, ular asosan temir yo‘l qurilishi, tashqi savdo, ishlab chiqarish va tog‘-kon sanoatiga yo‘naltirildi. Bir necha yillar davomida Xitoyning tashqi qarzi asosan tashqi qarzlar hisobiga 835 million dollarga yetdi. 1912 yilga kelib, tashqi savdo uchun 100 dan ortiq Xitoy portlari va shaharlari ochildi. 1899-1913 yillarda Xitoydagi xorijiy firmalar soni uch baravar ko‘payib, 2400 taga etdi va Xitoyda istiqomat qiluvchi chet elliklar soni 53000 dan 165000 gacha o‘sdi. Buyuk davlatlar – Angliya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Rossiya tobora Xitoyni arzon xom ashyo etkazib beruvchiga va tayyor mahsulotlarini sotish maydoniga aylantiradilar. Mamlakatda mashinasozlik sanoati deyarli yo‘q edi. 1911 yilda faqat uchta mashinasozlik zavodi bor edi[3].

XX-asr boshlarida Xitoy sanoatining rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati fabrikalar joylashishining o‘ta notekisligida edi. Mashina

ishlab chiqarishning asosiy markazlari qirg‘oq provinsiyalarining port shaharlari va Yansi vodiysi bo‘lgan; asosiy sanoat markazlari Shanxay, Uxan uchta shahar (Vuchang, Xankou, Xanyang), Tyantszin, Guanchjou[4] edi.

Kapitalistik tizimning rivojlanishi bilan Xitoy jamiyatida yangi ijtimoiy qatlam – burjua paydo bo‘ldi. U mansabdorlar, yer egalari, savdogarlar, manufakturalar va yirik ustaxonalar egalari, boy dehqonlar, xorijiy firmalar va xitoy korxonalari o‘rtasidagi vositachilar, ya’ni komradatorlar orasidan tashkil topgan. Emigrant savdo burjuaziyasi, shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida katta kapital yaratib, Xitoyning sanoat rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.E. A. Belov "1911-1913 yillardagi Sinxay inqilobining qisqacha tarixi" [Matn] / E. A. Belov – M., "Sharq adabiyoti" – 2001. – 3-4 b.

2. Xitoy XIX asr oxiri – XX asrning boshlari. Xitoyda Sinxay inqilobi [Elektron resurs]. http://referat-best.ru/refs/source/referat-111078.html

3. E. A. Belov "1911-1913 yillardagi Sinxay inqilobining qisqacha tarixi" [Matn] / E. A. Belov – M., "Sharq adabiyoti" – 2001. – 5-6 b.

4.Sun Yatsen. Yo‘lni topish. 1914 – 1922 yil [Elektron resurs]. http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=3825436

OGAHIY IJODIDA TASAVVUFIY G‘OYALARNING AKS ETISHI

Ergasheva Feruza
TDSHU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: J.B. Sulaymonov

Adabiyotshunos Bertels: “Musulmon sharqida o‘tgan yirik mualliflarning bari kamdan kam istisnolar bilan tasavvufga u yoki bu darajada aloqador va ular bu adabiyotdan tashqarida to‘la tushunarli bo‘la olmaydi.” Deb yozgan edi. Shunday ekan bu kabi tasavvufiy qarashlar Ogahiy ijodini ham chetlab o‘tmagan.[1]

Ogahiyning din va tasavvufga bo‘lgan qarashlari uning o‘zining shaxsiy hayoti bilan bog‘lagan holda o‘z asarlarida ham juda keng mushohadali misralar qoldirgan. Arab sayyohi va geografi Yoqut yozganidek: “ Boyliklarning mo‘lligi va poytaxtlarning kattaligi, aholisining ko‘pligi yaxshilikka yaqinligi hamda din va mazhab buyurgan narsalarni bajarish jihatidan dunyoda Xorazmning bosh shahriga o‘xshash shahar bo‘lmasa kerak.”[2]

Shunday ekan Xorazm farzandi sifatida ajdodlaridagi din va tasavvuf kabi hislarni o‘ziga voris qila olgan shoir Ogahiyning tasavvuf yo‘lida bosib o‘tgan qadamlari juda ham ibratli bo‘lib, bu mavzu haqida g‘oyat ulkan meros qoldirgan. Ogahiy o‘zining musaddaslaridan birida tasavvuf xususida quyidagicha yozadi:

Jahd etib emdi havas bandidin ozod o‘ldi,
Kel fano sog‘arini sipqorali shod o‘ldi.[3]

Ogahiy o‘zining butun serqirra faoliyati davomida islom dunyosining sof e’tiqodli iymoni but, mukammal komil bir vakili sifatida hayot kechirgan, shariatning barcha ustunlarini bekami ko‘st bajarishga to‘liq ado etishga umr sarf etgan kamtarona, barkamol inson sifatida ko‘zga tashlanadi va mana shunday ulug‘vorligi va oliyjanobligi bilan nafaqat tarixchi balki, adabiyotshunos, faylasuf, ulamo, tariqatchi olim kabi nomlar bilan o‘z nomini tarixga muhrlab qo‘ygan buyuk tarixiy siymodir. Yuqoridagi va yana boshqa ko‘plab asarlaridagi g‘azallarida, musammatlarida ifodalangan tasavvufiy tuyg‘u, tushuncha, timsol va ruhiy manzaralar bizni yuksak axloqiy komillik sari yetaklashi shubhasizdir.

“Ko‘p o‘lma zohir aro botiningni tuz”– deya nasihat qilgan Ogahiy “xolislik ta’limi bilan shunchaki emas jiddiy qiziqqan, bunga dalil uning o‘nlab irfoniy mayl va tushunchalari ifodalangan musammatlaridir. Umuman olganda Ogahiy va tasavvuf masalasi hali tom ma’noda ochilmagan qo‘riqdir” deb ta’kidlaydi G.Xalliyeva o‘zining “Ogahiy musammatlari” asarida.[4]

Ogahiyning tasavvuf haqidagi qarashlarida o‘z tadqiqotida ayrim mulohazalarni bildirgan ogahiyshunos R.Majidiy ham o‘z qiziqishlari bilan bu masalaga bir tomonlama yondashib «Ogahiy ijodida sofistik elementlar aks etishini shoir ijodining salbiy tomoni, uning o‘z davri farzandi ekanligidan kelib chiqqan g‘oyaviy kamchilik»[5],-deb izohlaydi.

Ogahiyning aynan tasavvufiy mavzuda va ma’noga hamohang holda asarlarining aks etishiga o‘sha davr zamonida shoirning boshiga tushgan og‘ir kunlar ham o‘zi hayoti davomida ko‘rgan kechirganlari qolaversa, Navoiy va Mashrab kabi ulamolarning ijodini ham chuqur o‘rganganligi juda katta ta’sir etgan. Buni quyidagi Ogahiyning bir parchasi orqali keltirishimiz mumkin:

Yetar munglig‘ boshimg‘a yuz ming balo sandin,
Va lekin zohir o‘lmas lahzai mehru vafo sandin.
Qachonga tengru chekkayman jafo uzra jafo sandin,
Nigorim, mehribonim, mukrimat taxtida Sultonim.

Bunda shoir mungli boshiga har on yuz ming balo yog‘dirilgan va lekin bir nafas ham mehr-u vafo ko‘rolmagan oshiq sifatida ochiqdan ochiq isyonkorona o‘zining ruhini ifoda etgan. Bu vaqtlar ayni o‘z shaxsiy hayotidagi bir muncha og‘ir voqealar jarayoni davrida xususan, oyog‘ining shol bo‘lib qolishi va undan keyingi jarayonlar o‘z ta’surini ko‘rsatmasdan qolmadi. Hayotiy voqealardagi ziddiyatlardan ko‘ngli vayron bo‘lgan Ogahiy ishq sohibi kabi ma’shuqasining karami va marhamatidan umidvor. Mana shu o‘rinda may tasavvufiy ma’noda «Olloh ziyosining tajalliysi bo‘lib, unda so‘fiyning barcha harakat, sifat va zotlari ichimlikka qiyoslanadi»[6]

Bukun joni xazinim badai lutfing bilan shod et,
Shikasta xotirim vayronini ma’mur obod et.
Bu qori qulni ya’ni g‘am bandidin ozod et,
Nigorim, mehribonim, mukrimat taxtida Sultonim.

Ogahiy nazdida «shikasta xotir» Ollohning nuri ziyosidan bebahralik bo‘lsa «g‘am bandi» bu dunyo hoy-u havasiga berilmoqlik, kishaniga giriftor bo‘lmoqlikdir. Ogahiy g‘azallaridan birida «…tuz buzuq

holimnikim me'mor lutfingdin» degan shoir hamisha ilohiylikdan, ilohiylik sururidan bahramand bo'lish istagida bo'lgan va boshqalarni ham shunga chorlagan. Ogahiy shuning uchun ham doim faqatgina Tangri Taolodan ma'naviy madad so'raydi.

Xullas, Ogahiyning tasavvufiy misralardan iborat qarashlari o'z ko'ngliga «ne'mati irfon» baxsh etilishini tilagan oshiqning «Vujudi Mutlaq»qa murojaati va munojoti bilan yo'g'rilgan va unda shoir tasavvufiy qarashlarini jon va jamol, odam va olam, raqib va ag'yor, tiyrazindon, tufroq, badailutf, miskingado, itobo'ti kabi poetik timsollar, tasavvufiy qarashlar, tasviriy vositalar, she'riy san'atlardan foydalangan holda ifodalaydi.

Tasavvufni o'z asarlariga olib kirgan Ogahiy dunyoning g'ami kishaniga giriftor ko'ngilni endi barcha narsadan voz kechib, ilohiylik sururidan bahramand bo'lish istagida darvesh, tasavvufchi va tariqatchilarga bog'lanishni oh, ashk, alam, dard bilan hamroh bo'lishni «jomi may» nash'asi bilan ko'ngilni musaffo qilishni maqsad qilib va mana shu maqsadda soqiyga, ilohiy fayz manbaiga «Menga bir jom ilohiy nur chashmasi bergin» – deya murojaat qiladi. Tasavvuf talqinida esa «jom» – ilohiyot nurining jilolanib ko'zga tashlanishidir.[7] Shu jomdan Ollohning o'zi (soqoqi robbihum) soqiy bo'lib bahramand qiladi.

Ogahiyning lirik qahramoni bu ko'ngil bo'lib, u mana shu ko'ngilga ilohiy irfon baxsh etishini, o'zlikni anglash yo'lidagi oh, ashk, dard, anduh chekishni faxr deb bilsa, dunyo g'ami bilan ovora bo'lish holatlarini jabr deb biladi. Chunki ular so'fiy nazdida haqiqiy imonga ega bo'lish yo'lidagi to'siqlardir.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) «faqirlik mening faxrim» hadisiga amal qilib «ahli joh» oldida emas «faqr eli aro oliy» bo'lishni orzu qilgan. Zero, faqir, – Ibrohim Xaqqulov ta'kidlaganidek – Haq ma'rifatidan o'zga hech nimani talab qilmaydi. Farqlik maqomiga yuz burmagan oshiq haqiqiy ishq sirining sohibi bo'la olmaydi.

Tasavvuf ta'limoti Ogahiyning buyuk shoirlik mahoratini ochishga xizmat qiladigan g'oyaviy-estetik omillardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Ogahiy qanday masalani o'z asarlarida mavzu qilib olmasin ularni badiiy shaklda ifodalashga harakat qiladi.

Xullas o'tmish boy madaniy merosi, xususan Ogahiyning ham meroslari Sharq mutafakkirlari ilg'or an'anaviy milliy qadriyatlar, islom dining insonparvarlik mohiyati zaminida yaratilgan Ogahiy merosi har jihatdan barkamol ijod namunalaridir. Xulosa qilib aytganda shoirning

barcha ijodiy merosini qo‘lyozma manbalar asosida o‘rganish, tadqiq qilish va ommalashtirish ma’naviy yuksalish mezonlaridan biridir. Shuning uchun ham ummon qadar keng ijodiyot aks etgan o‘tmish zulmatlarini yengib o‘tib kelgan qo‘lyozmalar fondlarda faqatgina qo‘lyozma bo‘lib qolmasligi kerak, balki ularni tadqiq etilishi muhimdir. Ayniqsa bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifat masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgan bugungi kunda Ogahiyning hayoti yo‘li davomida yozib o‘tgan asarlari ya’ni boy ijodiy merosi g‘oyalaridan saboq olish nihoyatda katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

«Kishi o‘z so‘zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalar odamlarga naf keltirsa, yomonlarni yo‘lga solsa, haq yo‘lida fido bo‘lsa, u shunchalar komildir» [8]

«Yeturmak rohat elga qudratim yetgunchadir korim» deya bong urgan Ogahiy asarlarini tadqiq qilish asosida ana shu haqiqatning shoir hayoti va boy ma’naviy merosida sobitqadamlik qilganini ya’ni Ogahiyning naqshbandiylik tariqatining imon va e’tiqodda sobit bir vakili sifatida haq yo‘lidan borib xalqqa ham nazariy, ham amaliy foyda keltirganining guvohi bo‘lamiz. Biz ana shunday ulkan ijodiyot egasi vorislari ekanimizga, istiqlol tufayli bu merosni o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratilganiga shukronalar aytamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bertels.E. Navoiy.-M.L. 1948-272b
2. Tolstov.S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. -Toshkent: FAN,1964.-440b
3. Ogahiy Ta’viz ul-oshiqin. Devon. Qo‘lyozma saqlanish raqami 1529.-358b
4. G.Xalliyeva «Ogahiy musammatlari» –Toshkent Mumtoz so‘z 2019, 35b
5. Majidiy.R Ogahiy lirikasi –Toshkent.FAN.1963–138b
6. Бертельс.Е.Э. Суфизм и суфийская литература.–Москва.: Наука 1965,524-стр
7. Бертельс.Е.Э. Суфизм и суфийская литература. Москва.: Наука 1965, 524-525-стр
8. Komilov.N Tasavvuf – Toshkent: Yozuvchi, 1996,–271b

BYUNG-CHUL XON – SHARQ VA G‘ARB ZAMONAVIY FALSAFASINING UYG‘UNLIGI TIMSOLI SIFATIDA

Yusupov Jaloliddin Boboravshan o‘g‘li
TDSHU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.R. Ikramova

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti hech qachon va hech qayerda oson, beto‘siq kechmagan. Har doim va hamma davrlarda jamiyat oldida muayyan muammolar ko‘ndalang bo‘lib turgan. Bular, bir tomondan, tabiat ofatlarining natijasi o‘laroq namoyon bo‘ladigan yer silkinishlari, suv toshqinlari, qurg‘oqchilik, quyosh radiatsiyasi o‘zgarishi bilan bog‘liq turli epidemik kasaliiklar va hokazolar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotga oid bo‘lgan *antropogen muammo*lardir[1]. Bu kabi muammolar har qanday davlat, shu jumladan, O‘zbekiston uchun ham o‘rinlidir. *"Biz globallashuv har tomonlama avj olayotgan, shiddatli o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan murakkab zamonda yashamoqdamiz. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm,odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi "*[2].

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda antropogen muammolarning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Shu jumladan, raqamli dunyoda zamon ruhiga mos ravishda rivojlanayotgan bunday muammolar yuzasidan turli yondashuvlar, nazariyalar, muammoga yechim va takliflar ilgari surilmoqda. Koreyalik faylasuf Byung-Chul Xonning ham fikr va qarashlari bugungi globallashuv zamonda o‘z ahamiyatiga ega va o‘zga xosligi bilan diqqatni tortadi.

Avvalo, Byung-Chul Xonning shaxsiy hayoti va ilmiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tsak. Shubhasiz, Xonning g‘ayrioddiy kelib chiqishi uning mistikasiga hissa qo‘shgan. 1959-yilda Seulda tug‘ilgan, o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng metallurgiya bo‘yicha tahsil

---

[1] E.Y.Yusupov, S.Sh.Shermuhamedov, A.T.Ayupov va b. to’ldirilgan 2-nashr.FALSAFA. – T.:”O’qituvchi”2005.

[2] Shavkat Mirziyoyev.” Yangi O’zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo’lini qat’iy davom ettiramiz”.Yangi O’zbekiston. №223(479) 2021-yil, 7-noyabr.

olgan[1] va o‘z uyida o‘tkazgan kimyoviy tajribasi muvaffaqiyatsizlikka uchrab portlash oqibatida o‘lishiga oz qoladi. Bu portlashdan keyin bo‘lajak faylasuf o‘z uyida qola olmas edi. 26 yoshida tilni ham yaxshi bilmay Germaniyaga jo‘nab ketdi. Biroz vaqt o‘tgach u Klausthal-Zellerfeld universitetiga qabul qilingan, ota-onasi u yerda Xonning texnika sohasida o‘qishni davom ettirishiga ishonishgan va shuni xohlashgan. Ammo bunday bo‘lmadi, u tez orada Myunxenga ko‘chadi. Falsafa, nemis adabiyoti va ilohiyotshunosligi mutaxassisligi bo‘yicha Frayburg o‘quv yurtiga o‘qishga kiradi va u yerda 1994-yilda falsafa doktori ilmiy darajasini oladi. Frayburgda doktoranturani tamomlab, 2000-yilda Bazel universitetining falsafa fakultetiga ishga kirdi. 2012-yildan beri u Berlin San’at universitetida falsafa va madaniyat fanlaridan dars berib kelmoqda va u yerda yangi tashkil etilgan – "Studium Generale" – "Umumiy o‘quv dasturi"ni boshqaradi[2].

Xon o‘z tadqiqotlarini XVIII, XIX va XX asr falsafasi, etika, fenomenologiya, ijtimoiy falsafa, madaniyat nazariyasi, estetika, din, ommaviy axborot vositalari nazariyasi va madaniyatlararo falsafa kabi mavzularga qaratgan[3]. Jan-Lyuk Nensidan tortib Slavoy Jijekgacha bo‘lgan boshqa Xonga zamondosh faylasuflar bilan solishtirganda, uning ishlari hayratlanarli darajada yengildir[4]. Dialektik uddaburon-likka ozgina moyillik unda sezilib turadi, bu esa ko‘plab empirik fikrlaydigan o‘quvchilarning tanqidiy yondashuvlarini aniq bayon etishiga to‘sqinlik qiladi. Bu Byung-Chul Xonning o‘z ona tili bo‘lmagan nemischada yozishining ta’siri ham bo‘lishi mumkin (asosiy ona tili: koreys).

Byung-Chul Xon hozirgi zamon madaniyat nazariyotchilari [5] ichida yaxshi nomzodlardan biri sifati aytishimiz mumkin. Uning birinchi kitobi 1997-yilda nashr etilgan bo‘lib, "*Xaydegger asarlaridagi kayfiyat*" tushunchasiga bag‘ishlangan ajoyib

---

[1] "[책과 지식] 『피로사회』 저자 한병철, 도올 김용옥 만나다" [(Books and knowledge) ’Society of Tiredness’ author Han Byung-Chul and Do-ol Kim Young-oak meet]. JoongAng Ilbo. 24 March 2013. Retrieved 30 May 2018.

[2] http://www.udk-berlin.de/sites/content/themen/universitaet/studium_generale/index_ger.html

[3] kitaP gazete duvar. ’’Layk dünyasından kültürel çözülmeye: Byung-Chul Han’’. sayi:83 yil:2. Anıl Mert Özsoy.

[4] LARB Los Angeles Review of Books. “Media and Transparency: An Introduction to Byung-Chul Han in English”. September 14, 2017. By Adrian Nathan.

[5] Han, Byung-Chul. "Optimismus der Fremden: Wer ist Flüchtling?". FAZ.NET (in German).

monografiya edi. Asarlarining boshqa tillardagi tarjimalari 2009-yildangina namoyon bo‘la boshladi. Muallif qarashlari orqali uning yo‘nalishini asosan birinchi kitobi orqali belgilab olish mumkin va undagi yo‘nalish keyingi kitoblarning mavzularida ustunlik qilishini ko‘p misollar orqali bilamiz. Ammo Byung-Chul Xonda bunday keskin burilish faqat 2005-yildagi "*Kuch nima?*" nomli asari paydo bo‘lishi bilan sodir bo‘ldi. 2010-yilda "*Charchoq jamiyati*" ("Müdigkeitsgesellschaft") nomli to‘plamini nashr etdi va qo‘nim topgan mamlakati – Germaniyadan tashqarida ham e’tiborni jalb qila boshladi. O‘shandan beri uning asarlari o‘ndan ortiq tillarda nashr etilgan[1].

Byung-Chul Xonning faylasuf sifatidagi hozirgi asosiy mavzusi postindustrial jamiyatdan raqamli jamiyatga o‘tishda subyektivlik tajribasidagi o‘zgarishlarni yoritishdan iboratdir. Xon fikrlarining maqsadi hozirgi raqamli dunyoda ommalashayotgan neoliberal vakillari tomonidan yaratilgan inson shaxsiyatiga zid keluvchi odatlarga qarshi madaniy me’yor va qadriyatlarni sof holda saqlab qolishga qaratilgan. U ixtiyoriy ravishda insonlarning o‘zlarini ko‘z-ko‘z qilishlarini to‘xtatib bo‘lmaydigan harakat deb tushunadi. Xonning so‘zlariga ko‘ra, hozirgi kundagi *oshkoralik* talablari uyat, sirlilik va ishonch kabi boshqa ijtimoiy qadriyatlar o‘rniga *yagona ochiqlik tizimi*ni ta’minlaydi [2]. Bunday ochiqlik tizimini yoqlab chiqmaydi va o‘z qarashlariga mutanosib ravishda har qanday biografik yoki shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qilmaydi[3].

Xon yozgan so‘nggi fikrlarning aksariyati kapitalizmning texnologik jihatdan boshqariladigan holatlariga aloqadordir, unga ko‘ra inson subyekti tez orada duch keladigan vaziyat bilan bog‘liq asosiy tashvish bilan tavsiflanadi. Ushbu vaziyat uning kitoblari orqali turli jabhalarda yoritiladi: jinsiy hayot, ruhiy salomatlik (ayniqsa, charchash, ruhiy tushkunlik va diqqat yetishmasligi – faollikning buzilishi), zo‘ravonlik, erkinlik, texnologiya va ommaviy madaniyat.

Bunday texnologik rivojlanishlarning foydali tomonlarini e’tirof etmaslikning iloji ham yo‘q, albatta. Ammo Byung-Chul Xon fikrlariga

---

[1] LARB Los Angeles Review of Books. “Media and Transparency: An Introduction to Byung-Chul Han in English”. September 14, 2017. By Adrian Nathan.

[2] "Klarheit schaffen". der Freitag. 2012-06-07. Retrieved 2012-06-09.

[3] "Play more and work less: A visit with Byung-Chul Han in Karlsruhe". Sign and Sight. 2011-07-25. Retrieved 2012.06.09.

ko‘ra, ularning biz ko‘rayotgan yaxshi tomonlari shunchaki bizni jalb qilish uchun qo‘llanilgan, aql bilan ishlangan tuzoqdir. "*Charchoq jamiyati*" asarida Xon bugungi jamiyatni tushkunlik, diqqat etishmasligi – faollikning buzilishi, o‘zgaruvchan shaxsiyat va charchash kabi *neyronal buzilishlar*ning patologik manzarasi sifatida tavsiflaydi. Uning ta’kidlashicha, ular "infektsiyalar" emas, balki "*infarktlar*" bo‘lib, ular odamlarning salbiy odatlarga qarshi kurashmaganligi uchun emas, shunchaki ularga ortiqcha e’tibor bermasligidan kelib chiqadi[1].

Xon Ijtimoiy falsafadagi *liberalizm* va *neoliberalizm* tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tadi. Liberalizm va Neoliberalizmning o‘zi nima?

Liberalizm – inson erkinligini jamiyat taraqqiyotining yetakchi mavqeyiga qo‘yadigan mafkura. Davlat, jamiyat, guruhlar, sinflar ikkinchi darajali. Ularning mavjudligi vazifasi faqat inson rivojlanishini ta’minlashdir. XX asrning birinchi yarmidagi uzoq munozaralar va nazariy izlanishlar natijasida klassik liberalizmning ba’zi asosiy tamoyillari qayta ko‘rib chiqilib, yangilangan "*ijtimoiy liberalizm*" kontseptsiyasi – neoliberalizm ishlab chiqildi. Yangi liberalizm mavjud davlat va siyosiy tizimlarni takomillashtirish maqsadida ratsionalizm va maqsadli islohotlarga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Erkinlik, adolat va tenglikni taqqoslash muammosi alohida o‘rin egallaydi. Zamonaviy liberalizmning markaziy muammosi shaxsning huquqlari va erkinliklarining ijtimoiy kafolatlari masalasidir[2]. Bu asosan marksizmning ommalashuvi bilan bog‘liq edi. Bundan tashqari *I. Kant, S. Mill, G. Spenser* va *J.Sent*ning asarlarida ijtimoiy choralar zarurati ko‘rib chiqildi.

Xon yuqoridagi shaxslarning asarlar orqali o‘zining liberalizm va neoliberalizm haqidagi bilimlarni yanada kengaytirdi va hozirgi raqamli dunyodagi vaziyatni tahlil qilishi natijasida Neoliberalizm ta’limotida o‘ziga xos shaxsiy yondashuvlarini ilgari surdi. Unga ko‘ra, sabr-toqat bilan muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik talabi, insonning o‘zini idora etishi, shuningdek, samaradorlik ishtiyoqi, bizni *bir*

---

[1] "새 대통령에게 선물하고 싶은 책' 1 위 철학자 한병철의 '피로사회". Kyunghyang Shinmun. 2012-11-29. Archived from the original on 2013-12-03. Retrieved 2013-12-09.

[2]https://peskiadmin.ru/uz/kto-takoi-liberal-prostymi-slovami-liberalizm-i-neoliberalizm-sushchnost-etapy-razvitiya-osnovnye-p.html

vaqtning o‘zida ham ovchi va ham o‘lja bo‘lishimizdir, ya’ni o‘zligimizni chegaralashimiz, biror bir ishga majburlashimiz – o‘zimizni tuzoq yoki girdobga tushirishimiz bilan bir xil. Ishlab chiqarish hajmi ahamiyatsiz bo‘lganida, bu darajada shaxsiyatga cheklovlar bo‘lmas edi. Ammo unday emas, allaqachon har kim ishlab chiqarish vositalariga, ya’ni o‘ziga egalik qiladi. Neoliberal tizim endi to‘g‘ri ma’nodagi sinfiy tizim emas. U hozirda o‘zaro qarama-qarshilikni ko‘rsatadigan ijtimoiy sinflardan anchagina yiroqlashgan. Endilikda u tizim barqarorligi hisoblanadi[1].

Byung-Chul Xon insonlarning o‘z-o‘ziga nisbatan ekspluatatorga aylanishini ta’kidlaydi: "Bugun har bir kishi o‘z korxonasida avto-ekspluatatsiya qiluvchi va o‘z navbatida ishchidir. Endi odamlar bir joyda xo‘jayin va ham qul. Hatto sinfiy kurash ham o‘z doirasida o‘ziga qarshi ichki kurashga aylandi"[2]. Odamlar – Xonning aytishi bo‘yicha "*yutuq subyekti*"ga aylandi. Insonlar o‘zlarini bo‘ysundirilgan "subyektlar" deb hisoblamaydi, ammo "reja va maqsadlarimizda: har doim o‘zimizni qayta ko‘rib chiqamiz va o‘zimizni qaytadan yaratamiz", bu esa "majburlash va cheklashning bir shakliga to‘g‘ri keladi – haqiqatan ham, inson shaxsining mukammallikka intilishi bo‘ysunishning samaraliroq turiga" mos keladi. O‘zligini tashqi va begona cheklovlardan xoli deb hisoblagan "men" ayni bir paytda ichki nazorat va o‘z-o‘zini cheklashlarga bo‘ysunadi, ular o‘z oldiga majburiylikka ega va mukammallikka eltadigan shaklini maqsad qilib olishadi[3].

"Eros iztirobi" (Agonie des Eros) asarida Xon o‘zining oldingi kitoblari *"*Charchoq jamiyat*"* (Müdigkeitsgesellschaft) va *"Shaffoflik jamiyati"* asarlarida (Transparenzgesellschaft) ishlab chiqilgan fikrlarni yanada rivojlantiradi. Asarda “O‘zga”ni tahlil qilishdan boshlab, Xon odamlar o‘rtasidagi istak va muhabbatga so‘roq qo‘yishni rivojlantiradi. Byung-Chul Xon o‘zini yaxshi ko‘rish va kimligini ko‘rsatib qo‘yish kuchayib borayotgan zamonaviy jamiyat haqidagi fikrlarini yanada rivojlantiradi. Xonning taxminicha, bu jarayonning so‘nggi pallasida, hatto, *istakning yo‘qolishi* kuzatiladi, bu shunday istakki, unda boshqa, begona, o‘ziga tegishli bo‘lmagan obyektlarga e’tibor va bog‘lanishlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Bu vaqtda insonlar

[1] Byung-Chul Han. Psychopolitics. 2017. -P. 13
[2] O‘sha asar. -P. 13.
[3] O‘sha asar. -P. 13.

faqat o‘zlarini o‘ylaydigan va boshqalar bilan munosabatlar qura olmaydigan darajaga yetadilar. Shu tariqa xudbinlik kurtak yoyib rivojlanadi. Hozirda biz xudbin so‘zi bilan bir qatorda egoist so‘zini ham ko‘p ishlatamiz. Agar bu so‘zni aniqlab qarab o‘tadigan bo‘lsak *"Ego"* (lotinchadan ego – Men) deb tarjima qilinadi[1]. Byung-Chul Xonning nazariyasiga ko‘ra, "*Ego*" shu darajaga yetadiki, hatto sevgi va shahvoniy hirslar ham ushbu ijtimoiy o‘zgarish bilan qamrab olinadi. O‘zini yaxshi ko‘rish va manmanlikning rivojlanishi qarama-qarshilikning yo‘qolishiga olib keladi. Xon yondashuvlariga ko‘ra, fikrlashning shu tariqa davom etishiga, hali tushunilmagan narsaga intilish sabab bo‘ladi. Bu esa ehtiros va xohish bilan yuqori darajada bog‘langan, shuning uchun “ehtiros va xohish azobi” o‘z navbatida “fikr azobi” ham hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Byung-Chul Xonning o‘ziga xos bunday qarashlarining shakllanishiga ikki xil madaniy o‘choqlarda qaynagani ham ta’sir etgan bo‘lsa ajab emas. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar zamonida Sharq va G‘arb o‘rtasidagi tafovut sekinlik bilan yo‘qolib borayotgan bo‘lsada, ammo ular o‘rtasidagi qadriyatlar farqini Byung-Chul Xonning fikrlarida sezish mumkin. Hozirgi jamiyatdagi insonlar o‘zlari yaxshi bilmagan biror obyektga tez bog‘lanib, tez sovib qoladilar. Byung-Chul Xon bu yerda “hamma narsani ham tushunish va yoqtirish kerak emas, hamma holatni ham oydinlashtirish zarur emas”, – degan fikrni ilgari suradi[2]. Jamiyat taraqqiyoti insonlarni o‘z ustida ishlashga majbur qiladi. Siz o‘zingiz ko‘zlagan biror bir maqsadga yetishish uchun o‘zingizga turli cheklovlar qo‘yasiz. Albatta, hozirgi raqamli dunyoda qadimgi va o‘rta asrlardagi qulchilik tizimi, yoki yaqin tarixdagi sinfiy kurashlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Ammo Byung-Chul Xonning fikricha, qulchilik tizimi umumiylikdan yakkalikka, sinflar o‘rtasidagi kurash esa ma’lum bir sinf ichidagi kurashga aylangan. Biz hayotda o‘z o‘rnimizni topish uchun kurashamiz. Buning uchun o‘zimizga o‘xshagan boshqa bir insondan ustunroq bo‘lishiz kerak. Bunday musobaqaga o‘xshash hayot tarzi xudbinlik ya’ni “ego”ni shakllantiradi.

---

[1] https://fazo.tv/hayot/xudbinlik-bu/

[2] Han, Byung-Chul (2017) [2012 in German]. The Agony of Eros. Translated by Butler, Erik. Forward by Alain Badiou. London: MIT Press.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Y.Yusupov, S.Sh.Shermuhamedov, A.T.Ayupov va b. to‘ldirilgan 2-nashr. FALSAFA. – T.:”O‘qituvchi”, 2005.
2. Shavkat Mirziyoyev.” Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz”.Yangi O‘zbekiston.(Ijtimoiy-siyosiy gazeta) №223(479) 2021-yil, 7-noyabr.
3. "[책과 지식] 『피로사회』 저자 한병철, 도올 김용옥 만나다" [(Books and knowledge) ’Society of Tiredness’ author Han Byung-Chul and Do-ol Kim Young-oak meet]. JoongAng Ilbo. 24 March 2013. Retrieved 30 May 2018.
4. http://www.udk-berlin.de/sites/content/themen/universitaet/studium_generale/index_ger.html
5. kitaP gazete duvar. ’’Layk dünyasından kültürel çözülmeye: Byung-Chul Han’’. sayi:83 yil:2. Anıl Mert Özsoy.
6. LARB Los Angeles Review of Books. “Media and Transparency: An Introduction to Byung-Chul Han in English”. September 14, 2017. By Adrian Nathan.
7. Han, Byung-Chul. "Optimismus der Fremden: Wer ist Flüchtling?". FAZ.NET (in German).
8. "Klarheit schaffen". der Freitag. 2012-06-07. Retrieved 2012-06-09.
9. "Play more and work less: A visit with Byung-Chul Han in Karlsruhe". Sign and Sight. 2011-07-25. Retrieved 2012.06.09.
10. "새 대통령에게 선물하고 싶은 책’ 1 위 철학자 한병철의 ’피로사회". Kyunghyang Shinmun. 2012-11-29. Archived from the original on 2013-12-03. Retrieved 2013-12-09.
11. https://peskiadmin.ru/uz/kto-takoi-liberal-prostymi-slovami-liberalizm-i-neoliberalizm-sushchnost-etapy-razvitiya-osnovnye-p.html
12. Byung-Chul Han. Psychopolitics. 2017.

JAYNIZM DININING HINDISTON MADANIYATIDA TUTGAN O‘RNI

Xudayberganova Ruxsora Muxammadjonovna
TDSHU 1 kurs talabasi
Ilmiy rahbar: J.B. Sulaymonov

Jaynizm ko‘hna Hindistonda paydo bo‘lgan din hisoblanib, u Buddaviylikdan qadimiyroq tarixga ega. Unga miloddan avvalgi IX – VI asrlarda asos solingan. Unga bir necha million kishi e’tiqod qilib, asosan, Hindistonning janubi va Gujarat shahri aholisi jaynizm dinida. Jaynizm miloddan avvalgi VI asrda paydo bo‘lgan. Jaynizm so‘zi esa “Jina” so‘zidan olingan bo‘lib, “g‘olib” degan ma’noni anglatadi.

Jaynizm dini tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, u juda qadim va turli – tuman hodisa va reformatsiyalarni o‘z ichiga olgan. VII – VIII asrlarda jaynizmga qarshi janubiy bhaktilar va vishnuizm ta’sir ko‘rsatdi. Bundan tashqari bir qancha oqimlarda jaynizmga qarshi g‘oyalar bo‘lgan, bu hatto ularning madhiyalarida ham aks etgan. Ular quyidagilar: Appara, alvar Tirumalishay, Tirumangay, Vipranarayana va boshqalar. Bu oqimlar jaynizmga mutlaqo yod g‘oyalarni, xususan, demokratiyaning unsurlarini targ‘ib qiladi. Buning natijasida jaynizm markaziy Hindistondagi o‘z ta’sirini yo‘qota boshlaydi. Bunga qarshi jaynizm din vakillari tarafidan ko‘pgina ishlar amalga oshiriladi.

1368- yilda Vidjanagar aholisi hukmdor Bukkaga jaynistlarga qarshi chiqayotgan oqimlar, xususan, vishnutlarni to‘xtashini talab qilardilar. Hukmdor jaynistlarga qarshi har qanday chiqishni taqiqlaydi. Lekin bu choralar ham jaynizmni keng saqlanib qolishiga yordam bermadi. XV asrda afg‘on, turk, forslarni ko‘plab kirib kelishi natijasida jaynizm faqat Gujarat shahridagina saqlanib qoldi. Barcha dinlar ma’lum bir davrga kelib, turli xil islohot, o‘zgarishlarga uchraydi. Bu jaynizm dinini ham chetlab o‘tmadi. Bu davrga kelib jaynizm dini ko‘pgina reformatsiyalarga uchradi. Bu davr din vakillari tomonidan jaynizmni asl holicha saqlab qolish vazifasi turardi. Shunday rohiblardan biri jayn- mirganun vakili Lonka edi. U dinni asl, dastlab qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qildi va o‘z ishini “Dastlabki tozalik” deb nomladi. Hozirgi kungacha jaynizmning buzilmay, o‘zgarmay yetib kelishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Qadimda jaynizm 3 sektaga bo‘lingan. Bular: Digambara, shvetambara va staxanakasi hisoblanadi.

“Digambara” sanskrit tilidan olingan bo‘lib, “dik” – “dunyo mamlakati”, “ambara” – “kiyim” degan ma’noni anglatadi. Bu “Kiyingan mamlakatlar dunyosi” degani. Digambarada hech qanday kiyim kiyish mumkun emas deb uqtiriladi. Hattoki, ich kiyimlar kiyish ham man etiladi. Digambara ibodatxonalardagi haykallar ham yalang‘och holda ta’svirlanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Shvetambara” – sanskrit tilidan olingan bo‘lib, “Oq kiyinganlar” degani. Bu sekta vakillari digambaralardan farqli ravishda bu sektada kiyimlar kiyilgan. Faqatgina och rangdagi kiyimlar kiyishi talab etilgani.

“Sthanakavasi” – “Ibodatxona yashovchisi” degan ma’noni anglatadi. Sthanakavasining boshqa yo‘nalishlardan farqli tomoni bu sekta vakillari tasvir va butlarni tan olmaydi balki, kitob va qonunlarga bo‘ysunadi. Hozirgi kunda Digambara va Shvetambara sektalari mavjud bo‘lib, Sthanakavasi sektasi yo‘qolib ketgan.

Dunyodagi barcha dinlarni o‘rganar ekanmiz, jamiki dinlar axloq ustiga qurilganini ko‘rishimiz mumkin. Xoh, unda feodalizm qoidalari bor bo‘lsin, xoh, demokratiyaning unsurlari yo‘q bo‘lsin, barcha dinlar yomonlikdan qaytarib ezgu, to‘g‘ri yo‘lga targ‘ib etadi. Bilamizki, qadimgi Hindistondagi deyarli barcha dinlarda: Hinduiylik, buddaviylik, shivaizm, vishnuizmda tirik odam joni hattoki, jonivor, o‘simliklar olamiga ham zarar yetkazishdan qaytariladi. Jaynizm esa bu tirik jonlarga zarar yetkazmaslikning cho‘qqisidir. Ya’ni, bu dinda jamiki, jonzotga nisbatan bo‘lgan zarar qattiq qoralanadi. Tirik – mavjudotlarning himoyasi yuksak qadrlanadi.

Jaynizm dinining falsafiy jihatlarini quyidagicha tushunish mumkin: bu din vakillari gunohlardan poklanib, doimiy azob – uqubatdan qutilishga intiladilar. Bu yo‘lda belgilab qo‘yilgan qonun – qoidaga itoat qilishga urinadilar. Jaynizm rohiblari nafsini barcha narsadan tiyish yo‘li bilan komillikka yetishga urinadilar. O‘zni jismonan: taom, suv, shahvat va gunohlardan tiyish yo‘lida rohatdan voz kechadilar. Bu dunyo o‘tkinchi ekanligini, ne’matlar doimiy emasligini anglaydilar. Oliy ruhga erishish uchun ruhiy va jismoniy poklanadilar. Ya’ni “Karma” dan qutilib, “Nirvana”ga erishishga harakat qiladilar. Jaynizmning falsafiy aqidasining asosida qalb yotadi. Qalbni hatto mutlaq borliqdan ham yuqori ko‘rishadi va u hech kim va

hech narsa tarafidan yaratilmagan, balki, u bor bo‘lgan va bor bo‘ladi, u doimiy va abadiy sifatida tushuniladi. Shuningdek, jaynizmda insonga bo‘lgan qadr ham baland.

Nirvanaga erishish uchun hattoki, xudolar ham insonlar olamida dunyoga kelishi shart deb tushuniladi. Bunga “Ramayana” dostonini misol qilishimiz mumkin. Nirvanaga erishish uchun nafaqat tashqi balki, ichki tozalik, gunohlardan holi bo‘lish talab etiladi. Ular bu dunyolarda qayta tug‘ilmaslik, azob – uqubat tortmaslik uchun Nirvanaga yetishga urinadilar. Buning uchun barcha istaklardan voz kechilib tarki dunyo qiladilar. Barcha kerakli ehtiyojlardan bosqichma – bosqich voz kechiladi. Eng so‘nggida taom hattoki, nafas olishni ham to‘xtatadilar. Bu ishlardan shuni tushunishimiz kerakki jayniztlar uchun umuman dunyoga kelish, unda yashash va undagi jamiki bor moddiy narsalar, ulardan foydalanish azob. Inson ruhi faqatgina Nirvanaga erishibgina bu qiynoqlardan qutuladi deb qaraydilar.

Jaynizmda 28 ta odob – axloq qoidasi bor. Bulardan 5 tasiga itoat qilinishi shart, buzib bo‘lmas deb qaraladi.

Birinchisi, Hindistonning boshqa dinlarida ham mavjud bo‘lgan oliy, buzilmas qoida tirik jon – mavjudotga zarar yetkazmaslik (aximsa). Bunda nafaqat jismoniy taraflama balki, o‘y – fikr, so‘z bilan ham zarar yetkazish qat’iyan man etiladi. Bunda rohiblar 5 sezish a’zosi, o‘y – fikr, so‘z va jism bilan biror tirik – jonga zarar yekazmaslikga qasam ichadilar.

Ikkinchisi, yolg‘on so‘zlamaslikdir. Bunda har qanday yolg‘onni gapirish gunoh sanaladi, lekin, tirik – mavjudotni hayotini saqlab qolish uchun bo‘lsa, kechiriladi. Bunda ham rohiblar o‘ylash, so‘zlash va jismonan ham faqat va faqat rost so‘zlashga qasam ichishadi.

Uchinchisi, o‘g‘rilik qilmaslik. Bunda insonlarni halol va haqgo‘y bo‘lishga chaqirilib, o‘g‘rilikdan qaytariladi.

To‘rtinchisi, zino qilmaslik. Bunda Nirvanaga erishish uchun o‘zini pok tutib, buzuq ishlardan uzoq yurishi kerakligi aytiladi.

Beshinchisi, tarki dunyo qilish. Bunda dunyodagi jamiki, istaklardan voz kechib Nirvanaga yetishish ko‘zda tutilgan.

Qadimda Jaynizmda nafaqat moddiy narsalarga balki, madaniyatga bo‘g‘liq bo‘lgan bir qancha cheklovlar mavjud bo‘lgan. Teatr, musiqa, she’riyat ta’qiqlangan. Shuningdek, vaqtni yemish topish uchun sarflash ham qoralangan. Negaki, inson o‘tkinchi narsalarga umrini sarflashi behuda deb qaraladi. Jaynizm dini madaniyati haqida gapiradigan

bo‘lsak, barcha madaniyat, adabiyot va me’morchilik diniy marosim va urf-odatlarga bog‘liq ekanini ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi davrdan to hozirgi kungacha jayniztlarga oid juda ko‘p ibodatxonalar, haykallar va bir qancha kitoblar yetib kelganini ko‘ramiz.

Milodiy VI – X asrlarda ko‘pgina jaynizm ibodatxonalari, qadamjo va monastirlari mavjud bo‘lgan. Bulardan eng salobatlisi VII asrga oid Ayxo‘ladagi ibodatxona hisoblanadi. U YUNESKO ning ro‘yxatiga olingan bo‘lib, juda nodir arxitektura namunasi hisoblanadi. U Malaprabha daryo havzasida joylashgan bo‘lib, unda 120dan ortiq xona, g‘or va ibodatgohlar mavjud. Shuni aytib o‘tishi kerakki, bu ibodatxona toshdan qurilgan. Bundan tashqari 14- asrga oid Suparshnathaning meditatsiya holatidagi haykali, miloddan avvalgi 4-asrga oid Ayo‘dhadagi Jinna haykali, miloddan avvali 1- asrga oid Chamukhi Jaynlari haykali, Ayagapatining va tirthankari rasmida tushirilgan sopol taxtacha, miloddan avvalgi 100- yilga oid Kankali Tila arhitrav kentavrlar bilan tasvirlangan rasm kabilarni arxitektura durdonasi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Me’morchilik bilan birgalikda Jaynizmda adabiyoti rivojlandi. Garchi adabiyotlar din haqida so‘zlasa-da, qadimgi Hindiston u yerdagi tarix, san’at, madaniyat haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi. Rigveda va Upanishatralardan tashqari jaynistlarning: “Sulamani”, “Perunkadey”, “Nilakeshi” kabi asarlar ham mavjud. Bundan tashqari “Padmapurana” va “Mahapurana” asarlari hind adabiyotining tengsiz namunalari hisoblanadi. Ular savsiyasi jihatdan “Ramayana” va “Mahabharata” dostonlari bilan tenglashtiriladi. Negaki, bu asarlardagi ko‘pgina voqea va syujetlar o‘xshashdir, deyarli bir – birini takrorlab turadi.

Bilamizki, hind falsafasi juda qadimiy va o‘zida keng tushunchalarni ifoda etadi. Ularni fikricha bizni o‘rab turgan dunyo, undagi barcha materiya va bulardan foydalanish azobdir. Insonlarni jamiyat va tabiat bilan bo‘lgan munosabati ehtiyotkorona va oqilona bo‘lishi talab etiladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: bilamizki, koinot cheksiz va kattadir. Jayniztlarning nazarida materiya bu inson 5 ta sezgi a’zosi bilan sezadigan barcha narsalardir. U juda ko‘p materiyalarni o‘z ichiga oladi. Lekin shunga qaramasdan bir zarra g‘ubor sig‘maydigan darajada tor hamdir. Undagi barcha jismlar o‘zaro muvozanat va aloqada harakat qiladi. Borliqda biror kam yoki ortiqcha narsa yo‘q. Shuning uchun inson ham shu muvozanatni buzmay hayot kechirishi kerakligi aytiladi. Jayniztlarning nazarida biz yashab turgan

borliq bu nisbiydir. Nisbiy borliqda hayot kechirish va uning materiyalaridan foydalanish esa azobdir. Inson bu dunyoda tug‘ilib yashashi ham faqat va faqat azobdir. Jayniztlarga inson borliqdagi narsalardan foydalanmasligi va tarkidunyochilikda hayot kechirish kerakligi uqtiriladi. Xo‘sh ular nega aynan tarkidunyochilik bilan hayot kechirishi kerak deb tushunadilar? Axir, bu bilan jamiyat rivojlanmaydi, turmush kechirish yanada yomonlashadi. Buni shunday tushunish lozim: bizni o‘rab turgan xoh jonli, (jiva) xoh, jonsiz (ajiva) tabiat bo‘lsin, bu shunchaki yo‘q bo‘lib ketadigan buyum sifatida qaraladi. Tog‘lar bir kun yemiriladi, quyosh bir kun so‘nadi, siz undan foydalaning yoki yo‘q, siz ham u jism ham yo‘q bo‘lib ketadi. Shuning uchun butun borliq bilan yaxshi munosabatda bo‘lish kerak.

Bunda biz bir qancha axloqiy jihatlarni ko‘ramiz. Agar siz insonlarga, jonivorlarga va tabiatga ozor bersangiz, har bir yomon xatti -harakatingiz uchun yangi “karma” hosil qilasiz va siz o‘limdan keyin ham bu dunyoda hayot kechirib azoblanasiz. Bu sizga berilgan yana bir imkon emas balki, sinovdir. Siz bundan ham yomon sharoitda tug‘ilasiz. Ularning aqidasiga ko‘ra, inson qanday hayot kechirganiga qarab to‘rt xil dunyoda qayta tug‘iladi bular: insonlar, xudolar, hayvonlar va do‘zaxda. Bu dunyolardan biz xudolar va do‘zaxni nisbiy borliqdan chiqarolmaymiz. Chunki, ikkalasi ham nisbiy bo‘lib, abadiy emas. Ruh faqatgina “Nirvana” ga erishibgina taskin topadi va mutlaq borliqqa o‘tadi deb qaraladi.

Mutlaq borliq yaratilmagan u abadiy na boshi bor va na oxiri bor, u doim bor bo‘ladi va bor bo‘lgan, unga yetib borgan inson esa azobdan qutiladi. Nirvanaga erishish esa juda qiyin va mashaqqatlidir. Bunga faqat va faqat insonning o‘zi aybdordir. Inson nisbiy borliqni mutlaq, mutlaq borliqni esa nisbiy deb biladi. Borliqni qonunlarini rad etadi, unga zarar yetkazishga urinadi. Holbuki, bu bilan o‘ziga ham zarar yetkazishini anglab yetmaydi. Negaki, inson ham shu borliqning ajralmas bir qismidir. Inson qachonki, shuni tushunib yetsa va o‘z istaklaridan voz cheksa, “Nirvana” ga albatta erishadi. Ko‘rishimiz mumkinki, hinduizmdan farqli ravishda jaynizm kashtachilikni rad etadi. Chunki, biz yashab turgan olam nisbiy ekan, undagi barcha jismlar ham nisbiydir. Xoh, u brahman xoh, shudra bo‘lsin ular ham o‘tkinchi ya’ni nisbiydir. Ijtimoiy kelib chiqishlardan qat’iy nazar barchaga “Nirvana” ga erishish yo‘lida barchaga teng imkoniyat beriladi. Yuqori tabaqa yaxshi sharoitda umr kechirishi bu uning

yutug‘i emas, quyi kastalarning qiyin muhiti esa zarari emasdir. Har ikki sharoitda inson o‘z nafsiga qarshi chiqishi va o‘z xatti – harakatiga e’tibor berishi kerak.

Insonning butun borliqqa ta’siri, harakati va o‘y fikri borliqni aksidensiyasiga emas, balki, substansiyasiga qaratilishi kerak. Inson tabiatdan o‘ziga yoqimli, foydasi tegadigan narsalarga e’tibor qaratadi , ularni qadrlaydi. Lekin shuni tushunib yetmaydiki, aksidensiya turg‘un bo‘lmaydi, o‘zgaradi. Substansiya ham o‘zgarishi mumkin lekin bunga aksidensiya ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun Jaynizmda tan va ruh boshqa boshqa narsalardir deb qaraladi. Tan bu hayotda yashashimiz uchun vaqtinchalik ko‘rinish, shakldir. Ruh esa insoning asl qiyofasi bo‘lib, faqat undagina barcha tuyg‘u va fazilatlar aks etadi. “Nirvana”ga ham faqatgina mana shu ruhning sofligi bilan erishiladi deb qaraladi.

Xulosa

Hindiston ulkan mamlakatdir. U nafaqat turli mo‘jiza va g‘ayritabiy narsalarga boydir, balki, u turli xil madaniyat va dinlar mavjud bo‘lgan davlatdir. Bu yerda Hinduizm, Buddizim, Islom, Xristian, Jaynizm, Sikhizim, Porsizm kabi dinlar mavjud. Bu yerda barcha dinlar o‘z tarixi va qadr qiymatiga ega. Har bir dinda bo‘lgani singari bu dinga ham ko‘pgina yangiliklar kiritildi. Lekin bar bir bu din o‘zining asosiy xususiyatlarini yo‘qotmadi. Jaynizm o‘z nufuzi va ahamiyatini saqlab qoldi. Ko‘rdikki, u juda murakkab, lekin shu bilan birga tinchliksevar va insonparvar dindir. Garchi juda ko‘p taqiqlar mavjud bo‘lsada, inson qadr – qiymati ham yuksak baholanadi. Unda qadimgi hindlarning turmush tarzi , madaniyati , tarix va adabiyotining qadimgi elementlarini saqlanib qolganini ko‘ramiz. Asrlar davomida bo‘lgan o‘zgarish, urushlarga qaramasdan u juda o‘zgacha, boshqa dinlarda uchratish qiyin bo‘lgan Jaynizm bo‘lib qolaverdi. Unga hamon millionlab insonlar sig‘inadi, qoidalariga so‘zsiz itoat qiladilar. Uning muqaddasligi, o‘zlarining asl dinlari ekanligiga ishonadilar.

AZIZIDDIN NASAFIYNING “AL-INSON AL-KOMIL” ASARIDAGI AXLOQIY VA TARBIYAVIY QARASHLARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Erkinova Zilola Ergash qizi
TDSHU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.R. Ikramova

“Ey darvesh! Daraxtning barcha kamolot bosqichlari urug‘idandir. Faqat mirishkor bog‘bonning tarbiyati va parvarishi lozimdir, toki urug‘ daraxt bo‘lib ro‘yobga chiqsin. Shu kabi poklik va go‘zal axloq, ilm va ma’rifat sir-asror kashf bo‘lishi, nurlarning zuhuri-barchasi inson zotida mavjuddir. Faqat donishmand suhbati ,tarbiyat va parvarishi lozimdir. Toki bular to‘liq yuzaga chiqsin”[1]. Komil inson g‘oyasi o‘rin olgan ushbu fikrlar Aziziddin Nasafiy qalamiga mansub.

Aziziddin ibn Muhammad an-Nasafiy 1220-1305-yillarda Nasaf, bugungi Qashqadaryo hududlarida yashab o‘tgan ensiklopedik olim, tabib va tasavvuf ahlining vakili hisoblanadi. U Najmiddin Kubro va Ibn al-Arabiy ta’limotlarini o‘zaro bog‘lagan insonlardan biri. Nasafiy fors tilida ijod qilgan. Uning fikr va aqidalari “Maqsad ul – aqso” (“So‘nggi maqsad”) asarida ifodalangan. Asar 8 fasl, 8 bob va 1 xotimadan iborat. “Al – inson al – komil” (“Komil inson”) asari olim yozgan risolalarning eng mashhuri bo‘lib, uni fransiyalik olim Marijan Mole fransuz tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, olimning “Kashf ul–haqoiq” ("Haqiqatlarning yaralishi"), "Zubdat ul – haqoyiq" ("Haqiqatlar qaymog‘i"), "Usul va furu’" ("Ildizlar va butoqlar"), "Mabda’ va ma’od" ("Chiqish va qaytish"), "Miftoh ul – asror" ("Sirlar kaliti"), "Nafsi insoniy", "Vahdati vujud" va boshqa kitoblari chet ellarda chop etilgan. Eron olimi Abdulrizo Sayf uning “Kashf ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar kashfi”), “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymog‘i”), “Maqsad ul-aqso” (“So‘nggi maqsad»), “Kitob al-Inson al-komil” (“Komil inson kitobi”), “Manozil us-soyirin” (“Sayr etuvchilarning manzillari”) hamda yigirmadan ortiq nashr etilmagan asari ro‘yxatini keltiradi. Aziziddin Nasafiy asarlarini Yevropa olimlari ham o‘rgangan. Avgust Myuller “Maqsad ul-aqso” asarini lotin tilida

[1] https://www.scribd.com/document/351552072/Najmiddin-Komilov-Tasavvuf-Xurshid-Davron-kutubxonasi#from_embed

nashr etgan. Frans Mayer buyuk tasavvuf olimining hayoti va ijodiga doir tadqiqotini e'lon qilgan. Sharqshunos olim Andrey Bertels "Zubdat ul-haqoyiq" asarining tanqidiy matnini tayyorlagan.

O'zbekistonda Najmiddin Komilov nomi dastlab "Zubdat ul-haqoyiq" asarini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan. Shuningdek, "Tasavvuf" kitobida komil inson haqidagi talqinlarda bevosita Nasafiy asarlariga tayanib ish tutgan.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: «Bilgilki, Komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif»[1]. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Aynan mana shu jihatlarni hozirgi davrimizda jamiyatdagi hamma qatlamga ayniqsa , yoshlar ongiga singdirish muhim hisoblanadi. Chunki yoshlar aholining asosiy rivojlanayotgan qismi bo'lib, kelajakda ular jamiyatning negizi sifatida uni rivojlantirishi kerak. Aziziddin Nasafiy tasavvufiy poklanish talabini qo'shib qo'ygan. Uning fikricha, tariqat yo'liga kirgan soliklar vazifa-maqsadi ushbu to'rt fazilatni egallashdir. Kimki «o'zida shu sifatlarni kamol toptirsa, u kamolga erishadi». Nasafiy komil inson hayotdan tashqari bo'lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamligini eslatib o'tadi. Ya'ni har bir ilmli, ma'rifatli, diniy bilimlar bilan birga zamonaviy bilimlarni ham egallab, ularni to'g'ri yo'nalishda, xalq rivoji uchun ishlata olgan inson kamolotga erishishi mumkin.Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam shunday martabaga ko'tarila oladi. Ayniqsa, chiroyli xulq egalari hamma uchun sevimli shaxsga aylanadi. Komil inson martabasi tariqat va riyozat yo'li bilan qo'lga kiradigan yuksak martaba ekanligi ham shundan dalolat beradi.

Komil inson haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tish o'rinlidir:

Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi. Bugungi kunda har bir jamiyatning rahbarlari aynan shu xislatlarga ega bo'lmog'i lozim. Ya'ni ular insonlarni boshqarishda va ularga suyanishda oqillik va donolik bilan yondashsa, o'z navbatida

[1] http://www.hozir.org/i-bob-sharq-mutafakkirlari-asarlarida-komil-inson-tasnifi.html?page=3

xalq ham bunday boshliqlarni sevadi, ularga itoat qiladi va ularni qo‘llab – quvvatlaydi.

Komil inson martabada Aqli kull (Aqli avval)ga teng. Alloh avval Aqli kullni, ya’ni Komil insonni yaratdi, keyin u tufayli boshqa maxluqotlar yaratildi. Komil inson shu sifatlari bilan mutlaq ilohiy xislatlarni jamlagan kayhoniy mavjudlikdir, u agar oddiy inson suratida ko‘rinsa ham, lekin ma’nan koinotni qamrab olgan hamisha bedor va narsalardan xabardor bir insondir. Ya’ni ular buyuk aql egalari bo‘lib, har bir narsani o‘lchovini, jamiyat qanday bo‘lsa insonlarga yaxshi bo‘lishini o‘ylab, shu asosda fikr yuritadilar. Ular insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadi. Azaldan martabasi aniq bo‘lgan ruh emas, balki axloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida kamolga erishgan insondir. Bunday insonlarni mavjud bo‘lgan tuzum va jamiyatlarning barqarorligini saqlovchi shaxslar deb atasak xato bo‘lmaydi. Agar jamiyat orasiga axloqsizlik yoki turli ma’naviyatsizlikni targ‘ib qiluvchi oqimlar kirib kela boshlasa, ular bunga to‘sqinlik qila olishadi. Chunki “G‘oyaga qarshi g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma’rifat” [1] -mavjud bo‘ladi. Va shuning natijasida aholini axloqiy buzuqlikdan saqlab qola oladi. Shuning uchun ham biz har doim bunday insonlarga muhtojlik sezamiz. Komillikning eng oliy belgisi ham Haq yo‘lidan borib xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o‘z so‘zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni to‘g‘ri yo‘lga sola olsa, Haq yo‘lida fido bo‘lsa, u shuncha komillik darajasiga yetishgan bo‘ladi.

Nasafiyning “Insoni komil” asari ham aynan shu mazmundagi ma’naviy g‘oyaviy fikrlardan iborat bo‘lib, asar bizning hozirgi jamiyatimiz taraqqiyoti uchun ulkan hissa qo‘sha oladi. Asarda yetuk insonlarda mavjud bo‘ladigan sifatlarni egallagan kishi har qaysi davrda ham jamiyat va davlatning yuragi hisoblanadi. Jumladan bizning zaminimizda ham bunday shaxslarga ehtiyoj sezadi. Asar haqida to‘xtalsak, u muqaddima va 22 risoladan iborat. Ularda mayl, iroda, insonning balog‘at va hurriyati haqida bayonlar keltirilgan. Bundan tashqari ushbu asarida bir qancha falsafiy mushohadalar ham o‘rin olgan. Katta olam va kichik olam, xudoning fe’li hamda

[1] Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – Toshkent.: “Ma’naviyat “, 2013. – B.118.

xalifasining fe'li, kichik olam farishtalari haqida jannat va do'zax ko'rinishlari haqidagi bayonlar shular jumlasidandir.

Asarga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, undagi ko'tarilgan axloq hamda odob masalalari o'rin olgan quyidagi bayonlarga alohida e'tibor beramiz:

-Toat va ma'siyat bayonida

-Xonaqoh odobi bayonida

-Tortishuvlar bayonida

-Taom yemoq bayonida

"Al-inson al-komil" asarining birinchi faslida o'rin olgan "Toat va ma'siyat" bayonida tasavvuf ahlining nimalarga e'tibor berishi, nimalardan tiyilishi haqida aytilgan: "Bilgilki, tasavvuf ahli uch narsaga qattiq e'tibor beradi: birinchisi -jazba, ikkinchisi-suluk va uchinchisi-uruj" [1]. Jazba-jazb etishdan (kashish) iborat. Suluk-sa'y harakatdan, uruj esa tortiq etìsh ya'ni baxshishdan iborat bo'ladi. Aynan mana shu uch sifatni egallagan inson shayx, hamda rahnamo bo'lishga haqli bo'la oladigan darajaga yetadi. Agar bu uch xislat yoki ularning birortasi tasavvuf ahli bo'lgan insonda mavjud bo'lmasa, u Nasafiy tomonidan, shayxlikka ham, peshvolikka ham munosib bo'la olmasligi alohida urg'u ostida ta'kidlanadi. Bu qismda insoniylikning maqomlari haqida so'z boradi va bu o'nta maqomdan iboratligi aytiladi. Bu maqomlarning har birini o'z jazbasi, suluki va uruji bor. Lekin maqomlar o'zgarishi bilan ular ham o'zgaradi. Bir maqomning jazba, suluk va uruji boshqasiga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shu bilan birga ibodat va gunohlar ham har bir maqomda o'zgaradi. Eng avvalo, toat va ma'siyatni tanish, yaxshi va yomonni ajrata olish katta ish. Shu sababdan ham muridlar doimo o'z shayxlariga itoat qilishlari kerak. Chunki bir maqomda toat bo'lgan narsalar yuqoriroq maqomda gunoh bo'lishi mumkin. Asarda misol tariqasida quyidagilar keltirilgan:" Xasanatul-abrori, sayyidatul muqarrabiyn (ya'ni, abrorlarning ezgu amallari muqarrab bandalar uchun gunohdir)"[2].

Va aksincha bir maqomda gunoh bo'lgan narsalar, undan yuqoriroq bo'lgan bosqichda ibodatga aylanishi mumkin. Asarda bunga misol tariqasida kishining iymonga kelishidan oldin va keyingi holati

---

[1] Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Oltinchi risola.N. Komilov va Olimjon Davlatov tarjimasi. Toshkent: "G'afur G'ulom ", 2021. –B.2.

[2] Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Oltinchi risola.N. Komilov va Olimjon Davlatov tarjimasi.-Toshkent:"G'afur G'ulom",2021. –B.2.

keltirilgan. Ya'ni kishi johil paytida yeb-ichishi, yurish-turishi, hatto uxlashi ham gunoh amal bo'lgan. Iymon keltirganidan, ya'ni ilm maqomiga erishgandan so'ng esa olim odamning yeyishi ham, uxlashi ham toatga aylanib ketgan.

Asarning uchinchi faslidan o'rin olgan "Xonaqoh odobi bayoni"ga to'xtalsak. Xonaqoh – bu sufiylar mashg'ulotlarini o'tkazishga mo'ljallangan hujralardan iborat katta bino bo'lib, unga o'ng oyoq bilan kirib, chap oyoq bilan chiqiladi. Masjid va boshqa tabarruk joylarda ham shunday qilinadi. Xammom, zolimlarning uyiga borganda esa chap oyoq bilan kirib, o'ng oyoq bilan chiqiladi. "Ey darvesh, xonaqohda kechasi ham, kunduzi ham baland ovozda o'qishmaydi, yurganda ham to'qillab yurishmaydi"[1], – deya ta'kidlanadi Nasafiy tomonidan. Endi o'zimizga, atrofimizga nazar solaylik. O'z uyimizda bo'lganimizda, mehmonga borganimizda yoki odamlar gavjum bo'lgan joylarida biz ham shu narsalarga amal qilishimiz bizning qanchalik ma'naviyatli shaxs ekanligimizdan dalolat beradi.

Xonaqoh ahli bir-biridan doimo xabardor bo'lishi kerak. "Agar bir darveshga kasallik yoki o'zi yecha olmaydigan mushkullik paydo bo'lsa, birgalashib o'sha muammoning yechimini topishga harakat qilishsin"[2]. Nasafiy xonaqohdagilar bir-biridan yordam va ko'maklarini ayamasligi kerakni ta'kidlab, bir-birlarining ayblarini yopib, yaxshilarini oshirib ko'rsatishga undaydi. Kattalarning kichiklarga yordam berishiga chorlaydi. Muammoli vaziyat yuzaga kelgan taqdirda kichiklar kattalardan maslahat olishi, shunga ko'ra ish qilishlari lozim bo'ladi. Bu o'rinda kattalar ham mas'uliyatni his qilgan holda masalaga atroflicha yondashishi va to'g'ri yo'nalish bera olishi muhim. Buning uchun undan yetarlicha ilmli bo'lish talab qilinadi. Agar ko'tarilgan masala bo'yicha shayx ilmi ojizlik qilsa, qanday yo'l tutishi kerakligini yozuvchi quyidagicha bayon qiladi: "Bilmay turib javob berishning ziyoni foydasidan ko'proqdir... Shunday javob bersinki, aslida hech narsa demaganday bo'lsin. Har bir kishiga aqliga yarasha muomala qilishsin"[3]. Guvohi bo'lganimizdek Nasafiy yashagan davrda ham insonlarning bir biriga yordam berishi, ayniqsa martabasi ulug' zotlar

[1] Aziziddin Nasafiy. "Komil inson kitobi "Oltinchi risola. Toshkent,2021. –B.14.
[2] Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Oltinchi risola.N. Komilov va Olimjon Davlatov tarjimasi. Toshkent, 2021. –B.14.
[3] Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Oltinchi risola.N. Komilov va Olimjon Davlatov tarjimasi. Toshkent, 2021.-B.15.

o‘rnak bo‘lishi kerakligi aytilmoqda. Bizning davrimizga kelib ham shunday. Qanday vaziyat bo‘lsa ham har doim ilmli inson qolganlarga rahnamolik qilishi joizligi ta’kidlanyapti. Bu asarda ko‘tarilgan keyingi masala “Tortishuvlar bayonida” deb nomlanadi. Aslida tortishish darveshlar uchun og‘ir holat hisoblangan. Chunki odob va axloqiy tarbiya masalalari ularning ruhigacha kirib borgan bo‘ladi. Ikki darvesh o‘rtasida biror mojaroga sabab bo‘lib qolishi mumkin bo‘lgan so‘z yoki amal bo‘lib qolishi mumkin. Shunday vaziyat yuzaga kelgan taqdirda ular muammoni muloyimlik bilan hal qilishlari kerak bo‘ladi. Vaziyat oydinlashgach, xato qilgan darvesh kechirim so‘raydi, so‘ngra ular bir birlari bilan quchoqlashib ko‘rishadi, bo‘lib o‘tgan voqealarni tezda xotiralaridan chiqarib yuborishadi. Bunday mojarolar yuzaga keladigan bo‘lsa, masalani yechish paytida albatta, shayx bo‘lishi kerak. Bu yerda ham, eng avvalo, o‘rtaga tashlangan mavzu bu odob masalasidir. Va insonlarni har qanday vaziyatda ham bir -birini hurmat qila olishi tahsinga sazovordir. Biz yashayotgan jamiyatdagi holat bilan bir solishtirib ko‘ringa?! Insonlar sabrsiz, arzimagan narsalar uchun ham asabiylashuvchi, bir -birlariga be’etibor va o‘zlarining manfaatini boshqalarning manfaatidan ustun qo‘yuvchilar soni ancha ko‘paygan. Ko‘chalarda, transport vositalarida, o‘quv muassasalarida bu holatlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Aynan shu narsalarni oldini olishda ham Nasafiyning ushbu asari muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarda o‘rin olgan keyingi masala “Taom yemoq bayoni” haqida so‘zlaydigan bo‘lsak, bevosita yana odob masalasi ko‘tariladi. Ya’ni asarda ta’kidlanganidek, darveshlar dasturxon atrofiga yig‘ilarkan, odob saqlagan holda o‘tirishadi. Hamma kelib, kattalar ovqatni boshlab bersagina, keyin kichiklar ham ovqatlana boshlashadi. Ovqat paytida hamma o‘zining oldidan yeyishi, birovning oldiga qo‘l uzatmasligi tartibiga qat’iy amal qilishadi. Ovqatdan oldin ham, keyin ham qo‘llarini yuvishadi. Bu ularda ham tana, ham ruh pokligi muhim ekanligi, hayotining ajralmas qismi bo‘lib qolganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda Aziziddin Nasafiyning ushbu asari, insonni tarbiyalashda bugungi kunda ham chin ma’noda dastur ul amal bo‘la oladi. Asar sodda tilda bayon etilishiga qaramay, har bir inson uchun zarur bo‘lgan bilimlarni yetkazib bera olgan. Biz yashayotgan texnika-texnologiyalar davrida Nasafiy o‘rgatgan axloqiy, mafkuraviy tamoyillar har bir sohani qamrab olsagina davlat har taraflama rivojlana oladi. Bu asarda ko‘tarilgan odob-axloq masalalari jamiyat hayoti

uchun, uning rivojlanishi uchun eng muhim bo‘lgan jihatlarni qamrab olgani boisidan ham asar o‘z davrida, o‘rta asrlarda Yevropada ham mashhur bo‘lgan. Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, asarda ko‘tarilgan masalalar bizga har doimgidan ham ko‘ra zarurdir. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda, insonlar ko‘p narsalarga e’tibor berishi susayganligi ko‘zga tashlanyapti. Ayniqsa, yoshlarning odob-axloq, tarbiya, muloqot madaniyatiga yetarli e’tibor qaratmayot-ganligi jamiyatimizning zaif tomoniga aylanib qolmoqda. Ularning ommaviy madaniyat ta’siriga tushib qolishdan himoya qilish uchun ham, eng avvalo, ularning ma’naviy dunyosini boyitish muhimdir. Bu o‘rinda esa Aziziddin Nasafiyning ifoda etgan jihatlarni o‘zimizda shakllantira olsakkina kirib kelayotgan turli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalana olamiz. Mana shunday g‘oyaviy muhitni yarata olgan jamiyat va davlat kelajagi hech qachon xavf ostida qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Tarjimon Najmiddin Komilov, Olimjon Davlatov. Toshkent, 2021.

2. Aziziddin Nasafiy. Komil inson haqida. Beshinchi risola. Suluk bayonida. Toshkent, 2017.

3. https://kitobxon.com/oz/kitob/tasavvuf-yoki-komil-inson-ahloqi

4.http://www.hozir.org/i-bob-sharq-mutafakkirlari-asarlarida-komil-inson-tasnifi.html?page=3

5. https://www.scribd.com/document/351552072/Najmiddin-Komilov-Tasavvuf-Xurshid-Davron-kutubxonasi#from_embed

MODERN TRENDS OF THE INTERNATIONAL TOURISM

student Z.Sh. Bektoshev, TSUOS
Senior teacher, Sh.E. Abdullayeva, TSUOS

Modern tourism plays one of the main roles in the world economy. This industry is developing rapidly and will soon become its most important sector. The annual growth of investment in the tourism industry will be about 30%. The tourism industry developed especially rapidly in the post-war years. More and more countries of all continents were involved in the economic turnover of tourism. Over 35 years, the number of tourists who have left for other countries has increased almost 13 times (from 1938 to 1985, approximately 27 times), and tourism income - 55 times.[1]

International tourism is travel for tourist purposes outside the country of permanent residence. This is a travel system carried out on the basis of international treaties, taking into account current international customs.

The task of the tourism business is the production and sale of tourism products and services available to a wide range of consumers with different income levels and at the same time solving customer problems, creating comfort and taking care of the conditions of their work and rest.

International tourism covers travel by travelers for tourism purposes outside the country of permanent residence.

Often the participants themselves get acquainted with the sights of the city, and after the end of the congress they make tourist trips around the country. A distinctive feature of this tourism is that participants in business meetings spend significantly more money during their stay in the country than an ordinary tourist. Therefore, many states strive to host international forums and other similar events. international excursion tourism.

[1] https://tourlib.net/books_tourism/zazgarskaya1.htm

Scientific tourism is a journey for the purpose of education, professional development - it is relatively new in international tourism. The most popular language learning trips are especially to the UK and other English-speaking countries.

Main part

Tourism is one of the largest and most dynamic sectors of the economy. The main trends in tourism development are a popular topic of publications. Increased attention to global trends is one of the new topical areas of research and development in tourism. The purpose of this study is to systematize the main modern features of tourism. For this, the trends are grouped into three thematic groups:

1. International tourism: dynamics of international arrivals, geography of flows: the territorial structure of international tourism and the core of the concentration of tourist flows, the emergence of "smart" destinations (including "smart" cities).

2. Tourists, including new consumer groups.

3. Tourism industry: the main conditions, objectives and principles of development based on the identified tourism trends.

International tourist flow in terms of the number of international tourist arrivals (overnight visitors) around the world increased from 952 million (2010) to 1461 million (2019). (China) The active dynamics of the development (growth) of international inbound tourism confirms the forecast estimates of its continuous growth for the coming years (until 2030) - Fig. 1.



Figure 1. Number of domestic vs. inbound tourist arrivals in China during 2004-2018. Note: Data were derived from the National Bureau of Statistics of China.[1]

Growth has continued in all regions of the world for 10 years (the average growth rate is 5%, the growth rate of tourism exceeds the growth rate of the economy)[2], but in 2019, again, as in 2014 and 2016, the growth rate is reduced tourist flow up to 4%. An indicator of the sustainability of the tourist flow is the rapid recovery of growth rates (for example, the loss of the rate in 2014 to 4% was replaced in 2015 by the increase to 5%, and the loss of the rate in 2016 to 4% was replaced in 2017 by the increase to 7%).

